



TURKIY ADABIYOT  
DURDONALARI

JO'SHQIN  
DARYOLAR

73



# JO'SHQIN DARYOLAR



“O‘ZBEKISTON”  
TOSHKENT — 2022

UO'K 821.512.122-3

KBK 84(5Qoz)

J 96

**Tahrir hay'ati:**

Xayriddin Sulton – hay'at raisi,  
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,  
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,  
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

**Ishchi guruh:**

Ikrom Bo'riboev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,  
G'ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

**To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:**

**Tursinali Ahmedov**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lami, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

**Abdulla Qodiriy nomidagi**

**viloyat AKM**

**INV № 2023/29-48**

ISBN 978-9943-8734-0-7

©"O'zbekiston" nashriyoti, 2022

## ALASH SHIORLI ADABIYOT

(mualliflar haqida)

Qo'lingizdagi to'plamga sara she'riy asarlari kiritilgan qozoq shoiri, faylasuf, kompozitor, tarjimon Shokarim Xudoyberdiyev 1858-yili 24-iyun kuni hozirgi Abay viloyati, Abay tumanidagi Kengbuloq degan joyda tug'ildi. Bolalikdan yetimlik qismatini ko'rgan shoir amakisi Abay Qo'nonboyevning tarbiyasida o'sgan.

Bu esa Shokarimning dunyoqarashi shakllanishida, shoirlik mahoratining oshishida katta ta'sir ko'rsatdi. U rus, arab, fors, turk tillarini o'rgandi. Shoir G'arb va Sharq adabiyotini ham yetuk darajada bilgan.

Shokarim Xudoyberdiyev yetti yoshidan she'r yozishni boshlab, hayotining oxirigacha ma'rifatparvarlik yo'nalishida ijod qildi. Abayning yangicha dasturini rivojlantirib, undan keyingi ikkinchi realist shoir darajasiga ko'tarildi. Shokarim ijodi turfa xilligi bilan ajralib turadi. "Yoshlarga", "Yoshlik haqida", "Qarilik haqida" she'rlari Abay yaratgan an'analar asosida yozilgan. "Umr", "Aniq oshiq avliyo", "Chin sirim", "Armon", "Nasihati" kabi she'rlarini ham alohida e'tirof etib o'tish zarur. U og'zaki adabiyotning, improvizator shoirlar poeziyasining yozma adabiyotga o'tishida, qozoq adabiyotida lirik janr turlarining rivojlanishiga, ulardagi mazmunning hayot bilan yaqinlashuviga ko'p hissa qo'shgan. "Qalqaman — Mamir", "Yenglik — Kebek", "Nartaylaq — Oysuluv" dostonlarini, "Odil — Mariya" romanini yozgan.

1905-yili haj safari chog'ida Istanbul, Parij shaharlarida ham bo'lib, u yerlardagi kutubxonalardan o'z xalqi hayotiga bog'liq kitoblarni o'qib, o'rganadi. Ushbu yig'ilgan materiallar asosida "Turk, qirg'iz ham xonlar shajarasi" kitobini, "Musulmonlik sharti" asarini yozdi. Rus va g'arb adabiyoti namunalarini tarjima qilib, qozoq kitobxonlariga tanishtiradi.

Shokarim Xudoyberdiyevning ijodi g'oyaviy jihatdan demokratik, xalqchil, gumanistik-ma'rifatparvarlik yo'nalishida edi. Ushbu jihatidan u XX asrning boshidagi taraqqiyparvar qozoq ziyolilari bilan hamnafas bo'ldi. Alashorda arboblarning faoliyatini yuksak baholadi. Qozoq adabiyotidagi Abayning realistik an'analarini davom ettirib, epik janrlarning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Taniqli qozoq shoiri, publitsist, olim Ahmad Boytursunovning she'rlari va tarjima asarlari ham ushbu to'plamdan joy oldi. U 1872-yili 5-sentabrda hozirgi Qo'stanay viloyati, Jangeldin tumanidagi Saritubek ovulida tug'ildi. To'qqiz yoshidan ovul maktabida, keyin esa To'rg'aydagi maktabda tahsil oladi. Uni 1891-yilda tugatgach, Orenburgdagi 4 yillik maktabga o'qishga kiradi. 1895-1909-yillarda Aqto'be, Qo'stanay, Qarqarali tumanlari maktablarida o'qituvchi, Qarqarali shahar maktabi mudiri bo'lib ishlaydi.

Ahmad Boytursunov 1905-yilda Qarqarali shahri yaqinidagi Qo'yondi yarmarkasida yozilgan va 14500 kishi imzolagan "Qarqarali petitsiyasi"ning mualliflaridan biri edi. O'shandan beri jandarm nazoratida bo'lgan. 1909-yil 1-iyulda yolg'on ayblovlar bilan hibsga olindi va Semipalatinsk turmasiga qamaldi. Rossiya Ichki ishlar vazirligi maxsus kengashining uni qozoq viloyatlaridan tashqariga surgun qilish to'g'risidagi qaroriga muvofiq u 1910-yil 9-martda Orenburg shahriga keladi. 1913-1918-yillarda shu shaharda eng yaqin ishonchli do'stlari Aliخان Bo'keyxonov, Mirjaqip Dulatov bilan birga, shuningdek, boshqa qozoq ziyolilarining ko'magiga tayanib, ilk umumxalq bosma nashri "Qozoq" gazetasini chiqardi. Keyinchalik Alash partiyasi va Alashorda hukumati tarkibida faoliyat olib boradi. 1920-1921-yillarda Qozog'iston Xalq maorifi komissari lavozimida ishlagan. 1922-yildan boshlab hayotining oxirigacha ilm-fan va maorif sohasidagi turli lavozimlarda faoliyat olib bordi.

1929-yil 2-iyun kuni "Alash" harakatining 43 nafar a'zosi bilan birga Olmaotada hibsga olinadi. 1934-yilda rus yozuvchisi Maksim Gorkiyning yordami bilan ozodlikka chiqib, oilasi bilan

Olmaotaga qaytib keladi. 1937-yil 8-oktyabr kuni yana hibsga olingan va 8-dekabr kuni otib tashlangan.

Ahmad Boytursunov ijodini she'r yozishdan boshlagan. Shoirning ilk she'rlari "Qirq masal" tarjimalar to'plamida 1909-yili Sankt-Peterburgda nashr etilgan. Uning 1911-yili nashr qilingan ikkinchi kitobi "Masa" ichki motivlari va o'y-fikrlari, so'zni qo'llash usullari bilan qozoq she'riyatiga o'ziga xos yangilik va o'zgarish olib keldi. Uning ko'pgina she'rlari o'sha davrdagi ma'rifatparvarlik yo'nalishi bilan hamohang edi. U Abay boshlab bergan va shakllantirgan an'analarni, gumanistik va demokratik yo'nalishdagi g'oyalarni o'ziga xos tarzda davom ettirdi. "Qozoq salti", "Qozoq qalpi", "Do'stinga xat", "Yiqqan-tergan", "Tilak-fotiham", "Yovga tushgan jon so'zi", "Bog'" va yana boshqa she'rlari bor. Xalq og'zaki adabiyoti namunalarini to'plash va nashr etish ishlariga hamda badiiy tarjima sohasiga ham katta hissa qo'shdi.

Uning adabiyot sohasidagi ilk tadqiqot ishi 1913-yilda "Qozoq" gazetasining uch sonida chop etilgan "Qozoqning bosh oqini" nomli katta hajmdagi maqolasi bo'lib, u Abay Qo'nonboyevga bag'ishlab yozilgan edi. 1926-yili nashr qilingan "Adabiyot tanitgich" nomli kitobi esa qozoq tilidagi ilk fundamental ilmiy-nazariy asar sifatida tarixda qoldi.

Ushbu to'plamga she'rlari va ilk qozoq romani sifatida e'tirof etilgan nasriy asari kiritilgan qozoq shoiri, yozuvchi, dramaturg, publitsist Mirjaqip Dulatov 1885-yili 21-noyabrda hozirgi Qo'stanay viloyati, Jankeldin tumanidagi Qizbel ovulida tug'ildi. Yoshligida yetim qolib, akasi Asqarning qaramog'ida ulg'ayadi. Dastlab qishloq mullasidan xat tanib, Ibray Oltinsarin ta'sirida 1897-yilda To'rg'aydagi maktabga o'qishga kirdi va u yerda besh yil o'qib, qishloq maktabi o'qituvchisi degan guvohnoma oldi. Olti-yetti yil qishloq maktablarida bolalarga dars beradi.

U 1904-yili Omsk shahriga borib Ahmad Boytursunov va Aliخان Bo'keyxonov bilan uchrashdi. Omsk, Qarqarali, O'rol, Sankt-Peterburg shaharlaridagi milliy-demokratik harakatda faol ishtirok etadi. 1905-1907-yillarda Zaysan uezdida maktabda dars bergan. 1907-yilda Sankt-Peterburgda yagona soni chiqqan

“Serke” gazetasida uning “Yoshlarga” she’ri chop etiladi. Birinchi she’riy to‘plami 1909-yilda Qozon shahridagi “Sharq” nashriyotida “Uyg‘on, qozoq!” nomi bilan chop etiladi. Bu to‘plamning qozoq kitobxonlari orasida ta’siri juda kuchli bo‘ladi. Qozoq adabiyoti tarixidagi ilk roman sifatida e’tirof etilgan “Baxtsiz Jamol” asari 1910-yilda Qozon shahridagi Karimovlar bosmaxonasida chop etiladi. Bu vaqtda u nazm va nasr janrlarida birdek ijod qiladi. Qozoq nashrlari, xususan, “Ayqap” jurnali uchun muntazam ravishda maqolalar yozadi.

1912-yili Orenburg shahriga keladi va Ahmad Boytursunov bilan birga dala o‘lkasining ma’rifatparvarlik-demokratik yo‘nalishdagi birinchi norasmiy nashri — “Qozoq” gazetasiga asos soladi (1913–1918-y.). 1918–1920-yillarda Toshkentda “Aq jol” gazetasida ishlaydi. 1922–1926-yillarda Orenburgdagi Qozoq xalq ta’limi institutida o‘qituvchi, Qozog‘iston davlat nashriyotida bo‘lim mudiri, “Yenbekshi qozoq” gazetasida muharrir yordamchisi bo‘lib ishlaydi. Shu yillarda Mirjaqip Dulatov “Balqiya” nomli to‘rt pardali pyesa yozgan. Bu asarni o‘sha paytda qozoq teatri repertuarining ilk asoslaridan biri deyish mumkin. Uning “Toza buloq”, “Shikoyat”, “Mung”, “Armonim”, “Sirim”, “Toliqqan ko‘ngil”, “Xayol”, “Tong” kabi she’rlari esa nozik lirika bilan sug‘orilganligi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, u jurnalistika va tarjima sohasida ham faoliyat olib boradi. Qozog‘istonning taniqli jamoat arboblari haqidagi ocherk va hikoyalari, tarixiy mavzudagi maqolalari o‘sha paytda rus va tatar nashrlarida chop etilgan. “Abay”, “Xon Abilay”, “Qozoq shoiri”, “Hazrati Sulton”, “Ahmad Boytursunovich Boytursunov” va boshqa fundamental tadqiqot-maqolalarini yozgan. 1928-yilning oxirida ko‘plab qozoq ziyolilari qatorida qamoqqa olinadi. 1930-yili dastlab o‘lim jazosiga hukm qilinib, keyinroq bu jazo 10 yillik qamoq bilan almashtirilgan. 1935-yil 5-oktyabr kuni qamoq lageri kasalxonasida og‘ir kasallikdan vafot etdi.

To‘plamga she’riy asarlari kiritilgan qozoq adibi, dramaturg, tarjimon, tadqiqotchi, publitsist Jusipbek Aymaitov 1889-yili hozirgi Pavlodar viloyati, Bayanovul tumanidagi Qiziltog‘ ovulida tug‘ilgan. 1914-yili Pavlodardagi maktabni, 1918-yili esa Semipa-

latinsk o'qituvchilar seminariyasini tugatgan. 1911–1914-yillarda qishloqda o'qituvchi, 1919–1922-yillarda Xalq maorifi komissarligi hay'ati a'zosi, Semipalatinsk guberniyasi o'quv bo'limi boshlig'i, "Qozoq tili" gazetasi muharriri bo'lib faoliyat yuritgan. 1922–1924-yillarda Qarqaralida o'qituvchi, 1924–1926-yillarda Toshkentdagi "Aq jo'l" gazetasida adabiy xodim, 1926–1929-yillarda Chimkent pedagogika texnikumi direktori lavozimida ishlagan. 1929-yili yolg'on ayblov bilan hibsga olinib, 1931-yilda otilgan.

Jusipbek Aymautovning ijod yo'li 1910-yilda boshlandi. Dastlabki hikoya va maqolalari "Qozoq", "Sariarqa" gazetalarida, "Abay" jurnalida chop etilgan. Jahon adabiyotidan ko'pgina asarlarni qozoq tiliga tarjima qilgan. Pedagogika, psixologiya, metodika, estetik tarbiyaga oid kitoblar yozgan. U adabiyot, estetika, tanqidchilik sohalari bilan shug'ullangan, ko'plab publitistik maqolalari e'lon qilingan. "Qartxo'ja", "Oqbilak" romanlari, "Kunikeyning aybi" qissasi, "Sherniyoz", "El qo'rg'oni", "Mansabparastlar" pyesalari, "Mag'jonning oqinligi haqida" adabiy-tanqidiy maqolasi — serqirra ijodkorning qozoq adabiyoti tarixida o'z o'rniga ega asarlaridir.

Muxtor Auezov bilan birgalikda 1918–1919-yillarda Semipalatinskda "Abay" jurnalini nashr qilgan. "Ikkov" taxallusi bilan, M. Auezov bilan birgalikda "Abay hayoti va faoliyati" (1918, №2), "Abaydan keyingi shoirlar" (1918, №3), "Tarjima haqida" (1925), "Shunqor qo'shig'i" (1925) maqolalarini yozgan. Shuningdek, teatr, musiqa, san'at tarixiga oid ko'plab maqolalar yozgan. Uning pedagogika, psixologiya va metodika sohasidagi yirik asarlari o'z davri uchun muhim o'rin tutgan.

Qo'lingizdagi to'planning gultoji — qozoq adabiyotining atoqli namoyandasi, shoir Mag'jon Jumaboyevning asarlari ekanligini, albatta, alohida ta'kidlab o'tishimiz zarur. Mag'jon (Abulmag'jon) Bekeno'g'li Jumaboyev 1893-yilning 25-iyun kuni hozirgi Shimoliy Qozog'iston viloyati, Mag'jon Jumaboyev tumanidagi Sassiqlik ko'l ovulida tug'ildi. U ovul mullasidan dars olib, 1905–1910-yillarda esa Qiziljar (Petropavlovsk)dagi madrasada o'qigan. 1910–1913-yillarda Ufadagi "G'aliya" madrasasida tahsil olgan. Tatar yozuvchisi Galimjon Ibrohimovdan 1912-yilda



dars oladi va uning yordami bilan Qozondagi Karimovlar bosmasida ilk she'riy to'plami "Sho'lp'an" nashr etiladi. "Sadaq" jurnalini chiqarishda qatnashib, unda she'rlarini chop ettiradi. 1913–1916-yillarda Omsk o'qituvchilar seminariyasida o'qigan. "Balapan" qo'lyozma jurnalini nashr etish ishlariga yordam beradi.

Alixan Bo'keyxonov, Ahmad Boytursunov, Mirjaqip Dulatov kabi arboblardan uchrashib, "Qozoq" gazetasida she'rlarini e'lon qilgan. 1918–1919-yillarda Petropavlovsk uezdining zemstvo boshqarmasida, 1919–1923-yillarda Oqmola guberniyasining "Bo'stonliq tug'i" gazetasida, Toshkentda nashr qilingan "Sho'lp'an", "Sana" jurnallari, "Aq jo'l" gazetasida ishlagan. O'sha davrda "Botir Bayan" dostonini yozib, nashr ettiradi.

Mag'jon Jumaboyev 1923–1927-yillarda Moskvadagi Oliy adabiyot va san'at institutida o'qigan. Moskvada o'qib yurgan kezlarda uning asarlari nohaq tanqid qilindi. 1927–1929-yillarda Buraboyda, so'ng Qiziljarda o'qituvchi bo'lib ishlagan. 1929-yilda Mag'jon Jumaboyev yolg'on ayblovlar oqibatida 10 yilga surgun qilingan. 1936-yilda Maksim Gorkiyning vasiyligi bilan muddatidan oldin ozod qilinadi, Qozog'istonga qaytib keladi va Petropavlovskdagi maktabda rus tili va adabiyotidan dars beradi. 1937-yil mart oyida Jumaboyev Olma-otaga keldi va tarjimon bo'lib ishladi. 1938-yilda u yana hibsga olindi va otuvga hukm qilindi. 1938-yili 19-mart kuni hukm ijro etiladi.

Mag'jon Jumaboyev — faylasuf shoir. U o'zining "Qo'rqit" dostonida falsafaning azaliy mavzui — hayot va o'lim masalasini Qo'rqit va uning ta'qibchisi ajal orqali tasvirlaydi. U "O'qyetmasning qiyasida", "Qo'yliboyning qo'bizi", "Yolg'on ertak", "Chin ertak" kabi asarlarida shaxs va millat taqdirini dramatik syujet, yuksak badiiy quvvat bilan kuylay olgan. Mag'jon Jumaboyev "Sho'lpanning gunohi" qissasini yozish orqali qozoq adabiyotiga psixologik tahlil va ong oqimi usullarini kiritdi.


**Tursinali Ahmedov,**

*O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi*

# SHOKARIM XUDOYBERDIYEV



(1858–1931)



## YOSHLIK HAQIDA

Gavharday ko'zi,  
Bulbulday so'zi,  
Jondan ortiq bir pari.  
Yuzi bir oyday,  
Minazi moyday,  
O'zganidan go'zal shul yeri.  
Dariyoday aql mo'l edi,  
Jon oshig'im shul edi.

Ujmohning huri,  
Izladim shuni,  
Tol bo'yining kiri yo'q,  
Bo'ylari simday,  
Beli bor qinday,  
A'zolar a'lo mini<sup>1</sup> yo'q.  
Qiz shunchalar bo'larma,  
Uni so'kkan o'ngarma?

Jovdirab ko'zi,  
Tomchilab so'zi,  
Ipakday so'chin tarasa.  
Qolmaydi holing,  
Chiqadi joning,  
Qiyg'ochday ko'z-la qarasa.  
Bul dunyoda qiz qiziq,  
Bo'z bolada o'y buzuq.

Simobday to'lqib,  
Tulkiday yo'rtib,

---

<sup>1</sup> **Min** — ayb, kamchilik.

Ketadi ko'ngil har yoqqa.  
Qironday qoqib,  
Olmasday oqib,  
Murodin tugal olmoqqa.  
Er talabi bo'sh qolmas,  
To'lqinli ko'ngil to'xtalmas.

Chiroying qochib,  
Oshiqib-shoshib,  
Qiz uchun tunda kezganda.  
Bor molni solib,  
Ro'zg'ordan qolib,  
Serilar uydan bezganda.  
Boqmasdan uyat-oringga,  
Joningni bag'ishla yoringga!

Oqselev<sup>1</sup> minib,  
Qilangdan<sup>2</sup> kiyib,  
Qaragan jonga ko'rinmay.  
Izlanib yorni,  
Fido qip jonni,  
Olis deb ovul erinmay,  
Epchil bir yo'ldosh yonga olib,  
Ov ko'rgan lochin boshlanib.

Ovulni borlab,  
Atrofni chorlab,  
Borishga to'g'ri shasht olmay.  
Mo'ralab boqib,  
Yuraging qoqib,  
Dalada chidab yotolmay.  
Borib kel deb yo'ldoshga,  
Bir xabar olib bo'lmasmi,

---

<sup>1</sup> **Oqselev** — oq selin, cho'l o'simligi.

<sup>2</sup> **Qilang** — oq, bo'z.

Ship etib yo‘ldosh,  
Dibisi<sup>1</sup> bo‘lmas,  
Sur ilonday shuvillab,  
Ilashmay ko‘zing,  
Akalar so‘zin,  
Turimtoyday qutinglab:  
“Tilayman tilak bersin”, — deb,  
“Er bo‘lsa uyga kelsin”, — deb.

Bo‘ldi deb qiyin,  
Yengillab kiyim,  
Chir aylanib urchug‘day.  
Ep bilan borib,  
Ixlosin solib,  
Sichqon ko‘rgan mushukday.  
Kirsang ergashib eshikdan,  
Bo‘lmasa yonbosh teshikdan.

Bo‘z uyga kirib,  
Bo‘g‘ining qurib,  
Yoringning borsang qoshiga.  
Sipalab yurib,  
To‘shagin bilib,  
Tekkanda qo‘ling boshiga.  
Aqling ketib, qolar jon,  
Oshig‘ing anglar shu zamon.

Qo‘lidan tortib,  
Bilagin ortib,  
Oq tomoqdan “sho‘lp” etib,  
Bor vujud erib,  
Tilingni berib,  
Jisming qoladi es ketib.  
Eh, dunyo aytgin sen menga,  
Aqlga shunda kim ega?

---

<sup>1</sup> Dibilis — ovoz.

Esingni yig'ib,  
Iskalab suyib,  
Shundayam ko'ngling bosilmay,  
Tilakni olib,  
Orzular qonib,  
Quyulib kelgan lochinday.  
Lazzat olib armonsiz,  
To'shinda yotsang darmonsiz.

Tong kelsa quvib,  
Bo'y ketar suvib,  
Yana bir kelam deb,  
"Xush qol, ey erkam" deb,  
Falon kun kutgin deb,  
"Kelmasang o'lam" deb,  
Bo'lmadi deb tong uzoq,  
Shu bo'lar qayg'ung yolg'iz-oq.

Qisilip tongdan,  
Oqarib qolgan,  
Yotmoqqa bo'lmas joylashib.  
"Xayr!" deb yorga,  
Amaling borma,  
Qaytmoqqa endi shaylanib.  
Yotayin desang tong qiyin,  
Tashlayin desang yor qiyin.

Bo'z uydan chiqib,  
Do'ng oshib buqib,  
Ergashtirib yoringni.  
Xayrlashib olib,  
Ovloqqa borib,  
Oshiqqa aytib zoringni.  
Ketsang tongdan turolmay,  
Yorug'ga hiyla qilolmay.

Chiqqan so'ng belga,  
Ko'z solsang elga,  
Haliyam turar yoringiz.  
Yo'ldoshga aytib,  
Ot boshin tortib,  
Yugurib qayta boringiz,  
Bir suyub olib tomoqdan,  
Oshasan ozor shu tog'dan.

### QARILIK HAQIDA

Bor bo'lsa bilim,  
Sen so'yla, tilim,  
Jon bilan tana birinda.  
O'ylasang, ko'ngil,  
O'zingga yengil,  
G'ayrating butun kuningda.  
Yosh ko'ngilda yorug' bor,  
Qarida kamlik aniq bor.

Ne chiqmas yoshdan,  
Qaytmaydi toshdan,  
Izlanmoqqa kuchi bor.  
Sayronlab yurib,  
Xunukni bilib,  
Qolipsiz qiziq ishi bor.  
Yoshlikda qiziq ish bo'lmas,  
Qarida aql, hush bo'lmas.

G'ayrating qolib,  
Aqldan tonib,  
Qarilik kelsa boshingga,  
Qadring ketib,  
Zamoning o'tib,  
Jon kelmaydi qoshingga.

Qarilik degan yumush bor,  
Ortingda tayov bir ish bor.

Ozayib kuching,  
Shavdirab tishing,  
Shalvarday bo'lib bet ketsa.  
O't boshin bermay,  
Uy ichin ko'rmay,  
Suyaging qolib, et ketsa,  
Dalaga borib siya olmay,  
Kiyiming jo'nlab kiya olmay.

Uzayib murting,  
Taqillab urting,  
Tuzdagi quv bosh jag'lanib,  
Turolmay yotib,  
Bilchillab, chatib,  
O'tganni aytib maqtanib.  
Yorug'ing o'chib ko'ngildan,  
Qarilik yomon o'limdan.

Qizarib ko'zing,  
Ezilib so'zing,  
Yoshliging tushib o'yingga.  
Iyak-la chaynab,  
Tiling-la haydab,  
Yeganing yuqmay bo'yingga.  
Et yegan sayin qaqalib,  
O'limga borib taqalib.

Bukilib beling,  
Tovsilib holing,  
Oyoq va beling qurishib.  
"Qari it shod", — deb,  
"So'zlamay yot", — deb,  
Xotining ketsa urishib.



O'lmaganga qora yer,  
Unga ham o'zing boraver.

Qayg'u emas qazo,  
Bo'lmayman rizo,  
No'xtali boshga bir o'lim.  
Tug'ilgan — o'ladir,  
Taqdirga ko'nadir,  
Kimlarni olmas bul o'lim.  
Chol bo'lmay turib o'laylik,  
Alloh ishiga ko'naylik.

Qizuvsiz taning,  
Sezuvsiz joning,  
Bo'ladi qarilik belgisi.  
Uniyam sezmay,  
Umidin uzmay,  
Kelmaydi cholning o'lgisi.  
Oltmishdan nari bormanglar,  
Anglamay chol bo'p qolmanglar!

## YOSHLARGA

Keling, yoshlar, biz bir turli yo'l topaylik,  
Harom, hiyla, zo'rliqsiz mol topaylik.  
O'chmas umr, tovsilmas mol berguday,  
Bir bilimli donishmand jon topaylik.

Ol endi, unday bo'lsa, kimni olaylik,  
Qozoqda qay yaxshi bor — ko'z solaylik.  
Chin izlasak topamiz chin olimni,  
Kunda kuylayvermaylik bo'zbolalik.

Sog' bolaylik, bir cho'qib, bir qaraylik,  
Qorovullar bir mezigil, tur, qaraylik.

Yuz bor aytdim, o‘zganing bari nodon,  
Yalinaylik Abayga, yur, boraylik!

Bilimni shu kishidan o‘rganamiz,  
“Atayin izlab keldik sizga”, deylik.  
“Umr zoye bo‘lmasday hunar o‘rgat,  
Aqlingni hech ayama bizga”, deylik.

“Ko‘p quvga ko‘zlaringni suzma”, deylik,  
Uqmas deb, bizdan umid uzma deylik!  
Zolimlar qonun o‘rgatib adashtirdi,  
Bizni sol to‘g‘ri, ravon izga deylik.

Topgan ishga talashmay chin ko‘naylik,  
Yurtga kulgi bo‘lmasdan, jo‘nlanaylik,  
Haromlikda aldovda kun o‘tkazmay,  
O‘tirikka o‘lguncha, chinga o‘laylik!

Bul Abay savdogar-ku aql sotgan,  
Har turli asili ko‘p o‘tmay yotgan,  
Tekin bilsang — olasan bo‘sh beradi,  
Tengdoshida hech kim yo‘q buncha topgan.

Tengdoshlari quvlik va hiyla sotgan,  
Ulardan aldamchi deb ko‘ngli qaytgan,  
Endi bizga aqlini ko‘rsatmoqda,  
Oluvchi yo‘qmikan deb yoshlar yoqdan.

Olmasak, umid uzar tag‘in yoshdan,  
O‘lsak ham intilaylik ushbu boshdan.  
O‘tkizolmay eliga ketsa ko‘chib,  
Qolamiz asl tugil, igna olmasdan.

Qo‘y, o‘ylaylik chatilib, adashmasdan,  
O‘samizmi, Abaydan fotha olmasdan?

Abdulla Qodiriy nomidagi

2 - 22-356

viloyat AKM

INV No. 2023/29-48

— 17 —

Asl olsak, aslini ayamaydi,  
Keldi-ku o‘z eliga sotolmasdan.

Puli o‘tsa, umidi bor quvonmoqdan,  
Mehnatim yondi-ku deb yupanmoqdan,  
Abay ketsa, ushbu yerda kim qoladi,  
Ne topamiz nodondan so‘ranmoqdan?

Qo‘y, yigitlar, kun bo‘ldi o‘ylanarlik,  
Bilim, odat, aqlni uyga olaylik.  
Nodonlikdan maqtanib bo‘shga yursak,  
Manov zamon ko‘rsatar bizga tirlik.

O‘zing bilib birovga qilsang yorlik,  
Asl shu — aql, bilim bo‘yda borlik.  
Hiyla, o‘tirik, orsizlik — hunar emas,  
Men ham anovday bo‘lsam deb talasharlik.

Kattalarda minaz yo‘q talasharlik,  
Ularning qilgan ishi o‘g‘rilik, g‘arlik.  
Harom o‘yni aql deb ordan kechsang,  
Tubinda tortqizar-ku ul ham zorlik!

Manov Abay — bir olim yo‘l chiqarlik,  
Zamondoshi bo‘lmadi so‘z uqarlik.  
Amali yo‘q, aylandi endi bizga,  
Kun tug‘di etagiga yopisharlik.

Pul asili topilsa qo‘lga olaylik,  
Kishi emas eslatuvsiz bo‘sh qolarlik.  
Bizga boshchi har kuni topilmaydi,  
Kun bo‘lsa keyingida qo‘zg‘alarlik.

Aql, bilim shu kabi or yoqlarlik,  
Hiylasiz, o‘tiriksiz jon saqlarlik!

Uzil-kesil uyatsiz atanmasdan,  
Aql-la yo‘l topaylik el boshlarlik!

Shundayga qozoq bormi jon solarlik,  
Bilim, hunar, aql-la sanasharlik?  
Yurt olmasa aqlni biz olaylik,  
O‘zgaday nodon bo‘lmay adasharlik.

Bu elda tuk aql yo‘q yarasharlik,  
Rahm qilib, bir-biriga qarasharlik.  
O‘z Abayin o‘zlari yoqtirmaydi,  
Chin nodon ana shular biz qocharlik.

Manov yurtda minaz yo‘q o‘ylanarlik,  
Bizga ham zamon kelar saylanarlik.  
El ichida esar-bangi atalguncha,  
Uy topaylik yaxshi atoq boylanarlik!

Aql yo‘q bul qozoqda o‘yga yoqarlik,  
O‘zin-o‘zi tekshirib bo‘y sinarlik.  
“Bilim izla! Top!” — desa, kasal bo‘lar,  
Ko‘rsaqizar, ko‘zi ochiq bo‘sh xumorlik!

O‘ylanar vaqt bo‘ldi bosh qo‘sharlik,  
Dushman ko‘p endi bizga yo‘l to‘sarlik.  
Aritaylik ko‘ngilni haromlikdan,  
Aql o‘ylab, halolga qo‘l bo‘sharlik.

Miyada o‘y — tomirga yo‘l solaylik,  
Yurakka o‘y-la sinab oboraylik!  
Oq yurakning adolat qilgan ishin  
Qabullashga qiziqib qo‘zg‘alaylik!

Yarashimli minazni yodga olaylik,  
Jonga qasd yomonlikdan saqlanaylik!

Orsiz, g'iybat, o'tirik, insofsizlik,  
Bulardan bo'yni asrab oqlanaylik!

Osmonlab, oshavermay shahd olaylik,  
Adolat, nur, halollik yoqni olaylik!  
O'tirikdan qutilib, hunar topsak,  
Biz shunda "yetildik!" deb maqtanaylik!

Xush, endi, ko'p nodonning tilin oldik,  
Birimizga-birimiz balo soldik.  
O'y ham yo'q, uyat ham yo'q, kunda poylab,  
Yursak biz yoqalashib, ne topoldik?!

Harom aql o'rgandik hiyla amallik,  
Quvlik bilan o'tirikni saylab oldik.  
Insof, rahm, uyatdan yugan ushlab,  
O'zimiz eng tubinda ne topoldik?

Yugurdik, bahslar qildik, elni yordik,  
Bog'lovsiz, foydasi yo'q ish chiqardik.  
Bugun do'st, tong otganda dushman bo'lib,  
Maqtandik, mana men deb ot olarlik.

Tinim yo'q, tinch yurib bir mol boqarlik,  
Arz berdik bosh ketib, haydalarlik.  
"Endi bizga adolat ayta ko'r" deb,  
O'zimiz oxirinda qayda bordik?

Bu ishdan bo'yga maqtov kirdi tantiq,  
Har kimning holi bor deb shular angliq.  
G'oliblar yayradilar dovul qoqib,  
Mag'lubni yer bo'lgan otga tangdik.  
O'rtamizda o't yoqib, olov chiqdi,  
Ko'ra-tura quturib, kuyib-yondik.

Nega bunday? O'zimiz yarashaylik!  
Nodon bilan nega birga adashaylik?!

Yomon hiyla, yot minaz foyda bermas,  
Boʻydagi aybimizga qarashaylik!

Yomonlikni tashlashga un qoʻshaylik,  
Manov minaz qalay deb sinashaylik!  
Toʻp-toʻgʻri yuzimizga aytib-aytib,  
Achchiqlanmay, aql bilan chidashaylik!

Orsiz, harom hiylani tashlashaylik!  
Halol ishga qoʻl berib boshlashaylik!  
Ne boʻlsa ham bilimni izlab topib,  
Nodonlik-la biryoʻla qasdlashaylik!

Yolgʻon aytib, birovga yalinmaylik,  
Biz sira kattalarday qoqinmaylik,  
Nodonga oʻlsak hamki tobe boʻlmay,  
Oʻtirik, oʻsakka borib solinmaylik!

Rahm yoʻq, qanoat yoʻq, orsiz boʻlib,  
Yosh boʻyga, yomon atoq taqinmaylik!  
Toza oʻylab, totuvlik ishlar topib,  
Yov yoʻqda yovni sogʻinmaylik!

Boʻlmas ishga burtanglab tirishmaylik!  
Betga aytganning zahri yoʻq, urishmaylik!  
Koʻzga jilping koʻrishib, sirtga qilping,  
Orqadan oʻsak, gʻiybat qilishmaylik!

Soʻz bogʻlansak, vaʼdada turishaylik,  
Sirtimizdan yaxshilik qilishaylik,  
“Qochgan — yovdan qutilar” degan gap bor,  
Nodonlikdan jirkanib jilishaylik!

Bilmaganni bilishga tirishaylik,  
Yalqovlikni koʻngildan surishaylik!  
Boʻshga kulgan kulgidan ne foyda bor,  
Chin aqlga boʻyinni burishaylik!

Yaxshi bilim qayda bor — aniqlaylik!  
Topilmasa — toriqib, toliqmaylik.  
Sayoqlikni qo'yaylik, sog' bo'laylik,  
Bilmaganni kim bilsa, yor bo'laylik!

Olim ko'rsak — har ishni so'rashaylik,  
Undayga boshimizni qurashaylik,  
Shunday ishga g'amlanib biz o'zimiz,  
Bizga aql o'rgat deb kurashaylik!

Goho birga yuraylik, goh o'ynaylik,  
O'ynab-kulib, kechikmay o'y o'yaylik!  
O'yinimiz oz bo'lsin, o'yimiz ko'p,  
O'yni talab qilmagan ish qo'yamaylik!

Kunda ko'zlab minazni tekshiraylik,  
Hiylani aql demay, seskanaylik,  
Halolning yo'lida o'lsak, armon bormi,  
Haqni yoqlab chiqmoqqa qo'l beraylik!..

Bilimni nega bo'yga ko'p ko'raylik?!  
Haqdan topib, nasiba yeb ko'raylik.  
Ortiq aql o'ylanib topa olsak,  
Bizlar ham oluvchiga tek beraylik!

Aqlli shul — insof va or saqlaydi,  
Orsiz o'sha — haromlik-la jon saqlaydi.  
Halol o'sha — mehnat qilib, kunin ko'rib,  
Joni uchun odamchilik or sotmaydi.

Yolg'onchilar so'z aytsa, "sirim" deydi,  
Bilib qolsang, "bu ham bir qirim", deydi,  
"Qani aytib ko'ray deb aytgan edim,  
O'trigimni ko'rganmisan burun?" — deydi.

Nodonlar to'rt oyoqli molga o'xshar,  
Tomoq izlab sanqigan ovga o'xshar,  
O'z beti-la topguvchi hunari yo'q,  
Mehnatsiz, o'lik suyak jonga o'xshar.

Bularning holi ma'lum, ko'rding buni,  
Bo'lmaydi kimga zarar buning tubi?  
O'zlari birovini biri sotsin,  
Olmaylik biz qiziqib endi shuni!

Bir yurt yurar yolg'onni tug'day ushlab,  
Hiylasin ne qilamiz tutsa hovuchlab.  
Kuni burun undayga yaqinlashma,  
O'rin olib yurmasin yozlab-qishlab.

Hiyla o'rniga aqlli ish qilaylik,  
O'tiriklarning o'rniga chin ushlaylik!  
Yolg'on aytib, jon sotib, yalinmay-oq,  
To'g'ri yo'lda turib-oq tinchlaylik!

O'z akamiz aytsa ham unamaylik,  
Og'amizning so'zi deb tinglamaylik.  
O'rgatgani hunarmi, harakatmi, —  
O'zimiz o'rta olib, sinab ko'raylik!

Ular bizga o'rgan der quv bo'lmoqni,  
Va'dasiz, yolg'onchi bir suv bo'lmoqni.  
Siyaz sayin har kim bilan malollasshib,  
Kunda dov, kunda janjal,  
chuv bo'lmoqni.

Hunar qilma or sotib, yollanmoqni,  
Ulug' bo'lib, elni yeb, mollarimoqni,  
Birovni yeb, birovni topamizmi,  
Qachon yaxshi ko'rar edik aldanmoqni?



O'lsang ham unday so'zga quloq solma!  
Ordan kechib, aqldan quruq qolma!  
Otang tugul, katta bobong aytsa hamki,  
Bilimi yo'q nodonning tilin olma!

Quvlikni biz qilganda u qilmasmi?  
Bizga ham necha nodon yopirilmasmi?  
Hiyla, harom, orsizlik, insofsizlik,  
Bizga bor-u, o'zgaga topilmasmi?

Yomonlik gunoh bo'lib yozilmasmi?  
Halollik-la yiqqan mol boqilmasmi?  
Va'daboz bo'lgan jonlar o'la qolib.  
Yolg'onchilar Xudoga chaqilmasmi?

Maqtanmaylik hiyla bilan aldaganga,  
Nodon bo'lib o'xshamaylik hayvon, molga!  
Jon bitganning bariga yara solib,  
Jon saqlagan ne bo'lar yolg'iz tanga?!

Zolim kishi kirmaydi sira songa,  
Sinaydigan bir sinchi topilganda.  
Bilganlaring bit chaqqanchalik bo'lmas,  
Bor gunohing yig'ilib yopirilganda.

Or qayda? Rahm qayda? Odob qayda?  
Pit-shit bo'p yuramizmi ovloq joyda?  
Ko'z yumib, "Ko'p bilan ko'rgan ulug' to'y" deb,  
Berarmi bu nodonlik kimga foyda?

Bilimliga bilimsiz bo'ysunmasmi?  
Izlagan bandaga yo'l topilmasmi?  
Haqni qo'yib,  
haromni odat qilsak,  
Do'zaxda tana o'zi yoqilmasmi?

Ajal o‘qi bir kuni otilmasmi?  
To‘g‘ri kelsa til tortmay qotirmasmi?  
“Alxilla assalata janoza” deb,  
Oq kafanga o‘ralib yotilmasmi?

Qay banda yo‘liqmaydi, o, shundayga?  
Shuni o‘ylab, yuraklar cho‘chinmayma?  
“Dunyoda ne qilding, ne qo‘yding” deb,  
Olding ham necha joyda to‘silmasmi?

Yotmaylik yalqovlanib hamma joyda,  
O‘ylanaylik, nima bor jonga foyda?  
Qolmaylik keyingilar uvoliga,  
Shunda ma‘qul bo‘lamiz bir Xudoyga.

Ba‘zilar bor o‘tirikni qalqon qilib,  
Haqni qo‘yib, haromga ko‘ngil burib,  
Chopqillaydi quv, bilgich ot olay deb,  
Bir balo chiqaradi qarab turib.

Birovi biroviga qopqon qurib,  
Anglovsizda ketay der bir tushirib.  
Bila tura qiladi u ham qiliq,  
Oyog‘i sog‘ jon qolmas shuytib yurib.

Maqtanadi yetilgan kishi bo‘lib,  
Quvliqqa qolibman deb naq osilib.  
“El minazi qolimda sanovli” der,  
Odam bilgan hiylani o‘zi bilib.

To‘xtalgan bir banda yo‘q qiri sinib,  
Bo‘yniga abdon olgan shayton minib.  
Aytib ko‘r, “quv ana” deb,  
jilpanglaydi,  
Shunga izza tortasan ichdan tinib.

Haromlikka ketar yurt xo‘b intilib,  
Ko‘pdan beri barini Xudoy urib.  
Bilmaganlar bilganning tilin olmay,  
Bari birday chuvlaydi itday hurib.

Biri ketsa yolg‘on aytib bir qutilib,  
Biri yurar hiyla bilan uzib-yulib.  
Erta — bir kun ikkovi ham qo‘lga tushar,  
Kaltaklangan tulkiday dumin burib.

Haromlikdan chiqadi kim sitilib?  
Bir yeliksa, ketadi dim qutirib.  
“Yiqilgan jon kurashga to‘ymas” degan,  
Karta o‘ynagan kishiday kunda utilib.

Abay yurar shuni mazax o‘lan qilib,  
Birovi uqarmi deb ko‘zi ochilib.  
Bizga ham bir ozroqday aytgani bor,  
Qiljang-tirjang qilma deb bo‘shga kulib.

So‘z bilan, o‘lan bilan saboq berib,  
Olsin deb keraklisin o‘zi terib,  
Chipqonimni ezganday chiqdi jonim,  
Aytganda eshitganlar o‘qib kelib!

Chu degandan bu so‘zi jonga botdi,  
Burun hech olmagandim yomon otni.  
Qayrilmasdan, qoqmasdan o‘sgan boshim,  
Sapchidim asov otday bo‘yni qattiq.

Eshitgandan yuragim tugun otdi,  
Shu tugun tinchlik bermay ko‘p o‘ylatdi.  
“Nega buncha qattiq aytdi?” — deb o‘ylasam,  
O‘lanining sirti achchiq, ichi totli!

Joni achib yaxshi so‘qmoq tozalabdi,  
G‘ayratlansin, bilsin deb yo‘l-yo‘llabdi.

Maqsad qilsin, yugansiz ketmasin deb,  
Qattiq so‘z-la qayirib — qamalabdi.

Endi o‘yladim g‘ayratga minayin deb,  
Bilimlining qadrini bilayin deb.  
Aqlli so‘zlarining barin olay,  
Talab bilan tuzuk yo‘lga kirayin deb.

Intildim belni mahkam bog‘layin deb,  
Yurakni halollik-la yuvayin deb,  
Maqsad sari talpingan mahrum qolmas,  
Ketdim men ilm yo‘lidan yurayin deb...

### **YOZ KELAR, QISHNING KUNI ZULM O‘TIB**

Yoz kelar, qishning kuni zulm o‘tib,  
Qor, sovuq, ayoz, bo‘ron — bari ketib.  
Qoshiqday qor, to‘biqday to‘ng qolmaydi,  
Bir Xudo barcha jonga rahm etib.

Yetayin deb kenglikka yosh bolalar,  
Yugurar qirdan o‘yga dubirlashib.  
Chol-kampir kunchuvoqlab ko‘ngli shodon,  
O‘tgan kun, umrin aytib gubirlashib.

Bo‘ta, qulin, buzoqlar, qo‘zi tug‘ilib,  
Quvonib o‘ynamoqda ular o‘sib.  
Shundayam odam ko‘zi bir to‘ymaydi,  
Xudoyim bersa hamki shuncha nasib.

## ARMON

Yoz chiqib yomon kunlar yo‘qolganda,  
Tol gullab, cholg‘in-maysa o‘sgan onda.  
Kelbanglab, maysazorda gurullashib,  
O‘roqchi pichan chopib, cho‘p olganda.

Buldirgan, qaraqatni<sup>1</sup> teramiz deb,  
Qiz-kelinchak soy-soyga yo‘qolganda.  
Ovloqda xumorimni qondiray deb,  
Oshig‘i izlab borar shu tomonda.

Ularga tol — chimildiq, maysa — to‘shak,  
Boshiga yostiq qilar to‘mordan-da.  
Ko‘z tushib, ko‘ngil to‘lmoq bandada yo‘q,  
Bo‘ladi ayrilgan so‘ng shu-da armonda.

Sanayversang, odamning ko‘pi armonda,  
“Kamchiliksiz baxt, sonsiz davlat...” deb armonda.  
Tirik jonni yalmashga kuch ham kerak,  
Hiylakashga aldovchi ep armonda.

It va qarga, cho‘chqaga b.. armonda,  
Merganga tuzuk miltiq, o‘q armonda.  
Mechkay, ochko‘z, topishsiz giriftorga,  
Yolg‘iz kuni tomoqning to‘qi armonda.

Yalang‘ochga kiyimning yo‘qi armonda,  
To‘ng‘anga o‘tin bilan cho‘g‘ armonda.  
Mehnat qilsa — topardi shuning barin,  
Mol yog‘sinmi ularga yuqoridan-da?!

Yoshlikni eslab, kampir va chol armonda,  
O‘sib katta bo‘lsam deb bola armonda.

---

<sup>1</sup> Mevali o‘simlik nomi.

Erkakdek erkin umr surmadik deb,  
Ayollar ham bo'ladi yana armonda.

Barcha jonga baxt bilan mol armonda,  
O'g'riga yugruk otning yoli armonda.  
Yerning yuzin yesa ham ko'zi to'yamaydi,  
Podsholar ham yuradi hali armonda.

Tannozga ko'ylagining soni armonda,  
Xastaga yolg'iz chivin joni armonda.  
Kekkaygan, laganbardor, kunchillarga  
Yutishga dushmanining qoni armonda.

Baholasam, odamning bari armonda,  
Sanayversam topilar son armonda.  
O'zi bilmas, bilganning tilin olmas,  
Aniq o'ylab qaragam, ana, armonda.

## YIGIRMA UCH YOSHIMDA

Yigirma uch yoshimda  
Yozilgan she'r ushbu.  
Topilmay boshida  
O'ziga loyiq kuy.  
Mungli, xasta, yesir bo'p yotdi,  
Eh, sal-pal o'ylanib,  
kuyin ham topdik-ku!

Baxtsiz yuragim  
Porlaydi, yonadi.  
Umidvor tilagim,  
Umidsiz qoladi.  
Aql, g'ayrat, sabrning bari ketib,  
Adashgan oshiqni ming ko'yga soladi.

Ko'zimga ko'rinding  
Ochilmas sho'ringa-ay,  
Payqamay ilindim  
Sehrli to'ringga-ay.  
Jodu ko'zing boshimni aylantirib,  
Qurboning deb chalding yoringni yo'lingga-ay.

Ketmasday shu'la bor,  
Yurakda nuring  
Ul nega yo'qolsin  
Ayrilmam mungim.  
Qaraqatday ko'zing-la qiziqtirib,  
Ushlading jonimni tuzoq qip tulumdan<sup>1</sup>.

Qadalib qaraydi  
Tikilib menga yor.  
Yurakdan taraydi  
Shul sabab mungli zor.  
Yuzin ko'rmas ekanman — o'lsam netti?  
Endi yo'q jonimda yonmasga ixtiyor.

Nuringdan nur olib,  
Osmonda yorug' oy,  
Keladi qo'zg'alib,  
Yaqinlab, hoynahoy.  
Ayamading o'lar deb men g'aribni,  
Mehrsiz go'zal-a rostini ayt,  
bul qalay?

O'rtanib yondi ichim,  
Aql yo'q bo'yimda  
Ketsang ham, mahvashim,  
Surating bor o'yimda.  
Nurli yuzing ta'riflab zorlanayin,  
Aytayin olamning istagin to'yimda!

---

<sup>1</sup> **Tulum** — qiz bolaning o'rib bo'lmaydigan qisqa sochi.

Ipakday, qop-qora,  
Taralgan soching bor.  
G'uborsiz, top-toza  
Yaralgan boshing bor.  
Qorday oppoq, ajinsiz manglaying keng,  
G'ilofdan sug'irilgan xanjarday qoshing bor.

Kipriging tizilib,  
Miyamga qadalar.  
Nur ko'zing suzilib,  
O'yimga ot solar.  
Sehr yuzing aqlni boylab olib,  
To'r soching chirmashib boshimni no'xtalar.

O'pay deb bir navbat,  
Keldi jon og'zimga.  
Sezaman xosiyat  
Og'zing shu zumda.  
Farmoning ayt, chiqsinmi va yoki qaytsinmi,  
Yo'lingga qurbon jon chidaydi o'limga.

Kun botdi, yo'qoldi  
Nuringdan uyalib,  
Yulduz va oy qoldi  
Shu'langdan nur olib.  
Yetti qaroqchi aylanib seni  
Bari ham seni o'ylab, mast bo'lib shaylanib.

Hulkar va Tarozi  
Sochildi osmonda,  
Cho'lpon ham qaradi  
Xumorin bosmoqqa.  
Temirqoziq arqonlab qo'shbo'z otin,  
Yaratib, o'yi bor to'yingga qo'shmoqqa.

Tong otdi bo'zarib,  
Yo'qoldi yulduz, oy,



Chidasin ne qilib,  
Es oqib yiqilmay.  
To'yga kelgan tong yeli shivirlab,  
Qo'shiqlar kuylaydi chirillab bo'zto'rg'ay.

Yuzingni ko'rgali  
Kun chiqdi qaytadan,  
Bir ko'rib, o'lgali  
Intildi sen tomon.  
Bulut parda burkanib, mo'ralar,  
Ko'z yoshi yomg'ir-ku,  
                    oshiq bo'p yig'lagan.

Gul bilan chayqalib,  
Bulbullar sayraydi,  
Yo'rg'a suv taypanib,  
Buranglab yayraydi.  
Yel va bulut — devona, folbinday bo'lib,  
Durullab, gurullab, o't xanjar qayraydi.

Bu olam aylanar  
Oshiq bo'p sen uchun,  
Sochingga boylanar,  
Dardingning emi uchun.  
Uyat, insof bormikan, o'ylagin, sevgilim,  
Yaralding sen asli, yorqinim, men uchun.

Aql, es so'rama  
Devona sho'ringdan,  
Menda aql turarma  
Payqasang to'rimdan<sup>1</sup>  
Jonim, tanim erkingda, ne qilsang ham,  
O'zingsan ayamay ovvora, xor qilgan.

---

<sup>1</sup> **To'rim** — yuzim, betim degan so'z.

Ko'ngilda shu'lam sen,  
Ko'zdagi nurim-ov.  
Aqlimni, bildirmay  
Olgansan o'g'rim-ov.  
Umr bo'yi o'rtanib yurganimcha,  
Yo o'ldir, tiriltir, shudir chin sirim-ov!..

## RO'ZG'OR VA ISROF

Ne qiladi, yigit,  
Ja-a qimmatdan kiymasak.  
Maqtanmoqqa qarzni  
Ust-ustiga olmasak.  
Shahardagi boylarning  
Xoxlaganin demasak,  
Oxir-so'nggi qaytamiz,  
Bankrot bo'p kuyrasak.  
O'rta kisak urshama,  
Biz hech kimga tegmasak.  
Buzuqlik emasku,  
Quruq, nohaq kuymasak.  
Yeltiri<sup>1</sup> va terini,  
Juda yaxshi yilasak.  
Ham mustahkam, ham iliq,  
Yirtilmaydi sudrasak.  
Karim, saxiy qay yigit,  
Yaxshi ko'rmas buy desak.  
Bo'lamizmi jazoli  
"Shu ro'zg'orni suy..." desak.

Amirkoni<sup>2</sup> mahsi-etik,  
Farz bo'lib chiqdimi?

---

<sup>1</sup> **Eltiri** — qimmat teri.

<sup>2</sup> **Amirkon** — Amerikadan keltirilgan.

Oyog'ingni zo'rlik-la  
Birov unga tiqdimi?  
O'ngi yaltir bo'lmasa.  
O'paykadan<sup>1</sup> miqtimi?  
Etigingdan iymanib,  
Yoving qo'rqib buqdimi?  
Bu rasxodga eriksiz,  
Bizni birov suqdimi,  
Navqas<sup>2</sup> bo'lib yo esa  
Qozoqqayam yuqdimi?  
Kiyimim qimmat ekan deb,  
Hech kim sendan qo'rqdimi?  
Bunday kiyim burch deya,  
Kafting tutib siqdimi?  
O'rinsiz sochgan isrofing  
Obro'ingni yiqdimi?  
Qattiq aytgan tanbehim,  
Kimlargadir yoqdimi?

Uch tangalik suknodan,  
Malesken<sup>3</sup> afzal emasmi?  
Sipoyi bichib, jun tiksa,  
Shunisi go'zal emasmi?  
Choyni ozaytib sut ichsak,  
Kirdirmasmi kengashga?  
Bol qo'yma-yoq, moy qo'ysak,  
Kelgan qo'noq yemasma?  
Nega buncha xumormiz,  
Tubi foyda emasga?  
Chalqayaverma, chamala,  
Chorva ketdi kelmasga.  
Kumush turmon taqinib,  
"Men qalay?" deb kurishma!

---

<sup>1</sup> O'payka — fufayka.

<sup>2</sup> Havqas — xasta.

<sup>3</sup> Malesken — paxtadan tayyorlangan qalin mato.

Bari maqtanch, bari qarz,  
Rost gap uchun bahslashma.  
Mol degan nechuk chidar,  
Bu kiyim, yeb-ichishga?  
O'kinarsan, ko'rarsan,  
Yo tong erta, yo kechga.

Tulki tumoq, sirti poy,  
Bo'ynida bir oq sharf.  
Qimmat kiyim, qil chopon  
Papiros tortdim boplanib.  
Peshband, shalvar — suknodan,  
Tikuvchi tikkan oqcha olib.  
Kumushbog'ich soatim,  
Qo'ynimda yurar saqlanib.  
Rezinkadan kavushim,  
Oyog'imga chog'lanib.  
Egar-jabduq yarqirab,  
Kumush bilan qoplanib,  
Quvonib o'layozdim-ku,  
Kiyimimga maqtanib.  
Buning bari bilsang — qarz,  
Qutilamanmi oqlanib?  
Pul oberdim har kimga,  
Erta o'ylanmay saqlanib.  
Bir kun bari ketar-ov,  
Ichak-qornim axtarib.  
Kel arzonroq kiyaylik,  
Maqtanchlarni zo'r qilmay.  
O'ylanar kez bo'ldi-ku,  
Sovun olib undan-da,  
Ustimizni kir qilmay.  
Tozalaylik badanni,  
Sirtimizni sir qilmay.  
Yaltir-yultir taqinmay,  
Qiltiganni kir qilmay.

Mazaxlatib har kimga  
O'zimizni xor qilmay.  
Foydali ishni bu qozoq,  
Ne sabab turar qilmay.  
MaqtoVsevar hovliqma,  
Chorvani yurar qilmay.  
Bo'yoq maqtoV bo'ptimi,  
Ichimizni nur qilmay.  
O'tamizmi shu bilan  
Qoyilmaqom bir ish qilmay?

**QOZOQNING  
YOMONI  
BO'LMAS**

Qozoqning yomoni bo'lmas,  
Yomondan omoni bo'lmas.  
Birikib ish qildirgan  
Tuzalar zamoni bo'lmas.

Bu elda halollik bormi?  
Shundayni payqadinglarmi?  
Ishlaydi neni-da bo'lsa,  
Nodonga haromlik ormi?

Or sotar choyga bo'lsa ham,  
Bir oshim moyga bo'lsa ham.  
Izlanib topadi, yeydi,  
Haromni qayda bo'lsa ham.

Yo'g'oni qiladi zo'rliq,  
Mo'minning ko'rgani xo'rlik,  
Tep-tekis quvlik, o'g'irlik,  
Ol, endi qandoq el bo'ldik?

## KO'KORAYGA QO'NGANDA

Ko'korayga<sup>1</sup> qo'nganda  
Qo'zilar o'ynar durkirab.  
Yozning kuni bo'lganda,  
Yomg'ir yog'ar churkirab.

Yarimi bizning ko'ngilga  
Bir tommaydi sirqirab.  
Tayandi-ku o'limga,  
Qoqiriq bosdi qirqirab.

## BIROVNING AYBINI KECHIRSANG

Birovning aybini kechirsang,  
Xudo ham senga kechadi.  
Barin ham qilmay yesirsang,  
Tepangni hoziroq teshadi.

Ko'ngli yumshoq odamning  
Chigalin Alloh yechadi.  
Rahmsiz, fe'li yomonning  
O'rni ham tayin deyishadi.

Men do'stingman, yov emas,  
Shishinaverma, qayta tug'il.  
Yuragim dardli, sog' emas,  
Shul sabab so'zlarim — og'u.

Achchiq deb olmay qo'ymangiz,  
Chanqaganda kerak suv.  
Avaylab izin o'ylangiz,  
Oldi-ku aldab bari quv.

---

<sup>1</sup> Ko'koray — maysazor.

## MEN O'TARMAN, KETARMAN

Men o'tarman, ketarman,  
Yo'qlarsan meni bir kezda.  
Yordamim tegmas, netarman,  
Yashirinaman bir so'zga.  
Maqsading qaysi?  
Do'sting kim? —  
Shu so'zning tagin chin ko'zla.  
Bor-yo'q aqlim shu mening,  
Aytar so'zim yo'q o'zga.

## UMR

Birov menga "o't yoq!" deb, qildi buyruq,  
Men yoqmoqqa intildim, ko'ngil — yugruk.  
O't yoqmoqchi bo'lganim — bir ulkan uy,  
O'tin yig'ib qo'yibdi talay kunlik.

Chaqqoq chaqib yubordim, quvga tushdi,  
Tutantirib olishim bo'ldi kuchli.  
Qizilo'ng'ach bo'lganda yonib-yonib,  
Shungachayam oshiqib, ichim pishdi.

O'tga sudrab o'tinni solib edi,  
Olov chiqib, lovullab yonib edi,  
Uy iliq-ku ne qilay, zarar ham ko'p,  
Olov borib talayni chalib edi.

Olov ketdi, ozdan so'ng choq bo'ldi qur.  
O'tin tugab puflasam yonolmay tur.  
Olovli o'tday qaynagan ajab umr,  
Cho'g' so'ndi-yu qop-qora bo'ldi ko'mir.

## UCH XILGINA UMR BOR — MASTDIR BARI

Uch xilgina umr bor — mastdir bari,  
Bir ravishda bo'ladi yosh-u qari.  
Eng kerakli deganing o'rtanchi umr,  
Unga yetmas odamning hech qo'llari.

G'ofillikda o'tkazma bir soating,  
O'kinchda ketmasin bor g'ayrating.  
Kunni-tunni o'tkazma, ilm izla,  
Qolsin desang ortingda inson oting.

Umrning boshi — bola, o'rtasi — odam,  
Qartayib chol bo'ldingmi — ketar chamang.  
Maqtab yurgan umring shundoq bo'lsa,  
Uch og'iz o'lan bilan bo'ldi tamom.

## BEZAVOL ASKAR

Shohlar o'yida qirg'in-dov,  
Jang uchun shaylar askarin.  
Bir-birin qirib beayov,  
Naq o'qqa yo'llar yoshlarin.

Dunyo charx urib tolmagan,  
Yutmadi ne inson boshlarin.  
El tugul yer ham qolmagan,  
Aytmasang qabr toshlarin.

Menmasmi asli chin podshoh,  
Askarim — o'lan-u so'zlarim.  
Ular-chi, mudom ko'r, gumroh,  
Ko'rmas uzoqni ko'zlari.



Zero, bizning askar o'lar mi,  
Qog'ozga muhr etilgach.  
Zo'r askar bo'lmay nima u,  
To'rt tomon ishg'ol etilgach.

Yovlar har qancha ursa-da,  
Askarim yengib bo'lmaydi.  
Dunyo charx urib tursa-da,  
U qarimas va o'lmaydi.

Zero, so'zimga ajal yo'q,  
Borgan yerini qirmas ham.  
Dunyoda sobit amal yo'q,  
Borlari mangu turmas ham.

Olmam shohlikni bersang-da,  
O'lim-chi, tortib oladi.  
Men bir kun ko'zim yumsam-da,  
Qalbim qog'ozda qoladi.

O'qir nasllar so'zimni,  
Goh zavqlanib, goh kularlar.  
Ko'rmasa-da nam ko'zimni,  
Zorlanib o'tganim bilarlar.

## **DO'ST SENG ZOR**

Do'st senga zor,  
Dushmaning xor,  
Sen tilakka yetgan on.  
Beadad baxt,  
Oltindan taxt —  
Ayamasa o'zni jon.

Chekinar g'am,  
Qolmas alam —  
Dil murodga yetsa gar.  
Biroq ne naf —  
Barin tashlab  
Qo'ling ochiq ketsa gar.

Bu dunyo quv,  
Bir oqin suv,  
Tushdik unga cho'p bo'lib.  
Kundan-kunga  
Dil to'lar mungga  
Tashvishimiz ko'p bo'lib.

Gohi toshga,  
Goh yog'ochga  
To'qnashamiz urinib.  
Suvidan-da  
Og'usidan-da  
Qutulamiz surinib.

Dunyo — toshqin  
Mavjdek shoshqin  
Singar yerga dam-badam.  
Tin bilmay hech  
Erta yo kech  
Bari shunda bo'lar jam.

Har kas bari  
Fano sari  
Yo'l olgaydir begumon.  
Tunga inib,  
Mangu tinib,  
Shundagina tinchir jon.

SUYDIM MEN  
AZALDAN  
TURK TILIN

Suydim men azaldan turk tilin,  
Jamuljamdir unda bor bilim.  
O'zlashtirdim sehrin ixlos-la,  
Mazmunga to'ldi har kunim.

O'rganishdan sira toldimmi,  
Shundan oqin bo'lib qoldimmi!  
Mehr qo'ydim o'ris tiliga,  
Boyitar endi u qalbimni.

Shogirdman Tolstoyga, tonmayman,  
O'qiyman uni — hech qonmayman.  
Uni kofir deb atading sen,  
Nafrat o'tida men yonmayman.

Tolstoy kofirmas, kofir — o'zing,  
Yolg'ondir va'zing, yolg'on so'zing.  
Ko'ngli so'qir nodonsan, fe'ling kaj,  
Qandoq payqasin nurni ko'zing?

Ko'nmam dinni ters burmog'iga,  
Tushmam hech uning qarmog'iga.  
Rosti, undiq ming kasni  
Olmayman Tolstoy tirmog'iga.

Aqli-la gap talashmagin,  
Munofiq so'figa yondashmagin.  
Dono, oq niyat odamlarning  
Izmin tut doim, adashmagin.

## CHO‘CHIMA, O‘YIM, CHO‘CHIMA

Cho‘chima, o‘yim, cho‘chima,  
Kelmaydi jinlar qoshimga,  
Tahoratda yo‘qdir shayton,  
Yo‘lamas mening yonimga.  
Charchama, o‘yim, charchama,  
Qarama oqqan yoshimga.  
Adashmasang gar oq yo‘ldan,  
Qo‘nadi baxt ham boshingga.  
Boshqartirgin barin sabrga,  
Kirmagin ajalsiz qabrga.  
Sirlashishga kun ham tug‘ar,  
Jonkuyar yaqin tomirga.

\* \* \*

Mol ham aziz,  
jon ham aziz bo‘lsa gar,  
Molni ayama,  
joning uchun molni sot.  
Jon ham aziz,  
yor ham aziz bo‘lsa gar,  
Jonni ayama,  
yoring uchun jonni sot.

## IMONIM

Qirqdan so‘nggi imonim,  
O‘ttiz yilday yiqqanim.  
Ko‘p olimning aytganin,  
Bilib oldim siqqanin.

Mullalarning xo‘b ishin,  
Payg‘ambarning hadisin.  
Avliyolarning haqlisin —  
Olmadim ongga zidlisin.

Aytza qanday olim zot,  
Dalilsizi — bari yot.  
G‘ovg‘asiz, chin haqiqat —  
Yo‘lida jon berdim bot.

O‘rgatsam imon odamga,  
Zehnli, mayli nodonga.  
Ham ziyrak, ham chaqqonga,  
Ko‘ngli ko‘r, beimonga.

Tuzatsam uning niyatin,  
Tiriltirsam jonsiz suyagin.  
Tovonga bosib tanin,  
Yulib olsam yuragin,

Aniq, boshga qo‘nmaydi  
Ters deb, gapga ko‘nmaydi,  
Qulog‘iga quyganim,  
Qalbiga kor qilmaydi.

“Bilmaslik” ne, imonmi?  
Aqlga sira siqqanmi?  
Yashirsa ham imonim,  
Aytishdan aql tiyganmi?

Filosofni o‘qidim,  
Ko‘pini o‘yga to‘qidim.  
Yozganlarin xo‘b ko‘rdim,  
Avliyo bilan so‘fining.

Barin tanqid qilganman,  
Keragini olganman.

Kal boshining qo'tirin,  
Ochib tashlab ko'rganman.

Sayoz aql bosh qotirgan,  
Maqtovini oshirgan.  
Yordim ko'pning chipqonin,  
Soch to'kilgach, yashirgan.

Aqldan ozib o'tmayman,  
Dalilsiz so'z aytmayman.  
Nayrangiga yurmayman,  
Bo'sh yetakka ketmayman.

## INSONLIK BURCHING


Insonlik burching —  
Xalqingga xizmat qil.  
Oq yo'ldan adashmay,  
Or saqla, shuni bil.  
Talab bilan bilim ol,  
  hunar o'rgan,  
Bilimsiz,  
Hunarsiz,  
Bo'lar aqli tul.  
Maqtovga berilma,  
Mansab taxti-chun,  
Nafsingni ko'tarma,  
Boshing baxti-chun.  
Umringni sarflagin  
  to o'lganingcha,  
Reja top,  
Yo'l och,  
Kelajak g'ami-chun.  
Qaytadan o'rtağa,

Sira kelmaysan.  
Bor kuchni,  
Olqishni  
Tirikchilikka bergaysan.  
Ibrat olar ortingda iz qoldirsang,  
Chin baxt —  
Shuni uq,  
Mangusan,  
O'lmaysan!

# AHMAD BOYTURSUNOV



(1872–1937)





## QOZOQ QALPI

G'oz edik qatar uchib qanqillagan,  
Biyobon-ko'lga qo'nib salqinlagan.  
G'ovdan chiqqan bir o'rtga duchor bo'lib,  
Ne qoldi tanimizda charpilmagan?

Alashning<sup>1</sup> odamining bari ma'lum,  
Kim qoldi taroziga tortilmagan?  
Men yaxshiman deganlar to'lib yotar,  
Yaxshilik o'z boshidan ortilmagan.

Tiqillab, pishiqlarcha so'zlovchi bor,  
Enkillab, uchqur otday qarqinlagan<sup>2</sup>.  
Bo'sh belbog', bo'shang tuqqan bo'zbola bo'p,  
Kigizday chala bosgan qarpilmagan<sup>3</sup>.

Enkanglab, et poylagan chollar ham ko'p,  
Termulib bir to'yanin or qilmagan.  
Oqko'ngil, alang-bulang odamlar bor, —  
Ozin ko'pga hisoblab, anqillagan.

Xayrsiz, necha sarang boylar ham bor,  
To'lqindagi qayiqday qaltillagan.  
Baridan ham tinch uxlab yotganlar ko'p,  
Intilib, talab o'ylab talpinmagan.

Shularning qatorida biz yuribmiz,  
Mast bo'lib, tugma, mana, yaltillagaan.

---

<sup>1</sup> **Alash** — qozoq, qozoq millati.

<sup>2</sup> **Qarqinlagan** — shiddati kuchaygan.

<sup>3</sup> **Qarpilmoq** — kigiz tayyorlash paytida uni cho'zish uchun amalga oshiriladigan harakat.

Nima foyda hunar-u bilimingdan,  
Tegishli yerga uni sarf urmagan.

Bu bir soʻz hasrat etib xatga yozgan,  
Qolmagan tuk xosiyat, qozoq ozgan.  
Boyga — mol, oʻqiganga — chen<sup>1</sup> maqsud boʻlib,  
Yurt gʻamini oʻylovchi odam ozdan.

## QOZOQ SALT<sup>2</sup>

Qaltiroq kema minib eshgagi yoʻq,  
Suvda qalqib yuribmiz kechmasi yoʻq.  
Yel soʻqsa, quyun quvsa siljiyapmiz,  
Tovon tirov boʻlguday hech narsa yoʻq.

Bul koʻyga bugun emas, koʻpdan kirdik,  
Old-ortini anglamay bet-la kirdik.  
Chiqarmay bir yengdan qoʻl, bir yerdan soʻz,  
Oltibaqon olalik dardda kirdik.

Xuddiki bir qudratni sinaganday,  
“Saqlar deb, saqlar boʻlsa”, shart-la yurdik.  
Yon-yoqni Yaratganga kuzattirib,  
Yaqin bilan irillashib, itday hurdik.

Bildirdik elning sirin, erning xunin,  
Maqtaganga ishonib ikki-uch kunlik.  
Tentakning esi kirar tushdan keyin,  
Holimiz mushkulligin endi bildik.

Haliyam shu saltiga boʻyin egib,  
Ish bajarar turi yoʻq falon derlik.

---

<sup>1</sup> **Chen** (*shen*) — amal, atiq, mansab.

<sup>2</sup> **Salt** — urf-odat.

“Ulug‘ to‘y, ko‘p bilan ko‘rgan faqat menmi, —  
Deyishar, — nima bo‘lsa yurt-la ko‘rdik”.

### DO‘STIMGA XAT

Qirog‘i, qiya yozmas shunqorim-ay!  
Uzoq yo‘lda charchamas tulporim-ay!  
Uyulgan o‘laksani o‘rga sudrab,  
Qir boshiga op chiqar polvonim-ay!

Yarqirab yaxshilikning tongi otmas,  
Tepamizdan xo‘mrayib bulut arilmay.  
Ko‘k etli, ko‘n — terili, ko‘nib qolgan  
Siqsa ham chidayverar yurt yorilmay.

Kim bilib, er mehnatin sezayotir?  
Kim chidab, yo‘ldoshlikka to‘zayotir?  
Sassiq miya, salqin yurak, sana — o‘ysiz,  
Bexabar, oq maltasin ezayotir.

Sinovchi yaxshi bilan yomonni o‘lchab,  
Qullik qo‘lida joni ezilayotir.  
Kechagi keng zamonda kerak qilgan,  
Erkinlik bo‘lmagan so‘ng bezayotir.

Tugarmi aytgan bilan uni-buni?  
Talayning tanlanganday tupki siri:  
Chin ko‘ngil-la yondoshgan yaqinlik oz,  
Ko‘pining ichi salqin, sirti iliq.

Oqcha deb obro‘yini, orin sotib,  
Ozgan yurt odamchilik qolmay sini.  
Joni achib, yaqin uchun qayg‘urarmi  
Joni — mol, yaqini — mol, molning quli?!

## ONAMGA XAT

Qarog‘im, duogo‘yim, g‘amxo‘r onam,  
Senga xat yozayin deb oldim qalam.  
Seni unda, meni bunda omon saqlab,  
Ko‘rishmoq nasib qilsin Haq taolom!

Borolmay, yolg‘on chiqib gapim, qarang,  
Semeyning turmasida yotir bolang.  
Mol olgan, kishi o‘ltirgan — aybsizmish-u,  
Hukumat, o‘r zo‘rlikka bormi chorang?!

“Umidsiz shayton bo‘lsin” degan so‘z bor,  
Yo‘llar ko‘p jannatga ham taram-taram.  
O‘q tegib o‘n uchimda, o‘y tushirib,  
Bitmagan yuragimda bor bir yaram.

Aldanib tomoq uchun, shuni unutsam,  
Bo‘lganday yeganimning bari harom.  
Odam bo‘lib odamning ishin qilmay,  
Uyalmay, qay bet bilan go‘rga boray?

Ko‘p aytmay, qisqa gapdan sezdiruvchi  
Bolaning minazi bor so‘z aytib kam.  
Ketar deb, suvga qulab, o‘rga tushib,  
Qayg‘u yeb, meni o‘ylama, bo‘l xotirjam!

O‘tiribman avaxtaning bo‘lmasida,  
Buyruqsiz ko‘z yetadi o‘lmasima,  
Eshikning qulfi mahkam, soqchilar ko‘p,  
Ajaldan boshqa hech kim kelmasada.

Qalamda Lavhul mahfuz unutkanmi,  
Yozmabdi bul o‘rinni ko‘rmasima.  
Qangbaqqa salmog‘ing teng bul bir zamon,  
Iloj yo‘q yel haydasa ko‘nmasinga.

Taypalgan talay yo‘rg‘a, talay tulpor,  
Taqdirning duch bo‘lganday turmasiga.  
Shulardan tan-jonim ardoqdamas,  
O‘rinsiz ezilaman men nesiga?

### N.Q.<sup>1</sup> XONIMGA

Rohatsiz o‘tib borar umr, yoshim,  
Shu yo‘limdan Xudoyim ayirmasin.  
Uzoq yo‘lga niyat qip bir chiqqan so‘ng,  
Yarim yo‘ldan qaytmasman, qarindoshim.

Suv ham bo‘lar bu yo‘lda, tog‘ ham bo‘lar,  
Yov o‘qi, yoyilgan tur, ov ham bo‘lar.  
Manov — foyda, manovi ziyon demak,  
U — mardlik ish emas, savdo bo‘lar.

Chalg‘ituvchi, charchatuvchi yerlar ham bor,  
Chalg‘isa ham ezilmas erlar ham bor.  
G‘ayratlanib, charchamay tirmashsang ham,  
Chiqib bo‘lmas yo‘lingda o‘rlar ham bor.

Charchaydi deb o‘ylama horib borib,  
Uzoqsinib yotmasman charchab, tolib.  
Yurt, qo‘limdan kelmasa, o‘pkalamas,  
Barin saqlab, meni ayab, olib qolib.

Bilaman, el dardimni uqmaydiyam,  
Ko‘tarmaga qolganda chiqmaydiyam,  
Chalish bosib oyoqni yiqilganda,  
“Yotganingdan turma!”, — deb qo‘l bermaydiyam.

Men o‘lsam ham o‘laman yo‘lim bilan,  
Tandan boshqa nimam olar o‘lim mendan.

---

<sup>1</sup> N.Q. — XX asr boshlarida qozoq xotin-qizlari orasidan yetishib chiqqan ilk iste’dodli jurnalist, publitsist Nazifa Quljanova.

O'lgan kunim boradigan joyim bu — go'r,  
Yo'q bo'lmasman ko'milib tanim bilan.

Tan ko'milar, ko'milmas etgan ishim,  
O'ylaydigan men emas bir kungisin.  
Yurt uqmasa, uqmasin, men qolmasman,  
El — bugun der, men esa — ertang uchun.

## YOZUVCHI TASKINI

Bu so'zni birov olmas, birov olar,  
Birovi qaramasa, birov qarar.  
Hammaga birdek yoqish oson emas,  
Kimgadir yaramasa, kimga yarar.

Qaysisi ixlos bilan quloq solar,  
Qaysisi yoqtirmayin ko'zin olar.  
Dunyoda suyganim bor, kuyganim bor,  
Ulardan oz bo'lsa-da, ulgi qolar.

## OQIN INIMGA

So'zimga qulog'ing sol, oqin inim!  
O'y-fikr va ruhimiz yaqin, inim.  
Og'alik huquqim bor, shundan senga  
Keldim men o'rgatay deb aql, inim.

O'zimni og'angdayin tutsam agar,  
Bu ishim ko'rarmisan ma'qul, inim?  
Og'angning gar adashgan yeri bo'lsa,  
So'rayman eta qol deb afu, inim.

Joy yursang qoqilmaysan, yiqilmaysan,  
Yo'qsa kim bo'lar bunga kafil, inim.

Ot qo‘ygan old-ortiga qaramaydi,  
Doimo bo‘lgin bizdek faqir, inim.

To‘ng‘izday har neni yeb semirganlar  
Sanalib aqlliga yotir, inim.  
Millatning arzandasi bo‘lay desang,  
Nochorning ko‘proq yegin haqin, inim.

Siylasin desang yurtning qadring bilib,  
Ayg‘irday mo‘minlarga ayqir, inim.  
Bilimli bo‘lay desang el ichinda,  
To‘xtamay so‘ylab, hargiz lof ur, inim.

Qo‘lingdan bular biri kelmas bo‘lsa,  
Kimgadir shotir bo‘lib charx ur, inim.  
So‘zingni tinglatayin desang yurtga,  
Et tortib tovoq-tovoq, chaqir, inim.  
Og‘zi-la o‘roq o‘rib berar har kim,  
Qimizni kosa-kosa shopir, inim.

Et bilan qimiz berib so‘ylab ko‘rsang,  
Aytganing yurtga bolday tatir, inim.  
Iliming gar Aflotunday bo‘lsa hamki,  
Bilki, et-qimizsiz — bir paqir, inim.

## TUHFA

Bolalar, yo‘ning boshi donolikda,  
Kelinglar, sezib, bilib, qaraylikda.  
Bu yo‘ldan borayotgan o‘zingday ko‘p,  
Shulardan ko‘rib turib qolaylikma?!  
Donolik — o‘chmas yorug‘,  
ketmas boylik,  
Yuringlar, izlab, topib olaylikda.

## OQQUSH, CHO‘RTON VA CHAYON

Yuk oldi Chayon, Cho‘rtan, Oqqush bir kun,  
Kuchanib tortar uchov turkum-turkum.  
Tortadi Oqqush — ko‘kga, Chayon — orqaga,  
Yulqiydi suvga qarab Cho‘rtan chirkin.

Bularning mashaqqati oz bo‘lmadi,  
Ishlasa ham, ish bitmadi, soz bo‘lmadi.  
Kuch ayamay tortsa ham uchalasi,  
Rosti gap, yuk o‘rnidan qo‘zg‘almadi.

Yuk o‘zi unchalik ham og‘ir emas,  
Lekin hech qo‘zg‘almaydi, olg‘a yurmas.  
O‘rnidadur to hanuz shu kungacha,  
Uchovi uch yon tortar, bo‘ldi, e, bas!

Yigitlar, arzir bundan ibrat olsak,  
Avvalo, birlik kerak yo‘ldosh bo‘lsak.  
Birovingning gapiga biring kirmay,  
Ishlasang, ittifoqsiz ish o‘ngalmas.

## BUG‘DOYNING BOSHOG‘I

Bir odam yosh bolasin yoniga oldi,  
Ikkisi sayr qilib kezmoq bo‘ldi.  
Aylanib nari-beri yurgandan so‘ng,  
Dehqonning ekini bor yerga bordi.

Oralab har ekinni qarab yurdi,  
Kez edi pishib yetgan ekin turli.  
Boshlarin donga to‘lgan quyi solib,  
Bug‘doylar misli ta‘zim aylab turdi.



Yolg'iz bir bug'doy turar ko'kka qarab,  
Yolg'izgina o'zini ko'pga sanab.  
Bolaning shu bug'doyga ko'zi tushdi,  
Bu holni bilish uchun qoldi so'rab:

— Chayqalar bug'doylar boshlarin egib,  
Saxiy Xudo yuborgan nurga qonib.  
Ey ota, buning ma'nin tushuntiring,  
Bu holatga turibman hayron qolib.

Bu bug'doy ko'taribdi boshin ko'kka,  
Sanaydi mag'rurlanib o'zin ko'pga.  
O'zgani o'ziga hech teng ko'rmaydi,  
Shunchalik bu bug'doyning doni ko'pma?

— Aytayin buning ma'nin, bolam, birdan,  
Chirog'im, ajablanma ko'rib bundan.  
O'zgalar pastga qarab egilganda,  
O'ylama kam ekan deb bari shundan...

Bug'doylar boshi to'lib, egiladi,  
Don bergan xo'jasiga sig'inadi.  
Bu bug'doyning boshida don bo'lmagach,  
Kekkayib, ko'kka qarab chiranadi.

Elda ko'p bu bug'doyday kimsa hamon,  
Manmanni xalqimiz der yomon odam.  
Yarashmas takabburlik aqli borga,  
Qo'llama bu qiliqni sira, bolam.

## **BO'RI BILAN QO'ZICHOQ**

Buloqqa suv ichay deb keldi qo'zi,  
Yonida sherigi yo'q, yolg'iz o'zi.  
“Bo'ri yo'q, desang, chiqar bo'rk ostidan”,  
Balo va qazo olismi kelsa kezi?



“U agar sen bo‘lmasang — og‘angdir-da,  
Meni o‘ldirmoqchisizlar hammang birga.  
It bo‘lsin, cho‘pon bo‘lsin, boshqa bo‘lsin,  
Yovuzlik o‘ylaysizlar faqat menga!”

“Ishoning, og‘am ham yo‘q, inim ham yo‘q,  
Sizga qasd o‘ylaguday aybim ham yo‘q.  
Taqsir, meni bekorga kuydiryapsiz,  
Qasd o‘ylashga yetguday bilimim ham yo‘q”.

Balki u senga kuyov, balki quda,  
Sevmaydi qo‘yning bari meni juda.  
Yo bo‘la, yo jiyandir u yoki tog‘a,  
Haytovur senga o‘xshash edi-kuya...

Qo‘y zoti jabr-u sitam berdi menga,  
Shularni endi men ham qilay senga.  
Qasdimni qo‘ydan olmay, kimdan olay?  
Haqimni bervormasman unga-bunga...”.

“Taqsir-ov, hech yozig‘im yo‘q-ku mening,  
Jabr-ku birov uchun kuydirganing!..”  
“Jim bo‘l-e, yetar! Hozir fursatim yo‘q,  
Turmoqqa oq-qorangni tergab seni.

O‘rganibsan yomon odat qarshilashib,  
Turaymi sen bilan ham miljinglashib.  
Gunohing — och paytimda duch kelding sen,  
Ketaymi sen deb endi etdan kechib?”

Yig‘laydi beayb qo‘zi og‘zin ochib,  
Qutulib bo‘larmikan bundan na qilib?  
Qo‘zichoq ham yumushmi Qashqirvoyga,  
Jo‘nadi yelkasiga siltab solib.

O‘rmonga Qashqir ketdi Qo‘zini olib,  
Qilar ishi ma’lum-ku olib borib.  
Ushmundoq zaifning aybin topar, —  
Har joyda kuchlilarga bordir nasib.

Zo‘rlikdir — qashqirning qilgan ishi,  
O‘ylayman: chiqmas buni maqtar kishi.  
Nochorni talab yedi talay odam, —  
Bo‘ridan ortiq deymiz buning nesi?

### HAYVONGA KELGAN KASALLIK

Allohning rahmati mo‘l, qahri qattiq,  
Qarg‘adi dard yuborib hayvonotni.  
Qirilib uv yeganday turli ovlar,  
Har yerda tepa-tepa bo‘lib yotdi.

Cho‘chib qoldi hayvon zoti kelgan darddan,  
Ne qilarin bilolmay esi ketgan.  
Dalada, uyda, qirda, o‘rmon, tog‘da  
Sog‘ qolgan jon bo‘lmadi bu illatdan.

Tuzalib barcha ovning quvliklari,  
O‘zgarib kasbi, kori, urflari,  
Zo‘ravonlik, zo‘rlikning barin tashlab,  
Ojizlarni tinch qo‘ydi ulug‘lari.

Yo‘qoldi o‘yin-kulgi va zavqlari,  
Zo‘r edi kasaldan ham, eh, xavflari.  
Qashqirlar qo‘yga tegmay ro‘za tutib,  
Tinch yurdi tulki yemay tovuqlarni.

Arslon — yurt podshosi tez-darrovda  
Jar soldi elni chorlab bor atrofga.

Xalq yig'ilib bo'lganda endi Arslon  
Bunday dep gap boshladi kelgan ko'pga:

“Ey yurtim! Nafsimizni tiyolmadik,  
Ne turli yomon ishdan uyalmadik.  
Gunohimiz ko'paydi, qahr etib, mana,  
Yubordi bizga Xudo kasal-zorlik.

Boshlayman men ham endi yangi tartib,  
Tartibdan qolmas hech kim boshin tortib.  
Yurt uchun qurbonlik deb jonin bersin,  
Gunohi kimda-kimning bo'lsa ortiq.

Avval ham bunday hollar talay bo'lgan,  
Xalq tanlab, gunohlini qurbon chalgan.  
Ko'p uchun bir fuqaro jonin qiyib,  
O'zgalari qirg'indan omon qolgan.

Xudoyim yubordimi bizga illat,  
Yaratganning ishiga ko'nmoq — minnat,  
Gunohi kimda-kimning bo'lsa ortiq,  
Bosh tortib o'tirmasin shunday soat.

Kim aytar tozaman deb Haq qoshinda?  
Gunohli hamma odam — chol, yoshing-da.  
Yashirmay ozmi-ko'pmi, aytib chiqsin,  
Har kim bo'lgan qilmishin o'z boshinda.

Men o'zim ham — gunohi ko'pning biri,  
Aytmasam — ochilmaydi ko'ngil kiri.  
Aybli-aybsiz demay so'ramadim,  
Sog' ketmadi oldimga kelgan tirik.

Qilmadim namoz o'qib, qullik toat,  
Ro'za ham tutganim yo'q biror soat.  
Yozuqsiz qo'ydan mo'min jonivor yo'q,  
Shuni ham cho'poni-la yedim qavat.

Roziman qurbonlikka chalsang, xalqim,  
Gunohim ko‘p aytaversam navbat-navbat”.  
Shu paytda Tulki turib so‘z aytadi,  
Podishohga yaramsoqlab tez aytadi:

“Muningiz gunoh emas, ma‘qul ish-ku,  
Qanday jon buni gunoh deb aytadi?  
Bunday ish gunoh emas — dedi Tulki, —  
Biz ochdan o‘lar edik bunda balki.

Podishohning ovqatiga yaramoqlik —  
Qo‘ylar uchun jabr emas, martaba-ku!  
Yana men aytmoqchiman, taqsir xonim,  
Odamzot buzuqligi yurtga ma‘lum.

Qanday qilib hayvondan qutulay deb,  
Dushmanlik o‘ylar hamon bizga zolim.  
Gunohmas odam yemoq — savob, taqsir,  
Kimda-kim uni yesa savob topsin.

O‘shani yegan uvol deganlarga,  
Siz uchun men berayin javob, taqsir”.  
Bu so‘zni Tulki emas, aytdi bari,  
Podshoni ma‘qullab yosh-u qari:

“Birnimas, barin yesa — uvolmi shu,  
Siz uchun sadaqa yurt jonvorlari!”  
Aytdi Ayiq, Qashqir-u, Yo‘lbarslar,  
Shoh o‘zi aybin aytsa — ne turishlar?

Barcha hayvon gunohin aytib chiqdi,  
Bo‘ynida yaxshi-yomon ne qilmishlar.  
Bularning har birining tishi mahkam,  
Qay biri panjasi zo‘r, tirnog‘i ham.

Yomon ish qildim-ov, deb hech kim aytmas,  
Barcha yurt Sherni maqtab bo‘ldi xurram.

Bo'lsa ham Xudobezor qilmishlari,  
Farishtaday pok bo'lib chiqdi bari.

Ol endi Ho'kiz turdi, u mo'ngradi,  
Ko'z yoshi daryo bo'ldi-yu, ho'ngradi:  
"Kishi haqiga xiyonat qilmas edim,  
Zolim Shayton yo'ldan urdi meni!, — dedi.

Naqd besh yil bo'ldi mening shu ishimga,  
Ho'ngragim kelar tushsa shu ish esimga.  
Yut yili, ocharchilik, oziq topmay,  
Yalindim men qarz so'rab har kishiga.

Cho'p bermadi hech kim menga qarz deb,  
Chidamadim ochlikka, turmadim tek,  
Bir odamga xiyonat qilib qo'ydim, —  
Xashagidan ruxsatsiz men uzib yeb!"

"Yopirmay-ay! Bu ne degan gunoh, taqsir! —  
Hayqirdilar o'shal on Ayiq, Qashqir, —  
Bulg'absan bir o'zingmas, hammamizni,  
Birovning cho'pini yeb, qora bosgur!

Eh, bu qancha tubanlik! Xudo urgan!  
Yurim bormi bu o'g'riga yurtni qirgan!  
O'zgalar bundan ibrat olmasin deb,  
Yo'qotaylik o'g'rini qilib qurbon!"

Bu so'zni yig'ilgan yurt qabul oldi,  
Ho'kizni olib-urib, qurbon chaldi.  
Gunohdan joni-tani tozarsin deb,  
Oborib, yonib yotgan o'tga soldi.

O'zganing cho'pi tugul, o'zin yegan  
Tish-tirnoqli zo'rlar shuytib omon qoldi.

O'kirib ho'kiz yotar, ana, kuyib,  
Qutqaray demas hech kim boshin egib.  
Yana aytaveray desam — xavf qilaman,  
Birovga ketarmi deb tilim tegib.

Ibrat olib yurt tuzalsa, qayda bilik,  
Anchayin ermak etdim so'ylab, kulib.  
Hayvonlar qilmishidan bo'tan emas,  
Ba'zi bir yurtlardagi hokimchilik.

Tugamas dunyo aybi aytsam sanab,  
Hokimlar ish qilsaydi odil qarab.  
Zolimlar ayron ichib, omon ketar,  
Mo'minlar tutiladi chelak yalab.

## QORA BULUT

Dala yuzi oftobdan kuyib ketgan,  
Ustidan bulut chiqdi qoplab ko'kdan.  
Quvondi dehqonlar ham: “Yo, Xudolab,  
Suvg'orar — deb, — yerlarni qurib qolgan!”

Yog'armi deb, kutdi xalq umid etib,  
Tommasdan o'tib ketdi quruq esib.  
Dengizga borib bulut quya soldi,  
Qurib ketgan dalaga yog'may ketib.

Dengizga bor suvini quya solib,  
Dimog'lanib maqtandi toqqa borib.  
Tog' aytdi: “Sen maqtanib keb turibsan,  
Men turibman ishingga hayron qolib.

Shunchalik yog'sang edi agar yerga,  
Suv bersang chanqab yotgan ekinlarga,  
O't chiqib, yer ko'karib, ekin o'sib,  
Tegar edi juda ko'p foydang elga.




Ne foyda sening hozir yoqqaningdan,  
Sensiz ham suv yetarlik dengizlarda...”.

Mana shundan ko‘p ibrat olsangiz-da,  
Yig‘ilishda gap tinglab o‘tirganlar.  
Bulutday yerga yog‘may, suvga yog‘ib,  
Bizlarda ish yuritar ko‘p odamlar.  
Qo‘llamay o‘z o‘rnida ish-hunarini,  
Birovlar yurar, bunga ne amal bor?!

# MIRJAQIP DULATOV



(1885–1935)



## QOZOQ YERLARI

Ming yetti yuz o‘ttiz bir sanasida,  
Biz kirdik Rossiyaning panasiga.  
Hunarsiz bo‘shligimiz ko‘ringan so‘ng,  
Qiziqmas kim qozoqning bolasiga?

Yilida ming sakkiz yuz oltmish sakkiz:  
“Xazinali” dedi yerning hammasin ham.  
Torayib yildan-yilga yer-suvimiz,  
Mujikning ketti bari qal’asiga.

Hurmatli xalq boshqargan, oqsoqollar,  
Bu ishga aql peshlab nazar solasanma?  
Temirni qizig‘ida bosmay qolib,  
Naslingning ko‘z yoshiga qolasanma?

Kir yuvib, kindik kesgan ajab yerlar,  
Mujikka, xo‘sh omon bo‘l, borasanma?  
Xosiyatli bobomizning qabr toshi,  
Qoldi-ku ko‘chasining orasida.

Hammomga ziyoratning toshin olib,  
Yog‘ochin o‘tga, mujik, yoqasan ham.  
Topolmay bir borganda hech belgisin,  
Ko‘zdan yosh ko‘lday bo‘lib oqasan ham.

Poyonsiz ko‘l, oqqan buloq, qulay makon,  
O‘rmon, to‘qay, ketti-ku daraxting ham.  
O‘ylasam buning barin xayol surib,  
Xafa bo‘b, ichim o‘tday yonasan ham.

Avval yerimiz bilan kirgan edik,  
Turmoqda odillikning soyasinda.  
Ayrilsang qolgan yerdan shu kungi,  
Tuproqqa molni, qozoq, boqasan ham.

Adashdi-ku aqlidan qora xalq,  
Bilgichlar, o'zing hiyla topasan ham.

Qozog'im, yering qayda, otamakon,  
Qozoq, qozoq bo'lgandan makon etgan?  
Hozirda hammangizni quvib chiqib,  
O'rniga shahar qurib, "xoxol" kelgan.

Chiqargan yer o'lchashga zemlemerlar,  
Shahar uchun ketgan bizdan yaxshi yerlar.  
Shirin cho'p, chuchuk suvning bari shunda,  
Topishga bunga chora qayda erlar?

Yuksak tog', oqqan buloq, cheksiz ko'llar,  
Ketti-ku, betagali baland bellar.  
Qisqarib yer ketgan so'ng yaylovimiz,  
Qoldi-ku, jataq<sup>1</sup> bo'lib afsus ellar.

Achchiq suv, bizga qoldi, cho'l dalalar,  
Yaxshi yer qoldirmadi ekin ekar.  
Qandayin tog' va toshga boqa oladi —  
Qo'rali qo'y, uyur yilqi boylarda bor?

Mana, keldi mujik ko'chgan bulutday,  
Qozoqning qo'yar emas yerin qurtmay.  
Keldi-da ekin ekib boyib ketdi,  
Yalqovmi bular, Tangrim, bizning yurtday.

---

<sup>1</sup> **Jataq** — dehqonchilik bilan shug'ullangan, o'troq hayotga o'tgan qadimgi qozoq jamiyatidagi ijtimoiy qatlam.

Ko'rding-ku bu vaqtda ziqnaligin,  
Olinmas e'tiborga yalinganing.  
O'n beshdan kishi boshi desyatina,  
Yer bersa, shunda, qozoq, nechuk holing?

## YUT

Ketarmi ko'pga qadar To'ng'iz<sup>1</sup> esdan,  
Bulturgi qattiq bo'ron qishki esgan?!  
Yetmish bilan saksondagi qariyalar:  
"Ko'rmadik qahratonni bunday", —  
degan.

Izg'irin, ayoz, bo'ron aralashgan,  
Ikki uyning orasida jon adashgan.  
Qovog'in uyib kelgan shafqatsiz yut,  
Soldi to'p sahroga qahrin sochgan.

Bundayda qashqir qarab qolsin nega?  
Qachondan tishin qayrab yurgan nima.  
Ko'p berdi yutga ko'mak bir tomondan,  
Demadi: "Qizg'anishib yutda yema!"

Qirildi uyur yilqi sho'rga tushib,  
Uyulgan qor, teran soy bilan o'rga tushib.  
Hol ketgan qayg'urishga yilqichilar,  
Joni bilan xo'sh aytishdi muzlashib.

Ustida uzun yo'lning shaharchilar,  
(Kun bormi gadoy sho'rlik baxti ochilar).  
To'xtovsiz kuni-tuni urgan bo'ron,  
Birozin qolgan bosib, qazosi bor.

---

<sup>1</sup> To'ng'iz — 1911 yil.

Bolalar bo‘xcha orqalab, borin kiygan,  
Darsga bormoqchi bo‘lib chiqqan uydan.  
Yetguncha oyoq-qo‘lin sovuq oldirib,  
Betidan chizillatib ayoq suyan.

Suvloqqa mol sug‘orib borgan malay,  
Kelar quloq-burnin u ham uvqalay.  
To‘satdan bir mahalda bo‘ron turib,  
Sanqib malla tepalikka ketgan talay.

Yilqini To‘ng‘iz shunday qirib ketdi,  
Ishini tugatdi-da yurib ketdi.  
Ko‘p boylar yukin ushlab qolaverib,  
Sabasini<sup>1</sup> keregega<sup>2</sup> ilib ketdi.

Essiz, el, qanday eding zamoningda,  
Avvaldan saqlanmading omoningda.  
Oldiga yov bilan yutning haydab solib,  
Shundayin xo‘r bo‘lib yurt qoladida.

Yoz kelsa beg‘am eding, qish yetmasday,  
Qiziq kun boshdan, sira, hech o‘tmasday.  
“Yaratgan Xudo ortiq xalqmiz”, — deb,  
Qo‘lidan to‘rt tulik<sup>3</sup> mol bir ketmasday.

Ko‘rdimi endi ko‘zing ketganligin,  
Zamona o‘z yumushin qilganligin.  
Saqlanmay beg‘am o‘sgan yalqov yurtini,  
Ko‘ndirib qashshoqlikka yetganligin.

Aqlini jonkuyarning olmas eding,  
So‘ziga, sira, quloq solmas eding.

---

<sup>1</sup> **Saba** — teridan yasalgan, asosan, qimiz achitiladigan idish.

<sup>2</sup> **Kerege** — kigiz uyning yog‘och panjarali devori.

<sup>3</sup> **To‘rt tulik** — uy hayvonlarining to‘rt turi (qo‘y, sigir, yilqi, tuya)ning umumiy nomi.

Qimizga chakkang qizib, to‘ysang go‘shuga,  
Foydasiz quruq dovdan qolmas eding.

Yozda yig‘may qish ozig‘in yotuvchi eding,  
Arzonga qimmatingni sotuvchi eding.  
Mehnat bilan topar foydang bo‘lmagach,  
Qarzga etaginggacha botuvchi eding.

“Bolangni o‘qit” desa, qochuvchi eding,  
Molingni “partiyaga” sochuvchi eding.  
Oldagi to‘g‘rilikdan ko‘zni yumib,  
Soddalik qib ters ishga bosuvchi eding.

Keng manzil, otamakon ketgan yo‘qmi?  
O‘rniga “xoxol” ablah yetgan yo‘qmi?  
Mol bo‘lsa bor ishonching — u ham kamyob,  
Zamoni ko‘chib-qo‘nishning o‘tgan yo‘qmi?

Kasbsiz qiyin yurtning kun ko‘rishi,  
Chorvaning shu payt ketdi barcha turi.  
Yuz yilqi qorga solgan qozoqlardan,  
“Xoxol” boy qo‘sh ho‘kizli yozgitori<sup>1</sup>.

Qora yer onamiz-ku bizni topgan,  
O‘lganda yana qayta qo‘ynin ochgan.  
Qo‘l uzib, shu onadan ayrilmasak,  
O‘ldirar bizni hatto qalay ochdan?!

---

<sup>1</sup> **Yozgitori** — ko‘klam payti, yozga yaqin fasl.

## ONANING BOLALARINI SEVISHI

Kim senlarni, bolalar, sevadigan,  
Quvonchiga quvonib, qayg'ungga kuyadigan.  
Tun uyqusin to'rt bo'lib, kiprik qoqmay,  
Ona bechora to'xtovsiz yuradigan.

Kim senlarni, bolalar, tebratgan,  
Erkalatib, o'ynatib, tetiklatgan.  
Yalqov bo'lsang, bolalar, yomon bo'lsang,  
G'amxo'r onang ko'z yoshini ko'llatgan.

Kim senlarni sog'inar chetga ketsang,  
Ilm izlab, tez qaytmay, ko'pga ketsang.  
Yuzin yuvgan yoshi-la sho'rlik onangga,  
Xat yozib turgin, boshi ko'kka yetsin.

Kim sog'inar senlarni kelguningcha,  
Qulunlarin ko'zi-la ko'rgunicha.  
Senlar qaytib kelsanglar odam bo'lib,  
Hech armonim bo'lmas edi o'lgunimcha...

## GAZETA-JURNAL

Bilasiz butun dunyo to'lgan xalq,  
Ularning orasida bor ko'p farq.  
Olti oylik olis safar oralari,  
Turadi bir-biridan xabar olib.

Sochar shu xabarni gazeta-jurnal,  
Hol-joyin, xo'jaligin tugal yozib.  
Yetadi kun botishga har haftada  
Voqea kun chiqishda bo'lgani aniq.



Har yurtning kuzatuvchi — ko‘z-qulog‘i,  
Yorug‘ berar o‘quvchiga oyna bo‘lib.  
Bo‘lsa agar xavf-xatar, yov bilan yut,  
Bilgizar kun burundan esga solib.

Bo‘lmasa gazeta-jurnal bilish qiyin,  
Ko‘zi-la ko‘rolurmi har kim borib.  
Yilida to‘rt-besh tanga to‘lab tursa,  
Kishidan so‘ramay-oq bo‘lding qoniq.

Qimasang oz narsani o‘z foydangga,  
Eshigi hunar-bilim yopiq shunday.  
Dunyoni yurib ko‘rmay, eshitib bilmay,  
Yotasan iching pishmay uyda qanday?

### “AYQAP”GA

Ikki yilni zor bilan  
O‘tkazdi jurnal “Ayqap”ing<sup>1</sup>.  
Alashni to‘la oralab,  
“Ayqap”im, joyin payqading.

O‘ngiga yurtning suyunib,  
Tersga boshingni chayqading.  
Atrofingga yig‘ildi —  
Bilgichi har bir taypaning.

Mung-muhtojni kuzatding,  
Ko‘rsatding o‘rnak ko‘laming.  
O‘quvching turar xumor bo‘b,  
Yana-da bormi aytaring?

---

<sup>1</sup> “Ayqap” — jurnal nomi.

“Oylik yurish olis” deb,  
Oyida ikki chiqqaning.  
“Sustkashlik erga nomus” deb,  
O‘z burchingni uqqaning.

Yurak qonin, ko‘z yoshin,  
Qaynatding qo‘zg‘ab yurt g‘amin.  
Tuzuk yo‘lga solay deb,  
Adashib ters esganin.

Haqiqatni to‘g‘ri aytib,  
Tortinib, qo‘rqib qochmading.  
Oz pul bilan ko‘p g‘ayrat  
Ko‘rsatding erlik, sirtlonim!

Qozoqdan chiqqan chopqirlar  
Ko‘rsatdi ko‘zga chopishin.  
Qalami o‘tkir bilimdon  
Sochdi olisga tovushin.

“Alash!” deb shior tashladi,  
Yurtining yo‘qlab nomusin.  
Yarqirab yongan yulduzday,  
Uqdirib aniq har ishin.

Ko‘ngli yopiq, ko‘zi ko‘r  
Bilsin qaydan ma‘nosin?  
Yo‘lboshchi bo‘lgan zotlarga  
Obro‘, baxt-omad kelsin!

Saxiylikda birinchi  
O‘rin olgan el edik.  
Uch tangadan o‘lmasmiz,  
Kel, janoblar, beraylik!

Bilgichlarning soʻngidan  
Chuvashib biz ham eraylik.  
Gazetaning soʻzi ertagi —  
Zerikib yozgan demaylik.

Toʻlishib kecha turganda —  
Biz kimlardan kam edik?  
Kamaytgan — yovuz nodonlik,  
Nodonlikdan bezaylik!

Gazeta-jurnal oʻqisang,  
Koʻzingni, qozoq, ochasan.  
Dunyo holin bilmasang,  
Ilgari qanday bosasan?

Ezgulik yoʻlida tortinma,  
Bekorga ham sochasan.  
Hunar-bilim tishlarmi,  
Chekinib nega qochasan?

Sargʻayib yotgan bir gʻarib  
Yubordi yozib duosin.  
Xalqiga sochib yemishin  
Yashasin “Ayqap”! Yashasin!

## ARMONIM

Armonim zoʻr — yuribman jahon kezolmay,  
Ne bor, ne yoʻq — dunyo holin sezolmay.  
Oʻyim — ogʻir, qoʻlim — qisqa, yoʻlim — tor,  
Izlagan murod qoʻlga tegib tez olmay.

Koʻzim koʻrib, aytishga tilim bormay,  
Ichim qaynab, yanada chiday olmay.  
Menday miskin bormikan haq qulida,  
Zoya ketgan mehnatiga haq olmay.

Men do'st ko'rsam, meni sanab dushmanga,  
Aytganimni olg'izolmay hech jonga.  
Yovuz niyatlining xiylasiga ko'z yetmay,  
Bilarsan birdan yoningdan qisganda.

Ayovsiz jonim, men bir qurbon qo'zichoging,  
Bo'lsa olishga, qonim sabab, muroding.  
Bo'layin suyunchi: yulduzi yonib baxtning,  
Sen yashnadi deb eshitsa qulog'im.

Oziqtish qayrab, barmoq chaynab o'tdi kun,  
Ilmni izlar, olisni ko'zlar yetti kun.  
Oqsoqol — ortga, yoshlar tortsa udumga,  
Olib berar yurtga kekni kim?!

## MUNG

Ishonchsiz boshim, foydasiz yoshim armonda,  
Yetarmisan tilagingga yolg'onda?  
Qon tomchilab tursa ham ko'zdan yosh oqib,  
“Seniki jo'n” deb quloqqa quygan jon borma?

Nomusga qizib ta'sirlanar yigit oz,  
Bul ne ajab — yurt kar bo'lib qolganma?  
Men ne bo'lsam, bo'layin senga sadaqa,  
Suyukli yurtim, qopqonga tushib aldanma!

Sirti tiniq, ichi loyqa yoving bor —  
Jon achir yaqin u deb, ishonib qolma.  
Yurtliging yo'qotmay hozirdan, boshing qo'sh,  
O'zish qiyn ko'mbe<sup>1</sup> yerga borganda.

Bo'laverma, mazlum qozoq, tortinchoq,  
Kuning yetdi, mungingni chiqar, xo'rlanma.

---

<sup>1</sup> Ko'mbe — bu yerda: ot poygasidagi oxirgi marra.

Oqsoqollar rahbar bo'lsa, el boshlab,  
Er ortidan, yosh azamat, orlanma!

Soch o'stirgan ruscha o'qib, yosh jonlar,  
Yo'lni ko'rsat adashgan yelga, kekkayma.  
Yurtga foyda degan yo'ldan tortinmay,  
Davlatingla yordam tekkiz, boylar ham.

Shariat sotib mol yiqqanga solinmay,  
Oqart yurtni, mullakalar, g'amlanib.  
Sen ham qisqart oqinsinmay so'zingni,  
Siring ma'lum, yot tinchgina joylanib.

### TERMA<sup>1</sup>

Aqli yetuk yigitlar,  
Zamonning qara holiga.  
Xalqingning o'ylab foydasin,  
O'zing uchun nolima.

Nochorlarni yig'latib,  
Boylarning sotma moliga.  
Ko'z yoshiga qolarsan,  
Qaramasang zoriga.

Bosib aytmasam bo'lmaydi,  
Yukni tortar norimga.  
G'ayrating bo'lsa, ko'rsat,  
Keldi fursat yoningga.

Poygaga qo'shdim tulpor deb,  
O'xshab yurma g'amginga.  
Avval kelsang maydonda,  
Da'vo yo'q sening baxtingga.

---

<sup>1</sup> **Terma** — qozoq xalq poeziyasi va musiqa san'atida shakllangan lirik she'r turi.

Ko'rolmagan dushmanlar,  
Ergasha olmas changingga.  
Boshingni tik poygaga,  
Bir xalqingning g'amiga.

“Alash!” deb shior aytilsa,  
Kim ergashmas ortingga.  
Idrokli deb aytaman,  
Farosating boriga.

Bu vaqtda kez keldik,  
Zamonning bunday toriga.  
Shoshilmasang ko'rarsan,  
Buni ozsinsang tag'inda.

Xiyonatdan bosh tortib,  
Chiq adolat yoniga.  
Buni xohlasang chiqarsan,  
Obro'ning taxtiga.

### **YOSH QOZOQLAR, QAYDASAN?**

Yotmaylik, yoshlar, yotmaylik,  
Tortinma, yo'ling ochilsin.  
Bo'stonida xalqning  
Bulbul bo'b tiling sayrasin.

Sadaqa boshing, jon fido,  
Eng yomoni — haydalsin.  
Har qamalga — bir zavol,  
Bo'lib bir zamon aylansin.

Kechagi dushman qahrli,  
Ertaga xor bo'b yo'qolsin.  
Shioringni chiqarmay,  
Yosh qozoqlar, qaydasan?

## SHOGIRD

Oy yorug‘, salqin havo, kuzgi tunda,  
Katta shahar yotar uxlagan holda.  
Yolg‘iz tirishqoq shogird kitob ushlab,  
Esnab, bedor yashar ijara uyda.

Har holda ozib ketgan, o‘tirar uyg‘oq,  
Unutgan boshqa ishning barin mutloq.  
Obketgan o‘y yetaklab, ruhin egallab,  
Allaqayda cheksizlikka juda ovloq.

O‘ylaydi u: “Ochsam sirin, topsam ilm,  
Yurtim-ov, qilsam mehnat, bo‘lib quling...”  
Kitobni ikki qo‘llab qisib ushlab,  
Yigirib o‘tirar ichdan xayol ipin.

Muhtojlik, mehrsizlik yo‘lini to‘sib,  
Boylar yo‘q bergan ko‘mak buni ko‘rib.  
Tugatib kiyim, taom, o‘quv haqqin,  
Chamasi oz, yetkizolmay yurgan to‘zib.

Ko‘nib yurar yo‘qchilikka necha yilday,  
Qish o‘qib, yoz pul izlab, hech bir tinmay.  
Chidasa ko‘p qolgani yo‘q, maqsad yaqin,  
Xudo obro‘, sog‘liq bersa, dog‘da qolmay.

Yo, Ollo! Talabgorning baxtini och,  
Pok qalb-la ezgu ishning atog‘in soch...

## SOG‘INCH

Ayt rostini, ko‘nglim, qayda borasan?  
Tentirashdan qanday foyda topasan?  
To‘xtaydigan kelgan yo‘qmi mahaling?  
Tinim topmay kuni-tuni chopasan.

O'ynoqlaysan, o't bosasan, turmaysan,  
Bir boshimning olasan bekor mazasin.  
Bilmaysanmi, tahqirlaydi dushmaning:  
"Parishonxotir oladi, — deb, — jazosin".

Bosil endi, kulki bo'lma, ko'nglim,  
Yuragimning sanchiverma yarasin.  
Deydi ko'nglim shunda menga mung'ayib:  
"Sararqaning sog'inaman dalasin.

Hech bo'lmasa emin-erkin kezayin,  
Yesil, Nura, Yedil, Yoyiq yoqasin.  
Qaddimni tiklab, yurib sayr etayin —  
O'rol, Oltoy, Tyan-Shan tog'i orasin.

Qanday holda yotgan ekan ko'rayin,  
Er qozoqning erkin o'sgan bolasin.  
Boyagiday erkinlik bormikan?  
O'z ko'zi-la erka ko'ngling qarasin.

Balki, egallab ketdimikan boshqalar?  
Sezib netsin sho'rlik do'sting chamasin.  
Xon bilan boy, biy bilan botir bormikan,  
O'yin-kulgi, osh bilan to'yi yarashim...

To's-to'polon, nayzamni uzat, jangchi,  
Barimta<sup>1</sup> — molni haydash rusumi.  
Erning xunin ikki so'zda hal qilib,  
Tez ajratgan yolg'on bilan rostini...".

Dedi va yana yig'ladi ho'ngrab ko'nglim,  
"Qiy-maysan, — deb, — rus, nog'ayning qal'asin".  
Men ham egildim, chidamadim ham dedim:  
"Ixtiyoring — borsang, jonim, borarsan...".

---

<sup>1</sup> **Barimta** — xun dovlovchilarning qarshi tarafning yaylovdagi yilqilarini haydab ketishi.



## ELIM-OV

Davo topmay dardingga men ertadan,  
O'sha bir qayg'ung o'zagimni o'rtagan.  
Churq etmaysan bosh ko'tarib ko'rpadan,  
Qadding nega tushdi buncha, elim-ov!

O'tgan sarob, borar olding bir munor<sup>1</sup>,  
Qizilchilsan qizarganga g'oyat xumor.  
"Saqlan" degan so'zni jon yo'q chin uqar,  
Yemga chopgan, qarmoq solsa, elim-ov!

Qanday yeding, qara keyin o'girilib,  
Qanday eding, qolding undan ayrilib.  
Nogiron bo'b, qo'sh qanoting qayrilib,  
O'ksib yig'lab, o'gay o'g'ilday, elim-ov!

Buni bo'sh o'lan<sup>2</sup> desang, o'zing bil,  
Yurt bo'lmayman, o'lay desang, o'zing bil.  
Ne bo'lsa deb ko'nay desang, o'zing bil,  
Bo'sag'ada yurgan qulday, elim-ov!

Tuzalasan qachon, yurtim, o'nqlanib?  
Til olmasang, ketmaysanmi yo'qolib?  
Netar eding o'tgan davron shodlanib,  
Xushnud bo'lib bo'ynin bursa, elim-ov!

O'sha kuningni ko'rish — mening armonim,  
Yo'qlamasdim o'zga tilak qolganin.  
Shum yuragim cho'chimaydi yolg'ondan,  
Bu fe'l-xulqing bo'yda tursa, elim-ov!

---

<sup>1</sup> **Munor** — xira, qorog'i.

<sup>2</sup> **O'lan** — ma'lum bo'g'in o'lchoviga ega, vaznli, qofiyali badiiy asar (she'r), qo'shiq.

## YOSHLARGA

Nayza bilan turtsa ham,  
Yotibsan, qozoq, uygʻonmay.  
Buncha qalin uyquni  
Berding bizga, Tangrim-ay!

Bormi bizday gʻofil yurt,  
Atrofga koʻz tashlasak.  
Koʻzi shishguncha uyquga  
Kelayotgan toʻya olmay?

Qilaman umid yoshlardan,  
Yangi gul sochgan bogʻchaday.  
Murodin oson kim topar,  
Jar solib yurtga qaqshamay?

Xalqqa, yoshlar, boshchi boʻl!  
Qorongʻuda yetaklab.  
Teran suvdan oʻtarmi,  
Ming qoʻyni serka boshlamay?

## YIGITLARGA

Koʻrgan bilan koʻrmaganda koʻp farq bor,  
Boʻlmas yigit yaxshi sinovdan oʻtmay.  
Kattaga, kichikka ham iltifot qil,  
Yotsirab hech odamni sirtga tepmay.

Ibrat ol yaxshilikdan yaqin yurib,  
Ovloq qoch yomonlikdan sirtan chetlay.  
Oʻrinsiz botirlikka uchrab qolma,  
Har ishning mohiyatiga koʻzing yetmay.

Yigitlar, bundan ibrat olmay bo'lmas,  
Odamga birlik kerak bo'lsa yo'ldosh.  
Birining aytganiga biri ko'nmay,  
Kelishmay qilgan ishing sira unmas.

Olis bilan yaqin o'yli bo'lmas yo'ldosh,  
Qasd qilgan yo'ldoshiga yigit yaramas.  
Bor bo'lsa gar naslida bir xom-g'o'rlik,  
O'zga emas, o'ziga bo'ladi qasd.

Baxt-davlat — boshingdagi bir gavhar tosh,  
Yo'q bo'lsa bu ikkisi — ishing unmas.  
Qizig'i bu yolg'onning — mol bilan bosh,  
Daraxtga mevasi yo'q bulbul qo'nmas.

Do'st emas do'st sirtidan yomonlagan,  
Nimasi bor bir xatosin yopolmagan.  
Do'st qayda do'sti uchun jon qiynagan,  
Shunchaki dunyo uchun amallagan?

## NAVRO‘Z

(Yangi yil)

Osmonda quyosh nuri,  
Baxmalday yerning turi.  
Quvonch — mol bilan jonda,  
Qish chiqqan o‘lmay tirik.

O‘ynagan anov bola,  
Yam-yashil o‘tloq dala.  
Ekinzor ekin ekkan,  
Tez bo‘lar yangi yana.

Boy, kambag‘al kelgan bo‘yi,  
O‘yin-to‘y ovul, uyi.  
Qo‘y so‘yib, qo‘noq oshi,  
Mirzalik etgan siyi<sup>1</sup>.

Kelibdi yilning qushi,  
Kunda shu ko‘lning tusi.  
Kun issiq, sovug‘i yo‘q,  
Yoz chiqib, ketgan qishi.

Bo‘zlagan anov tuya,  
Qulunlap yotar biya.  
Gullashga yaqin turar,  
Qizarib qizil shiye<sup>2</sup>.

Ekinchi ekin ekib,  
Qo‘llashib arva qo‘shib.  
Tinch yo‘q erta va kech,  
Mehnat-la azob chekib.

---

<sup>1</sup> Siy — hadya.

<sup>2</sup> Shiye — gilos, olcha.

Ot chopib, toy o‘zishgan,  
Talashib poyga olishgan.  
Darmonsiz, ozib-to‘zgan,  
Yoz chiqib joylanishgan.

O‘yin-to‘y bo‘lib yotgan,  
El ko‘chib, qo‘nib yotgan.  
Yoz chiqib, ko‘klam boshi,  
Anov mol to‘lib yotgan.

Yashnagan teran soylar,  
Yayrashgan qulun, toylar.  
El qo‘nib ko‘l yoqalab,  
Yaylovga molin haydar.

Gul o‘sib gul-gul yashnar,  
Butoqda bulbul sayrar.  
Jonlanib qurt-qumursqa,  
Yer yuzi bij-bij qaynar.

Suluv yurar yasangan,  
Sal jilmayib nozlangan.  
Erinib qadam bosishga,  
Yosh tolday ming buralgan.

Qidirib yigit to‘zgan,  
Laqillab kunda darxon.  
Yangasi iliq yuzli,  
Ot qo‘yib “Kenja qalqam<sup>1</sup>”.

Osmonda kunning nuri,  
Baxmalday yerning turi.  
Quvonch — mol bilan jonda,  
Qish chiqqan o‘lmay bari.

---

<sup>1</sup> Qalqa — suluv qiz.

## ALASHGA

Ko'k maysali, betagali yering qayda?  
Kumushday to'qinlangan ko'ling qayda?  
Inqillab yer qayishgan turli moldan  
Yoyilib, ko'chib-qo'ngan eling qayda?

Ko'targan oq kigizga xoning qayda?  
Qiyg'os qosh, bug'doy rangli xonim qayda?  
Qoraygan sirtqi kelbat negzing butun,  
Bir paytlar boshqa qo'ngan baxting qayda?

Qoq yorgan qora qilni biying qayda?  
Oq o'nda biy tushadigan uying qayda?  
Saltanat Sariatqada qurgan qozoq,  
To'liqsib yurgan kecha kuning qayda?

Chang yutgan takayovmut<sup>1</sup> oting qayda?  
Qoldirmas yovga tashlab yaqin qayda?  
Uchqur ot, tuzuk miltiq, po'lat nayza,  
Kiyingan ko'k dubulg'a botir qayda?

Qayg'urib qonga to'lgan yurak qayda?  
Burq etgan bir og'izdan tilak qayda?  
Yayovga ot, yalang'ochga kiyim bo'lib,  
Qarashgan nochoriga ko'mak qayda?

Bermaydigan el nomusin ering qayda?  
Suyanar qisilganda beling qayda?  
Chunki, aytgani ikki bo'lmaydigan,  
Asl zot ortiq tug'ilgan beking qayda?

Chaldirmas to'ptan to'g'ri chechan qayda?  
Ulug' bilan el boshlagan ko'sem<sup>2</sup> qayda?

---

<sup>1</sup> **Takayovmut** — zotdor turkman yilqisi.

<sup>2</sup> **Ko'sem** — dohiy.

Qozog‘im, qozoqchilik shakling bilan  
Katta yo‘l yashnab yotgan ko‘chang qayda?

Ulug‘, duoli og‘iz qari qayda?  
Dardingga shifo bo‘lar dori qayda?  
Kekkayib, kimga ishonib o‘jarsan,  
Javob bergin, shularning bari qayda?

Javob shu, o‘tgan davron qayta kelmas,  
Qancha o‘ksingan bilan taqdir ko‘nmas.  
Bu kungi nohaq kekxa, poraxo‘r biy  
O‘tganlar kelgan bilan o‘rin bermas.

Har holda, qozoq ko‘chin o‘ngga boshlab,  
Yurishni o‘zligidan yana bilmas.  
Mayli ko‘n, mayli yig‘la so‘ngilarga,  
“Netsin, qayg‘urdi-ku!” deb, ko‘ziga ilmas.

“Ichgan mast, yegan to‘qning” zamoni bul:  
Ochiqqan, achinganning hechga turmas.  
“Molga hirs, molning quli” degan oqin,  
Kim qoqsa “yemishidan” — shunga kundosh.

Alashim, aytganni qilsang, bez bulardan:  
Hech narsa topib bermas, bilganga ermas.  
Qo‘y boqib qashqir qachon vafo qilgan,  
Ko‘raver o‘z holing bilan kuningni o‘lmas.

Qo‘lingdan kelmas ishga ovora bo‘lib,  
Xo‘rlikka, tilim olsang, bo‘lmagin duch.

## YANGI TILAK

Yangi yilda yangi tilak tilaylik,  
Eski yilni eslab ham yuraylik.  
Keb yurmasin qayta aynalib, xo'mrayib,  
Ko'zing yoshli, ko'ngling g'amli, Alashim!

Yurt bo'lishning o'ylanaylik amalin,  
Beg'am yotar emas endi zamoning.  
Nodonlikning qiyrataylik qamalin,  
Maqsadingga intil jadal, Alashim!

Yov bilan yutdan endi Xudo saqlasin,  
Qashqirlarni sharmandalik qoplasin.  
Qari-yoshing endi g'ofil yotmasin,  
Och ko'zingni, imillama, Alashim!

O'z g'amingni o'yla o'zing, el bo'lsang,  
El bo'laman, teng bo'laman der bo'lsang.  
Ko'kdan tenglik kelmas, o'zing kam bo'lsang,  
Loqayd bo'lmay, talpin, uyg'on, Alashim!

Uchgan qushday, suvda suzgan baliqday,  
Tabiatni qo'llanuvchi xalqday.  
Sen ham endi tetiklangin toliqmay,  
Yurmagaysan mangu yayov, Alashim!

Bugun xalqning quvonchi keng kuni,  
Kun bilan tun — tarozining teng kuni.  
“Qut-baraka bo'lmasa ekan kam kuni”,  
Deb tiladik, qo'lingni yoy, Alashim!



## QAYDA EDING

Kechagi qora kunlarda,  
Yulduzsiz, oysiz tunlarda,  
Yo‘l topolmay sandiroqlab,  
Adashib alash yurganda,  
Bu kungi ko‘p daholar,  
So‘rayman, shunda qayda eding?

Aql topmayin dovdirab,  
Jonkuyar topmay tentirab,  
Borarin qayda bilolmay,  
Yurgan bir kunda ko‘p g‘arib —  
Hisobsiz talay chechanlar,  
Holingni ayt-chi, qayda eding?

Sariarqa bepoyon yerlarim,  
Yam-yashil o‘tloq, ko‘llarim,  
Yuksak tog‘ — baland bellarim,  
Barin yovga oldirib,  
Qisilib qozoq turganda,  
Donishmandlar, qayda eding!

Otdan bola ayrilib,  
Qanoti sinib, qayrilib,  
Hasrat to‘lib yurakka,  
Turgan bir kezda qayg‘urib,  
To‘lib yotgan g‘amxo‘rlar,  
Elda yo‘qmiding, qayda eding?

Qulonday hurkib ellaring,  
Qoldirib makon yerlarin,  
Yayov-yalpi, yalang‘och,  
Xotin-bola, erlaring,  
Ochlikdan qirg‘in topganda,  
Nuqul jo‘mard, qayda eding?

Gadoning sho‘rin qaynatib,  
Maydonga yoshin haydatib,  
Til yo‘q, ko‘z yo‘q, boshchi yo‘q,  
O‘limga boshin boylatib  
Yuborarda, jonim-ov,  
Jonkuyar yaqin, qayda eding?

Endi bugun kim yomon?  
Donishmand emas, kim nodon?  
G‘amxo‘r emas, kim yovuz?  
Jo‘mard emas, kim ochko‘z,  
Dohiy emas, kim qo‘rqoq?  
Chechan emas yo‘q odam,  
Bari bilgich, bari ham er —  
Yetkizding, Olloh taolam.

### SULUV QIZGA

Suluv qiz, el ichidan seni topdim,  
Ko‘rdim-u, husningga men beldan botdim.  
Muloyim, oltin sochli erkasisan,  
Uyg‘ongan uyqusidan tabiatning.

Ko‘rish bilan xumordan chiqmas ekan,  
Kaliti qo‘lga tushmay muhabbatning.  
Quyosh emgan mevangni kim olmaydi?  
Keb qolar deb, yo‘lingni poylab yotdim.

Bo‘lmay diydor nasib, tugar toqatim,  
Qo‘l cho‘zsam-da, ko‘rolmadim rohating.  
To‘ti qushday silanib, qiyo ham boqmay,  
Oq qushday yuksaklarga qanot qoqding.

Yolqinin bosadigan yolg‘iz o‘zing,  
So‘nmasdayin qalbinga olov yoqding.

Bo'larmi murod hosil yana sendan,  
O'zingga zimdan mos deb yurgan zotning.

Ayta ko'rma — "ayb o'zingda, o'zing sevding,  
Qayg'uga shod ko'ngilni nega sotding?"  
Suluvim, hakam ham sen, to'ra ham sen,  
Dardimni qayta kelib senga aytdim.

#### BO'LIK: VIJZUP

Bo'larmi murod hosil yana sendan,  
O'zingga zimdan mos deb yurgan zotning.  
Ayta ko'rma — "ayb o'zingda, o'zing sevding,  
Qayg'uga shod ko'ngilni nega sotding?"  
Suluvim, hakam ham sen, to'ra ham sen,  
Dardimni qayta kelib senga aytdim.

Bo'larmi murod hosil yana sendan,  
O'zingga zimdan mos deb yurgan zotning.  
Ayta ko'rma — "ayb o'zingda, o'zing sevding,  
Qayg'uga shod ko'ngilni nega sotding?"  
Suluvim, hakam ham sen, to'ra ham sen,  
Dardimni qayta kelib senga aytdim.

## TOZA BULOQ

Bor ekan tog‘dan oqqan toza buloq,  
Hech el yo‘q atrofida etgan turoq.  
Yoqasida o‘sgan daraxt yaprog‘in,  
Yashnatar kun va yeldan qo‘rg‘ab biroq.

Chillaning tosh kuydirar issiq kuni,  
Shaffof suvi salqin, ko‘rkamdir turi.  
Chinniday yaltiraydi tozaligi,  
Ko‘rinib oynadayin yotar tegi.

Jahongashta uch yo‘lovchi kelayotgan,  
Chanqashib, issiq kunda tanglay qotgan.  
Baxtiga duch kelib, harqalay ular —  
Suv ichgan mehri qonib shu buloqdan.

Rohatlanib joni, chanqog‘i qonib,  
Qarashibdi oqqan suvga hayron qolib.  
Ko‘rdilar oqar suvda yozuvli tosh,  
Yoqalab yuqoriroq yursa borib.

Uchchovi to‘xtab qoldi ko‘rib shunday,  
Ustida yozuvi bor taxta qanday?!

O‘qisa, yozilgandi ushbu so‘zlar:  
“Bo‘lsang bo‘l, ey yo‘lovchi, shu buloqday!”

Savdogar ekan biri uchchovining,  
Tinglangiz, shunda aytgan so‘zi uning:  
— “Yopir-ay! Bu yozilgan dono so‘zdir,  
Ketikmay oqar buloq kuni-tuni.

U tinmay oqar, manzili yiroq,  
Qo‘shilmas nega unga o‘zga buloq.  
Kuchayib, eng so‘nggida daryo bo‘lib,  
Suvidan foydalanar xalq biroq.

Menimcha, bundan murod, ma‘nosi shul,  
Kasb o‘rgan, yalqovlanma, talabli bo‘l.  
Buloqday maqsadingga sen ham yetib,  
O‘zingga tekkizarsan foydani mo‘l”.

Ikkinchisi olim ekan o‘ta ziyrak,  
U aytdi boshin chayqab, nozlanibroq:  
“Bu so‘zlarning ma‘nosi siz aytgandan,  
Menimcha, bo‘lsa kerak teranliroq.

Bu so‘zlardan hikmat shu, odamzodga,  
Tuhfa et yaxshilikni, pulga sotma.  
Buloqday duch kelganga sen shay bo‘lib,  
Biliming tarqat xalqqa, bekor yotma”.

Yosh yigit yo‘lovchining uchinchisi,  
Chiroyli, ko‘rgan ko‘zga ko‘rkam kishi.  
To‘xtab, hech narsa aytmay turgan edi,  
“Ne deysan, ayt, mirza!” — dedi birisi.

Bu yigit berdi javob shunda turib:  
“O‘rnida oqmay buloq qolsa tinib,  
Xas-xashak, chang-tuproq, chalov bosib,  
Tez tugab qolar edi suvi qurib.

Buloq toza bo‘lgandan so‘ng yurtga yoqqan,  
Yozuvdan ma‘no shuldir mening uqqan.  
Qalbingni tanang bilan toza saqla,  
Poklik ila ortiqsan shunda yurtdan.

Fe'li keng, qalbi toza, yuzi yorqin,  
Bo'lsa shu sof buloqday, suvi salqin.  
Dardiga shifo topib, joni suyib,  
Shubhasiz, foydalanar bo'lsin xalqim”.

# BAXTSIZ JAMOL

*roman*

*Qozoqdan chiqqan talabgor,  
Bu kitobni qarab ko'ra,  
Tarqatishga xalqqa o'qib,  
Bo'larsizlar sababkor.*

## SO'ZBOSHI

Mir-Yoqub — pakanalar kichkinasi,  
So'zimning bormi, yo'qmi ajablisi.  
Yaltiragan marvarid yerda qolmas,  
Qozoqcha bir roman yoza qolchi.

Uch jo'zga bizning qozoq bo'linadi,  
Shundayin shajaradan ko'rinadi.  
Soni ko'p, sifati yo'q hammadan bo'sh  
Ilmga bo'yinsinmay erinadi.

Chetga chiqib sahrodan bosmas qadam,  
Bo'ladi bunday yurib qachon odam?  
Bexabar ilmdagi hikmatlardan,  
Tutqunday qafasdagi kuni qaram.

Bo'lmaydi kamchiliksiz hech bir xalq,  
Baridan keyin qolgan qozoq aniq.  
Boshqa yurt bizlar kabi yalqov emas,  
Ilm bilan qorong'uni qilar yorug'.

Chiqadi har xalqning talablisi,  
Bo'lmasmi talablangan kuchli kishi.  
Qozoqda yozilmaydigan bir dard bor —  
Kelmas aybin aytsang foydalangisi.

Gavdasin mirza desang ko'taradi,  
O'pkasi og'rib birdan yo'taladi.

Tislanar xalq foydasi degan ishga,  
Deb, ayt-chi ushbu soʻzni bekor edi.

Oʻqishga emas yurtning bari xumor,  
Oʻqigani romanni ne deb uqar?..  
Demayman barcha yurtning bari nodon,  
Maʼnosin tushunadigan bor ham boʻlar.

Shunda ham yurtning bari bilavermas,  
Soʻz boʻlar yaxshi-yomon bari kengash.  
Maqsadi romanning — xalqni tuzatmoq,  
Yozilgan zerikkandan ertak emas.

Jamolning holin yozdik bu kitobda,  
Baxtsiz bir qiz ekan u shu vaqtda.  
Birovga xos narsa emas ham boʻlgan ish,  
Yoyilgan bu bir udum har qozoqda.

Ajratishsin oʻquvchilar maʼnosin,  
Shunchaki hikoya deb qaramasin.  
Koʻrgan kim shariatdan ushbu soʻzni:  
“Xor etib ayol xalqin ayamasin”.

Sotadi qizni qozoq mol oʻrniga,  
Olmaydi halol juftin yor oʻrniga.  
Ayolni hayvonga hisoblashib,  
Tutadi oʻzin erlar xon oʻrniga.

Payqagin oʻzingga bir hisob berib,  
Baxtsiz Jamol qizni oʻqib koʻrib.  
Qozoqning har yerida bor emasmi,  
Hisoblab voqeani koʻrsang terib?

Bu soʻzni oʻqib koʻrar qoʻliga olgan,  
Inshollo, haqiqatdur, emas yolgʻon.  
Tiyilib mingdan biri xiyonatdan,  
Koʻrsa ekan ayblarin har kim qilgan.



Qozoqcha roman yo‘q bosilgan ko‘p,  
Bu kunda xalq ichida sochilgan ko‘p.  
Mumkin qadar bilganimcha men ham yozdim,  
Tilayman bo‘lsa ekan deb oshirgan ko‘p<sup>1</sup>.

## I

O‘tgan qish chorvaga yengil kelgani uchun ham Ko‘ktol qishlovidagi Qurman ota ovuli ahlining mol-qo‘ylari semiz, biyalari qulunlaydigan bo‘lib, har yilgidan ertaroq yaylovga chiqib ketgan edi. Ikki ovul ahli Saumalko‘lning qirg‘oqlari atrofidagi yaylovlarda to‘xtab, bultur yashagan joylariga o‘tovlar tikishdi. Qish bo‘yi ko‘rishmay, sog‘inishib qolgan birodarlar o‘rnashishga ham ulgurib-ulgurmaslaridanoq bir ovuldagilar boshqa ovuldagilarni mehmonga chaqira boshlashdi. Bo‘zbolalar “qimiz ichamiz” degan bahonada ko‘chalik kiyimlarini kiyib, yaxshi otlarini minib yurishar, qizlari bor ovulda sayr qilishar, bolakaylar esa asov toylarini o‘ynatish bilan ovora edilar.

Bir kuni tush paytida odamlar ko‘lning chap sohili tomonida bir rus va bir qozoq erkakning changni osmonga ko‘tarib, shahd bilan ot choptirib kelayotganlarini ko‘rishdi. Qo‘rqib ketgan bolalar uylariga yashirinishdi, kattalarning esa boshlari qotib, “Bu ikkovlon qayerda to‘xtar ekan?” deb o‘ylay boshlashdi. Kelayotganlar esa ovulboshi Bekjonning uyiga kirib ketishdi. Oradan yarim soat o‘tar-o‘tmas, yaylovga ko‘chib chiqqan aholi orasida “Erta-indin bu yerga krestyanskiy nachalnik kelarmish” degan xabar tarqaldi. Kelgan erkaklarning biri — soqchi, ikkinchisi esa pochtachi bo‘lib, ovulboshining yaqinrog‘iga o‘tov tikib, joy solib, qo‘y so‘yish uchun kelishgan ekan.

O‘sha tunda ovul ahli uyquni ham unutib xabar olib kelganlarga xizmat qilishdi va tongotarda ovulning xushmanzara joyida bitta oq va bitta qo‘ng‘ir tusli uy qad rostladi. Quyosh terak bo‘yi ko‘tarilib qolgan pallada esa shovqin-suron bilan to‘raning o‘zi yetib keldi. U o‘zining xabarchilari zir yugurib, qozoqlarning yordami bilan tiklagan uy oldiga kelib to‘xtaganida, bo‘yniga nishon

---

<sup>1</sup> Romanning she‘riy qismlarini Abdulla Rustamov tarjima qilgan.

osgan ovulboshi bir necha marta ta'zim bajo keltirib, xushomad ila "taqsir, taqsir"lab uni uyiga boshlab kirdi.

Bu orada ishi bor-yo'qligiga qaramay, tekin tomoshadan quruq qolib ketmaslik uchun uy oldiga to'plangan xaloyiq "Katta boshliq nima ish bilan kelgan ekan? Balki Sotiboldining bu yilgi shikoyati yetib borganmikan-a?" degan savollarning yechimini izlash bilan ovora edi. Ba'zilar "Yo'g'-e, shuning uchungina ovora bo'lib kelarmidi. Ehtimol, Mambetga bo'lisligini olib berishga kelgan chiqar-ov..." deb, o'z taxminini aytardi. Shu tariqa, odamlar dalani boshiga ko'tarib, suhbatlashib o'tirgan bir pallada peshonasini jiqqa ter bosgan, qalpog'ini qo'lida tutgan Bekjon uydan chiqdi.

Odamlar undan:

— Ovulboshi, nima gap? To'ra xizmatimizdan rozimikan? U qanday yumush bilan kelibdi? — deb so'rashdi.

Shunda ovulboshi:

— Alhamdulillah, bek meni maqtab, "Spasibo" deb qayta-qayta qo'limni siqdi, — dedi. — Uning bu yerda ishi yo'q ekan, Qorasuv bekatidagi Xoxol shahriga ketayotgan ekan. Bu yerda oz fursat mehmon bo'lib, hordiq chiqarib, kechqurun yo'liga ravona bo'ladi. O'zi juda mehribon odamga o'xshaydi, nuqul "Chorva qalay, xalq tinchmi?" deb surishtirdi. Anavi kuni Kotiboy menga po'pisa qilganini aytganim yo'q. Aytsam, bir baloga uchrashi aniq edi. Hasanning ko'ngliga qaradim. To'ra yana bir yaxshi gap aytdi: "Qozoqlardan askarlikka odam olinmaydi, lekin dehqonlar kabi shaharga qo'shilmqochi bo'lishsa, 15 desyatina yer beriladi" dedi. Keyin "Ekin ekinglar, maktab ochinglar, oqsoqollarni hurmat qilib, buyruqlarni vaqtida bajaringlar" deb nasihat qildi...

Bekjon boshliqdan yana boshqa eshitgan gaplarini aytishga chog'langan paytda, to'plangan olomon orasiga bir yigit yugurib kirdi:

— Sarseke, suyunchi bering! Sholpan yangamning eson-omon ko'zi yoridi, taqiya tikib beradiganni topdi, — dedi.

Yoshroq erkaklar Sarsenboyni tabriklay ketishdi, oqsoqollar esa:

— Sarsenboy, quvonching xayrli bo'lsin, Oллоh uzoq suyuntirsin, qiz ko'rdim deb ko'nglingni cho'ktirma! — deyishdi.

Shunda Sarsenboy:

— Yo'q, unday demanglar. Men sirayam farzandini o'g'il yoki qiz deb tanlaydigan odam emasman, — dedi va o'rnidan turib, otiga mindi-da, uyi tomon ketdi.

## II

Aziz kitobxon! Bizning hikoyamizdagi voqealar yuqorida aytilgan Sarsenboyning oila a'zolaridan boshlangani sababli ham tushunarli bo'lishi uchun Sarsenboyning kimligini va qanday odam ekanligini tasvirlab o'tamiz.

Sarsenboy hech qanday ilm-hunarga ega bo'lmagan, mo'mingina, mol boqadigan odam edi. Uning otasidan ortiqcha davlat qolmasa-da, o'sha paytda anchagina mollari bor, otlarining soni yuzdan oshgan, ikki yuz-uch yuzga yaqin qo'yolari tinimsiz ko'payib borardi. Garchi mol-hollaridan Sarsenboyning ko'ngli to'q bo'lsa-da, rafiqasi Qalampirning bo'yida bo'lmay, ular ikkovi tirnoqqa zor edilar.

Ba'zi vaqtlari Sarsenboyning ham ko'ngli o'ksinar, farzand ko'rish uchun ikkinchi xotin olishga qistayotgan qarindoshlarining gapiga kirgisi kelib qolar, biroq Qalampirdan ko'ngil uza olmas, erta-indin deb vaqtни cho'zib yurardi.

Bir kuni ko'pchilik qimiz ichib, yayrab o'tirgan kez, og'aynilaridan biri yarim hazil, yarim chin ohangda "Hoy, quvbosh! Hammadan ko'p mol-qo'ying bo'la turib, tuzukroq zakot bermasang, Haj ziyoratiga bormasang, unda shuncha boylikni kim uchun yig'yapsan? Hatto Qalampirdan qo'rqib, ikkinchi xotin ham olmading!" deb qoldi. Bu so'zlardan boshi xam bo'lgan Sarsenboy mung'ayibgina uyiga keldi, xotini bilan gaplashishga ham hushi bo'lmay, uxlagani yotib oldi.

Ertasi kuni Sarsenboy ovuldagi bir nechta og'aynilarini chaqirdi-da:

— Sizlarni chaqirishdan murodim shuki, men shu paytga qadar "Noumid — shayton" degan maqolga ishonib, "Mol-davlat bitmas

yigit bo‘lmas, o‘g‘il tug‘mas xotin bo‘lmas” deb, sabr bilan kutib yurdim. Endi qaragam, qirq yoshni qoralab qolibman. Qalampir ham o‘ttiz yoshdan xatlab o‘tibdi. Xotinim! Payg‘ambarimizning sunnati shu-ku, ikkinchi xotin olishimga ruxsat ber! Og‘aynilar, sizlar bu ishda ko‘makdosh bo‘linglar. Mening ham sabr-bar-doshim rag‘bat ko‘rsin, illo men bu ishga sidqidildan bel bog‘la-dim, — deb o‘z qarorini ma‘lum qildi.

Garchi Qalampir erining bu ishini ichida ma‘qullamagan bo‘lsa-da, biroq bu safar Sarsenboyning ham, boshqalarning ham bir og‘izdan shu maslahatga kelganlarini ko‘rib, ichi kuy-di, biroq qancha urinsa-da, qo‘lidan hech narsa kelmasligini tushunib:

— Nima qilsangiz ham ixtiyor o‘zingizda. Mening ustimga ikkinchi xotin olmang deyishga haqqim yo‘q. Shunday ekan, nega menga maslahat solasizlar? — dedi va xo‘mrayganicha xonadan chiqib ketdi.

Shundan so‘ng oradan ko‘p o‘tmay Sarsenboyga bir qiz topil-di. Ulardan qirq chaqirimcha yerdagi Saybolat ovulida yashovchi Jaras degan mullaning bir o‘g‘il, bir qizi bor edi. Mulla olamdan o‘tganidan keyin, yaqin qarindoshlaridan biri uning xotinini va yetim qolgan ikki bolasini o‘z tarbiyasiga oldi. Sarsenboy shu mullaning qizi Sholpanga uylanishni mo‘ljallagandi. Sholpan o‘n to‘rt yoshga kirgani uchun Sarsenboy uning molini to‘liq berib, kelgusi yili birato‘la uylandi.

Marhum Jaras mulla ko‘zi tirikligida qiziga Qur‘onni o‘qishni o‘rgatgan, ozroq yozuv-chizuvni ham tanitgandi. Qalampir esa kundoshligiga borar, goh so‘zi bilan, goh qo‘li bilan Sholpanni ranjitishni kanda qilmasdi.

Sholpan o‘n yetti yoshga to‘lganida qiz ko‘rib, Sarsenboyning yuragini quvonchga to‘ldirdi. Quvonmay ham bo‘ladimi, axir Sarsenboy qirq besh yoshga kirib ko‘rgan ilk farzandi shu qizi edi-da!

Sarsenboy qiz farzand ko‘rganiga qaramay, quvonchini ichiga sig‘dirolmay qoldi, qarindosh-urug‘lari va yaqin atrofidagi erkag-u-ayollarni uyiga to‘plab, to‘y qilib berdi va qizchasiga Jamol deb ism qo‘ydi.

### III

Ota-onasi orziqib kutib erishgan farzandlari Jamolni qo‘lidan kelganicha erkalab, to‘qqiz yoshga yetkazishdi.

Bilmagan odam doimo o‘g‘il bolalarning kiyimini kiyib yuradigan Jamolning qiz bola ekanligini xayoliga ham keltirmasdi. Hatto o‘zini “qiz bola” deganlaridan jahli chiqqan kezlari ham bo‘lardi.

Bir kuni Sarsenboyning uyiga eskicha bilim olgan, dunyoda bilmaydigan narsasi yo‘qligini da’vo qiluvchi bir nodon, chala mulla mehmonga keldi. Mulla tashqariga chiqmoqchi bo‘lganida, Sarsenboy:

— Jamoljon, mullaning kebisi<sup>1</sup>ni olib ber, bir ko‘za suv keltir, — deb tayinladi.

Mulla tashqaridan qaytib kirganidan so‘ng, joyiga o‘tirgach:

— Boy, bu yigitchaning ismi nima? Unga qizlarning ismini qo‘yganmisiz? — deb so‘radi.

Mulla Jamolni o‘g‘il bola deb o‘ylaganini payqagan Sarsenboy bir zum tin oldi-da, keyin jilmayib:

— Taqsir, bizda hamma narsa mo‘l-ku, faqat o‘g‘il borasidagina muhtojmiz, xolos. Oyimiz ham, quyoshimiz ham shu Jamol bo‘lganidan keyin o‘zimizni o‘zimiz aldab yuribmiz-da, — dedi.

Bu so‘zlarni eshitgan mulla bir oz o‘ylanib qoldi-da, keyin:

— Sarseke! Ko‘ngilga solgani durust-ku, lekin shariatda bolaga tulum quyish taqiqlanadi. Qarang-a, qizingiz to‘qqiz yoshga kirib qolibdi! Siz farzandingizga namozni o‘rgating, o‘qiting, sochini o‘stiring. U Olloh taoloning farzlarini bajarsin. Shunda siz ham baraka topasiz. Lekin qizingizning shunchaki savodini chiqarish bilan chegaralanib qolmang, ayniqsa, jadid mullalarga o‘qishga bermang. Nega desangiz, ular ayollarga din, iymon tushunchalarini o‘rgatmaydilar, namoz o‘qitmaydilar, e‘tiqod, ibo-hayoni bir chetga yig‘ishtirib qo‘yib, o‘rislarning “a, b, t” harflarini aytirib, o‘rischa ish tutib, bolangizni buzadilar, — dedi.

Sarsenboy “mulla o‘qigan odam, uning aytgani haqiqat bo‘ladi” deyidigan omi kimsalarning biri edi, shuning uchun ham

---

<sup>1</sup> **Kebis** — mahsi ustidan kiyiladigan kovushsimon poyabzal.

manavi mulla nomini ko‘tarib yurgan odamning bilib-bilmay “shariatda shunday deyilgan” degan gaplariga darrovgina ishona qoldi. Shuning uchun ham “Ollah taoloning amri shunday bo‘lganidan keyin, bu mullaning aytganlarini qilmasam bo‘lmas” dedi-da, Jamolni qiz bolacha kiyintirib, sochini o‘stirishiga va savodini chiqarishiga rozilik berdi. Jamolning onasi ham o‘zi ozroq bo‘lsa-da o‘qigani, ilm qadrini bilgani sababli bunga e‘tiroz bildirmadi. Sarsenboyning to‘ng‘ich xotini Jamolni juda yaxshi ko‘radigandek (garchi ichida kundoshining qizini ko‘rgani ko‘zi bo‘lmasa-da) ohangda:

— Voy, bu nima deganingiz? Jamol qizimiz hech bo‘lmasa o‘n besh yoshga kirsin, keyin sochini o‘stirarmiz, — deb ikkilangan bo‘ldi.

Shunga qaramay, tez orada Jamolga qizlarning kiyimlarini kiydirib, sochini o‘stirib, ilgarigidek uni o‘g‘il bola deb erkatlatmay qo‘yishdi.

Bir kuni o‘sha mullaning qizini o‘qitish haqidagi nasihati yodiga tushgan Sarsenboy xotinlariga maslahat solib:

— Jamol o‘qishni o‘rganish uchun ikki chaqirim naridagi mulla Ahmetjonga qatnay olmaydi. Yaxshisi bironta yoshroq mullani ishga chaqirsak qanday bo‘larkin? Jamolning sharofati bilan ovulimiz bolalari ham bilimli bo‘lishadi, o‘zimiz mollarning zakotini beramiz, o‘qishning haqini butun ovuldoshlar bir bo‘lib ko‘taramiz, — dedi.

Bu gapni xotinlari ham ma‘qullashdi, ovuldoshlari ham rozi bo‘lishdi. Bir-ikki oydan so‘ng, yoz kunlarining birida “Ovulga bir tolibi ilm kelibdi, yaqinda o‘qishni bitirib, mulla bo‘lar ekan” degan gap tarqaldi va Sarsenboy u bilan gaplashgani bordi.

Tolibi ilm deganlari Ufadagi madrasalardan birining talabasi ekan. Qozoq yurtida qimiz ichib, kuzgi tahsil uchun oz-moz pul ishlab olish maqsadida muallimlik qilish uchun kelgan yigirma ikki yoshlardagi G‘aziz ismli no‘g‘oy yigit ravon fikrlar, ta‘lim usullaridan yaxshi xabardor edi. Talaba yigit ikki yildan beri qozoqlarning ichida yurib, ularning fe‘lini yaxshi bilganidan, Sarsenboyning maqsadini tushundi, shu sababli ham suhbatlashgan vaqtida o‘zini eskicha ilm olgandek qilib ko‘rsatdi. Chunki, u

“Qisqa vaqt ichida men bularni o‘zgartirolmayman, shuning uchun xohishlariga qarshi chiqmay, bir amallab xarajatlarim uchun pul ishlab ketay” deb o‘ylardi.

Sarsenboy talaba yigitga:

— Bizning ovulda yetti-sakkizta xonadon bor, besh oyga yigirma besh so‘m pul beramiz. Gapning ochig‘ini aytgan ma‘qul. Men o‘z molimdan ko‘proq beraman, boshqalar o‘zi biladi, agar biron kampir-sampirlar omonatini topshirsa, bu yog‘i o‘z baxtingdan, — deb kuldi.

Ovulning mullasi ham o‘sha uyda o‘tirgan edi. Shu sababli o‘sha yerda o‘tirgan bir yigit:

— Bizning Qasen mulladek qonli qopqonimiz bo‘lsa, bu mulla ham chakki emasdir. Torqa baybike va Japparning o‘g‘li o‘lganidan beri bizning mullamiz ham odatlanib har kuni kimdir kelayotgan bo‘lsa, namozga chaqirarkin deb poylab turadigan bo‘ldi, — deb uyda o‘tirganlarni rosa kuldirdi.

Sarsenboy biroz suhbatlashganidan so‘ng talaba yigit bilan kelishib, uni uyiga olib ketdi.

#### IV

Ular muallim Sarsenboyning uyida yashashiga kelishishgan edi. Mana, talaba yigit Sarsenboy bilan birga kelib, ulkan oppoq uyga kirdi. O‘sha zahotiyoq ovulning bor odami uy atrofiga yig‘ilishdi, Qalampir qimiz olib chiqib ularga quyib bera boshladi.

Sarsenboy Jamolga qarab:

— Chirog‘im, tur, mullakangga mol olib kel, — deb buyurdi.

Jamol otasiga bir qaradi-yu, darrov tashqariga chiqib ketdi. Sarsenboy qizining ortidan g‘izillab chiqdi-da, “Anavi kuni senga kulrang qo‘tir qo‘zini ko‘rsatuvdim, o‘shani olib kelgin. Uyga olib kirayotganda o‘sha joyini kesib tashlaysan, tushundingmi?” deb shivirladi. Jamol “Tushundim, tushundim” deb yugurib ketdi. Bir soat ham o‘tmay, aytilgan qo‘zini tutib, so‘yishdi. Ichkarida o‘tirgan erkaklar muallim bilan maslahatlasha boshlashdi, ayollar esa uydan tashqarida to‘planib, o‘zaro g‘aplashib turishardi.

— Bu yigitning ko‘rinishi g‘alati, o‘risga o‘xshaydi-yov, — dedi ayollarning biri.

— Bu no‘g‘aylarning chuldillagan til qursin-yey! — dedi ikkinchi ayol.

Uchinchi ayol esa bo‘yi yetgan bir qizga qarab:

— Judayam barno yigit ekanmi? — deb hazillashgan bo‘ldi.

Uy ichidagi erkaklar ham vaqtni bekor o‘tkazmay, besh-olti kosadan qimizni ustma-ust ichib olib, “Muallim, qayerda o‘qigansan? Qanday ilmlarni o‘qigansan? Qaysi shaharda tug‘ilib-o‘sgansan? Millating no‘g‘aymi yoki boshqirdmisan? Necha yoshdasan? Otang bormi? Ilgari ham qozoq yurtiga kelganmisan? Tanishlaring bormi?” kabi kerakli-keraksiz savollarni ustma-ust qalashtirib, muallimning boshini qotira boshlashdi. Shu tariqa gaplashib o‘tirib, so‘yilgan qo‘zining go‘stini yeb bo‘lishdi va to‘planganlar birin-ketin tarqalishdi.

Ertasi kuni muallimga bir xonani ajratib berishdi va u o‘n chog‘li bolalarni to‘plab, o‘qita boshladi. Bu o‘quvchilarning bir-ikkitasini hisoblamasa, qolganlari ilgari birontayam harf o‘qimaganlar edi. Muallim ularga jadidona bilimlarni o‘qitishni xohlasa-da, lekin o‘quvchilarning ota-onalari:

— Mulla! Bizning bolalarimizga birinchi o‘rinda iymon-e‘tiqodni, namoz o‘qishni o‘rgatsang, oldingi mullalar o‘qitgan kitoblarni o‘qitsang, shuning o‘zi kifoya, boshqasining keragi yo‘q, — deyishardi.

Ota-onalar shunday deb turishganidan so‘ng ilojsiz qolgan muallim bolalarga faqat so‘ralgan narsalarnigina o‘qita boshladi. Ilgari o‘qimagan bolalar ichida eng zehnlisi Jamol bo‘lib chiqdi (Jamol o‘sha yilning may oyida to‘qqiz yoshga to‘lib, o‘nga qarab ketgandi).

Oradan bir oycha vaqt o‘tgach, Jamolning zehni o‘tkiriligiga qiziqib qolgan muallim Sholpanga shunday dedi:

— Agar Jamolni jadidlar usulida o‘qitsam, tezgina o‘qish-yozishni o‘rganib olardi-ku, biroq boy bunga unamasa kerag-ov...

Shunda Sholpan unga:

— Mullaka, bu haqda otasiga aytish shartmi, hech kimga bildirmay asta-sekin o‘rgatavering, — dedi.



Bu javobdan xursand bo'lgan muallim o'sha kundan boshlaboq boshqa o'quvchilariga javob berib yuborganidan so'ng Jamolni olib qoladigan va kuniga bir-ikki soatdan o'qish-yozishni o'rgatadigan bo'ldi. Jamol uch yarim oy deganda muallimining sa'y-harakatlari va o'zining zehni yordamida xat yozishni o'rganib, oz-moz o'qiy boshladi. Muallim besh oy o'qitganidan so'ng esa Jamol juda kuchayib ketib, turli kitoblarni o'qiy oladigan bo'ldi. Sentyabr oyining oxirlarida muallim Ufaga qaytib ketgach, Jamolning o'qishi ham to'xtadi.

Muallim Sarsenboyning uyida yashayotgan vaqtlari Sholpan o'g'il farzand ko'rgan edi. Bundan quvongan Sarsenboy "Oyog'i qutlug' keldi" deb muallim yigitga aytganidan ziyoda qilib haq to'ladi. Dunyoga kelgan o'g'ilchasiga ham o'sha mulla yigitdek aqlli, bilimli yigit bo'lsin degan niyatda G'aziz deb ism qo'ydi.

Muallim ketganidan so'ng, Sarsenboy yana bir mulla topish harakatiga tushdi. Bu vaqtda qish kirib qoldi, odamlarning "Yetar endi. Jamolni o'qitmay qo'ya qol. O'n ikkita fanni yaxshi bilsa ham, baribir qiz bolaning dars berib yurishi yaxshi emas" degan maslahatlaridan keyin fikri aynigan Sarsenboy boshqa mulla izlamay qo'ydi.

Ovul ahli unchalik boy bo'lmaganlari sababli, o'z holicha muallim yollashga qurlari yetmas edi. Jamolning o'qishni o'rganishi shu tariqa besh oygina davom etib, yozishni o'rganishi oxiriga yetmay ham qoldi. Muallim ketganidan so'ng Jamol hamma-ga qissa-dostonlar o'qib bera boshladi, hatto otasi ham uni tinglab to'ymas edi. Hatto uyiga mehmon kelsa ham, otasi:

— Jamoljon, mehmonga xizmat qil, qissa o'qi, "Sal-Sal"ing qani, "Qiz Jibek"ing qani? — deb turardi.

Jamol qissalarni boshdan-oxirigacha o'qib berishga sirayam erinmasdi. Jamol o'qimagan qozoq qissalari judayam kam qolgan-di. Yurt kezib yuradigan mayda savdogarlarda qanaqangi yangi kitob bor bo'lsa, otasi og'rinmay sotib olib berardi. Jamolning kichkinagina sandiqchasi bo'lib, uning ichida "Sal-sal", "Qiz Jibek", "Zarqum", "Ko'r bola haqida qissa", "Birjon sal<sup>1</sup> va Sora qizning

<sup>1</sup> Sal — qadimgi qozoq jamiyatidagi san'atkor, improvizator, qo'shiqchi, bastakor, chechan insonlar guruhining unvoni, sallar institutining vakili.

aytishuvi”, “No‘g‘ay bilan qozoqning aytishuvi”, “Oqsuluv”, “Oyman-Sholpan”, “Bo‘z yigit”, “Shukur — Shukurat”, Oq mul-la, Nurjon, Abubakir mulla va boshqalarning she‘rlari jamlangan kitoblar turardi. Jamol hatto o‘sha she‘rlarning ba‘zilarini yoddan bilar, biror joyga borib qolganida, “Jamol, she‘r o‘qigin” deyishsa, sharillatib o‘qib beraverar edi.

Garchi muallim o‘qitmayotgan bo‘lsa-da, o‘zi mustaqil kitoblarni o‘qiyotgani va el ichida she‘r o‘qib yurgan qizlarning she‘rlarini yozishi tufayli uning yozuvi kundan-kunga yaxshilanib borardi. Jamolning bunday ziyrakligi og‘izga tushib, o‘n yoshga yetgan vaqtida, odamlar “Sarsenboyning yaxshi qizi bor” dey-digan bo‘lishdi. Jamolning onasi juda aqli va go‘zal ayol bo‘lganidan “Onasini ko‘rib qizini olgin, oyog‘ini ko‘rib, ovqatini yegin” degan maqolni ham eslab qo‘yishardi.

## V

Bir kuni, biyalarni sog‘ish vaqti yaqinlashayotgan pallada, ovul chekkasidagi tepalik etagidan uch kishi nimalarnidir gaplashib kelishardi. Ularning biri o‘zimiz tanigan Sarsenboy bo‘lib, qolgan ikkitasi esa shu ovuldagi ot ustida yuradigan, ish qilgandan ko‘ra ko‘proq gap sotishni bilishi bilan el orasida tanilgan kimsalar edi. Bu ikkovlon Sarsenboyga qarab, “Sarseke, hozirgi davrning o‘zi qo‘rqqanni siylaydigan zamon bo‘lyapti. Ozroq qo‘liga pul kir-gan kishi — boy bo‘lib, o‘zini bilmay ketiyapti. Shu bois sizga bir narsani aytgani keldik — Oллоh taolo sizga kimdandir ko‘proq, kimdandir kamroq davlat berdi, ikkinchidan esa yomon kuningiz ham bo‘ldi. Unchalik yomon deb ham bo‘lmaydi, lekin shuncha mol-holingiz bo‘la turib, bir tirnoqqa zor bo‘ldingiz, “quvbosh” degan so‘zni eshitgan kuningiz ham bo‘ldi. Endi bir nomingizni chiqarib olsangiz qanday bo‘lar ekan-a? Mana, saylovga ham uch oy qoldi. Ko‘pi bilan uch yuz tanga ketishi mumkin. Agar ma‘qul desangiz, biz o‘zimizga qarashli Qurmon bo‘lib, sizni biy etib say-laymiz, xalq bir bo‘lib ovoz beradi deb o‘ylayman. O‘zimizning Nurpeis biy rozi bo‘lsa, ilojini topar, bo‘Imasa o‘zimiz tavakkal qilishimizga to‘g‘ri keladi” deb, xushomadli makkorona gaplari

bilan Sarsenboyning avray boshladilar. Sarsenboy qanchalik mo‘min, kamtarin odam bo‘lmasin, shuhratning ortidan keladigan boylikka uchdi-da, “Mayli, bilganingizni qilinglar” deb qo‘ya qoldi.

Bunaqangi maslahatlar bir emas, bir necha marta berilganidan so‘ng, oxiri Sarsenboy saylovda qatnashishga rozi bo‘ldi. Saylov yetib keldi. Sarsenboy saxiylik bilan odamlarga ot yog‘i ulasha boshladi, yetmasa yana ot so‘ydi. Sanalganida, uning to‘rt yuz tanga sarflagani ma‘lum bo‘ldi. Uning barcha urinishlari behuda ketib, Nurpeisga o‘n to‘qqizta to‘pcha, Sarsenboyga o‘n to‘rtta to‘pcha chiqdi. Bu ish besabab bo‘lmas edi — o‘sha yerda xalq judayam hurmat qiladigan Boyjon ismli odam bor edi. U to‘pchalarni solishdan oldin saylovchilarga yuzlanib, “To‘pchalaringizni Nurpeis uchun solinglar. Yangi boyigan qurmanlikdan ko‘ra xalq bilan gaplashganida nomus qilmaydigan, elning belini sindirmaydigan Nurpeis afzalroq emasmi?” deb undayotganini o‘sha zahotiyoq bir odam Sarsenboyga kelib aytgan edi.

Sarsenboy xuddi shuncha qilgan mehnatini suv oqizib ketgan odamday bo‘lib uyiga qaytdi. Hokimiyat uchun kurash unga qimmatga tushdi, o‘ylaganidan ancha ko‘p xarajat qilib yubordi. Jimgina tirikchiligini ko‘rib yurgan Sarsenboyning saylov uchun kurashga qiziqtirgan do‘stlari:

— Ko‘p kuyinaverma, kelgusi yili saylanasan! — deb tasalli bergan bo‘lishdi.

Shu tariqa, saylov ham tugadi, oradan besh-olti oy ham o‘tib ketdi. Ba‘zi vaqtlari saylov esiga tushib, qilgan xarajatlari va uyalib qolganini o‘ylaganida, Sarsenboyning ichi kuyib ketar, “O‘shandagidan ikki barobar ko‘proq xarajat qilsam ham mayli, faqat maqsadimga yetsam bo‘ladi edi” deb o‘ylab qo‘yardi.

## VI

Yuqorida tilga olib o‘tganimiz Boyjonning o‘n yetti yoshga kirgan, boshida bir tuki yo‘q kal, ustiga-ustak tentakroq Juman ismli o‘g‘li bor edi. O‘sha elda ikki-uch yigitning ismi Juman bo‘lgani uchun ham ularning birini “Juman sariq”, ikkinchisini “Juman pakana”, Boyjonning o‘g‘lini esa “Juman kal” deyishardi.

“Ota dong‘i bilan qiz ketadi, mato dong‘i bilan bo‘z o‘tadi” deb Boyjon o‘zi durust odam bo‘lganidan so‘ng, qo‘li yetib turgan paytda bironta boyroq xonadondan Jumanga yaxshiroq qiz izlashga chog‘landi. Bir kungi o‘tirishda u:

— Juman uchun qizini so‘rab borishimga loyiq birontasini bilasizlarmi? — deb so‘rab qoldi.

Shunda o‘tirganlardan biri:

— Bu yil Nurpeis bilan hokimiyat uchun kurashgan Sarsenboyning yaxshi qizi bor. Uning onasi Jaras mullaning qizi bo‘lib, o‘zi o‘qimishli, tarbiyali ayol. Sarsenboyning qizi o‘qigan, hozir o‘n-o‘n bir yoshlarda bo‘lsa kerak, — dedi.

Boyjon ichida “Unday bo‘lsa, e‘tiborga arzigulik joy ekan” deb o‘yladi. Oradan ko‘p o‘tmay Boyjon “Xudo xohlasa, quda bo‘laylik” deb Sarsenboynikiga odam jo‘natdi. Bu xabarni eshitgan Sarsenboy oila a‘zolariga maslahat soldi. Katta xotini Boyjonga quda bo‘lishga rozi bo‘ldi, lekin Jamolning onasi Sholpan bunga ko‘nmadi.

Biroq oxirgi saylovda Boyjonning Nurpeis tomonga o‘tib olgani va o‘zini quruq qo‘l bilan qoldirganini o‘ylagan Sarsenboy qudalik sababli keyingi saylovda biy bo‘lib saylansammikan deb o‘ylab qoldi va hokimiyat uchun kurashga undagan do‘stlari bilan maslahatlashdi. Ular yangilikni eshitiboq:

— Xudo bergani shu, xayrli bo‘lsin, quda bo‘laver, qizni qirg‘izgayam beradi-ku, axir! Boyjonning o‘g‘li aslzodalar naslidan, ulg‘ayib, es-hushini yig‘ib oladi, — deyishdi.

Sarsenboy ikkilanishini yo‘qotib, quda bo‘lishga ko‘ndi. Faqatgina Sholpan bir necha kungacha bunga ko‘nmay:

— Jamolni o‘zining tengiga uzatamiz. Boyjonning o‘g‘lini badfe‘l deyishadi, otasining boyligini boshimizga uramizmi? — dedi.

Biroq Sarsenboy ikkinchi xotining gapini sira qulog‘iga il-madi.

— Ikki dunyoda ham bu bola Jamolga teng bo‘la olmaydi. U tugul hatto shahzoda bo‘lganida ham, nahotki Jamolni shunday yomon odamga ravo ko‘rsangiz? — dedi Sholpan ko‘zlaridan shashqator yoshini oqizib, uydan chiqib ketarkan.

— Ayollarning sochi uzun, aqli kalta bo‘ladi-da! — deb ming‘irladi Sarsenboy uning ortidan.

Sarsenboy qizi Jamolni judayam yaxshi ko‘rar, uni o‘zining tengiga uzatishni istashiga hech shubha yo‘q edi. Biroq o‘tgan saylovda yo‘qotgan pullari, boshiga yopirilgan sharmandalik alami va kelajakka bo‘lgan umidlariga odamlarning gap-so‘zlari qo‘shildi-yu, “Nimaiki qilib bo‘lsayam Boyjon bilan quda tutinaman” deb qo‘ydi.

Bir oydan keyin qirq yettita qoramol, ikki yuz tangaga keli-shishdi-yu, Boyjon ikkalovi quda tutinishdi. Sarsenboy sevimli qudasini rozi qilib qaytardi.

Oradan bir oz vaqt o‘tib, Jamol o‘n besh yoshga kirdi. O‘zining husni-jamoli, aql-farosati va otasining boyligi uchalasi mos tushib, Jamol elning oldi qiziga aylandi. Bu fazilatlaridan tashqari, Jamol yana so‘zga usta qiz bo‘lib, she‘rlar ham yozardi. O‘ziga shunchaki gap otgan yigitlarni gap bilan mot qilib, og‘zini ochirmay qo‘yardi. Bora-bora yigitchalarning ko‘zi unga tushib, ovuldan tashqarida ham “Sarsenboyning judayam chiroyli shoira qizi bor” deb dovrug‘i tarala boshladi.

Bir kuni ovuldoshlaridan biri qizini uzatganida, kechqurungi ziyofatga ko‘pchilik yig‘ildi. Jamolning jamoliga yetolmay, alami ichida qolgan besh-olti nafar yigitchalar maslahatlashib:

— Bu Jamol yosh bo‘lsa ham juda mashhur bo‘lib ketyapti. Bugun kechqurun unga bir she‘r aytirib, mot qilaylik, — deyishdi.

Yigitchalar maslahatlashib, uch band she‘r yozishdi, keyin uni pishiqroq yigitga yodlatib, Jamolning oldida o‘qishini tayinlashdi.

Bu yigitlar Jamolning unashtirilgan kuyovining yomonligini ochib tashlab, uni she‘rga solishgan edi. Tun kirib, to‘yda o‘yin-kulgi qizigan bir paytda she‘rni yaxshilab yodlab olgan yigit Jamolning yoniga o‘tirdi. O‘sha yigitning she‘r aytish navbati kelganida, u do‘mbirasini chalib, Jamolga qaragancha o‘qiy boshladi:

*Do‘mbira qo‘limga ushlab, bosdim parda,  
“Nur yog‘ar — degan so‘z bor — talabli erga”*

*Yoshimdan boy bolasi bo'lganlikdan,  
Yomon qiz unday-bunday tengmi menga?*

*Bilganga — ishora so'z yetar degan,  
Bilmasga — so'zi xor bo'lib ketar degan.  
Eshakka arg'umoqni qo'shib qo'ysang,  
O'tadi umri qayg'uda bekor degan.*

*Olisdan ot terlatib keldim to'yga,  
Yaxshi bilan suhbatlashmoq bo'lib o'yda.  
Oqqush ilgan epchil burgut biz bo'lamiz,  
Tenglashtirib yurma, qurdosh, qirg'iyya.*

Jamol she'rning mazmunini tushunib, bu yigitda she'r yozish qobiliyati yo'qligini payqadi va "Oldin bir band she'r aytay-chi, shunda nima der ekan?" deb o'ylab, aytgani shu bo'ldi:

*So'zingiz o'ta muloyim, oqin og'a,  
Hunarga yosh chog'ingdan yaqin og'a.  
Berishga qanday javob bilmayapman,  
Tushuntir so'zingizning aslin, og'a?..*

To'yga kelganlarning bari "Jamolning so'zlariga bu yigit nima deb javob qaytararkin?" deb o'ylab, yuraklari shoshib, "Qani, shoir, o'qi!" deb xitob qila boshlashdi. Yigit esa bor-yo'q yodlagan uch band she'rini o'qib bo'lganidan, Jamolning bu so'zlariga munosib javob qaytara olmadi, xijolatligidan qip-qizarib, o'ziga she'r yodlatgan og'aynilariga o'qrayib qarab o'tiraverdi. Shu vaqtda Jamol qaddini rostlab, manavi she'rni o'qidi:

*Og'adan so'z qaytmaydi singlisiga,  
Yigitdan sizday javob topilmasmi?  
Chiqsa gar o'lan yoriqlik, bo'yga qaynab,  
Javobga sizday aziz torilmas ham.*

*Bo'lgan so'ng o'rganishli bir-ikki og'iz,  
Aytishga sizga, og'ajon, unamas ham.*

*Eshak bilan arg'umoqqa misol qilib,  
Afandim, bilganingni betga bosma.*

*Bandasi haq yaratgan emas birday,  
Xon, qora, biy, to'ra va qari-yosh ham.  
Nomusi bo'riklining bir degan bor.  
Bilsangiz, sizga uyat, shu rostmi?*

*Zamondosh, yaxshi so'zni tabib degin,  
Tengdoshga bir sabab-la kelsa xasta.  
"Bir sirli, sakkiz qirli" ko'rinasiz,  
Yanada bilganingni aytib tashla.*

Jamolning so'zga chechanligiga qoyil qolgan xaloyiq uni rosa maqtadi, shundan keyin "Ikkinchi Sora oramizdan chiqdi-ku, endi aytishuvda unga bas keladigan Birjon qayerdan chiqar ekan?" degan gap-so'zlar tarqaldi.

## VII

Jamol ulg'aygani sari unashtirilgan kuyovining nochorligini bilib (buni bir to'yda ko'rgandi), kundan-kunga ko'ngli cho'ka boshladi. Jumanning yomon qiliqlari tufayli do'stlari orasida kulgiga qolishlari ham Jamolning qayg'uga botishiga sabab bo'lardi. Masalan, Jumanni shakar, choy va boshqa narsalarni xarid qilish uchun shaharga jo'natishsa, yo'lda mo'ynalarni olibsotarga sotar va aldanib, o'nta oltin tanga o'rniga bir tiyinlik mis tanga ko'tarib kelaverardi. O'zini bo'ydoq yigitcha qilib ko'rsatmoqchi bo'lib, qizi bor bir uyning eshigi oldida uxlab qolganida, qizning otasi ertalab uni uyg'otib, "Turaqol, bolam, uyqung pishgandir, uyingga borgan" deb jo'natib yuborgan edi. Bunaqangi gap-so'zlarning bari Jamolning qulog'iga yetib kelardi, albatta.

Jamol o'zi ota-onasining tilab-tilab zo'rg'a topgan farzandi bo'lsa-da, lekin nima sababdan uni bunday yomon odamga uzatayotganlarini sira tushunmasdi. O'zi tengdosh qizlarning erlari bilan solishtirganida, Jumandan yomonrog'i topilmasdi. Ba'zan be-

gona ovullardagi qizlarning bo'lg'usi erini yoqtirmay, boshqa yigit bilan qochib ketganlarini eshitsu, ichida "U ham mendek baxtsiz ekan-da!" deb o'ylar va ularga rahmi kelardi. "Agar men ham ular kabi biror yigitga ko'ngil qo'yib, qochib ketsam, falonchining qizi qochib ketibdi degan malomat tarqalib, otamning boshi egilib qoladi. Jumanga turmushga chiqishga rozi bo'lsam, umrim xorlikda o'tadi", deb o'ylar, qaysi yo'lni tanlashni bilolmay, ba'zi vaqtlari tuni bo'yi o'ylarga ko'milib, mijja qoqmay chiqardi.

Tinimi yo'qolganidan Jamol judayam charchab qola boshladi. Ota-onasi uning ahvolini sezib:

— Qizim, nega horg'in ko'rinasan? — deb so'rashardi.

— Shunchaki boshim og'riyapti, — deb qo'ya qolardi Jamol.

Jamol shunaqangi dard-dunyosi qorong'i bo'lib yurgan kunlarning birida, Boyjondan Sarsenboyga "Bu yil o'g'lim borib, xotinini ko'rib keladi" degan xabar keldi. Bu xabarni eshitib, Jamolning qayg'usi uch barobar oshib ketganini aytmasak bo'lmas. Jamol qanchalik xafa bo'lmasin, dardlarini kimgadir aytishning ilojini topolmay, oxiri qo'liga qog'oz va qalam olib: "Hech bo'lmasa ko'nglimdagi dard-xasratlarimning o'ndan bir qismini chiqararman" degan ilinjda o'zining ahvoli haqida bir nechta she'r yozdi.

Jamolning onasi qizi nimalarnidir yozayotganini, lekin yoniga kimdir yaqinlashganida, darrov qog'ozni yashirib qo'yayotganini payqagan edi. "Jamol nimalarni yozib yurgan ekan-a?" deb ko'ngliga shubha o'rmalagan Sholpan qizi yo'qligida cho'ntaklarini titkiladi, biroq hech narsa topolmagach, kitoblar solingan sandiqchasini kavlashtirdi va bir kitobning orasidan she'r yozilgan qog'ozni topib oldi. O'sha she'r mana bu edi:

*Ollohning rahmatiga cho'zaman qo'l,  
Adashgan men bir g'arib topolmay yo'l.  
Ochilib bizning boshqa tushgan tuman  
Shodlik-la o'tkaz deymen — tilagim shul.*

*Sirtim sog', ichim tutun xafalikda,  
Bu kunda ko'nglim to'zgan, hasratim mo'l.  
Teranga tushib ketdim, ushlar tol yo'q,  
Bir Olloh, yolg'iz o'zing ko'makchi bo'!*



*Bog'chada sayrab yurgan bulbul edim,  
Duch bo'ldi men sho'rlikka qurilgan to'r.  
Ko'l bo'lib ko'zning yoshi o'tganim-ku,  
Bo'lmasa ajramagan manglayda sho'r.*

*Joylagan oqqush edim cheksiz ko'lni,  
Bu kuni ko'rinadi yomon ham zo'r.  
O'rolning chaqqon derdim o'z burguti.  
Chindan boyo'g'liga bo'larmanmi xor?!*

*Men hayron otam molga sotganiga,  
Bir kalni butun eldan topganiga.  
Nomi o'chib tug'may ketkir Juman degan!  
Mol berib, meniki deb yotganiga.*

*Otaning boy bolasi qora bosqir —  
Jumanning ne berasan maqtoviga?  
Qozoqning barcha g'oyib odatiga,  
Tushganim bor qashqirning qopqoniga.*

*Otamga men ne yozdim xor qilganday,  
Bo'lmasa bir fe'lim-la yoqmadimmi?  
Yoshimdan tarbiyali xon qiziday,  
Hasrat oxirida tortganimmi?  
Ardoqlab o'g'ildan ortiq qiz boshimni  
O'stirgan otamga uvol ortganimmi?!*

Bu so'zlarni o'qigan onaning ko'zlaridan duvillab ko'z yoshlari quyilib ketdi, qizining nima sababdan qayg'uga botib yurganini tushundi-da, qog'ozni yana joyiga solib qo'ydi. Endi Jamol qanchalik o'ychan yursa, Sholpan ham shunaqangi xavotirga bo'tardi.

U bir kuni kechqurun uyquga yotayotib, Sarsenboyga dedi:

— Ey, Xudoyim-ey, ayollarning so'zini nazarga ilmay, qizinigzni shuncha qayg'u-alamga botirdingiz. Qarang, Jamoljonimiz qanaqangi ozib-to'zib ketyapti. O'sha yerlarda xor bo'lsa, ikki dunyoda bizni kechirarmikan? Axir bizning ota-onalik farzimiz bolaning baxtini o'ylashdan iborat emasmi?

Sarsenboy nima deyishini bilmay:

— Jamolga nima bo‘libdi, yaxshi yuribdi-ku? — dedi.

Sholpanning jahli chiqib:

— Yaxshi yurgani qursin! Sizning irodangiz yo‘q, yuragingizni qizdirgan gaplarga erib ketdingiz, oxir-oqibatda Jamol qizimizning ko‘z yoshlariga qolmasak edi! Ota-bobongiz istamagan ishlarni qilaman deb biy bo‘ldingiz, qani bir yil ichida shoxingiz chiqqanini ko‘rsating-chi! — dedi. (Sarsenboy xotinining norozi bo‘lishiga qaramay, kelgusi saylovda qudasining yordamida biylikka erishgan bo‘lsa-da, bir yilga yetmasdanoq syezd vaqtida bir kishini so‘kib, qamchi bilan urmoqchi bo‘lgani sababli biylikdan tushirilgan edi). Sarsenboydan tuzuk-quruq javob chiqmaganidan so‘ng, Sholpan yana qayta so‘radi:

— Shunday qilib, endi Jamolni yaxshi ko‘rmagan odamiga uzatamizmi?

Shunda Sarsenbay shahdlanib:

— O‘sha it bilan o‘chakishib bo‘ladimi? Bu yog‘iga peshonamizga yozilganini ko‘ramiz. Agar Jamolni boshqa odamga uzatamiz desak, Boyjon hokimiyat tepasidagilarni ishga solib, bizni tinch qo‘yarmikan? Molimizdan ham ayiradi, jonimizdan ham mahrum qiladi! “Xotin — dushman” deganlari shu-da, aks holda bunaqangi gaplarni aytmagan bo‘larding! — dedi.

Sholpan aslida Sarsenboyning mo‘minligi va qo‘rqoqligini yaxshi bilardi-ku, lekin shu safar erining xayolida nimalar borligini aniq ko‘rganidan so‘ng, u bilan maslahatlashib, boshlariga tushayotgan ofatni bartaraf qilishdan umidini uzdi. O‘sha tundagi suhbatlaridan keyin Sholpan qaytib Jamol haqida Sarsenboyga hech narsa aytmaydigan bo‘ldi.

## VIII

Boshi omonligi, mol-holi tugalligidan otasining ko‘ngli shodon, Jamolning ko‘ngli esa hamon qayg‘uga botganicha yana bir oz vaqt o‘tdi. Jamol qanchalik qayg‘ursa-da, biroq sirini atrof-dagilarga bildirmaslik uchun qizlar boradigan to‘y va o‘yinlardan qolmasdi. Ochig‘i, Jamol bormasa, o‘yinlar qizimasdi ham.

Qishning o'rtalari edi. Bir kuni shu eldagi anchadan beri farzandga zor bo'lib yurgan bir badavlat kishi kutilmaganda o'g'illik bo'lganidan quvonib, qizlar va yigitlarni to'plab, katta ziyofat qilib berdi. Atrofdagi ovullarda yashovchi qizlarning hammasi kelishdi, ular ichida Jamol ham bor edi. Yog'och uyning bir xonasi to'ridan to'eshigigacha odamga to'lgandi. Bu elda shunaqangi o'yin-ermaklarda ishtirok etayotganlarni bir yigit va bir qiz qilib, yonma-yon o'tqizadigan odat bor edi. Yig'ilganlarning biri she'r o'qir, ikkinchisi hazil-mutoyibalar aytar edi. O'yin ayni qizigan pallada, "Xayrli kech!" degancha ikki yigit kirib kelishdi.

Mezbon yigitchalar:

— Mana, sipo yigitlar ham kelishdi. Ularni qayerga o'tqazamiz? — deb maslahatlasha boshlashdi va ko'p o'ylamay, yigitlardan birini Jamolning yoniga o'tqazib qo'yishdi.

Bu yigitni bizning Jamolimiz tanimas edi. Biroq tez orada uning yaxshi yigit ekanligini angladi. Yigit o'tirganidan so'ng uy ichidagilarning hammasi bilan qisqa-qisqa so'rashdi, so'ngra Jamolga qarab:

— Siz ham yaxshi yuribsizmi? — deb qo'ydi.

No'g'aycha kiyim-boshdagi G'ali ismli bu yigit o'rtabo'y, xushsurat bo'lib, yuzida kichikroq qoramtir dog'i bor, mo'ylabi sabza urgan, odobli bo'lib, vazmin ohangda so'zlardi. Tashqaridan qaraganda, shu uyda o'tirgan yigitlarning afzali — G'ali bo'lsa, qizlar ichida eng a'losi — Jamol bo'lib ko'rinar, ikkovlarining yonma-yon o'tirishlari judayam yarashib tushgandi.

G'ali boshqa ovulda yashaydigan Duysebek degan kishining o'g'li edi. U yoshligidanoq Qiziljar va Troitskiydagi madrasalarda tahsil olgan, shuningdek, xususiy o'qituvchilardan ozroq ruscha o'qish va yozishni o'rgangan edi. G'ali madrasalarda yaxshi bilim olgan bo'lsa-da, biroq mulla bo'lib ishlashni orzu ham qilmasdi. U oxirgi paytlarda hatto o'qishni ham yig'ishtirib qo'yib, ozroq savdo-sotiqqa aralashib yurardi. Garchi otasi boy odam bo'lmasa-da, G'ali ish munosabatlarida doimo lafzida turgani uchun ham hurmat-e'tiborga sazovor bo'lgandi, shu bois boylar bu yigitga nasiyaga mol berishdan qo'rqishmasdi.

Bu yigit doimo o'qish bilan band bo'lib, yaqindan beri savdo ishlari bilan yurgani va odamlarga ko'pda aralashavermagani sababli ham u atrofidagi insonlarni, ular esa G'alini yaxshi bilishmasdi. Odamlar Duysebekning o'g'li talabchan, chaqqon yigit ekanligini, qishin-yozin uyda o'tirmay, bilim olish va kasb o'rganish bilan band ekanligini bilishardi, xolos. U yaqinda bo'lib o'tgan savdo ko'rgazmasida oldi-berdilarini tugatib, bir-ikki yuz tangalab foyda ko'rgan, keyin uyiga qaytib, og'aynilari bilan ko'rishib yurgan paytida shu o'yinga kelib qolgan edi.

G'ali Jamolning yoniga o'tirganidan so'ng, ular bir-biridan kim ekanliklarini so'rab, bilib olishdi. G'ali shu paytgacha Jamol ko'rib yurgan yigitlarga nisbatan so'zga chechanroq bo'lib, qizning savollariga to'liq javob qaytarar, chiroyli so'zlar edi va shu sababli atrofdegilar nimalarni xohlashayotganini, nimalarni gapirayotganlari va o'ynayotganlarini unutilib, u bilan samimiy maslahatlashmoqchi edi.

Ko'pgina o'yinlardan keyin oxirida "Bug'uboy", "Mirshalay — mirish" degan o'yinlar o'ynaldi. Nihoyat, bular ham tugagach, bir yigit kamarini yechib olib:

— Endi, azizlar, she'r o'qiysizlar. She'r o'qimaganlarga esa mana bu! — deb, kamari bilan po'pisa qilib, o'tirganlarni oralab yura boshladi. G'ali va Jamoldan boshqa yigitchalar bilganicha turli she'rlarni o'qishsa-da, bular qachonlardan beri o'qib kelina-yotgan eski she'rlar edi. Masalan, ular:

— *Bizlarda hunar ham bor, o'lan ham bor,  
Boylarda minilmagan do'non ham bor, —*

kabi maza-matrasiz she'rlar bo'lib, ularni yozib o'tirmaymiz. Shu tariqa, navbat G'aliga, so'ngra Jamolga keldi. G'aliga do'mbirani olib kelib berishganida, u "Mening she'r o'qiydigan odatim yo'q edi, — dedi-da, keyin jilmayib, qo'shib qo'ydi. — Mayli, ko'ngil-laringiz qolmasin, o'qisam o'qiy qolay". Shunday deb, u do'mbi-raga jo'r bo'lib she'r o'qiy boshladi:

*Ol, so'zla, keldi navbat endi, G'ali,  
Kerilmay ushla qo'lga do'mbirani!*

Ruh ber yig'ilishga, xizmat ko'rsat,  
Sayratib til va jag'ni bo'lsa xoli.

Hunaring bo'lsa ichda chiqar sirtga,  
Bu joyda yashirishdan bo'lmas ma'ni.  
Qondirib qulog'ini tinglovchining  
Ofarin, mana, yigit, desin shunday!

O'xshar rayhon guliga bog'chadagi,  
Yetilib yigitning turgan chog'i.  
Topolmay aytar joyin yurar eding,  
Eshittir yot elning bo'lsa qo'shig'i.

Maqomi-la bulbulning yuz xil etib,  
Tovushingni turlantirsang bo'lar sha'ni.  
Yoshlikda o'yin-kulgi o'tgan kuning  
Emasmi yigitlikning naq ravshani?!

Tinglovchi asl so'zni topilganda,  
Aytuvchi tortinarmi yana tag'in.  
Qadrla tengdoshlarni yig'ilganda,  
Tarqasin rizo bo'b, so'nmay ishtiyoqi.

Yoshimdan elda yurmay, o'sdim chetda  
Demasin qani elni sog'ingani.  
Tengqurga yaltoqlanmay och siringni,  
Ildamday quchoq ochib bobidagi.

Unutma misolni ham deb aytilgan  
Tulkini tozi oladi to'pidagi.  
Bo'ladi ne narsadan yanada ishchan  
Yigitga obro'ning topilmog'i.

Emasmi ikki yurak birday kelsa,  
Orada muhabbat o'ti yoqilmog'i.  
Mana, do'mbirangiz, to'xtadim men,  
So'zlasin suluv Jamol yonimdagi!

G'ali "O'qib bo'ldim" deb do'mbirani Jamolga uzatganida,  
o'tirganlar "Iltimos, yana she'r o'qing!" deb so'ray boshlashdi.  
G'ali endi manavi she'rni o'qidi:

*Yaxshi qiz baho yetmas gavhar tosh,  
O'n olti, o'n yettiga yetganda yosh.  
Jannatning pishib turgan olmasiday,  
Qo'l yetsa, qanday yigit lazzat olmas.*

*Suluv qiz rohatning kaliti emasmi?  
Qo'lga tushira olsang, borginda och.  
Tizilgan marvaridday o'ttiz tishi,  
Nurli yuz, yashnagan ko'z, qiyilgan qosh.*

*Chakkada qunduz bo'rk, kiygani asl,  
Shildirap oldin cho'lpi, yelkada soch.  
Buralgan to'ti qushday a'zolari,  
Bo'zbola suhbatlashgan bo'lmasmi mast.*

*Xatosiz shu aytganday bo'lib tursa,  
Yo'lida shunday qizning qiyardim bosh.  
Maqsad hosil bo'lishga yo'l topilsa,  
Tark etib qanday yigit molin solmas.*

*Ahd qilib, va'dalashib bel bog'lasa,  
Aytarmi yaxshi yigit yurtga sir fosh?  
Talabgor bo'zbolaga aytgan so'zim  
So'z emas buning bari o'ziga xos.*

*Jismida yonib turgan o'ti yo'qlar  
Qadrlab bu so'zimni, demas rost...  
Sharbatin oshiqlikning totmaganlar  
Ont berib aytsang hamki, sira inonmas.*

*Shohbozlar suygani uchun izlanishdan,  
Ko'rsa ham qanday xo'rlik, bir tortinmas.*

Yongan o't, ko'zlangan o'q tursa hamki,  
Seskanib oshiq uchun yurak qaytmas.

Magniti suluv qizning kuchlimasmi,  
Yigitni qalbdan suygan qaytib tortmas.  
Ostidan oq tomoqning nafas olsang,  
Bo'ynidan oq bilakni qaytib tortmas?!

G'ali she'rni tugatib, joyiga o'tirgach, Jamol she'r o'qiy bosh-  
ladi:

So'zla, tilim, yechilib ana shundayda,  
Tengdoshlar bilan bir yerga qo'shilganda.  
O'tirmassan doim to'rda bundayin,  
Erksiz-oq qo'yarsan to'silganda.

Emasmidim, yopira-ay, kecha bola,  
Biladigan yoshlik bilan esni chala.  
Belgisi yo'q ekan-ku o'tgan kunning,  
Qator yurib qiz bo'ldik, mana qara!

Qiz boyoqish ham yurtiga kelgan qo'noq,  
Misoli, qizg'aldoqday umri cho'loq.  
Kun kelar o'z boshidan erki ketar,  
Qolaylik shunday bo'lgach kulib-o'ynab.

So'zladi G'ali mirza yigit joyin,  
Har kimning holi o'ziga turar tayin.  
Qizlarni yigitlar bilan solishtirib.  
Tinglangiz, men ozroq so'z qilayin.

Yigitning erki o'zida — yilning qushi,  
Uchsa ham, yo kelsa ham o'tirgisi.  
Misoli, yozi bo'lgan yoqqa ketar  
Bir yerning qori yog'ib, tug'sa qishi.

Qiz boyoqish qo'lga tushgan bulbul qushday,  
To'rda umri o'tar kaltin ochmay.

Sotadi mol ko'p bergan kishi bo'lsa,  
Ketadi yig'lab sho'rlik qarshilashmay.

Rahm qilmas yana ota-onasi,  
Bo'lsa ham yaxshi ko'rgan o'z bolasi.  
Tengiga qizning ko'pi borolmaydi,  
Ko'nmaslikka yana hamki yo'q chamasi.

Qandayin tursin endi yig'lamay qiz,  
Erlarga qarshi kelsak unamaymiz.  
Tutqinda o'sgan jonday dunyo ko'rmay,  
Yo'l izlab ulkandan erk so'ramaymiz.

Yomonga borsang xor bo'b umring o'tar,  
Ushlaydi u ahmoq quldan battar.  
Kun chiqib, oy ham tug'ib, ko'z ochilib,  
Bu qayg'u qiz sho'rlikdan qachon ketar.

Kishining tug'ilib-o'sgan yeri qimmat,  
O'rgangan bola yoshdan eli qimmat.  
Ota-onang, og'a-yangang qadrlagan,  
Tepishgan qulun toyday tengi qimmat.

Tashlaydi bularning qiz hammasin,  
Xor etib bir yomonga aziz boshin.  
O'zining suyganiga borolmaydi,  
Qandayin endi ular sog'inmasin.

Qiz berish payg'ambarning sunnatiday,  
Uzatdi ota-ona o'z burchiday.  
Har kimning o'ziga erk bergan yo'qmi,  
Ollohning buni deymiz qudratiday.

So'zinda xato bo'lsa so'kma, xalqim,  
Shunchaki aytib o'tdim so'zning shaklin.  
Turgan so'ng ko'zing ko'rib xiyonatni,  
Tortadi xavotirda ko'ngil salqin.



## IX

O'sha kuni G'ali va Jamol uzoq suhbatlashib, bir-birlari haqida hamma narsani bilib olishgan edi. Ular ikkovi bir-birini yoqtirib qolishdi. "Bir ko'rgan — tanish, ikki ko'rgan — bilish" deyilganidek, kelgusida bir-birinikiga mehmonga borishga ahdlashib, xayrlashishdi. G'ali hali unashtirilmagan yosh yigit bo'lganidan, Jamolning esa unashtirilgan qaylig'idan noroziligi tufayli ham ikkovining orasida muhabbat rishtalari paydo bo'lganiga ajablanmasa ham bo'ladi. Chunki ikkovining ham o'sha oqshomda aytgan so'zlari xayollaridan ketmay, tinmay bir-birini o'ylaydigan bo'lib qolishgandi.

O'shandan keyin G'ali bir-ikki marta Sarsenboyning uyiga keldi. Agar G'ali va Jamolning bir-birlariga qanday boqayotganlarini kuzatib turgan odam bo'lsa, ularning nigohlaridan "Men seni jonimdan ortiq sevaman" degan ma'noni uqqan bo'lar edi. Shunga qaramay, ular tanho uchrashishga sirayam botinolmay yurishdi.

Bir kuni G'ali "Shaharga ketayotgandim, bir kirib o'tay dedim" degan bahona bilan Sarsenboyning uyiga mehmonga keldi. G'ali ataylab Jamolni ko'rgani kelganiga sha'ma qilganidan so'ng, qiz tunda yigit uning qoshiga kelishi mumkinligini o'ylab qoldi. Uning ko'ngli aldamadi, haqiqatan ham uy ahli uyquga ketganidan so'ng ikki yosh topishishdi.

Ular ilk bora uchrashganlaridan beri nimalarni o'ylaganlarini, bir-birini qanchalar sog'inganlarini, visol onlari kelishini qanchalar orziqib kutganlarini gapirib tugatisholmasdi. O'rtalarida sof muhabbat kurtaklari unayotgan qiz va yigit kelgusidagi taqdirlari nima bo'lishini o'ylamaslikka, hozircha faqat o'ynab-kulib yurishga qaror qilishdi. Ular qozoq urf-odatlaridagi jabr-zulmlar va istibdodlar haqida so'zlasharkan, Jamol esini taniganidan beri ko'rgan tashvishlarini bir zumda unutdi, bahri-dili ochilib, G'alini ko'rmandan daqiqalari xuddi bir yildek cho'zilib o'tishini ayta ketdi.

Shu tariqa, G'ali va Jamolning kundan-kunga bir-biriga mehri tovlanib, qulay vaqt topganlari hamoni uchrashib, suhbatlashib yuraverishdi. Orada qish o'tib, yoz ham yetib keldi. Bu ikkovining

ko'nglida faqat bir o'y bor edi. Biroq bu haqda bir-biriga og'iz ochishga yuraklari dov bermay, miq etmay yurishardi. Garchi Jamol oldin yuragini ochsa, G'ali uni qabul qilishi yoki G'ali gapirsa, Jamol rozi bo'lishi shubhasiz, ikkovining ham o'y-fikrlari va maqsadlari yakdil esa-da, lekin tillarini tutib turgan vahimalari ham bir xil edi.

Jamol va G'ali bir necha kunlik o'yin-kulgilardan o'zlarini dunyodagi eng baxtli inson hisoblab yurgan kunlarida, kutilmaganida "Boyjon va Sarsenboy va'dalashib qo'yishgani sababli bir oydan so'ng Juman keladi va to'y qiladi" degan qayg'uli xabarni eshitdilar. Aynan shu qayg'uli xabar Jamol va G'alining hamon yuraklari tubida pinhon tutib yurgan sirlarini oshkor etishga undadi. Ular oshkor eta olmayotgan sir o'zlarining orasida abadiy muhabbat rishtasi paydo bo'lgani va bu Jamolni Jumandan qutqarishidan iborat edi. Biroq ikkovining ham yordam beradigan insonlari yo'qligi sababli, ular "El orasida masxara bo'lib, maqsadimizga yeta olmay qolamiz-ov!" deb xavotirlanishardi. Endi Jumanning kelishi aniq bo'lganidan so'ng, bir-birini dunyoda hamma narsadan ortiq ko'rishlarini yanada aniqroq tushunib, nima bo'lishidan qat'i nazar ajralmasliklarining yo'lini topishga urinib va endigi ko'rishganlarida, shu paytgacha pinhon tutgan gaplarini aytishga qaror qilgan paytlarida, Jamolga G'alining maktubini keltirib berishdi. Ochib o'qisa, shunday deb yozilgan ekan:

*"Turolmadim hayajonsiz, xat yozmasdan,  
Ichki sirni bilgizib zamondoshga.  
Ikki ko'ngil bir yerga qo'shilsa gar,  
Ne qiziq bor jahonda bundan boshqa?  
Zulayho bilan Yusufni qo'shganiday,  
Tilagim bor, Ollohim ikki yoshga!  
Aytmasang ham holingni, men payqayman,  
Yomon ko'rmasan meni sen boyoqish ham.  
Dardim sig'may ichimga, etdim sir fosh,  
Hech indamay yuragim ham yozi-qishi.  
Xislatiga qiziqmas qanday yigit,  
Hur qiziday nurli yuz, qolang sochga.*

So'zi bulbul misol, yuzi oyday.  
Seni koyigan banda hech o'ngmas ham.  
Men bunda, ko'nglim senda, o'ying kimda.  
Tilayman shu so'zni unutmassan.  
Emasman men Jumanday boy bolasi,  
Yo'qlikni, suluv Jamol betga bosma!  
Aqlsiz yomon, e, voh, olib ketsa,  
Qizg'anib holim bormi qayg'urmasga.  
Sening ham o'tgan kuning yilday bo'lib.  
Ko'nglingdan hasrating ayrilmas ham.  
Erta-kech ko'z oldimda turgandaysan,  
Azim, hech bo'lmaydi sog'inmasga.  
Jamoljon, talab tog'day bo'lsa hamki,  
To'n kalta, suyganingning qo'li qisqa.  
Nishabdan qizil tulki chiqib qolsa,  
Tepadan epchil burgut intilmasmi?  
Yapaloq bodroq ko'z bo'shga qolib.  
Epchil qush tulkini olib kerilmasmi?  
O'tirib tavakkalning kemasiga,  
Eh, attang, daryodan o'tib chiqsa,  
Oshiqlik va'dasi bilan tavakkalchil,  
Toliqmay shu ikkisin mahkam ushla.  
Kimda-kim yetar shunda murodiga,  
Foyda yo'q yuraksingan qo'rqinichda.  
Oz so'zda ko'p ma'no degan misol,  
Holimni bayon etib yozdim nus'ha.  
Jamoljon, farosatli etar fahm,  
Bu so'zim beiltilot qolmas bo'shga.  
Rahmatiga ming bora rozi bo'lar edik,  
"G'ali-Jamol loyiq" — deb, Olloh qo'shsa.  
Kelar deb qanday javob kutib qoldik.  
Xat yozib janobingga yo'llab pochta.  
"Xo'p!" — degan yubormasang davoingni,  
Zo'rayadi kundan-kunga bizning Xasta.  
Dushman ko'p, do'stimiz oz, xalq ishonchsiz,  
Yo, Olloh, to'g'ri yo'lga o'zing boshla!

*G'alidan — faqiringiz yozildi xat  
Muhabbatli mahbuba Jamol do'stga".*

Jamolga bu maktubni keltirib bergan yigit G'alining eng ishongan og'aynisi bo'lib, u doimo ikkovlarining bir-biriga yozganlarini yetkazardi. U G'alining maktubini Jamolga tutqazib:

— Javobini ertagacha tayyorlab qo'yarsan. Ungacha men ovulga borib, yana qaytib kelaman, — dedi va tez ketib qoldi.

Jamol maktubni uch-to'rt marta qayta-qayta o'qidi, yuragi goh qizidi, goh sovidi. U Jumanga turmushga chiqsa, umri qayg'u-hasratda o'tishini, G'ali bilan qochib ketganida esa qanaqangi sharmandaliklarga duchor bo'lishini o'yladi, shundayam baxtli bo'lishiga ko'zi yetmay, ko'zidan munchoqdek ko'z yoshlari to'kila boshladi. Oradan bir oz vaqt o'tgach qiz o'zini qo'lga oldi va "Allohga tavakkal, peshanamga nimalar yozilgan bo'lsa shuni ko'raman, hayotimning oxirigacha G'ali bilan qo'l ushlab yursam armonim qolmaydi" deb o'yladi. G'ali bilan qochib ketishiga kim tilakdosh va ko'makdosh bo'lishi mumkinligini o'ylaganida esa, onasi Sholpandan boshqa hech kim ko'ziga ko'rinmadi.

Qiz onasiga bunchalik ishonishining sababi esa aziz kitobxonimizga ayon. Chunki Sholpan boshidanoq qizini Jumanga berishga rozi bo'lmagan, biroq Sarsenboyni bunga ko'ndira olmagan edi. Ikkinchidan, Jamol bo'y yetganidan so'ng Jumanga ko'ngli ilimay, unga tegishga norozi bo'lib yurganini onasi sezgan, hatto bir safar Jamol yozgan she'rni topib olib, uni o'qiganini yuqorida yozgandik. Uchinchidan, Jamol va G'alining qanchalik yaqinlashib ketganlarini Sholpan ko'rgan bo'lsa-da, o'zini hech nimani sezmaganga solgan edi. U G'alini qizi Jamolga munosib ko'rgani uchun ham bu yigitni xuddi o'z bolasidek yaxshi ko'rar edi.

Xullas, Jamol o'ylay-o'ylay, G'alining yozgan so'zlarini qabul qildi, unga javob yozdi va ertasi kuni elchi yigitga topshirdi. G'ali og'aynisi o'sha kuniyoq yetkazib kelgan javobni o'qisa, unda shunday yozilgan ekan:

*"G'alijon, bizning qo'lga tegdi qog'oz,  
Yozganin qabul oldim sizday shahboz."*

Maqsadga muvofiqli so‘z chiqqan so‘ng,  
O‘ngimmi, tushimmi deb turdim bir oz.

Sizdayin yozdim javob bilganimcha,  
Ne turli yozgan so‘zing kirdi ichimga.  
Sirimni yolg‘iz senga bildiraman,  
Aytmagan bundan burun bir kishiga.

Ma‘lum bir o‘zingga mening holim,  
Hech rohat ko‘rmaganday sensiz jonim.  
Erksiz bir eshakka qo‘shoqlansam,  
Jahonda ikki birday kelmas manim!

Qo‘shilsam nasib bo‘lib seni bilan,  
Kim aytar yurmadi deb tengi bilan?  
Sen bilan o‘tda yonsam armonim yo‘q,  
Yuvilmagan Juman nomli pari bilan.

Xatingda “boy emasman” deb yozibsan,  
“Betga ta’na qilma” deb yozibsan.  
Boyni suysam, Jumanga bormasmidim,  
Buni o‘ylamay, shunchaki yozibsan.

Bir sening oshiq o‘tin so‘ndiradigan,  
Kim bizni ixtiyorsiz ko‘ndiradigan.  
O‘lsak chuqur bir bo‘lsin, chiqsak — tepa,  
Ayrilmaylik bo‘lsa ham o‘ldiradigan.

Bir Olloh yolg‘iz o‘zi bo‘lsin guvoh,  
To‘g‘rilik va‘dangni mahkam boylab.  
Sen uchun bir boshimni etdim qurbon,  
Zanjirlab yuborsa ham Sibirga haydab!

Biz ko‘ndik, bunday holga Xudo soldi,  
Panasiz mazlum bilan men bir zorli.  
Ana endi kun-tun demay xiyol qara,  
Kelishiga yaramasning bir oy qoldi.

*Menda yo‘q og‘a-yanga mungimni bosar,  
Sirimni boshqaga aytsam, yurtga sochar.  
Bilmayman opam boyoqish ne qilarin,  
Yolg‘izgina ishonganim aql aytar.*

*Onaday mehriboni tushsa agar,  
Dushmandan qutilishga hiyla topar.  
Ishonmayman hech kimga bundan boshqa,  
Kerak otam, kerak yaqin qarindoshlar.*

*Jon do‘stim, to‘rt-besh kunda uchrashib ket,  
Bo‘lsa ham gaplasharmiz qancha vaqt.  
O‘zing ham qarab yurmay eslayvergin,  
Ko‘ngilga kirgandan so‘ng bunday niyat.*

*Kelmading o‘n besh kunday, men ham kutdim,  
Sanoqli endi ozgina bizning bo‘sh kun.  
Xayrli soatlarda eslagay deb,  
Xat yozgan qalam tebrab Jamol do‘sting”.*

## X

G‘ali qizning maktubini o‘qiganidan keyin, o‘sha kuniyoq yaqin og‘aynilaridan Junis va Nurmash degan yigitlarni chaqirdi va ular ovuldan uzoqroqdagi xilvat bir joyda oqshomdan to yarim tunga qadar maslahatlashishdi.

— Og‘aynilar, biz bolalikdan birga ahil-do‘st bo‘lib o‘sganmiz, bir-birimizdan yashiradigan sirimiz yo‘q. Hozir men murakkab ahvolda qoldim. Agar qiz bolaki shunday deb lafzida tursa-yu, men so‘zimdanda chiqmasam, bu men uchun o‘lim bilan teng. Shuning uchun tavakkal qilib bu ishga bel bog‘ladim, sizlar nima maslahat berasizlar? — dedi G‘ali.

— Og‘ayni, nimalar deyapsan, bizning sendan ayar narsamiz yo‘q. Hozirgi zamonda qizlarning erki qo‘lida, zo‘r kelsa, molini qaytarib olishadi, xolos, — deyishdi ular.

Bu javobdan G‘alining yuragi quvonchga to‘lib:

— Nima bo‘lsa ham, g‘ayrat bilan shu ishga kirishinglar, — dedi.

Yigitlar ertaga yana bir maslahatlashishga kelishib, tarqalishdi. Ertasi kuni uchovlon yana uchrashib maslahatlashishdi va G‘ali zudlik bilan Jamolning oldiga boradigan, u bilan gapni bir yerga qo‘yib, qochib ketadigan kunlarini belgilab olishi haqida kelishib olishdi.

Oradan ko‘p o‘tmay, G‘ali tunda Sarsenboy yashaydigan ovul yaqinidagi soyda sevgilisi Jamol bilan uchrashib, unga kelajakdagi umrlarini birgalikda rohat-farog‘atda o‘tkazishlari haqida so‘zlab berdi.

Bu ikkovini bir tomondan “Bu ishimizning oxiri nima bilan tugarkin?” degan qo‘rquv xavotiriga solar, ikkinchi tomondan “Dushmanning qo‘lidan eson-omon qutulamizmi?” degan quvonchdan yuraklari hapqirib ketardi.

Bahor osmoni yulduzga to‘lgan erta saharda to‘lin oy olamni hafif nurlariga to‘ldirgan, dunyo tinch, tiq etgan shabada esmaydi, el-yurt tinch uyquda, havo iliqqina, yaylov tomondan o‘t-o‘lan va gullarning nafis iforlari taraladi, yoshlarimizni yolg‘iz Yaratganining o‘zi bilan osmondagi Oymomo va yulduzlargina ko‘rib turishardi, xolos. Kuni bo‘yi charchagan jonivorlar ham uyquda, otlar asta kishnab, mollar esa mo‘rab qo‘yishar, onda-sonda qo‘ylarning ba‘ragani, echkinging cho‘ziq ovozi yoki uyqusi o‘chgan chol-kampirlarning vaysashigina quloqqa chalinardi. Bechoralar yigitchalardan faqatgina “ovozing o‘chsin” degan qarg‘ishnigina eshiti-shardi. To‘satdan qalbiga muhabbat mehmon bo‘lgan suluv qizlar esa toshmehr onasi eshikni qulflab qo‘yib, faqat tungliknigina<sup>1</sup> ochganidan uyqusini yo‘qotib, og‘ir uh tortib, ichida:

*Attang, oying yorug‘i kunduzgiday,  
Er yigitning qadrin qiz bilganday.  
Qiz boyoqishning boshida ixtiyor yo‘q  
Eshik ochib, do‘stin uyga kirgizganday, —*

degan bir og‘iz she‘rni qayta-qayta o‘qiganlarini kim ko‘rgan?

<sup>1</sup> **Tunglik** — kigiz uying ochilib, yopiladigan tepa qismi.

To'rg'ay chirillab, tong otganidan darak bera boshladi. Hamon soyda o'tirgan yoshlarimiz qisqa tun tugab, tong otganini ham sezmay qolishgan edi.

— Anavi kuni sizga javob yozganimdan keyin kayfiyatim o'zgarganini sezdi, shekilli, onam meni har ko'rganida qayta-qayta, “Qizim, nega muncha ranging sarg'ayib ketdi-ya? Ichingdan nimalar o'tayotganini ayt, pinhoniyy muammolaring bo'lsa, mendan yashirma. Men senga yomonlik tilamayman-ku, nimaiki yordam kerak bo'lsa, ko'makka tayyorman” deyaverganidan keyin, ishonib, bor sirimni to'kib-sochdim. Shunda onam “Qizim, ishqilib baxtingni bersin. Men G'alini yomon ko'rmayman, biroq Yaratgan Tangrim seni bitta yomonga bog'lab qo'rganidan keyin nimayam qila olardim?” deb rosa yig'ladilar, keyin o'zlari bizni chiqarib yuborishga rozi bo'ldilar, — dedi Jamol.

Buni eshitib, G'ali judayam xursand bo'ldi va ikkovlashib kelayotgan yakshanba kuni qochib ketishni rejalashtirishdi.

G'ali uyiga kelib, o'ziga yordamlashayotgan og'aynilari bilan maslahatlashdi va kelayotgan yakshanba uchun ot tanlashga tutindi. Uning ikki do'sti — Junis va Nurmash shanba kuni “Nima bo'lsayam ertaga bo'ladi endi” deb, yuraklari po'killab og'aynisi-ga ko'makka shaylana boshlashdi. G'ali tayyorlanayotgan onlarda Jamol ham qo'l qovushtirib o'tirmadi — yuragi chidamay, bu sirni onasi Sholpanga aytishga jazm qildi. Sholpan qizining niyatiga rozilik berib, yo'l taraddudini ko'ra boshladi.

Yakshanba kuni yetib keldi. El uyquga yotgan mahalda G'ali, Junis va Nurmash bitta egarlangan otni yetaklab, o'zlari yo'lga tushishni mo'ljallagan soyga yetib kelishdi. Kutish onlarining har bir lahzasi bir yildek tuyulib, “Qachon kelarkin? Qachon kelarkin?” deb, toqatsizlanib turishganida, ro'moli bilan yuzini yashirgan ikki ayol ko'rindi. Yetib kelishganidan so'ng ularning Jamol bilan onasi ekanligi ma'lum bo'ldi. Sholpan yigitlar bilan so'rashib bo'lgach:

— Bolalarim, Oллоhim yo'lingizni bexatar qilsin, maqsadingiz-ga yetkazsin, qayerda bo'lsangiz ham boshingiz omon bo'lsin. Hozircha hech kim ko'rgani yo'q, tezroq yo'lga tusha qoling-lar, — dedi.



Sholpan qizi Jamol bilan G'alining peshonasidan o'pib, ko'zlari to'la yosh bilan xayrlashdi, yoshlar otlarga minib, yo'lga tushganlaridan keyin ham bir oz ortlaridan qarab turdi-da, keyin uyiga qaytib ketdi. Uni hech kimga sezdirmay uyiga ketishda qoldiraylik-da, noma'lum tomonlarga yo'l olgan yo'lovchilarga o'taylik.

G'ali og'aynilari bilan maslahatlashganida, Jamolni shaharda o'zi bilan birga savdogarchilik qilgan Fatihulla boyning uyiga olib borishga qaror qilgan edi. Hozir u ovuldan o'n-o'n besh chaqirimcha uzoqlashgach, ortlaridan hech kim quvib kelmayotganiga ishonch hosil qilib oldi va yana bir bor maslahatlashishgach, dastlabki rejaga ko'ra bu yerdan bir yuz yigirma chaqirim naridagi shaharga yo'l tortmoqchi bo'ldi. O'sha tunda to quyosh chiqquniga qadar ellik chaqirim yo'l bosishdi va odamlari ko'chib ketgan qishlovga yetib, o'sha yerda yashirinib yotishdi. Kun botib, tun qorong'usida ularni hech kim ko'rmaydigan bo'lganida, Junis va Nurmash ovulga qaytishdi, G'ali va Jamol to tong otgunicha shaharga yetishni mo'ljallab, otlarini yo'rttirib ketishdi.

G'ali va Jamol eson-omon shaharga yetib, Fatihulla boyning uyiga kirib borishdi. Fatihulla boy qozoqlarning qizini yoshligidayoq birovga unashtirib qo'yib, ulg'ayganidan so'ng ko'ngliga qaramayoq uzatib yuborishdek xunuk odatini judayam yomon ko'rgani, bundan tashqari, G'alining xush odobliligini yoqtirgani sababli ham bechora oshiq'larga uyidan joy berishga qaror qildi. Fatihulla boy tatar millatiga mansub, o'ziga ishonadigan va aytgan so'zi o'tishini yoqtiruvchi odam edi. U "Xush kelibsan, G'ali! Hech narsadan qo'rqma, sening sahroyi yurtdoshlaringdan biron-tasi bizning uyimizga ruxsatsiz kira olmaydi! Mabodo kelib, janjal chiqarishga urinishsa, darrov harbiy qismga sim qoqib, jonlarini sug'urib olamiz", deb, G'aliga taskin berdi.

Yo'l charchog'i chiqqanidan keyin, G'ali bu yerda kutib yotganlaridan foyda yo'q degan qarorga keldi. U Fatihulla boyga "Keling, Jamolning erkini qaytarib olib beraylik" dedi va ikkovlon maslahatlashib, advokatga ariza yozdirishdi-da, Jamolni krestyanskiy nachalnikga kiritishdi. Jamolning nomidan yozilgan arizada "Men yetti yoshga kirganimda otam meni qanchadir mol-qo'y

evaziga bir qozoqqa sotgan ekan. Hozir balogʻat yoshiga yetdim, lekin unashtirilgan kuyovim menga yoqmagani sababli ham oʻzim yoqtirgan yigit bilan qochib keldim. Menga marhamat koʻrsatib, koʻz yoshlarimni aritib, yoʻqotgan erkimni qaytarib berasiz deb umid qilaman” deb yozilgan edi. Bu arizani oʻqigan boshliq iltifot koʻrsatib, Jamolning qoʻliga “Kimga turmushga chiqsang ham ixtiyor oʻzingda” deb yozilgan qogʻozni tutqazdi. Bundan tashqari, boʻlisga “Jamol Sarsenboy qiziga hech kim jabr-zulm qilmasin! Uning oʻzi yoqtirgan yigitga turmushga chiqishiga ruxsat berildi. Agar qalin moli haqida bahs paydo boʻlsa, uni boʻlis qurultoyida hal qilinglar” degan mazmundagi maktub joʻnatdi.

## XI

Endi muhtaram kitobxonlarimiz Jamolning yurtidagi voqea-hodisalardan boxabar boʻlsinlar. Jamol qochib ketgan kuni azonda Sarsenbay namoz oʻqish uchun turdi. U bomdod namozini oʻqib boʻlgach, Jamol yoʻqligini sezib qoldi va xotinlaridan:

— Jamol qayoqqa ketdi? — deb shubhalanib soʻray boshladi.

Sholpan oʻzini hech nimani bilmaganga solib:

— Jamoljon tashqariga chiqqan-ov, — deb qoʻya qoldi.

Lekin shu payt Sarsenboyning katta xotini:

— Voy-boʻ, shoʻrim qursin, Jamolning osigʻliq turgan kiyimlari qani? — deb qoldi.

Shundan soʻng Jamolning qochib ketgani maʼlum boʻldi. Uydagilarning bari vahimaga tushib, xavotirlana boshlashdi, zumda butun ovul ahli toʻplanib, gap-soʻzlar koʻpaydi. Odamlarning baʼzilari:

— Oʻzi unashtirilgan yigit kelib, olib ketgandir, — derdi.

— Yoʻgʻ-e, uni Duysebekning ayyor bolasidan boshqasi olib ketishi mumkin emas, — deb eʼtiroz bildirishardi boshqalari. — Oʻziyam oʻgʻlini naq podshoning bolasidek papalab katta qilishdi, koʻngliga siqqanicha erkinlik berishdi, oxiri shunaqangi voy boʻldi.

Bunaqangi gap-soʻzlardan Sarsenboyning boshi tars yori-lay deb qoldi. Shunga qaramay, Boyjonga bir odamni joʻnatib,

“Bizning qizimiz, sizning kelingiz Jamolni kimdir bildirmay o‘g‘irlab ketibdi. Endi nima qilamiz?” deb maslahat so‘radi. Yana bir kishini zimdan G‘alining ovuliga jo‘natdi. Kechga tomon G‘alidikiga ketgan yigit shu bugun tunda G‘ali, Nurmash va Junis uchchovi yaxshi otlarga minib, uylaridan chiqib ketganlari, lekin hamon qaytib kelmaganlari haqidagi xabar bilan qaytib keldi. Haqiqat aniq bo‘lganidan so‘ng, Sarsenboy “Qizimni Duysebekning o‘g‘li olib ketibdi. Endi buyog‘iga nima qilish kerakligini o‘zingiz bilasiz” degan xabar bilan ikkinchi odamni Boyjonnikiga jo‘natdi. Birinchi kun shunaqangi xabarlar bilan o‘tdi. Ertasi kuni Boyjon “Bolamning molini qaytarib olib kelaman” degan shahd bilan yigirma nafar yigitni ergashtirib keldi.

Junis va Nurmash tunda uylariga qaytib kelishgan, ularning qilmishlari hammaga ma‘lum bo‘lgan edi.

Boyjon haqiqatni bilganidan so‘ng, hamrohlaridan besh kishini ajratib, yilqilarini olib kelish uchun G‘alining ovuliga jo‘natdi, keyin “Shunday-shunday ishlar bo‘ldi, biylaringizni olib, bu yoqqa kelinglar” degan xat yozib, uni bir odami orqali bo‘lisga jo‘natdi. Boyjonning epchil yigitlari o‘n ikkita ot va biyalarni hamda Sarsenboyning yilqilaridan bir uyurini haydab olib ketishdi. Hamma xarajatlar Sarsenboyning yelkasiga yuklatilar, u esa qo‘rqqanidan bir og‘iz e‘tiroz bildirishga holi yo‘q edi. Hatto Boyjon har tomonga choptirayotgan otlar ham Sarsenboyniki edi.

Uch-to‘rt kun ichida butun bo‘lisdan nufuzli odamlar to‘plandi va katta qurultoy o‘tkazildi. Yig‘ilganlarning bari Boyjonni yaxshi ko‘radigan kishilar:

— Mana, ko‘ryapsizlarmi, agar yurtimiz shunaqangi tentaklarga tizginni tutqazib qo‘yaversa, odamlarning qonuniy xotinlarini ham o‘g‘irlab olib ketishdan toyishmaydi, — deb so‘z boshladi. — Bunaqangi holatlar yana sodir bo‘lmasligi uchun o‘g‘irlab ketilgan kelinni qaytarib olib kelish kerak. Agar indamay tursak, bugungi xiyonat ertaga boshqa birovning ham boshiga tushmaydimi, odamlar orasi buzilib, jamiyat aynib ketmaydimi?

Kechga tomon Boyjon qurultoyga kelgan bo‘lis va kotibni, besh nafar biylarni va mulla Ahmetjonni ovul tashqarisiga chaqirib:

— Ertaga menga bir yordam qilasizlar. Men uchun hozir mol kerak emas. Manavilarning bizga borib qolgan o'nta oti bor, ularni mening dushmanlarimga qaytarib berguncha yaxshisi o'zingiz o'lja qilinglar, men zudlik bilan sotib yuboraman. Sizlar esa mening iltimosimni bajarib, toptalgan nomusimni tiklab beringlar, — dedi.

Ular “O'lja” so'zini eshitgan paytda jonlanib, miyig'ida jilmayishdi va:

— Nima qil deysiz? — deb so'rashdi.

Boyjon shunday dedi:

— Sizlar turli ishlarning boshida turadigan odamlarsiz, yaxshimi yoki yomonmi ish qilsangiz-da, bari to'g'ri bo'laveradi. Ertagayoq Sarsenboy va Duysebeklarning bergan otlarini rad etib, qiz bilan yigitni chiqarib yuborgan va yordam berganlarga ularni topib kelishni buyurasizlar, topib kelmagan taqdirida qamoqqa tiqasizlar! Ahmetjon mulla, siz esa o'sha qiz bilan bizning Juman ikkovi bu olib qochishdan o'n kun burun nikohdan o'tishgani haqida daftaringizga yozib qo'yasiz-da, bizga guvohlik berasiz, — dedi.

“Boshingizga bunday ish tushganida, zudlik bilan yordam berishga kirishamiz” deyishdi ular. Shunda Boyjon hamyonini chiqarib, ularning har biriga ellik tangadan, jami to'rt yuz tanga berdi.

Tun o'tib, tong otgach, bo'lis va biylar chaqiruvnoma yozib, G'alining otasi Duysebekni, Nurmash va Junisni chaqirib kelish uchun odam jo'natishdi. Ular esa chaqiruvnomani olgach, bormaslikning ilojini topolmay, otlariga minishdi va yoniga odamlarini olib, Saumol ko'li yoqasidagi qurultoy tomon yo'l olishdi. Tish qayrab o'tirgan bo'lis va biylar ularni darhol siquvga olishdi. Qiz olib qochgan tomon ikki tomondan iskanjada qolib, “Shu ishni qilganimizni bo'ynimizga olamiz. Bir tentak bola odamlar orasini ayro qiladigan ishga qo'l urganidan o'zimizning ham jahlimiz chiqyapti, qancha mol so'rasangiz ham berishga rozimiz” dedi. Ularning gapini eshitib, g'azabdan joni chiqib ketayozgan Boyjon:

— Men umrim bino bo'lib bunaqangi xo'rlikni ko'rماغandim. Bugun hatto butun dunyoning molini keltirib bersangiz ham rozi

bo'lmayman. Bema'ni gaplaringni boshimga uramanmi, menga qochib ketgan kelinni keltirib beringlar! — deb talab qildi.

Biylar esa:

— Boyjon haq. Boyjon to'g'ri gapni aytyapti, — deb uning gaplarini ma'qullashdi, keyin Junis bilan Nurmashdan so'rashdi:

— G'alini senlar kuzatib qo'rganlaring rostmi?

Ular aybini bo'yniga olib:

— Do'st bo'lganimiz uchun ham kuzatib qo'rganimiz rost, — deyishdi.

Biylar uy ichida kengashib, hukmni yozib chiqishdi va:

— Juman Boyjon o'g'lining nikohidagi xotini Jamol Sarsenboy qizini ixtiyoriga zid ravishda G'ali Duysebek o'g'liga olib chiqib bergani uchun Duysebek, Junis, Nurmash uchchaloviga ularni bir oy ichida topib berish majburiyati yuklanadi. Agar topib kelisholmasa, har biri ikki oydan qamoqda o'tiradi, — deb hukmni e'lon qilishdi.

Javobgar tomon hukmni to'liq tushunmay, ajablanib:

— “Nikohidagi xotin” deganingiz nimasi? — deb so'rashdi.

— Agar shariat bo'yicha nikoh o'qitilgan bo'lsa, nikohidagi xotini degani bo'lmaydimi? — deb javob qilishdi narigi tomon.

Aslida esa Duysebeklar o'tgan tunda sotilgan mulla o'z burchiga xiyonat qilganini sezishmagandi. Shundan so'ng Duysebek va Sarsenboylar biyga borib, Boyjon o'g'irlab ketgan otlarni qaytarib berishini so'rab arz qilishgan edi, biylar “qarshi da'vo” deb shikoyatni rad etishdi. Ikkovlon baribir ko'nmay, hukmning nusxasini so'rashgandi, bo'lis va kotib “Ovulimga borib olasizlar” deb, qayd daftarlarini yopib qo'ydi, o'sha kuniyoq to'plangan xaloyiq tarqaldi.

Sarsenboy va Duysebeklar hukmning nusxasini olish uchun bo'lisning ovuliga bir necha marta borishdi, biroq u turli sabablarni ro'kach qilib, bermay yurdi, orada o'n besh kun o'tib ketdi. Bu vaqt ichida ariza yuzasidan krestyanskiy nachalnikning yuqorida aytilgan qog'ozi kelib qoldi.

Bo'lis Boyjonni chaqirib, maslahatlashdi va boshliqqa boshqa, “Ikki taraf nizolashgan paytda o'sha qiz haqida qaror qabul qildim. Aslida u qiz Juman Boyjon o'g'li bilan nikohdan o'tgan bo'lib,

buning haqiqat ekanligini mulla Ahmetjon Ayamas o'g'li qayd etish daftaridan yozib bergan ma'lumotnoma tasdiqlaydi. Qonuniy muddat, ya'ni o'n besh kun ichida kelib, biylar hukmidan nusxa olinmadi, shuning uchun bu hukmni amalga oshirishga buyruq berishingizni so'raymiz" degan mazmundagi xatni jo'natdi.

Bo'lisning bu xati boshliqqa yetib kelgan vaqtda, Duysebek, Sarsenboy va Nurmashlar shaharga yetib kelib, arz qilishdi.

— Qiz va yigitning o'z ixtiyori bilan sevishib, qochib ketganiga bizni aybdor qilib, qancha mol-holimizni o'g'irlab ketishdi. O'zimizni esa qiz va yigitni topib berishga majburlab, agar topib kelmasak, ikki oyga qamab qo'yishni aytib, po'pisa qilishyapti. Kamiga ovul mullasi nikoh o'qiganman deb yolg'on guvohlik beryapti, bo'lis va biylar ham bir-birining qilmishini xaspo'shlayapti. Bir necha marta borsak ham, chiqarilgan hukm nusxasini bizga berishmayapti, — deb bo'lgan voqealarni bayon etishdi.

Boshliq ularning shikoyatini e'tiborga olib, bo'lisga izoh talab qilgan xat jo'natdi.

## XII

Jamol qochib ketib, xalq to'plangan ilk kundayoq Boyjon yigit bilan qizni topib kelish uchun har tarafga odamlarni jo'natgan edi. Ular borishi mumkin bo'lgan joylarning hech qaysisida emasliklari aniq bo'lganidan so'ng, Fatihulla boynikida yashirilib yotganliklariga ko'zi yetdi. "Shahar ichida hech narsa qila olmaymiz. Lekin Fatihulla boyning yurtimizdagi odamlarda ikki ming tangalik nasiyasi bor. Unga bizning qochqinlarimizni tutib bermasa, nasiyasini bergizmasligimizni aytib, po'pisa qilsak, qo'rqishi aniq" degan xulosaga keldi u.

Fatihulla boy huzuriga kelgan odamdan shunaqangi so'zlarni eshitib, haqiqatda ham shunday bo'lishidan qo'rqib ketdi va:

— To'g'ri, ular boshliqqa ariza topshirish uchun uch-to'rt kun bizning uyimizda yashab turishgan edi. Lekin hozir ular yo'q, qayerda ekanliklarini ham bilmayman. Agar hozir ham u mening uyimda bo'lsa, xalqingiz nima qilsa ham roziman, — dedi.

O'sha odam Fatihulla boyning so'ziga ishonib, yurtiga qaytib ketdi.

Shundan keyin Fatihulla boy G'aliga maslahat solib:

— Bu omi odamlarning qanaqa ekanligini o'zing yaxshi bilasan. Endi boshqa biror joyga borib yashiringaning o'zingga ham, bizga ham foydaliroq bo'lar edi, — dedi.

G'ali uning ahvolini tushundi-da:

— Xo'p bo'ladi, Fatihulla abziy<sup>1</sup>! Sizdan judayam minnatdorman, darhaqiqat, bu zolimlarning qo'lidan nimalar kelishini bilib bo'lmaydi. Bu yerdan uch chaqirim<sup>2</sup> narida otamning amakisi bor, o'sha yoqqa bora qolay, — dedi-da, yo'lga tayyorlana boshladi.

G'alining o'zida ikkita ot bor edi. Fatihulla boy unga arava bilan ozgina pul berdi, shahardan tashqarigacha kuzatib chiqdi-da, "Yo'lingiz bexatar bo'lsin" deb duo qilib qoldi. G'ali bilan Jamol o'zlarini xuddi ota-onasidan ayrilgandek his qilib, ko'zlarida yosh bilan yo'lga tushishdi.

G'ali boshidanoq no'g'oycha kiyingan edi. Endi Jamol ham no'g'oylarning kiyimini kiyib, yuzini ro'mol bilan yashirib olgan, uni odamlar no'g'oy deb o'ylashlari tabiiy edi. Shuning uchun ham ular endi qo'rqmay, o'zlarini baxtiyor his etishar va bemalol gaplashib ketishardi.

— Yomon narsalarni gapirish yaxshi emas-ku, lekin agar shu ketishda qo'lga tushib qolsag-u, seni mendan tortib olib ketib qolishsa, nima qilarding, taqdirga tan berarmiding? — deb so'radi G'ali.

— Xudo asrasin, bunday gaplarni gapirmang. Jonim yo'lingizda qurbon bo'lsin, sizdan tirik ayrilgandan ko'ra o'lim afzalroq, — dedi Jamol.

G'ali bilan Jamol shu tariqa suhbatlashib ketisharkan, kun botdi, ular daraxtlarni oralab yura-yura, bir ko'lning yoqasiga yetishdi. Bu atrofda odamlar yashamagani bois ko'lda ko'pgina g'ozlar, oqqushlar va boshqa qushlar bemalol suzib yurishardi.

<sup>1</sup> **Abziy** — yoshi katta og'a.

<sup>2</sup> Dastlabki nashrlardagi "uch chaqirim" degan so'z voqea rivojiga qaraganda "uch yuz chaqirim" bo'lishi mumkin (muharrir izohi).

Tevarak-atrofdagi yerlar xuddi yashil gilam to'shalgandek quyuk maysalar bilan qoplangan, tiq etgan shabada yo'qligi uchun ko'l xuddi shishadek yaraqlardi. Bizning oshiqalarimizning bu go'zalikdan bahri-dillari ochilib, atrofnı tomosha qilib kelayotganlarida, to'satdan bir narsa esiga tushgandek Jamol mana bu she'ni aytib yubordi:

*Olamni o'n sakkiz ming yaratgan Haq,  
Ko'p berib birovgı mol, birovgı baxt.  
Birovni olim, birovni zolim etgan,  
Birovni mungli yaratding, birovni shod.*

*Ajoyib osmon bilan yeri qanday,  
Zangori tog', daryosi keng, ko'li qanday.  
O'rmon-to'qay gullangan boshqalari,  
Foydalangan bular bilan eli qanday.*

*Ko'zim to'yımas, qarasam qiziqasan,  
Hisobiga aql yetmas adashasan.  
Qonun chiqarib, podsho o'tirib,  
Xalqiga adolat bilan qarasin.*

*Talashgan osmon bilan tog'lar baland,  
Makonlar ayiq, qashqir, bug'u, kiyik.  
Jannatning chashmasiday bulog'iga  
Ketmasmi qarab tursang ichdan kuyik?*

*Osmonda oy bilan yulduz, kuni qanday,  
Mudragan xiralangan tuni qanday.  
Suvda baliq, ko'lda qush, to'qayda ovlar,  
Shuvillagan necha turli uni qanday.*

*Jannatday ajoyib yozi qanday,  
Keladigan uchib oqqush, g'ozı qanday.  
Eslashib o'tgan kunni qariyalari,  
Yoshlarning yana aytgan nozi qanday.*



*Sirqirab kelib qolgan qishi qanday,  
Qor yog'ib, suv qotirgan muzi qanday.  
Bergan so'ng Olloh quvvat jon saqlarlik,  
Yuradi mahluqlar sovuq olmay.*

*Biz g'arib shu panada soyalagan,  
Dushmanlar rahmsiz ayamagan.  
Yuborsang yolg'iz tomchi rahmatingdan,  
Bo'lsa ham qutulmaymiz qay oradan.*

G'ali va Jamol yo'lda to'rt marta dam olib, oxiri Qirquduqdagi amakisi — Babas degan odamning uyiga yetib kelishdi. Yoshlarning ko'ngli to'lib, vaqt o'tganini bilmay xotirjam yashayotgan paytlarida, ularning yurtidagilar hamon ilgariydek dovlashib, qog'oz ustiga qog'oz jo'natib, oxiri ko'rinmas, barakasiz nizoni davom ettirishayotgan edi. G'alining amakisi bilan uning ovulidagi yaxshi kishilar maslahatlashib, "Yoshlar bizni qora tutib kelishibdi, ularga mehr-oqibat ko'rsataylik, anavilar esa bir-ikki yil nizolashib, oxiri charchashadi" deyishdi va bu bilan yoshlarning yuraklarini quvonchga to'ldirishdi.

Bechoralarning baxtiga ko'z tegdimi, bir kuni G'alining qattiq tobi qochib qoldi. Uning ahvolini ko'rgan amakisining yuragi ortiga tortib, qo'rquvdan Jamolning rangi oqarib ketdi. G'ali "Butun vujudim qizib, suyaklarim xuddi sinib ketayotgandek sirqirayapti" deb nolir, ozib-to'zib, to'shakdan tura olmaydigan ahvolga kelgandi. Yigitning ahvoli tobora og'irlashar, to'rt-besh kun ichida ahvoli o'ta og'irlashib qolgandi. Amakisi atrofdagi bor shifokor va tabiblarni topib kelib, davolatishga urinmasin, hech narsa kor qilmasdi. Jamol ko'z yoshlarini duv-duv to'kkanicha, yeb-ichishni ham unutib, mijja qoqmay G'alining tepasida o'tirardi. U bir daqiqaga bo'lsin G'alining yonidan ketmas, og'riyotgan joylarini asta silaganicha, ko'zlarini mo'ltiratib, yigitga tikilib o'tirardi.

Yonlarida hech kim yo'qligida, Jamol G'alini bag'riga bosar va:

— Mening baxtsizligim o'zimning boshimga yetib, qo'shimchasiga sizni ham yomon otlig' qildi, ishqilib, oxiri baxayr bo'lsin-da, — deb yig'lashga tushardi.

G'ali esa:

— Yig'lama, Alloh meni o'z panohida asraydi, hali farog'atli kunlarimiz ham keladi, — deb o'zining ham, Jamolning ham ko'ngliga taskin bergan bo'lardi.

Shunday bo'lsa-da, G'alining kasali tobora zo'rayib, ahvoli og'irlashardi. Amakisi “Ovuliga xabar beraylik” deganida, G'ali bunga rozi bo'lmadi.

— Peshonamga nima yozilgan bo'lsa, shuni ko'rarman. Ovulga xabar bermanglar, Ollohning o'zi meni panohida saqlaydi, — dedi u.

O'n kundan so'ng bemorning ahvoli shunaqangi yomonlashdiki, hatto nolimay qo'ydi. Jamol bechora shunchalik holdan toydiki, ba'zan boshi aylanib ketardi, shunda G'aliga mo'ltirab:

— Endi men nima qilaman? Sizsiz bu dunyoda qanday yashayman? Siz bo'lmasangiz, mening holim ne kechadi? — deb qayta-qayta so'rar, G'ali bo'lsa:

— Seni Xudoga topshirdim, — deyishdan boshqa javob topa olmasdi.

G'ali bor-yo'g'i o'n uch kungina betoblanib yotdi va payshanba kuni umrining gullagan pallasiga yetgan navqiron yigitning umr chirog'i so'ndi. Olloh o'z rahmatiga olsin... Juma kuni xaloyiq to'planib, janoza o'qib, G'alini “Ko'ken molasi” degan qabristonga olib borib, tuproqqa topshirib kelishdi. G'alining joni uzilganidan beri Jamol es-hushini bilmay yotardi.

G'alining amakisi yaqinlarini to'plab, “Bir martagina bizga ishi tushib kelgan bechoralarga yordam berolmadik, xuddi o'zimiz o'ldirgandek bo'ldik-da...” dedi. Ular maslahatlashib, bu shumxabarni yetkazish uchun G'ali va Jamolning ovullariga xabarchilar jo'natishdi.

Xabarchilar G'alining uyiga ham, Jamolning uyiga ham yetib borishdi. Ikkovining ota-onasi qog'ozda tasvirlab bo'lmaydigan darajada qayg'uga botib, yig'lab, zorlangan bo'lsalar, ularning dushmanlari shu darajada quvonib, boshlari ko'kka yetdi.

G'alining ota-onasi va Jamolning onasi yonlariga bir qancha hamrohlar olib, ko'p o'tmay aza chiqqan uyga yetib kelishdi. Kelishlari hamoni yig'lab-siqtab, G'alining qabriga borishdi,

duolar o'qib, keyin ovulga qaytishdi. Jamol bechora oz kun ichida ranglari so'lib, ichterlamadan turgan kishidek madori qurib qolgandi, uning hatto ota-onalari bilan yig'lab ko'rishishga ham madori yetmadi.

— Yig'lama, bolam, baxtsizligingni o'ylayverma, Xudo buni senga ravo ko'rmagan, shekilli, — dedi Jamolning onasi. — Qozoqcha udumlarimizga berilib ketmaganimizda, shunaqangi balolarga duchor bo'larmidik? Itoatsizlik qilgan bo'lsang-da, tengingni topgan eding, lekin Oллоh buyurmaganidan so'ng yig'laganingdan foyda yo'q.

G'alining onasi ham ko'z yoshlarini tiya olmay:

— Bolajonlarim G'alijon bilan Jamoljon qachon elning gap-so'zlaridan qutulib, o'ng yonimga kelib o'tirisharkin, deb kutgandim-ey, Xudoyim bu tilagimga yetkazmadi... — deb nola qilib, faryod urib yig'ladi.

Ota-onalar uch kun shu yerda qolib, qaytadigan kunlari G'alinig qabri boshiga chiqishdi. Mulla Qur'on tilovat qilganidan so'ng, Jamol G'alining qabri ustiga o'zini tashlab, ko'z yoshlari duv-duv oqib, nola qildi:

— G'ali! G'ali! Baxtsiz Jamolingiz qoshingizga keldi. Oллоh taolo menga qabringizni ko'rsatganidan ko'ra, o'zimning jonimni olgani yaxshiroq bo'lar edi, biroq Xudoning amrisiz jon chiqmas ekan. G'ali yonimda turganida yomonlarga xor bo'lmayman, qolgan umrimizni birgalikda rohat-farog'atda o'tkazamiz deb ishon-ganim takabburlik bo'libdi. G'ali, Oллоh orzularimni ijobat qilma-di, umidlarim puchga chiqdi. Meni laqqa cho'g'lar ichiga tashlab, o'zingiz olis safarga ketib qoldingiz, o'zingiz uchun xayrli bo'lsin! Toki tanamda chivindek jonim bo'lar ekan, sizni unutmayman! Dunyoni so'ragan podshoning o'g'li kelsa-da, sizga teng ko'rmay-man. Alvido, jonim! G'ali! Meni deb mehribon ota-onangizni ko'ra olmay, qo'llaridan tuproq soldira olmay ketdingiz! Oллоh taolo oxiratda birga bo'lishimizni marhamat aylasin, o'shanda bar-cha ko'rgan iztiroblarim bir soatga qolmay unut bo'ladi. Alvido, jonim, men bu xiyonatlarga to'la xavfli dunyoda mehmon bo'la olmay, adashib qoldim. Alvido-o... — deganicha Jamol hushidan ketib qoldi.

Qabr tepasidagi odamlar qizning yuziga suv purkab, bir amal-lab o'ziga keltirib olishdi. Hushiga kelgan bo'lsa-da, Jamol ha-mon o'zini g'alati tutar va qandaydir ma'nosiz gaplarni aytadigan bo'lib qolgandi. Qabristondan Babasning uyiga qaytib, uylariga o'tlanishdi. G'alining ota-onasi uyiga qaytishdi, Jamolning onasi qizini o'zining uyiga olib ketdi.

### XIII

Jamol uyga qaytganidan so'ng qayg'usi battar ortib, ahvoli yomonlashib, ko'rgan odamning rahmi keladigan ko'yga tushib qoldi. Ish bunaqangi tus olganini ko'rgan Boyjon "Endi bu yog'i nima bo'larkin?" deb, janjal qilmay, indamay kuta boshladi.

Jamol uyiga qaytganidan so'ng bir oy o'tgach, Boyjonga ham, Sarsenboyga ham birdek munosabatda bo'ladigan og'aynilari o'zaro kelishib, Boyjonga:

— Endi borib, keliningizni olib keling, falon-tugun deb gi-na-kudurat saqlab yurmang. Bu ishga siz aybdor emassiz, Olloh taoloning amri bilan shunday bo'ldi, — deb maslahat berishdi.

Sarsenboyga ham:

— Endi siz ham qizingizni avval boshida rozi bo'lgan jo-yingizga beringiz, — deyishdi.

Bu maslahat ikkala tarafga ham ma'qul tushdi. Sholpan qi-zidan:

— Qizginam, Jamolim, odamlar shunday deyishyapti, endi nima qilsak ekan-a? — deb so'radi.

Bunga javoban Jamol mungli tovushda:

— Onajon, endi ham meni deb sharmanda bo'lmanglar. Suvga cho'ktirib, o'tda yondirishmaydimi, G'ali bo'lmaganidan so'ng endi menga baribir. Rozilik beraveringlar, agar Olloh taolo pe-shanamga yozganida, G'alini bunday bevaqt olib ketmas edi, — dedi.

Juman mirza o'zi kelishga or qilgani bois, uning onasi kelib, Jamolni olib ketdi. Bir vaqtlari barkamol, baxtli qiz bo'lib, ham-maning og'ziga tushgan, dugonalari orasida yulduzdek chaqrab yurgan Jamol oxiri shunaqangi baxtsizliklarga uchrab, xuddi

o'g'irlangan moldek kamsitilib, xo'rlanib yurganini ko'rgan odamlar orasida bechora qizga achinmagan bir kimsa qolmadi. Biron yig'in yoki to'ylarga kelganida, xuddi ko'l uzra suzayotgan oqqushdek ko'rinadigan malohatli Jamolni endi ko'rgan odam tanimay qolardi.

Boyjon esa Jamolni uyiga keltirganidan so'ng katta boshliqlarga xat yozib, "Duysebekning o'g'li G'alini Xudoning o'zi jazolab, vafot etganidan so'ng, ilgarigi hukmga ko'ra Jamolni ota-onasi olib keldi" deb ma'lum qildi. Jamol endi avval unashtirilgan qallic'ig'i oldida roziligi haqida tilxat yozib, qo'l qo'yib berdi. Jamol "Ikki tarafning ham bir-birimizdan haqqimiz, da'vomiz yo'q" deganidan so'ng, bu ish haqidagi shikoyat bekor qilingani haqida boshliqdan xabar keldi.

Bu voqealar yakun topgan paytda, oktyabr oyi kirgan va odamlar qishlovlarga qayta boshlashgan edi. G'ali sirayam Jamolning xayolidan ketmas, doimo ko'ngli xufton bo'lib yurar, jilmayishni-da unutib yuborgan, hech kim bilan gaplashmas, biron tasi gapirib qolsa ham nima deya yotganini anglamay, xuddi devonadek angrayib turaverardi.

Juman o'zi chekkan alamlarni Jamolning burnidan buloq qilib chiqarish uchun unga yomon muomala qilar, gapirsa jerkir, ba'zi vaqtlari do'pposlab urar, istaganicha xo'rlab, alamidan chiqardi. Boyjon va xotini Jamolni yoqtirishmas, shu bois ham bolasiga nasihat qilib, uni to'xtatishmasdi. Kiygan kiyimlari uvadaga aylanib, doimo ko'zlari osti ko'karib yurganidan, Jamol bechora biron tasin ko'rganida, uyatdan yerga kirib ketgudek bo'lardi.

Oxirgi paytlarda Jumanga, hatto Boyjonning o'zi ham:

— Endi-i, bolam, "yengilgan dushmanga xotin ham botir" deb bechorani ko'p xo'rlayverma, — deb nasihat qiladiganlar ko'paysa-da, ularni qulog'iga ilmasdi.

Jamolning yuragini ochadigan odami yo'qligi uchun ham yolg'iz o'zi qolganida zorlanib yig'lay olardi, xolos.

Shu tariqa, oradan bir-ikki oy o'tdi. "Jamol boshidan o'tkazayotgan xo'rlik va ozorlarni bir musulmon bolasiga ko'rsatmasin" deb aytishga yetib bordi, uni tursa oyog'iga, o'tirsa boshiga uradigan bo'lishdi.

Uni qanchalik qattiq urishmasin, Jamol hech qachon qarshilik qilmasdi. Bir kuni, Juman yana hech qanday sababsiz Jamolni o'lardek do'pposlaganidan so'ng, bechora Jamol chiday olmay:

— Meni o'ldirishni xohlasangiz birato'la o'ldirib qo'ya qol-maysizmi, shusiz ham kuygan ko'nglimni o'rtayvermay? — dedi.

Juman buni eshitib:

— Ha-a, seni yaxshi ko'rgan boyingga kuyganlaring hali-yam bosilmagan ekan-ku! Men birato'la kuyganingni bostirib qo'yay, — dedi-da, o'rnidan tura solib, Jamolni tepkilay ketdi.

Shuning ustiga Jumanning onasi kirib qoldi-da, chalajon bo'lib qolgan Jamolni o'g'lidan ajratib oldi, uni koyib:

— Nima, odam o'ldirib, qotil bo'lmoqchimisani? — deb, uydin chiqarib yubordi.

Oradan bir soat o'tgach, Jamol hushiga keldi, es-hushini yig'ib olib, "Men bu yerda yashay olmayman, bu itning qo'lida kaltak yeb o'lgandan ko'ra boshqa biror joyda omonatimni topshirganim ma'qul" deb o'yladi. Jamol shaharga, Fatihulla boyning uyiga borishni ko'zlatdi. "Bir amallab o'sha yerga yetib olsam, bironing ovqatni pishirib, boshqasining ishini qilsam ham, bunaqangi xor bo'layotganimni odamlar ko'rmas edi" deb mulohaza yuritardi u. To u bir qarorga kelgunicha qadar quyosh botib, tun kirdi, hamma uyquga yotdi.

O'sha tunda Jamol o'ylaganidek, Boyjonning oti hali egari yechilmagan holda turgan ekan. Issiqroq kiyingan Jamol tez borib otga mindi va "Xudoyim-ey, meni o'zing qutqardingmi?" dedi-da, katta yo'l tomon ot choptirib ketdi.

Garchi Jamolning ishi dastavval yurishmagan bo'lsa-da, lekin tez orada ish butkul chappasiga keta boshladi. Jamol yo'lga chiqqan paytda ozroq qor yog'ib turgan edi. Jamol yigirma chaqirimcha yo'l yurganidan so'ng esa kutilmaganda bo'ron ko'tarilib, yo'l ko'rinmay qoldi. Bora-bora bo'ron obdon kuchayib, old tarafida ham, orqa tomonda ham g'uvillay boshladi.

Qo'rquv va qalb quvonchi nimaligini unutib, faqat G'ali haqida o'ylaydigan Jamol bir yerga yetganida, mutlaqo yura olmay qoldi. Faqat shundagina u oti allaqachon yo'ldan chekkaga chiqib ketib, qalin qor orasida yurolmay, tik turib qolganini payqadi. Otini ort-

ga burmoqchi bo'lgandi, qo'llari muzlab ketganidan hatto jilovni ham ushlolmay qolibdi, butun tanasi tinmay qaltirardi. Jamol bor kuchini yig'ib, otni orqaga burdi, biroq u hech narsani ko'rmas va yo'lni topa olmasdi.

Shu tariqa, Jamol tun yarmidan oqquniga qadar tentirab yurdi va qattiq larzaga tushganidan nima voqea sodir bo'lganini ham bilmasdi. U otdan tushib, ozgina yayov yursa, isinib olishga umid bog'ladi. Lekin otdan tushib, ozgina yurgandi, qalin qor orasida yura olmay yiqildi-da, keyin o'midan tura olmay, shu yotganicha qoldi. Kuni bo'yi egasi minib yurib charchatgan, kechasi ham dam olmay yo'l yurgan ot esa Jamoldan nari ketmay, yonida turib qoldi. Jamol go'yo es-hushini yo'qotgandek, xuddi butun badani qizib ketayotgandek ustidagi kiyimlarini yechib, atrofga uloqtirar va baland ovozda:

— G'ali, G'ali, jonim qiynaldi, qayerdasiz? — derdi.

Bu taqdiri odamlarning og'zida doston bo'lgan, maqsadiga yeta olmay, qahraton dekabrning bo'ronli tunida ochiq dalada jon taslim qilgan sohibjamol Jamol hayotining so'nggi onlari edi...

Bo'ron Jamol uchun aza tutgandek tong otgunicha uvilladi. Bechora Jamol yo'ldan yarim chaqirimcha masofada yotar edi. Kun chiqqanida shahardan kelayotgan besh-olti nafar yo'lovchilar bu joyga yaqinlashganlarida, yo'l ustida qotib turgan egarlog'liq otni ko'rishdi. Yo'lovchilar otning yolg'iz turganidan shubhalanib, uning egasi qayerda ekan deb o'ylashdi va u tomon borib, izlar bo'yicha yurib, izlay boshlashdi. Shunda atrofida kiyim-kechaklar sochilib yotgan ayol jasadini ko'rishdi.

Yo'lovchilar bir hamrohlarini o'sha yaqin joydagi ovulga jo'natib, o'zlari ayol jasadining yonida qolishdi. Lekin shunchaki kutib turmay, "Bu ayol kim ekan, bu yerlarda nima qilib yurgan ekan?" deb bosh qotirayotganlarida, ularning biri "Cho'ntagida nima bor ekan?" deb ayolning ustki kiyimining cho'ntagiga qo'l suqqanida, qalamda yozilgan bir qog'oz chiqdi. Qog'ozni o'qib ko'rib, bu ayol Boyjonning kelini Jamol ekanligini, qog'ozga esa G'aliga atalgan zorini yozganini bilishdi.

Ovuldan odamlar kelib Jamolni Boyjonning uyiga eltib berishdi. Ertasi kuni uni sovuq qora tuproqqa topshirishdi. Jamolni topib

olgan yo'lovchilar uning cho'ntagidan chiqqan qog'ozni o'qib,  
keyin uni o'zlarini ovullariga tarqatgan edilar.

Boyjonning uyida Jamolning yozgan zori mana bu edi:

*Qizning xuni besh baytal,  
Sotilib ketdi bozorga.  
Boshimdan kechgana voqea.  
Emasmi loyiq yozishga?  
Joni achigan shohbozlar  
Ola yursin nazarga.  
Rahmli banda g'aribga,  
Nohaqdan o'r qazarma?  
Mehribonli otamiz  
Qaramay berdi ajarga.  
Tengiga borgan qiz bo'lsa,  
Menday to'zib ozarma?  
Ko'rmadi Olloh loyiq  
G'ali kabi jasurga.  
Ko'rgan tushday kun o'tdi,  
Bo'lgan so'ng shunday azalda.  
Quvonchingni ko'rsatib,  
Tortqizgan qayg'u-jazoga.  
Qorong'uda qoldim men,  
Shamchiroq so'ngan zamonda.  
G'alidan qolib ne bo'ldim,  
Yetmadi mening qazom ham.  
Ichimga tushdi issiq dard,  
Qaynagan suvday qozonda.  
Buzildi kulki, tungi uyqi,  
Tilayman Haqdan azonda.  
Mahshar kuni bo'lganda  
Qo'shishga Olloh yozarma?  
Orasida ikki o'tning,  
Meni, Olloh, xor etding.  
G'aribning ko'nglin mung'aytib,  
Dushmanni shodli zo'r etding.*




Oltin, gavhar aslni  
Yerga ko'mib yo'q etding.  
Isfaxonli qilichni  
O'tda toblab bor etding.  
Jamol qizning dovi deb,  
Saumalko'l boshin to'p etding.  
Rahmating mo'l Xudoyim,  
Masxara muncha nega etding?  
To'ti qush edim bog'chada,  
Qoraqushga yem etding.  
Xon qiziday boshimni  
Bir yomonga teng etding.  
Bo'tasiz norday bo'zlatib.  
Mana meni ingratding.  
Qahringni yuborib,  
Tengdoshimdan kam etding.  
Bunday zorli qilganday  
Men bechora ne etdim?..  
Yig'ladim zorlab, G'ali yo'q,  
Ishiga ko'ndim qudratning!

Petropavl, 1910

# JUSIPBEK AYMAUITOV



(1889–1931)



## YOZUVCHILARGA

“Alash”ning<sup>1</sup> talabi zo‘r, maqsadi mo‘l,  
Har turli kamchilikka cho‘zadi qo‘l.  
Bir maqsad — ayolning holatin ayab,  
Ozodlik, insonlikka izlamoq yo‘l.

Bu talab o‘rni kelsa — tog‘day talab,  
Niyati qabul bo‘lsin Xudo xohlab.  
Har kimning yurakdagi dardin qo‘zg‘ab.  
Yozilar talay so‘zlar necha taraf.

Ayol so‘zi — qitqilovchi, nozik bir ish,  
Nozik ishni buzmasdan qilgan durust.  
Insonlik, halollik va adolatga,  
Yozuvchi asoslansa bo‘lmas burus<sup>2</sup>.

Odamzod oromxumor moldan ziyod,  
Ayol — odam, narsaday nafsni niyat.  
Tan rohatin izlab, ayolni aldash —  
Insonlikka zid narsa, or bilan uyat.

Bu nuqson barchamizning boshimizda,  
Suyakka singib o‘sdi yoshimizda.  
Bo‘sh so‘fiday huquqni burkamaylik,  
Chinga dushman, Ollohning yovimizma?

Insof, uyat, odillik, barqarorlik, —  
Insonlikka yarashar ko‘rik, qiliq.

---

<sup>1</sup> “Alash” — XX asr boshidagi qozoq xalqining ilk milliy-demokratik partiyasi.

<sup>2</sup> Burus — burilgan, noto‘g‘ri.

Ayolni tenglashtirsak, teran o‘ylab,  
Yozsak ekan nafsidan yiroq turib.

Sevgi-o‘yin, ko‘rkaytib sirlamasak,  
Qiziqga qiziqtirib qirlamasak.  
Yotish, turish, quchoqlash...-ni aytib,  
Kulkisin oshiqlikning jirlamasak.

Bog‘chaga eksak, qizg‘aldoq so‘limasa,  
Toza buloq loy bo‘lib qurimasa.  
Mayishgich har tarafga yosh tabiat,  
Mayli edi yomonlikka qayrilmasa.

Talay roman ruslarda yotar to‘lib,  
Keraksiz yomon so‘z bilan ichi to‘liq.  
Yoshlarni buzuqlikka qo‘zdiradi  
O‘g‘riga so‘yil topib bergan bo‘lib.

### NE QILMOQ BO‘LAR?

Turlanib ushbu zamon o‘tib borar,  
Tinch o‘tmay har kimga sin<sup>1</sup> taqib borar.  
Holidan zamonaning xabardormi  
Shu bizning qozoqlar ne qilmoq bo‘lar?

Shukr, qozoq uyqudan turib borar,  
O‘z holicha dastgohin qurib borar.  
Ilikning yog‘li boshin beri tortib,  
Uddalab o‘z oldiga burib borar.

Bizga na hunar, na ilm yuqib borar,  
Yoshlar buni o‘rganib uqib borar.  
Xalqqa bosh-ko‘z bo‘lib, yo‘l bunda deb  
Bir-birlab gazetalar chiqib borar.

---

<sup>1</sup> Sin — nuqson.

Qozoqning bolalari o‘qib borar,  
Bilimin kundan-kunga qo‘shib borar.  
Yot fe‘l-xulqqa ilashmay, yurtin o‘ylab,  
Millat g‘amin ko‘ngilga to‘qib borar.

O‘qituvchi, muallimlar tarab borar,  
Boylar ham katta ishga yarab borar.  
Tosh po‘lat uy, magazin, zavod ochib,  
Tortishib, hunarlarga yonib borar.

Nochorga ko‘ngillari erib borar,  
“Ma, yordam!” — deb ayamay berib borar.  
Uyushmadan, ittifoqdan boshin tortmay,  
So‘zga, jo‘nga, qatorga kirib borar.

Shundayin, qozoq ilgari bosib borar,  
Madrasa, maktablarin ochib borar,  
Injiner, agranom, advokatlar,  
Shifokor ham ibrat nurin sochib borar.

Qozoqqa qanday foyda keltiray deb,  
Netsin! Boshqara olmay shoshiy borar.  
Birovlar hunar ila yetishdim deb,  
Birovlar — chorvaman, deb aytib borar.

Selday urush olamga yetib borar,  
Oq podsho yurtga farmon etib borar.  
U farmonda qatorga qozoq kirib,  
So‘qa, kuragi lipillab ketib borar.

Yugan, quruq ko‘rmagan shoshgan yurt-ku,  
Dushmanni biqinidan teshib borar.  
Bo‘yni qattiq nodonlik sho‘rlik qoplab,  
Ko‘nmaganlar yelkasin qisib borar.

Xotin-bola, chol-kampir qolib borar,  
Sarkashlik-la tarmashib, talab borar.

Olisdan German ne qilar? — deb edi,  
Yaqin yerdan bilishga olib borar.

Loy suvga quvongan choʻrtanlarday,  
Buyurganin xalqumga solib borar.  
Jabr-jafo koʻrganlar yalinishib,  
Adolatli toʻraga chiqib borar.

Kuropatkin kabi ulugʻlarni,  
Toʻgʻrilik nazariga olib borar.  
Inshollo, qozoqqa ham boʻlar tenglik,  
Qiyshiqni ovuli tezga solib borar.

Ulugʻ urush bosilib, tong ham otar,  
Rossiyadagi dushmanin bir kalaka etar.  
Soʻqa, kuragi bari chakmon boʻlib,  
Qozoq ham xalq boʻlar turnaqator.

## OILA BOSHI

Bolalar, otlaninglar, qosh qoraydi,  
Kech kirs a oʻgʻri-yolgʻon pismalaydi.  
Quyosh poʻlat, oy qorongʻi, qashqir qattiq,  
Koʻkchoʻloq<sup>1</sup> qangʻib ketsa tasmalaydi.

Yilqini tarqatmasdan jam qilinglar,  
Boʻron boʻlsa, boʻshashib, oʻranmanglar.  
Bu yil ot minib, gʻayrat qib, kiprik qoqmay,  
Chidanglar, chiroqlarim, tutam tong bor.

Koʻrdingmi pishqirishin jonivorning,  
Yer toptalgan, turi yomon sariq qorning.  
Aptalagʻin<sup>2</sup> chiqarar ushlab olsa,  
Yeriga yoʻlamanglar sariqlarning.

---

<sup>1</sup> Koʻkchoʻloq — otning nomi.

<sup>2</sup> Aptalagʻin — yasovi.

Mana bir sur bulutning tusi sovuq,  
Xo'mrayib kunbotishni turar bo'g'ib.  
Baytal tugul bosh qayg'i shunda bo'lar,  
Haydasa o'sha bulutni bir yel quvib.

Yilqini yotqizmanglar shiyriqqa<sup>1</sup>,  
Qolmasin sho'rga yilqi yiqilip-da.  
Bo'ron bo'lsa chuvatib haydab solib,  
Solinglar oxirida tig'iriqqa<sup>2</sup>.

Ol, bolalar, mollaring omon bo'lsin,  
Xizr yor bo'l, falokat tamom bo'lsin.  
Yel tinib, bulut tarqab, kun tuzalib,  
Uchrashar omonlik-la zamon bo'lsin.

---

<sup>1</sup> **Shiyriq** — 1. Chorva boqilmagan, yurmagan yangi yer. 2. Chorvaning, hayvonning yurgan izlari.

<sup>2</sup> **Tig'iriq** — olg'a yurish, o'tish qiyin bo'lgan yopiq joy.

## AX-XA-XA-XAU

(Kinoya)

Yosharsam deb ko'ngli yosh,  
Yosh iforga xumorlar!  
Qariga yoshning fe'li yov,  
Chamalab bir g'ijimlar.

Yaproqsiz, tagsiz jonlangan,  
Ichi bo'sh qari yog'och!  
Bulbul izlab sargardan,  
Nechuk donli dori yog'och!

“Sentyabr o'tdi qirov”,  
Noyabr manov so'qir-ov!  
Yanvar kelib qirchillab,  
Mos bo'lgan o'qirau<sup>1</sup>!

Aprel oyi ko'ngilda:  
Sira ham yo'q to'qirau<sup>2</sup>.  
Ax-xax-xau! Kulkim-ov!  
Ichagim qotib o'tir-ov!

## URCHIQ

Zirillab yugur, urchig'im,  
O'ramni taxlab ip qilib.  
Ko'zimning yoshi bo'sh chiqim.  
Yurakni o'rtab isitib.  
Usti-boshi surday bo'b  
Yurgan bo'lar qulunim.

---

<sup>1</sup> O'qirau — qor yog'ib, sovuq tushgan payt.

<sup>2</sup> To'qirau — turg'unlik.



Yolgʻizim ketdi qurday boʻb,  
Kesildi qoʻlim, qurugʻim.

Uch yil kiygan tuya jun,  
Toʻzgan boʻlar chakmoni.  
Toʻngmasin deb kuni bilan  
Botsa ham jonga ketgani.  
Qari chechang koʻz qisib,  
Toʻldira olmay urchigʻin.  
Oʻtirar yigʻlab bukchayib,  
Koʻzining surtib bilchigʻin<sup>1</sup>.

“Qarasam” ham tugading,  
Yiltillading soʻngali.  
Yalinchoqlik, yolchining,  
Nochorning kuni koʻrgani.  
Moli borlar moli bilan  
Kishi yollab olisda.  
Oʻrin topib yoli bilan  
Kirishdi-da qolishdi.

Qirchangi, oqsoq, soʻqirning  
Koʻtarildi bozori.  
Yiriq, puchuq, qoʻtirning  
Bu yil kirdi ajari<sup>2</sup>.  
Yigirib chakmon uyqu yoʻq  
Qaradim koʻzim suzilib.  
Tez yigirilar holi yoʻq  
Yoʻlagi shoʻrlik uzilib.

Soʻrovchining suyganin  
Kim beradi yangisin.  
Hech boʻlsa shu oʻramning  
Tugatsam ekan yarmisin.

---

<sup>1</sup> **Bilchiq** — koʻz yiringi.

<sup>2</sup> **Ajar** — chiroy.

Yengilib qachon yomon yov  
Tantana bo‘lar, Xudoyim?  
Yolg‘izim qaytib eson-sog‘.  
Qachon tug‘ar kun-oyim!  
Zirillab yugur, urchig‘im,  
O‘ramni taxlab ip qilib.  
Ko‘zimning yoshi bo‘sh chiqim,  
Yurakni o‘rtab isitib.

## KO‘CHISH

“Ko‘chib borar” degan so‘ng ko‘zimni ochib,  
Yuz-ko‘zimni uqalab, rangim qochib,  
Sig‘irayib yon-yoqqa alanglasam  
Shov-shuv —bari ovora, to‘pirlashib.

Yuk tortgan qumursqaday qimirlashib,  
Mehnatkash, yugurishgan bari shoshib.  
Uy yig‘gan, yukin tuygan, borin ortgan,  
Bog‘lashga arqon-ipin tayyorlashib.

Hech kim yo‘q tomosha qib qarab turgan,  
Kuymanib ko‘chgan yurtni sanab turgan.  
“Arava qo‘sh”, “Ot qayda?”, “Shoshilinglar”,  
“Ay-chuylab” qamchi, tayoq uloqtirgan.

“Jelini<sup>1</sup> bo‘shatinglar...”, “Kogen<sup>2</sup> qayerda?”  
“Bo‘l tezroq, bosib tur-da, buni hayda!”  
“Boyadan ot egarlamay nega turibsan?”  
“Ey, uning yo‘lda qoladi, mahkam bog‘la!”

“Bunday tort, sigir shaylandi qochishga!”  
Qo‘yaver, buzog‘i bilan olishma!”

---

<sup>1</sup> **Jeli** — qulun yoki buzoqlarni bog‘lash uchun ikki qoziqqa kerib bog‘langan arqon.

<sup>2</sup> **Kogen** — qo‘y-qo‘zilarni bog‘laydigan halqali uzun arqon.

“Bo‘yin ipin qattiq tort, obdon!”  
Shoshib qolib, “Ovul ko‘chir” — deb olisga!

Yalangan shoshqaloqday bel bo‘g‘ishgan,  
Yuk ortgan qiz-kelinchak har bir tusdan.  
Ayg‘irin chandirlatib, chirtillatib,  
Shuvillab, qur-qurlab yurar ot quvishgan.

Yugurib yugan olib, bir yosh bola.  
Zirillab yilqi ichiga borgan mana.  
Entikib, rangi o‘chib yig‘lamsirab,  
Yalinib “Og‘atoylab” yurar ana.

Joni achib u boyoqishga rahm etgan,  
Hech odam topilmadi shuncha ko‘pdan.  
Tirvanglab eslanmasdan qolaverdi,  
Yaltoqlab unga-bunga, o‘tgan-ketgan.

“Qara-chi, ko‘k biyaga mindi irg‘ib,  
Tuyachi Japaboy ham yomon-g‘arib...  
Ola cho‘loq ho‘kizning aravasiga,  
Ilojsiz yopishaman-ov endi borib.

Pishillagan, o, yalqov harom qotgur!  
Qaysi jo‘nga yurar deysang Xudo urgur.  
Quyrug‘in doim burab o‘tirmasang,  
Yalpayib yotib olar yomon ko‘rgur.

U itga minmagan bilan bo‘yim tolib,  
Kichik uyning qara atani<sup>1</sup> bir o‘qtalib.  
O‘jar, vovullagich, katta qora it  
Ayblasa, bir bosmaydigan akillab”.

Baytal mingan piymasiz boyoqish malay,  
Shalviratib ot egarlab yurar shunday.

---

<sup>1</sup> **Atan** — axtalangan tuya.

Necha qavat intilib, ag‘darilib,  
Baytalni urgan bilan ma’no qanday!?

Serishva yupqa ro‘molli kelinchaklar,  
Soqolli bosh ko‘rganda chekinarlar.  
Piyodalab yurtdan chiqqa otga osilib,  
Etagin qayira olmay yo‘rg‘alarlar.

Urfi yo‘q qarqarali<sup>1</sup> qo‘ng‘iroq taqqan,  
Og‘mali yuklar ham oz tuyaga ortgan.  
Gardishli qoramoyli g‘ildiraklar,  
Yamshikdek tirkab olgan kira tortgan.

Qo‘shiq aytgich g‘ijinlagan g‘ildiraklar,  
To‘qnashsa, to‘nkaga urilsa shalaqlar.  
Qo‘shiqlari tarqoq, qo‘shilmaydi,  
Ketarmi barakali asl teklar<sup>2</sup>?!

## SHIOR

Qozog‘im, turtulma, qamalma!  
El bo‘lar g‘amingni amalla!  
Ketdi tun, otib tong, chiqib kun  
Sol molni, sol jonni, ayanma!

Mol boqqan, tinch yotgan el edik,  
Mashaqqat ko‘p tortgan er edik,  
Qoni yot, tili yot, dini yot  
Yot eldan tayoqni yeb edik.

Yotga yem boy edik, kon edik.  
Baxtsiz boshqaruvda kim edik.

---

<sup>1</sup> **Qarqara** — qo‘sh patidan yasalgan bezak.

<sup>2</sup> **Tek** — asl kelib chiqishi, urug‘, nasl.

Partiya munofiq, qiy-chuv, to'palon,  
"Boshi omon" ko'p nodon sen eding.

Zoriqqan, toliqqan chog'ingda  
Duch keldi ozodlik baxtingga!  
Birlash, da'vat qil, yoqalash!  
Sen ham min bobongning taxtiga!

Kuning yo'q, xo'rlikda o'chganding.  
Derazang to'ra bilan bo'ldi teng.  
Nomuslan, g'ayratlan, qatorga kir!  
Boshqadan kam bo'lgan sening neng!

Shiorim, qo'rg'onim, sen Alash!  
Yo'lingga qurbonlik mol ila bosh!  
Hunar top, o'rga chop, qurol ot,  
Olloh deb olg'a bos, al Alash!

## CHUQUR TUBSIZLIK OSTIDA

(She'r bilan yozilgan so'z)

Suv savalab, suvni tilib,  
Ko'k dengizda kelayotir bir kema.  
Bir mahalda tusi sovuq  
Bir qora bulut ko'kda o'ynoqlab,  
Chiqa kelib, turdi dengiz ustiga.  
Shu zahoti dengiz mavjlanib,  
Tog'day-tog'day qora to'lqin  
Dengizni oldi ta'qibga  
Shiddatli dovul quturib.  
Qo'ldan chiqqan ovday ulip,  
Kemaning kanop yelkanlarin  
Qisirlatdi, qiyratdi.  
Onda-sonda qora tuman  
Chaqmog'i bilan yarq etdi.  
Ko'k gurkurab, suv xiralashib,  
To'satdan goh-goh shart etdi.  
Kemaga ajal yaqinladi  
Kemani suv qopladi.  
Sirg'aullar<sup>1</sup> qiyradi  
Kanop qanot o'rim-o'rim  
Shalviradi osilib.  
Dovul-la to'lqin qo'shib,  
Kemani yanchib egalladi.  
Darmon ketdi kemandan  
Suvga botib yo'naldi...  
Tong sachirab otganda,  
Baraka, bo'chka, arqon, ip  
Taxta-maxta oqib yuradi.

---

<sup>1</sup> Sirg'aul — machta.

O'sha taxtaning birida  
Qandaydir bir mehrli qo'l  
Mahkam turib boylagan  
Chaqaloq ketib boradi.  
Cho'ptay yengil taxtasida  
To'rg'ayday bo'b ko'rinib.  
Qora to'lqin orasida,  
Chuqur tubsizlik ostida  
Xatardan hech bir xabarsiz,  
Ko'ngli g'amsiz, o'zi shod  
Jilmayib kuladi yosh bola.  
Mittigina yosh qo'llarin  
Chapalashtirib, suv savab,  
Salqin suvga namladi.  
Namlayin deb namlamaydi:  
To'lqin qo'lga uriladi.  
To'lqinning oppoq ko'pigi  
Bolaning ustin qoplaydi:  
To'lqinning sochgan uchquni  
Uchuqlaydi bolani.  
Buni bola o'yin-ku deb,  
Pirpiratib, ko'z qisib,  
Siqirlab turib kuladi  
Qiziq-ku asli bolaga!  
Tubsiz teran ko'k dengiz  
Qo'rqitmaydi bolani,  
Yuksak tog'day ko'k to'lqin  
Keltirmaydi qo'rquvni.  
Hayotda men ham ko'raman  
Qayg'usiz, g'amsiz ko'ngli shod  
Jilmayib turgan jonlarni,  
Zavqlangan yuzlari.  
Kulsa og'zidan gul to'kib,  
Sanqillagan unlari.  
Ko'rgan sayin esimga

Beixtiyor bola tushadi.  
Shunday g'amsiz, shunday shod,  
Kulgusi shirin, lazzatli.  
Yopishib yolg'iz taxtaga.  
Qora to'lqin ichida,  
Chuqur tubsizlik ostida  
Shod bo'lib kulgan bolani.

### ASKAR QO'SHIG'I

Ilk ajdodin — er turk  
Biz — qozoq elimiz.  
Salqin tog', chalqar ko'l.  
Sariarqa yerimiz.  
Soy soylab, mol haydab,  
Kenglikda yayrashib,  
Erka o'sgan Arqaning<sup>1</sup>  
Chin ulug'larimiz.  
Yovlashsak el bermas,  
Ingragan erlarmiz.  
Kishandan bo'shangan,  
Biz — shiddatli sherlarmiz.  
Qahrlansa bo'lmaydigan,  
Yangi zo'r parimiz.

Ot minsak, yel bo'lib,  
Dovullab chopamiz.  
“Lap!” desak erlanib  
Lovullab yonamiz.  
Alashning oq tug'in  
Qo'lga olib, baqirib,  
“Alash!” dep chopganda,  
Yovga kulfat solamiz!

---

<sup>1</sup> Sariarqa, Arqa — Qozog'istonning shimoliy mintaqasi.



Er turk azaldan  
O‘q teshgan etimiz.  
Qo‘rqmasdan hech yovdan  
Qaytmagan betimiz.  
Yog‘sin o‘q, oqsin qon,  
Chiqsin jon, qo‘rquv yo‘q.  
Alashning yo‘lida  
Jon fido — niyatimiz.


Bizlarga so‘zmikin  
Yovning ko‘p yo‘zi.  
O‘lsak, haq shahidmiz,  
O‘ldirsak biz g‘oziy.  
Yo‘l bo‘lib, yov yanchib,  
Sog‘ qaytsak bo‘lamiz  
Qozoqning chin o‘g‘li,  
Qahramon sarbozi!

Alashning arvohi  
Madadkor, qo‘llasin!  
Oqsoqol, tilayver,  
Safarni o‘nglasin!  
Yaratgan yor bo‘lib,  
Qozoqning eliga.  
Yashnatsin, saqlasin  
Alashning o‘rdasin.

# MAG'JON JUMABOYEV



(1893–1938)



## O'LAN

Zeriksa jonim,  
Og'risa tanim,  
"Suyanchim bor!" — demasdim.  
U bo'lsa hamroh,  
Yer yonsa nogoh  
Parvo ham qilmasdim.  
Jon sevganim — o'landir shu,  
O'lansiz men o'laman-ku.

Jonimning joni,  
Tanimning qoni,  
Tirikligim sen bilan.  
O'ylandim — to'ymadim,  
Izladim — qo'ymadim,  
Maslahat qil men bilan.  
Eshitsa seni — yayrar jon.  
Qadringni bilmas ko'p hayvon.

## LAZZAT QAYDA

Bu dunyoga chiqdimmi —  
Izlaydi ko'nglim kun-tuni.  
Lazzatni, do'stlik, rohatni,  
Shodlikka to'la kulguni.

Lazzatlar qayda? — uydami,  
Qayg'uli, og'ir, besamar.  
Yoki qiz to'la to'ydami?  
Yo ovda, ot minib chiqsam gar?

Boylikdamikan lazzatlar?  
Betimdan tomib tursa moy,  
Osh bersam, ot bersam, yurt meni  
Maqtasa boy bu deb, boy bu, boy!

Lazzatlar istayman, yosh ko'nglim  
Charx urib, izlaydi intizor.  
Samolar kezadi xayolim,  
Pisandmas unga hech sovuq qor.

Lazzatni har qaydan izlayman,  
Lazzatlar poylaydi yo'limda.  
Ot minib, it bilan istayman,  
Qiron ham bo'ladi qo'limda.

Yo'q, bunday lazzat hech kerakmas,  
Ko'nglimga aytar amrim shul:  
"Ilm izla! Ilm o'qi! Hunar top!  
Boshqa narsadan uz ko'ngil.

Yurtning dardini ko'p o'yla,  
Qayg'u-g'amini yeb o'yla,  
Orqada qolgan sho'rlik yurt  
Olg'a bossin deb o'yla!  
Bor lazzat shu niyat, shu o'yda!

### **XOR-ZOR BO'LGAN SULUVGA**

Qayg'ulanding, zorlanding,  
Ishingni qo'yib, mung'ayib.  
O'ynamaysan, o'ylaysan,  
Kulgungni qo'ydi kim olib?

Yolg'iz qolsang bir uyda,  
Oh urasan, yig'laysan.

Mo'ltiragan ko'zingni,  
Yoshlar to'kib, tig'laysan.

Ko'p o'ylading tinchimay,  
Tunda ham kiprik qoqmading.  
Dardingni bilib hatto tong  
Sut kabi oqarib otmadi.

Yap-yangi pishgan olmaday,  
Yashnab turgulik vaqtingni,  
Yoshlikning qizig'in ko'rmasday,  
Kim, nega sindirdi baxtingni?

Qayg'uga soldi kim seni  
Halovat yuzini ko'rmasday,  
Hayoting bo'yi kulmasday,  
Hasrating manguga so'nmasday?

Lablaring titrandi g'am bilan,  
Qay yovuz edi u — qarg'aysan?  
Seni xor qilgan badbaxtning  
Afsusdan yuzlari sarg'aysin!

### **HUNAR, BILIM QANDAY EGALLANADI?**

Er yigit hunar topar dil chog'lasa,  
Erinib charchamasa, bel bog'lasa.  
O'yin-kulgu, bor-yo'qqa ko'ngil bo'lmay,  
Qasd qilsa, bilim-fanni ardoqlasa.  
Bovrim deb, qarindosh deb aylanmasa,  
Xotin-qiz, jononlarga boylanmasa,  
Izlansa erta-yu kech — hunar topar,  
Bo'sh yurmay, rohatlarga shaylanmasa,  
Dunyoning qayg'usidan zorlanmasa,

Ko‘z qisib kulganlarga aldanmasa.  
Qaydan u egallasin hunar, bilim,  
Ko‘rganga ezmalansa, yolg‘onlasi?!  
Ot minib yomonlardan olis qochsa,  
Yomon ish qilib qo‘ysa — betin bossa,  
Er yigit hunar topar, bilim topar,  
Obro‘sin ehtiyotlab, yo‘llar oshsa.  
O‘zidan boshqa jonni kam ko‘rmasa,  
Manmanlik, ezmalikka yo‘l bermasa,  
Er yigit ilm topar, hunar topar,  
O‘zini yalqovlarga teng qilmasa.  
Ko‘zi ochiq odamlarga yaqin yursa,  
Ularning har bir so‘zin ulgu qilsa,  
Yaxshi so‘zni, ibratni tashlavormay,  
Avaylab, quloq tutib yig‘ib-tersa.  
Ko‘ngli keng saxiylarni do‘st deb bilsa,  
Ezma-churuk, yalqovlarni qasd deb bilsa,  
Er yigit hunar topar, obro‘ topar  
Daladan qochmay, chinlab mehnat qilsa.  
Nodonna jonsiz yotgan tosh deb bilsa,  
“Hunar-bilim — qorni ochga osh” deb bilsa,  
Dunyoning dengizida adashganga  
“Yo‘lni men ko‘rsataman, bos!” — deb tursa.  
Shu niyatda yursa, tursa, o‘zgarmasa,  
Haromga bo‘ynin burib ko‘z solmasa.  
Hunar, bilim yer ostida bo‘lsa — topar,  
Qat‘iyat, talpinishdan bo‘sh qolmasa!

\* \* \*

Tirikchilik ko‘rki — erk,  
Insonlikka u sherik.  
Bir tushdingmi qopqonga,  
Qolib ketar erkalik.  
O‘ylamay borib, tiqilib,  
O‘kingan ozmi bekinib.

## YER YUZIGA

Yer yuziga botir nomim ortilgan,  
Men emasman suvdan, o‘tdan tortingan.  
G‘ayrati mo‘l, kuchga to‘lgan qironman,  
Yovni ko‘rsam yurak yonib intilgan.

Bir irg‘isam, chiqdim baland Oltoygga,  
Qirda turib sadoq tortdim Xitoyga.  
Talay toyg‘oq, tor yo‘llarda toymadim,  
Botir yurak, g‘ayrat tilaydi poyga!

Tolmay, qaytmay qamal buzgan kamongir,  
Arslonlarga tikka chiqar menday er.  
Vaqillagan, yalpillagan qushlardan  
Qo‘rqar bo‘lsam, yutsin meni qora yer!

## O‘G‘LON

— Darding nima, qulunchog‘im?  
Ne g‘aming bor, ayt, qarog‘im!  
Yoshsan, xayolga berilma,  
Xayol — sarob, xayol — oqim!  
Ulg‘aysang, ul kelar o‘zi,  
Yoshlik o‘ynab-kular kezing,  
Zeriksang gar mol orala,  
Qulun, toylar chopar o‘zib!  
— Yo‘q, bormayman, ona, molga,  
Ketmoqchiman ovga! Ovga!

— Darding bo‘lsa, do‘mbirang ol,  
Qo‘shiq ayt, chert, yangratib chal,  
Tovushing tinglab yosh suluvlar,  
Yutsin zahar, yutsin goh bol.  
Yuzing yonar olma kabi,

Qad-qomating sarvmisol.  
Nega jimsan, erkatoyim,  
Bir qora ko‘z bo‘lmasmi yor?  
— Ona, qaramayman yorga,  
Ketmoqchiman ovga! Ovga!

— Seni tuqqan onangman-ku,  
Qorachig‘im, bolamsan-ku.  
Olis yo‘lga ketsang, qo‘zim,  
Kutib, kuyib yonaman-ku.  
Qartayganda suyanchimsan,  
Sog‘inaman, tayanchimsan.  
Meni desang, erkatoyim,  
Olis ketma, qarog‘im, san!  
— Ona, kutma, kuyma, yonma,  
Ketajakman ovga, ovga!..

Olis ketdi, ketdi ovga,  
Yoshlik o‘ti — yelga sovg‘a!  
Mol ham, yor ham,  
qarindosh ham  
Arqon bo‘lmadi jonga!  
Ketib borayotganida  
Duch bo‘ldi u sonsiz yovga.  
Nayzalashdi, qilichlashdi,  
O‘g‘lon o‘ldi botib qonga.  
O‘g‘lon o‘lgach botib qonga,  
Rohat yetdi asov jonga.

### NAVKAR QO‘SHIG‘I

Uchaver, jonim Qorako‘k,  
Shamolda o‘yna, sochlarim!  
Qo‘limda nayza — ko‘k po‘lat,  
Shu — mardman deb aytarim!



Xalq degandan ko‘pirib,  
Toshding-a, jonim, qaynading.  
Xalqimdan o‘zim sadag‘a,  
Boshimni jangga boyladim.  
Ko‘kdagi qari Kun guvoh —  
Yovlardan aslo toymadim.  
Nimadan qo‘rqay, o‘zimdanda  
Qo‘rqsinlar, jonni qiynadim.  
Bilganini bajarsin —  
O‘lim bilan o‘ynadim!  
Uchaver, jonim Qorako‘k,  
Faqat xalqimni o‘yladim.  
Ajolim yetsa maydonda,  
Nayzamni qo‘ldan qo‘ymadim.  
G‘ayratli, qo‘rqmas jonlarni  
Do‘st bildim, mard deb sayladim.  
Uchaver, jonim Qorako‘k,  
Shamolda o‘yna, sochlarim!

## MEN KIMMAN?

Arslonman men, haybatimga kim chidar?  
Yo‘lbarsman men, menga qarshi kim turar?  
Ko‘kda — bulut, yerda — yelman guvlagan,  
Erkatoyman, mendan kimlar yo‘l so‘rar?

Ko‘kda — Kunman, ko‘pga nurim sochaman,  
Istasam gar, hozir arshga oshaman.  
Hadsiz, tubsiz bir dengizman, ko‘rib qo‘y,  
O‘jarlansam to‘lqin sochib toshaman!

Olovman men, yaqin kelma, yonarsan,  
Tulporman men, changlarimda qolarsan.  
Kul bo‘lsin ko‘k, yemrilsin yer — qayg‘um yo‘q,  
Ko‘z qirida kulibgina qararman.

Men o‘lmayman, mening jonim o‘lmaydi,  
O‘lim — yo‘q gap, nodon shuni bilmaydi.  
Podsho — o‘zim, qozi — o‘zim, biy — o‘zim,  
Qay odam u meni axir tergaydi?

Mehrlansam — sakkiz jannat qo‘limda,  
Qahrlansam — do‘zax tayyor yonimda.  
Yolg‘izmanmi, do‘stlarim ko‘p o‘zimday,  
Tiz cho‘kaymi o‘zgalarning oldin-da?

O‘zim — ulug‘, yukinaman o‘zimga,  
So‘zim — qutlug‘, topinaman so‘zimga.  
Buzuvchi ham, tuzuvchi ham o‘zimman,  
Eski qullik, kelding o‘lar kezingga!

## MASJID VA AVAXTA

Bolakay:

— Otajon, manov qay uy uzun-uzun,  
Savlatli, viqor bilan ushlar o‘zin?  
Tepasiga chiqqan odam bilarmikan  
Sir ochmagan yer-u osmon, oyning tusin?  
Tip-tinch bu uyga, ota, kim borarkan?  
Tinch uyda xotirjam bo‘p kim qolarkan?  
Yuksakdagi quyoshning sirin ochib  
Kimlarning ko‘zlaridan yosh tomarkan?

Otasi:

— Bul uyni masjid deydi, erka o‘g‘lim,  
Odamlar tanlab bobolarning yo‘lin,  
Poklikni o‘rganmoqqa keladilar,  
Tozalab ko‘ngillarini, oyoq-qo‘lin.  
Yuksakka chiqib olib muazzin ham  
Qutlaydi Yaratganning oppoq — ongin.  
Masjid bu — muqaddas joy, poklik uyi,  
Anglaysan insonlikning sof chiroyin.

Bolakay:

— Otajon, anov qay uy, tusi sovuq,  
Yoniga hech kimning ham borgisi yo‘q.  
Derazasi temirdan, eshigi go‘r,  
Qovurg‘asin qon bilan yuvgan to‘liq.  
Tosh devor, temir eshik, cho‘yan qulf,  
Sukunat, faqat shamol kezar ulib,  
Sassiq ham sur qorong‘i, och va xasta  
Kim yotibdi ichkarida tirik o‘lib?

Otasi:

— Jahonda bir yosh jon bor, xayol — oti,  
U tafakkur, so‘nmaydi aslo zoti.  
Qo‘shig‘i jonlarga jon bag‘ishlagay,  
Marvaridlar tizilgan qo‘sh qanoti.  
Uchib yurib, she‘r aytib, fikr uyg‘otar,  
Tafakkurning shul erur asl murodi.  
Tirik jonga kuylaydi hurlik kuyin,  
Yo‘q unga odamzodning yaqin-yoti.  
Jahonda bor narsani yaratgan shul  
Tafakkurdir, ya‘ni xayol bitta oti...

Anov uyni odamlar avaxta der,  
Odam — to‘ng‘iz, emanning tomirin yer.  
Bag‘ishlab jon yoriga — tafakkurga  
Manov uyni qurgan u, bo‘lsin deb go‘r.

Ko‘r, poyloqchi yuribdi labin yalab,  
Qovoq uyib, derazaga qarab-qarab.  
Tafakkurning ustidan kulayotir:  
“Tarixning tongida, — deb — qo‘ydim qamab”.

Tafakkur qayda, dersan. Kezadi u,  
Jahon bo‘ylab uchadi, suzadi u.  
Yerdagi tutqin yorin yupatay deb  
Samoviy kuylar to‘qib-tizadi u.

Bolam, endi bildingmi, u yer — qamoq,  
Achchiqlanib turibdi uyib qovoq.  
“Tafakkurni qamadik”, — deganlarni  
Bo‘lmaydimi atasak endi “ahmoq”?!

## HIKMATLAR

Aqli oshgan donishmand o‘z elida  
Qadrin topmas, mensimasdan qaralar.  
Chetga chiqib, obro‘yi ortib ketganda  
Maqtanadi ovuldagi og‘alar.

\* \* \*

Chalajon-u majruh, sho‘rli so‘qirga  
Qo‘lidagi tayog‘i olg‘a yo‘l boshlar.  
U boyoqish qulab tushar chuqurga,  
Yo‘l boshlasa buzuq niyat yo‘ldoshlar.

## KAPALAK

O‘tga tushar kapalak,  
Qaramasdan old-ortin.  
Xayoliga kirmaydi  
Kuydirar deb o‘t-yolin.

Chir aylanib, intilib  
Yurar-da bir vaqt u qo‘nar.  
Intilgan olov sho‘rlikni  
Kuydirar-da tez tinar.

Tengdoshlar, maqsadga intilib,  
O‘ylamay qanot qoqmaylik.  
Anov porlagan oltin deb  
Ko‘ringanga chopmaylik.

O'ylanmasak, qanotli  
Kapalakday kuyarmiz.  
Olay deb oltinga borganda  
Kuldan kafan kiyarmiz!

## O'TMISHNING BAHOSI

O'tmishni maqtar har odam,  
O'tmish oltinmi, qimmatmi?  
Yoki o'tmishni qo'msamoq  
Odamzod uchun odatmi?

Qariyalar o'tirib  
O'tgan kunlarni maqtaydi.  
Chopib yurgan yosh zamon  
Ularga sira yoqmaydi.

Odil bo'lganmish qonuni,  
Hamma jirkangan yomondan.  
Baxshilari parini  
Tushirgan emish osmondan.

O'tmishni maqtashar... Ona ham  
Ko'p aytar o'lgan bolasin.  
Og'zidan tushirib qoldirmay  
Maqtaydi ko'zi qorasin.

Qilig'i shirin edi-ya,  
Aqli ham to'lgan edi-ya.  
Ikki yashar paytida  
Falonchi so'zni dedi-ya...

O'tmishni maqtaydi odamlar,  
Bugunni maqtamay turadi.  
Yaxshimi bu, yomonmi? —  
O'ylanib ko'rgan bo'ladi.

## QURBIM

Bu dunyo o'yin emas, mehnat yeri,  
Halol mehnat qilmoqqa zahmat yeri.  
Dunyoning bir a'zosi bo'lolmassan,  
Oqmasa manglayingning issiq teri.

Qo'rqma dovul tursa ham, eshkakni esh  
Demagin: "Olma, pishgin, og'zimga tush".  
Zahmat, mehnat qilmasang — yashash bekor,  
Quruqda qayiq yurmas, umiding kes!

## SIRLARIM

Men quvonsam — quvonaman boladay,  
Ko'rgan talay odam degan: "espast-da..."  
Men qayg'ursam — qiyomatlar solaman,  
Yosh bolaman, yupanaman bir pasda.

Kulsam agar — es ketguncha kulaman,  
Yig'lasammi — qop-qora qon to'kaman.  
Yovni ko'rsam — qonin ichgim keladi,  
Do'stim bo'lsa — yo'llarida o'laman.

Yor sevaman, vafodor yor, naq g'uncha,  
Yonadirman jon-tanini berguncha.  
Jonin olib, jonlarimga ulayman,  
Qo'yvormasman quchog'imda o'lguncha.

Ayol kular, men tentak ham kulaman,  
U yig'lasa, men qonli yosh to'kaman.  
Quchog'imda jon-tanidan ayrilib  
O'lar ayol, men ham birga o'laman.

Yana sevaman, tirilaman, kulaman,  
Tuzog'iga yana oyoq qo'yaman.

Umr — bu maydon, chopib yurgan bola — men,  
Yalang-yayov, apil-tapil yuraman.

Umr — daryo, umid — chavoq, o‘ynaydi,  
Tutaman deb ko‘ngilginam o‘ylaydi.

Men — tentakman, men — esi past bir bola,

Umid — olov, o‘ynashmoqni qo‘ymaydi.

“Men — tangriman, topinaman o‘zimga, —  
Deb o‘ylayman, — tangri tushsin izimga!”

Agar endi xastalanib qolsam sal,

Shu tangrini yuvajakman yoshimga.

Mana, o‘quvchim, shudir mening bor sirim,

Bo‘yamayman, qolmaydi hech yashirin.

Sen ne deysan? So‘zlarimni eshitib

Lablaringga kulgu keldi yashrinib...

## SEV, SEVIKLIM

Sev, seviklim, sevgin yana, yana ham,

Totli zahar bilan o‘randi tanam.

Bu lazzatning bir lahzasin bermasman

Dunyo moli, shohlarning taxtiga ham.

Quchoqlayman nozik tolday belingdan,

Suydir, jonim, shirin bolday tilingdan.

Vujud yonar, yurak borar to‘liqib,

Erib ketdim issiq nafaslarimgan.

Qo‘ynimga kir, xipcha beling buralsin,

Sochingni yoy, ipak kabi o‘ralsin.

Jonim, jonim, tezroq tegsin to‘shga to‘sh,

Ko‘z yumilsin, vujud rohatin olsin.

Soching — qora,  
tanang — bulut, yuzing — oy,  
Tishing — gavhar, ko'zing, jonim, quralay.  
Lazzat, rohat, baxtning bari qo'ynimda,  
So'ramayman jannatlardan endi joy.

Sev, seviklim, sevgin yana, yana ham,  
Totli zahar bilan o'randi tanam.  
Yaratgandan yakka tilak faqat shu:  
O'tmasin tun, otmasin tong, subhidam!

### SEN SULUV

Aniq bildim: jonga rohat May suluv,  
May oyida bari hoynahoy suluv.  
O'rmon suluv, ko'ngil kezgan keng dala,  
Ko'kda kezgan kumush tovoq — Oy suluv.

Kechga tomon esgan ipak yel suluv,  
Xushbo'y ifor, turli-tuman gul suluv.  
Tepamdagi tiklangan ko'k chodir va  
Asqar tog'lar, daryo, sohil, yer suluv.

Shildir-shildir kulgan tiniq suv suluv,  
Ko'lga qo'nib, qoqillagan quv suluv.  
Oyna kabi yarqiragan oydin ko'l,  
Ko'l ustidan ko'tarilgan bug' suluv.

Ko'k yuzida o'tkir, oltin Kun suluv,  
Jimirlagan yulduz to'la tun suluv.  
To'lib yotar turli suluv dunyoda,  
Baridan ham menga, jonim, sen suluv!



## YOSH SULUVGA

Men shoirman — dovulman,  
Charx uraman, sevaman.  
Men shoirman — chaqinman,  
Sapchib ko'kka tegaman.

Uzumday ko'zing mo'ltirab  
Ko'p qarama, yosh suluv.  
Charx urib, silab, sevgan bo'p  
Olib ketar dovul, suv.

Olma yonoqlar dildirab,  
“Sev-chi, sev!” deb yalinma.  
Olovni o'rtoq, do'st bilib  
Yaqin kelma yashinga.

Men shoirman — shamolman,  
Guvillayman, uchaman.  
Men — bir erkin kapalak  
Ko'rgan gulni quchaman.

Tiniq yuzlaring yashirgin,  
Ehtiyot bo'l, qizaloq!  
Parpirab uchgan shamolning  
Chin yori — dala, qizg'aldoq.

Kapalakka “kel” dema,  
(Buncha soddalik ne kerak?)  
Uchib ketar o'zgaga  
Bolingdan totsa kapalak.

Men shoirman, kuylayman  
Yurakka ilhom shart kirsam.  
Men shoirman, yig'layman  
Yurakka og'ir dard kirsam.

Yanchilarsan, yig'larsan,  
Quchoqlama belimdan.  
Xorlanarsan, qarg'arsan,  
Qo'y, suygizma tilingdan.

Yosh farishta, suluv qiz,  
Sevmagin meni, so'rayman.  
Men shoirman, beqaror,  
Kuylayman-u yig'layman.

### G.GA

Oltin kunlarda yayratmay,  
Ipak gul tutib yupatmay  
Tez kelding, tez o'tding, yoz.  
Og'ochlar, cho'plar so'lidi,  
Oydin ko'llar ham quridi,  
Qayda g'og'illar qo'ng'ir g'oz?

O'ngmidi, tushmidi, parizod,  
Bir ko'rinib ketdi bot,  
Yondirdi meni, yondirdi.  
Ko'kdan bir boqqan pari qiz,  
Yana qachon qaraysiz?  
Ko'k eshigi yopildi...

### BOLANING QABR TOSHIGA

Qayg'urmanglar bul sabiyini o'ldi deb,  
Yosh qizil gul fursat yetmay so'ldi deb.  
Baxti toygan sho'rlik ota-onaning  
Shamchirog'i yonar-yonmas so'ndi deb.

O'lganimas yerni tashlab ketgani,  
Chin baxtga erta kundun yetgani:  
U ketgandir jannatlarning to'ridan  
O'rin olib, ota-onasin kutgali!

## QAMOQXONADA TUSH

Yorug'lik yo'q, Oyni, Kunni ko'rmayman,  
Chala o'lim, umrni to'la surmayman.  
Ozodlikda yurgan erkin bir xalqning  
Ne qilganin, ne deganin bilmayman.

Xor bo'ldi-ku shuncha g'ayrat, asl kuch,  
Avaxtada qo'ldan kelsin qanday ish?  
Uyqu tilab, ko'zni zo'r lab yumaman,  
Nima qilay? Yupanchim shu — faqat tush...

## YULDUZLARGA

Ko'kning sonsiz ko'zlari,  
Aldamanglar o'ynoqlab.  
Chaqirmanglar, bormayman,  
Bulut, chiq tez, yuzin yop!

Ketolmayman, zaminga,  
Bog'langanman men sho'rlik.  
Undan bunga ko'chaman  
Uchib yurgan dovuldek.

Ko'naman-u, baribir,  
Yaratganga o'pkam bor:  
Shoir yurak, bedor jon  
Bu bandangga na darkor?

Yaratdingmi tuproqdan,  
Tuproq kabi tinch jon ber.  
Bo‘lar ish bo‘pti, bir savol:  
Yulduzli ko‘k ne deydir?

## SARG‘AYDIM

Sarg‘aydim kundan kunga quvvat ketib,  
Qora o‘y — chipor ilon qalbni yutib.  
Yonayotgan sham misoli bitmoqdaman,  
Ko‘zimda issiq yoshlar mo‘lt-mo‘lt etib.

Yo pirim, og‘ir bo‘ldi kun o‘tkazish,  
Uv yutib, oydan uzun tun o‘tkazish!  
Qo‘zg‘onib, so‘zlab, o‘ylab, tirik yotib,  
O‘lay deb, yosh umrga go‘rlar qazish!

Yuragim, nega tez-tez dukullaysan?  
O‘lik tan jonlansin deb zirqillaysan.  
Tomirni bosib yotgan sariq suvni  
Tozalash uchun, balki lo‘killaysan?

Qolmadi ko‘zlarda nur, ko‘rga aylandim,  
Oqni-qora, qorani oq derga aylandim.  
Olmaday pishgan ikki yuzim endi  
Qoni qochdi, so‘ldi-yu, kulga aylandi.

Yoyildi bir tanamga dardning zahri,  
Ikki oydir, ichimda olov qahri.  
Kunduz — Kunni, kechalar Oyni ko‘rmay,  
Tutoqdim, xayol yosh-u, tanam — qari.

Bormoqda kundan-kunga azob oshib,  
O‘lim turar anov joyda quchoq ochib.  
“Yana ozroq qiynalsin!” — deganday u  
Kulimsirab, oyog‘in kelar bosib.

Yaratgan, tez keluvchi ajal yo'qmi,  
"Qiynama, tezroq o'lay, uchir o'qqa.  
Yo tanam kuyib-yonib jon berayin,  
Tashla meni tafti baland chiqqan cho'qqa!

## YEL

"Tangrim, sira otmadi-ku tonging!" — deb,  
Xo'rsinadi yotgan mahbus uhhulab.  
Eshitilar derazadan narida  
G'ingshib yurgan yugruk shamol g'uvullab.

Sezaman bu shamol yo'lda zoriqqan,  
Hasrat bosib, Sarioqada toliqqan.  
Olib keldi u mahbusga omonat,  
Mahbuslar ham avaxtada sog'ingan.

Derazadan uyga kirmoq bo'ladi,  
Omonatni qo'ldan bermoq bo'ladi.  
Yo'l bermagach qattiq temir eshiklar,  
Jahli chiqib, zuvullab kep uradi.

Uy silkinar, qulaganday bo'ladi,  
"Kirsin!" deya so'raganday bo'ladi.  
Quvvat ketib, charchab qolgach, shamol ham  
O'ksib-o'ksib yig'laganday bo'ladi.

Vujud yonib, unga quloq solaman,  
Yurak titrar ko'zimga yosh olaman.  
Qo'yvormaydi qora temir shafqatsiz,  
Dalalardan salom ololmay qolaman.

"Tangrim sira otmadi-ku tonging!" — deb,  
Xo'rsinadi yotgan mahbus uhhulab.  
Eshitilar derazadan narida  
G'ingshib yurgan yugruk shamol g'uvullab.

## SOG'INDIM

Avaxtada oy-u kundan yangildim<sup>1</sup>,  
Sarg'aydim-ku, sari dalamni sog'indim.  
"Qarchig'ayim, qulunim!" — deb zorlangan  
Olisdagi sho'rlik onamni sog'indim.

Yotgan xonam — qovurg'asi qora tosh,  
Yorug'likni, issiqlikni yoqtirmas.  
Hidi og'ir, atrof qora ko'lanka  
Kecha-kunduz, erta-yu kech ayrilmas.

Salqin, mog'or, tim qorong'i ungur, tor,  
Eshigimda mahkam qora qulf bor.  
Kichkina, parch derazalar temirdan,  
Bunday uydan qayda chiqsin mungli zor.

Oltin Kunni, qora yerni sog'indim,  
Jon yo'ldoshim — yugruk yelni sog'indim.  
Asov toyday erkalatib o'stirgan  
Tug'ilgan yurt, aziz elni sog'indim.

Allaqayda Kun chiqadi, botadi,  
Sho'rlik tutqin xo'rsinadi, yotadi.  
Qarar bo'lsang temir derazasidan  
Kuzatuvchi posbonlar otadi.

Osh bo'larmi yovg'on sho'rva, qora non?  
Olma yuzda qolmadi-ku tomchi qon.  
Qo'ng'iroqlar uyg'otadi jaranglab,  
Yer yuzida hali-veri otmay tong.

Erkinlikda o'tgan kunni sog'indim,  
Yelday zuvlab ketgan kunni sog'indim.

---

<sup>1</sup> Yanglishdim, adashdim degan ma'nolarda.

Qushlar kabi uchsam-qo'nsam erkin, hur,  
Erkni tug'day tutgan kunni sog'indim.

Avaxtada oyga tortgan kun uzoq,  
Jonni yeya yilga tortgan tun uzoq.  
Eski mozor, tovush yo'qdir, sukunat,  
Tiq-tiq bosib posbon yurar yolg'izoq.

Qora ilon — qalin o'ylar qoplaydi,  
Chivin jonim borgali yer topmaydi.  
O'y-xayol yer yosh yurakni, xayolni,  
“Tangrim! — deyman, — tonging sira otmaydi!”

O'ynab-o'sgan qurdoshlarni sog'indim,  
Tengdosh, jo'ra, yo'ldoshlarni sog'indim.  
Kelajak deb oydin niyat qilishgan  
Sirdoshlarim — jon do'stlarni sog'indim.

Yosh yurakka zahar to'ldi — uv tiqdim,  
Tanish ovoz eshitmadim — zoriqdim.  
Ne aytganin, ne qilganin bilolmay,  
Xori bo'ldim erkin-ozod xalqning!

Quchay desam, yonimda yo'q yaqin jon,  
Boshga sapchib ketayotir issiq qon.  
Bu olovdan yosh yurakka ne foyda,  
Vujud kuyib borayotir onma-on.

Yuragimga yaqin jonni sog'indim,  
Ipak minaz, sevar yorni sog'indim.  
Kun chiqishda oppoq-oppoq oqargan,  
Shafaq kabi ipak tongni sog'indim.

Nima ko'rsam alash<sup>1</sup> uchun ko'rdim men,  
Agar o'lsam — millatim deb o'ldim men.

---

<sup>1</sup> Alash — qozoq xalqi.

Men o‘laman, alash o‘lmas, gurkirar,  
“Qo‘llaringdan kelganin qil!” —  
dedim men.

Qozog‘imni — qalin elni sog‘indim,  
Sariorqa — sayron yerni sog‘indim.  
Kumush ko‘pik sochgan bolday buloqlar,  
Orqadagi oydin ko‘lni sog‘indim.

Tangri egam, o‘zing olgin panangga,  
Toshbag‘irlar quloq solmas nolamga.  
Tutqin bo‘lib avaxtada yotibman,  
Kim yetkazar salomimni onamga.

Avaxtada oy-u kundan yangildim,  
Sarg‘aydim-ku, sari dalamni sog‘indim.  
“Qorachig‘im, qulunim!” — deb zorlagan,  
Olisdagi sho‘rlik onamni sog‘indim.

## AYRILISH

Bir yil bo‘ldi seni sevdim, uvladim,  
Bag‘ringga olding, nega meni quvmading.  
Essizman men — ayriligni erta o‘ylab,  
Qonli yosh-la nega ko‘zim yuvmadim.

Sevding meni, boshqa jonni ko‘rmading,  
Yoshing to‘kding, men qadringni bilmadim.  
Mo‘ltiragan chin marvarid yoshingdan  
Sadag‘a bo‘p sho‘rlik nega o‘lmadim.

Bildim, bugun, meni tashlab ketasan,  
Kumush suvli Oq Edildan o‘tasan.  
Bo‘tako‘zlim o‘ldirib ket qo‘lingdan,  
Tirik tashlab ketib meni, netasan?



Ko'rishguncha xush bo'l endi, ber qo'lni...  
Qaltiraysan, qo'lim, senga ne bo'ldi?..  
Gulim, endi yozishga hol qolmadi,  
Ko'zimga yosh, yuragimga uv to'ldi...

## KUZ KUNI

“Asl yozim o'tdi!” — deb,  
“Boychechagim ketdi!” — deb,  
Armon-la sarg'aygan yuz,  
Navnihol qiz bo'tako'z,  
Qorong'u uzun tunlarda,  
Ustida qora parda  
Xo'rsinadi, yig'laydi.

Tusi buzilib ko'k osmon,  
Goh bo'zarib, goh nolon,  
Burkanib sur bulutga,  
Bag'rini berib o'tga,  
Qayg'u bosib, qiynalib,  
Yerga boqib, o'ylanib,  
Ko'z yosh-la yerni tig'laydi

Polaponday yosh qayin,  
Sovuq yel urgan sayin,  
Sho'rlik titrab, dirillab,  
Astagina shivirlab:  
“Subhonolloh, subhon...” — deb,  
Yaratganga yalinib,  
Panoh, shafqat so'raydi.

Kuchli, yo'g'on qora og'och,  
Yaprog'i yo'q, yalang'och,  
Umr bo'yi so'zi qaytmagan,  
Hech kimga sirin aytmagan,

Taqdir ishi tez kelsa,  
Dalli dovul kez kelsa,  
U ham bir kuni qulaydi.

Yolg'iz yotib o'ylandim,  
Xo'rsindim-u, to'lg'andim:  
Boldan shirin umr nima?  
Qo'rqinchli o'lim nima?  
Olov kabi yosh yurak,  
So'nib-so'nib borarak,  
Bunga javob kim topar?

Yoshlik o'tib, qartayib,  
Qon suyulib, sarg'ayib,  
Sumbul sochlar oqarsa,  
Olma yuzlar sarg'arsa,  
Men sho'rlik ham bir paytda,  
Vido deyman hayotga,  
O'lmay, mangu kim qolar?

Qora og'ochlar qulasa,  
Yoz kelib, suvlar guvlasa,  
Yosh polapon qayinlar,  
Beparvo kelib kunlar,  
O'tganlarni esga olib,  
Yosh suluvday buralib,  
Birga qo'shilib kuy chalar.

Shirin umr-la xo'shlashib,  
O'lim-la qo'l ushlashib,  
Ustimga tuproq uyilsa,  
Sovuq go'rda ko'milsam,  
Qora yerga qo'shilib  
Yotsam sho'rlik, qisilib,  
Meni esiga kim olar?!

## BO'LSA GULSIZ

Bo'lsa gulsiz,  
Bulbul — unsiz,  
Unsiz bulbul — bir sur qush.

Unsiz umr —  
So'ngan ko'mir,  
O'tsiz yurak — bo'sh hovuch.

## YULDUZNI — UZUK, OYNI — SIRG'A QILIB

Kel-chi, ko'zim, kunday yuzingni ko'rayin,  
Sevgin, nurlim, men to'yinib o'layin.  
Kel, kel, yulduz, ipak kabi sirg'alib,  
Yulduzni — uzuk, oyni — sirg'a qilib berayin!

So'zing — sehr, esimni tuman bosganday,  
Tentak yurak daryo bo'lib toshganday.  
Kulging, Kunim, kunday kumush tovoqqa  
Suluv-suluv marvaridlar sochganday.

Soching — to'lqin, yuragimning jariga  
Urildi-da botdi, ulkan zorimga.  
Gulim, senga qo'shiq-she'rlar yozaman,  
Qalamimni tiqib yurak qonimga.

She'rlarimdan tikay kashtali ro'mol,  
Shiringinam, go'dak kabi yuzing bol.  
Bolga chivin qo'naman deb intilar,  
Intilganin ro'mol bilan mo'ljal ol.

Erkatoyim, kelsang agar qoshimga,  
Shu'lalardan cho'g' qadardim boshingga.

Ko'zyoshimdan marvaridlar tizardim,  
Kelgin kulmay ko'zdan oqqan yoshimga.

Kelgin, ko'zim, Kun nuriga ko'mayin,  
Suy — o'layin, nega o'layin demayin.  
Kel, yulduzim, ipak kabi muloyim,  
Yulduzni — uzuk, oyni — sirg'a qilib berayin!

## TURONNING BIR BOG'IDA

(Manzara)

Oy tug'di gungurt kechda, oltin tovoq,  
Go'zal-ku oy degan bu oltin qovoq.  
Shul suluvning yuzidan nur to'kildi,  
O, suluv! Suvda o'ynagan oltin shafaq!

Yaproqlar shu'la ichra yaltillaydi,  
Shamolning chirkin joni qaltiraydi.  
Shaldirab suvlar yurar suyunganday,  
Go'yoki raqsga tushib qillillaydi.

Oy qalqir, osmondan nur to'kiladi,  
Og'ochlar yosh qiz kabi egiladi.  
Yulduzday yaraq-yurq etib sirg'alari,  
Suluvning oqquv bo'yni buriladi.

Bo'rk kiygan bo'yra sangsang<sup>1</sup>, qora og'ochi,  
Olqizil xalqa kiyar olma og'ochi,  
Belangan sariq oltinga tapal<sup>2</sup> inju,  
Boshiga aqiq sepgan tog'olchasi.

Mevasi mo'ltillagan marjon ekan,  
Marjoni yerda yotar, arzon ekan.  
Yombiday yoquti ko'p anorgina,  
Iymanar, ne sabab u ozgan ekan?

Tizilgan tugma marvarid tutda oppoq,  
Yaltirar tonggi nurda har to'rtta yoq,  
Yosh o'rik oy nurida oq oltinday,  
Yosh uzum zubarjatday tizgan sochoq.

---

<sup>1</sup> **Sangsang** — po'stinning bir turi.

<sup>2</sup> **Tapal** — pastak, kichik bo'yli.

Ko'k sulton<sup>1</sup>, qizil sulton — sultoni egiz,  
Biri ko'k, biri qizil, toji — yemish.  
To'rt taraf ne'mat og'och, oyoq osting —  
Yashnagan feruza gul — cheksiz dengiz.

Sir so'zlab shul gullarga, chapak qoqib,  
Suv yotar taram-taram, shoshib, oqib.  
Teranda — suvning oldi-orqasiga  
Turarmi birov atay kumush taqib.

Shu'la irg'ib tolning suluv orasidan,  
Nur yog'ar hatto bulut qorasidan.  
Oltin Oy — erka suluv chiqmay qoldi  
Uyalib yuzidagi yarasidan.

Ne sabab egayotir gullar boshin,  
Turfa gul o'zgartdi-ya rang-u tusin.  
Manov kuy — g'amli kuymas, shodlik kuyi,  
Kim kuylar? O'ngimmi bu yoki tushim?

Bulbul-ku! Shod kuylaydi oltin tomoq,  
Ne deyin oltin demay, maqtamayoq?!  
Yurakni duv titratdi, eritvordi,  
Endi-chi yaralamoq! Jonim olmoq!

Ertadan seni izlagan men, men edim  
Turonga seni izlab kelgan edim.  
Sheroziy, Shayx Sa'diy va Xayyomlarning  
O'zaklarin o'rtagan sen, sen eding...

Meni ham yondir, qalbda bir kul qolsin,  
Kul emas, yo'q, yurakda ming gul qolsin!  
Umr bo'yi sayrab, shodlik bermoq uchun  
Yonimda bulbul qolsin! Bulbul qolsin!

---

<sup>1</sup> **Sulton** — mevaning bir turi.

Nolalar! — boshni bulbul tebratganday,  
Tebratib, naq osmonga o'rlatganday,  
Hushi qochib bulbulning chah-chahiga,  
Asov yurak ketti-qoldi so'zga ko'nmay.

Ko'tarilaverdi u o'tday yonib,  
Xayol uchdi ko'klarga to'lqin solib.  
To'lqindan uv — bol-asal yutaverdim,  
Esimdan men ham tolib, to'lqin tolib.

Yutsam ham suzaverdim mehrim qonmay,  
Qisildi goho jonim cho'chinganday.  
Tozarib bir gunohdan asov jonim,  
Tangrining dargohiga bosh urganday.

Yurak ham poklanganday yarasidan,  
Shunda oy bo'ya bulutlar orasidan  
Yarqirab chiqa keldi, oq yuzlari  
To'kdi nur tolning suluv sarasidan.

Yon-yoqda ko'lankalar ko'langladi,  
Ko'zimga allanelar alangladi.  
Yuragim gurs-gurs urib aytaverdim  
Aytganim: "Oyat berdi! O'lan berdi!"

Bilmadim, ko'kdan kavsar nur quyildi,  
Ne sabab, ko'zga issiq yosh yig'ildi.  
Yo'q, hali bol-asalga to'ymagandim,  
Bulbulim, kuying nega tez tiyildi?!

O, afsus, yakunlamay uzildi kuy,  
Shoir qalb olovlanib, so'ng so'ndi-ku.  
Bulbulning kuyin uzgan nima edi?  
Tinch turgan ko'lyuzi to'lqinlandi-ku!

Ko'l yuzi jivirlaydi, baqa sayrar,  
Baqa chiqsa, endi qanday bulbul yayrar?

O'zgarmas bu hayotning o'yinlari —  
Bir yoqdan bulbul kelsa — baqa kelar.

Kuychi qush baqraygan ko'k baqa ko'rsa,  
Vaqillab baqa uning kuyin bo'lsa,  
O'ylasang tong qolmaysan, iloj ham yo'q —  
Oqin qush unsiz qolsa, so'zsiz o'lsa...

Tun o'tdi. Bo'zardi kunchiqar taraf,  
Tinmadi, to'xtamadi baqa sayrab.  
Bulbulga tuhfa qilgan nurlarini  
To'kdi Oy baqaga ham yayrab-yayrab.



## YORIM

(hajviy she'r)

— Taltayasan, taltayasan, ne topding?  
— Aytayinmi? Hech ajralmas yor topdim!  
Kuni-tuni men qo'ynida yotaman,  
Qulog'im kar, tosh misoli qotaman.

Qancha quchsam, sira mehrim qonmaydi,  
U bor! Boshqa narsa menga yoqmaydi.  
Yurtning bari kulaverar ustimdan,  
Seviklim bor, menga birov boqmaydi!

Yorim — kunchil, qaratmaydi yon-yoqqa,  
Qo'yvormaydi na yumush, na saboqqa.  
Shunday erka, uni quchib, kerilib,  
Men yotaman qarab qosh-u qovoqqa!

Otam menga: "Saboq qil yo mol top!" — der.  
Yorim esa erkalanib: "Yot, yot!" — der.  
Elim menga: "Ersan, mehnat qil!" — desa,  
Yorim menga "Yotgan odam — bekszot!" — der.

Yor aytgan so'z — jonga yoqar qilib kor,  
Yor so'zini olmasam ne haqim bor?  
Aytdi — qildim, uydan, eldan ayrildim,  
Biri ham yo'q — mol ham,  
  uy ham, nomus, or.

Yor "yot!" deydi, yotaman-u qotaman,  
Mast odamday shirin o'ygaga botaman.  
Ko'z uyqudan ochilganda, bir ishim —  
Jilpanglanib, borni-yo'qni chataman.

Nima qilay, meni maqtar banda yo‘q,  
“Yaxshi edi-yov, yori buzdi”, — deydi ko‘p.  
Desa desin! Men yorimning qo‘ynida  
Yotaveray: “Jonim, yorim, jonim!” — deb.

Bu yorim kim? Topgin qani, Tan sog‘lik?  
Yo dersan sen: “Olma yuzli, chiroylik?”  
Yo‘q, jo‘rajon, topolmasang, aytayin:  
Yorim mening — nomi mashhur Yalqovlik!

### CHIN SHO‘RLIK

Kun sovuq. Qattiq ayoq, chidab bo‘lmas,  
Qor bo‘ralar, yel bilan qiladi bahs.  
Qashshoqlar titrab-to‘ng‘ib, dir qaltirar,  
Issiq uyda boylar yotar, qayg‘u yemas.

Tun kirib, qora to‘nin kiygan edi,  
Qattiq yel kuchin to‘plab kelgan edi,  
Axtarib ostin-ustun, guvlab-so‘qib,  
Do‘ngdagi qorni o‘yga uygan edi.

Guvillab sop-sovuq yel so‘qqan chog‘i,  
Qor urib, uy aylanib tiqqan chog‘i,  
Chidamay jon-jonivor yel zarbiga,  
Bukchayib, tersga qarab oqqan chog‘i.

Boltaboy O‘rozkenni sochdan ushlab,  
So‘kinib, har burchakka sudrab tashlab,  
Qut uchirar eshitilgan qattiq tovush:  
“Onang! Enang!.. Chiq uydan! Yo‘lingni top!”

Bechora O‘rozkenning tusi qochar,  
Yig‘lay der, qo‘zg‘alay der, es adashar.  
“Oyog‘im og‘ir, qo‘ygin!” — deganinda  
Bosh uzra qamchi o‘ynar, zulmat bosar.

Boltaboy bir qo‘l bilan eshik ochdi,  
Tepvordi — sho‘rlik O‘roz dala oshdi.  
“Kirma, o‘l shu yerda, it bolasi!” — deb,  
Bekitib, ichda turib, eshik bosdi.

O‘rozken turolmadi, qulay ketdi,  
Esi og‘ib, jonsiz-u yig‘lay ketdi.  
Atayin o‘chikkanday toshbag‘ir yel  
Durillab, ostin-ustun qila ketdi.

U zo‘rg‘a bosh ko‘tardi esin yig‘ib,  
Ko‘z oldi tinib ketdi o‘tday kuyib.  
Boshidan sho‘rg‘alagan qop-qora qon,  
Oqadi mo‘mataloq betga tegib.

Darmon yo‘q, ko‘zi tinib, bolbiraydi,  
“Xudoyim, qo‘llay ko‘r!” deb, kuch so‘raydi.  
Qor bosib, durillab yel so‘qqan payti,  
Sho‘rlik O‘roz yo‘l izlab qaltiraydi...

## **BO‘SH QOLIBMAN**

Suluv qiz anov yerda mo‘ralaydi,  
Tengi-la o‘ynab-kulib buranglaydi.  
Odamning bari oshiq, bari xumor,  
Oh urib, uni ko‘rmay turolmaydi.

Eplilar bir amallab yaqinlabdi,  
Seviklisi bo‘lishga yaqin qopti.  
Ne qilsin, o‘zin qo‘li yetgandan so‘ng,  
Men kabi bo‘sh-bayovni chaqirmabdi.

Bilmabman urf-odatin sirt xalqning,  
So‘z qotmay tong otsa-da, men yotibman.  
O‘ylamay, ko‘z yubormay merov boshim,  
Yondashmay, yaqinlamay, bo‘sh qolibman.

## TUG'ILGAN YER

Bu dunyoda oyoq bosib, tug'ilib,  
Kindik kesib, kirim senda yuvilib,  
Oltin yoshlik, qaytib kelmas kunlarda,  
O'ynab-o'sdim, chivin-chirkaylar quvib.

Tuprog'ingdan yaraldim men, sen — tubim,  
Yolg'oni yo'q, sendan bari jon-tanim,  
Sendan boshqa yerlar menga qorong'i,  
Yorug' Cho'lpon, Oyim sensan, sen — Kunim.

Totli suving ta'mi og'zimdan ketmas,  
Qalin o'rmon, qir-suvingga yer yetmas,  
Keng dalangda o'yin o'ynab ulg'aygan,  
Odamzodga bu dunyoda er yetmas!

Yeng shimarib, qo'zi quvib, chopishdik,  
Chang-tuproqda teng-to'sh bilan olishdik.  
Tunlar — oqsuyak, oltibaqan<sup>1</sup>, kunduzi  
O'rgatay deb asov toyga yopishdik.

“Odam boshi — Alloh to'pi” degan rost,  
Qayga tepsa shunga ketar sho'rlik bosh.  
Kim biladi, men ham chetga ketarman,  
Tug'ilgan yer, seni tashlab, boshim yosh.

## YORIMGA

O't yutgan og'aynimning holin ko'rib,  
Kinasiz, suvday oqqan qonin ko'rib,  
Or-nomusdan ayrilgan singillarning  
Ko'z yoshi, qalin qayg'u — zorin ko'rib.

---

<sup>1</sup> Oqsuyak, oltibaqan — o'yin nomlari.

Yurak-bag'rim suv bo'lib, qalbim erib,  
Zahmatga belni bog'lab, qo'lni berib,  
Qaytmasman deb ont qilib, es bilgandan,  
Bog'langan bovurlarga tilab men erk.

Jon yorim, tushdim uzoq, qiyin yo'lga,  
Oldimda tubsiz daryo, sho'r-da, o'r-da.  
Botqoq cho'l, suvsiz, o'tsiz, qaynagan qum,  
Vishillagan ilon, chayon o'ng-u so'lda.

So'qmoqsiz, qorli, o'tli asqar tog'lar,  
Tovon tilgan, mehsiz qiya toshlar,  
Kim biladi, kuch so'nib, horib-tolib,  
To'kilar bir kun ko'zdan issiq yoshlar.

O'shal kun, oltin yorim, qo'lingni ber,  
O'ksitma, yo'lni boshlab oldinda yur.  
Qop-qora, dahshatli tun qoplaganda,  
Chaqnagan yulduzim bo'p to'kkaysan nur.

Yo'l olis, yaqinlar deb jondan kechdim,  
Bovurlar holin ko'rib zahmat quchdim.  
Quchoqla, suy, kul, yig'la, g'ayrat baxsh et,  
Jon yorim, uzoq, og'ir yo'lga tushdim.

## RO'MOL

Hasrat botdi jonimga,  
Uvga<sup>1</sup> to'ldi yosh yurak.  
Ro'molni jon yorimga  
Bitirayin kashtalab.

Kuz sarg'aytdi qayinni,  
Men ham birga sarg'aydim.

---

<sup>1</sup> Uv — zahar.

Qora bulut yopdi oyimni,  
Yig'lab kuydim, zorladim.

Mana, to'ldi to'rt oyga,  
Kuya-kuya kun o'tdi.  
O'kirgan o't arava<sup>1</sup>  
Jon yorimni opketdi.

Elin o'ylab g'am yeya  
Yuragi to'lib dardlarga,  
Joni achib xalq deya,  
Yorim yurar qaylarda?

Soldat kabi kiyinib,  
Chakmoni uning surmikan?  
Kuragiga suyanib,  
Sovuqda qotib turmikan?<sup>2</sup>

Yotgandir balki go'r qazib,  
Yov uchun yoki o'ziga?  
Burila olmay bo'y yozib,  
Qayg'u chiqib yuziga.

Hasrat botdi jonimga,  
Uvga to'ldi yosh yurak.  
Ro'molimni yorimga  
Kashtalamog'im kerak.

O'ralaverma, ipagim,  
Tezroq yur sen ham, hoy bigiz.  
Sizlar-ku qimmat, keragim,  
Hovuchimda oq batis<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup> **O't arava** — poyezd.

<sup>2</sup> Turganmikan, degan ma'noda.

<sup>3</sup> **Batis** — batist, matoning bir turi.

Qayg'udan o'lsam — armon yo'q,  
Oxiratlik yo'ldoshim.  
Ko'zimda yosh qolgan yo'q,  
Kashtaga singdi bor yoshim.

Ro'molni olib sho'rlik jon,  
Ko'zlariga surtganda,  
Og'ir xo'rsinib, o'shal on,  
Ko'zidan yosh to'kkanda.

Yaratgan egam, tilagim  
Aralashsin yoshga yosh.  
O'ralaverma, ipagim,  
Sen bo'l yoringa sirdosh.

Hasrat botdi jonimga,  
Uvga to'ldi yosh yurak.  
Shu ro'molni yoringa  
Tezda yetkazmoq kerak!

## R.GA

Sensan, do'stim, ipakminaz<sup>1</sup>Jibegim,  
Sevdim seni — bunga guvoh yuragim.  
Sovuq yo'ldan saqlovchi — sen, farishtam,  
Sen bo'lmasang ozib-to'zib yurardim.

Turli tomonlarda endi tongimiz  
Otsa hamki, sevmasmi bu joningiz,  
Jon-ku bizni yaqin qilgan, Jibegim,  
Boshlamadi, attang, issiq qonimiz.

Esingdami bir yil... kuzning kuni edi,  
Kuz kunining salqin-sovuq tuni edi,

---

<sup>1</sup> **Ipakminaz** — xushodob, degan ma'noda.

Yoring tashlab, tunda meni boqchaga  
Ko‘rish uchun izlab kelgan kim edi?

O‘shandan so‘ng talay-talay yil o‘zdi,  
Essiz yoring Oyga qo‘lin ko‘p cho‘zdi.  
Osmonga men talay intildim, quladim,  
Zamon o‘zdi, yurak so‘ndi, jon to‘zdi.

Umr — yovon, charchab-horib yurganim,  
Essiz edim, o‘ng-u so‘lni ko‘rmadim.  
To‘qqiz yo‘lning o‘rtasida turganda  
Yili — bultur, seni tag‘in ko‘rganim.

Ko‘rding sen ham, ochding toza quchog‘ing,  
Quchog‘ingda yosh bolaga o‘xshadim,  
O‘shal kezda bor gunohdan poklanib,  
Aytganim rost: “Sensan yorim, qo‘shog‘im”.

O‘shandan so‘ng yana biroz kun o‘tdi,  
Unutganday bo‘ldim seni — Jibekni.  
Ishon menga, jon yuragim, Jibegim,  
To‘xtatolmay qolgan edim yurakni.

Sen yig‘labsan... ko‘z yoshlaring ko‘rmadim,  
Sen zorlabsan, zorga quloq bermadim.  
Men yel kabi ketdim shunda yel quvib,  
Ko‘z yoshingdan sadqa bo‘lib o‘lmadim.

Oylar o‘tdi. Oy ko‘rindi, o‘ldi jin,  
Oylar o‘tdi. Ayrilishdi kun va tun.  
Oylar o‘tdi, ichgan uvdan aynidim,  
Ravshan tortdi ko‘z oldimda yolg‘on, chin.

Bildim: menga yor ekansan sengina,  
Bildim: senga yor ekanman mengina.  
So‘nggi paytlar seni ko‘rmay, Jibegim,  
Ochib ko‘rgin, yuragimda ko‘p yara.



Seni ko‘rmay, ko‘zim ko‘rga aylandi,  
Yuragimga sonsiz hasrat boylandi.  
Ko‘p kun edi, ko‘rinmaysan, qochasan,  
Yuragingning muhabbatin kim oldi?

Essiz yoring zorlab endi qolarmi?  
Zorlay-zorlay qora yerga borarmi?  
Bir yil bo‘yi dengiz bo‘lib to‘kilgan  
Ko‘zyoshlardan Jibekkinam tonarmi?

### CHO‘LPI<sup>1</sup>

Shing‘ir, shing‘ir, shing‘ir...  
Qonimni qaynatdi qurg‘ir,  
Yurakka jig‘-jig‘ tegadi,  
Talqonday ovoz: shing‘ir,  
shing‘ir!

Shing‘ir, shing‘ir, shing‘ir...  
O‘zakni o‘rtadi qurg‘ir.  
Doimo balanddan yuradi  
Suluv qiz aqldan qolg‘ur!

Shing‘ir, shing‘ir, shing‘ir...  
Yurakni qaynatdi qurg‘ir.  
Gavdani qopladi olov,  
Pokizam, farishtam, tez kir!

Shing‘ir, shing‘ir, shing‘ir...  
Esimdan og‘dirdi qurg‘ir.  
Lafzingdan men erib boraman,  
Jonim-a, yaqin kel, qo‘l ber!

---

<sup>1</sup> **Cho‘lpi** — qizlar bezagi, taqinchoq. Qizlarning burimi — o‘rilgan sochiga (kokili)ga taqiladigan tanga so‘lkavoy.

Shing'ir, shing'ir, shing'ir...  
Charchadim. Titrayman dir-dir,  
Shivirga aylandi shing'ir,  
Shing'ir, shing'ir, shing'ir...

## BULBUL

Sayraysan mungli kuyni yuz xil qilib,  
Goh sekin, goh yeldirib, avjga minib.  
Vujudni isitasan, sovutasan,  
Turasan mavjiratib, goh isitib.

Quyasan totli tovush tomchilatib,  
Turadi jon-jonivor damin yutib.  
Uv-shuv yo'q, qag'illagan qarg'a, to'rg'ay,  
Uyalib, allaqayga ketgan zitib<sup>1</sup>.

Usta soz, mungli tovush boshni boylar,  
Chopishdan to'xtab qolar qulin-toylar.  
Tovushingdan erimas narsa bormi,  
Yosh to'kar bo'yi balqib teran soylar.

Bulbul qush! Ko'zimda yosh, gavidamda o't,  
To'lib, men keldim senga, ichimda cho'q.  
Dardimga sendangina darmon bo'lar,  
Boshqadan, aniq bildim, hech foyda yo'q.

Bu yerdan uchib ketib seviklim yoqqa,  
Borib qo'n nozikkina bir butoqqa.  
So'zla unga achindirib mening holim,  
Erimasa to'ngli — qanot qoqma!

Tovushingni yuz xil qilib yoq o'zagin,  
O'rtansin, qizil yolin qil to'shagin.

---

<sup>1</sup> **Zitib** (*zitmoq*) — jon holatda qochib qolmoq.

Xayolin ol, bo‘yin balqit, sevdir meni,  
Qolsin u o‘ylay olmay o‘z hisobin.

Tez, bulbul, mungli tovush, sehrli tilim,  
Darmonni og‘ir dardga sendan, bildim.  
Qilmasang mehribonlik, sho‘rlik bandang  
Qayg‘udan qo‘lim ketmay, mana, o‘ldim!

## YOZ KUNI

Suv oqdi, yetdi aprel qirdan o‘yga,  
Sakrashib oriq-turoq ketdi to‘yga.  
Bolalar “Yoz keldi” deb chopqillashar,  
Yabog‘i, ko‘taram toy, oqsoq qo‘y-da.  
Quvonib jon-jonivor, taltanglashib,  
Qolmadi qayg‘u-vahm hech bir o‘yda.  
Nurli Kun oltin nurin sochdi ayamay,  
Chiqsin deb qishgi zahlar o‘tgan bo‘yga.  
Suv oqar, tog‘ yangratar shildirlarin,  
Suluv qiz nozlanganday cho‘lpi taqib.  
Turli unda yangi kelgan yil qushlari  
Turganday qo‘biz o‘ynab, kuyga solib.  
Boy hovli yilqi qamab, qil kuyzatar,  
Ish bilgan yilqichiga no‘xtalatib.  
Bolalar etak yig‘ib, zir yugurar,  
Botqoqqa birin-biri dumalatib.  
Qirdagi yilqichilar uyqu ko‘rmas,  
Qo‘lidan biyalarni qulinlatib.  
May kelib, yel qulf urdi, gullar yashnab,  
Ipakday maysa-o‘tlar yashnab, yotar yayrab.  
Suluvday buranglaydi butoqlar ham,  
Ang solib<sup>1</sup>, turli qushlar turar sayrab,  
Sovuqda to‘ng‘ib o‘lgan chivin-chirkay,

---

<sup>1</sup> Ang solmoq — qo‘shiq, kuy, ashula aytmoq.

Tirilib qanot qoqar bij-bij qaynab.  
Osmonda Kun gurkirab, o‘t yarqillab,  
Iliq yel qora bulutni tergar haydab.  
Uvizga yangi to‘ygan yosh qulunni  
Yilqichilar avaylar ushlab-boylab.  
Ozroqqina kuylangan qisir toyni,  
Bolalar chopqillashar minib yaydoq.  
Qish qisgan oriq-turoq, yomon-yovtiq  
Ketdi-ku allaqachon tiraqaylab.  
Yaratgan jonga rohat yoz kuni bu,  
Shukr qil bir Allohga “yo Xudo!”lab.

## YOZ TONGI

Ip-iliq kun mavj urar,  
Ko‘tarilar yerdan bug‘.  
Sof kumushday yarqirar,  
Tinch oqadi tiniq suv.

Ko‘k tiragan biyik tog‘,  
Quchoqlashgan tuman-la.  
Qo‘shilishib omon-sog‘,  
Bol olishgan xumor-la.

Asta esgan iliq yel,  
Mavj uradi tervatib.  
Tong otsin der yashnab yel,  
O‘ssin bolam er yetib.

Chirillab to‘rg‘ay osmonda,  
Bitbildig‘i ang qo‘shar.  
Chala-jonsar yotganda,  
Tabiatga jon qo‘shar.

Tong otganda yolvorib  
Tangriga qulluq qiladi —

Ishiga uning tanglanib,  
“Haq!” deya sig‘inadi.

Mana, oltin tong otdi,  
Kunchiqardan oqarib.  
Ko‘tarib zulmat qanotni,  
Yer ham ketdi yangorib.

Tong, Kun degan — yer joni,  
Ikkovisiz tun osmon.  
O‘quv-bilim — er joni,  
Yarashmas erga quruq jon!

### TO‘LGAN OY

Turibsan, mehribon Oy, nuring sochib,  
Boqadi qorong‘ulik betin bosib.  
To‘lsang ham, so‘lsang hamki ayrilmaydi.  
Yo‘ldoshing — yulduzlaring qo‘l ushlab.  
Dalada yo‘lchi ovga sen yo‘lboshchi,  
Agarda yursa yo‘lda u adashib.  
Do‘ngalak, yarashimli oq kelbating,  
Yurasan astagina, qadam bosib.  
Oq yombiday chiroyli go‘zallarning  
Dunyoda o‘tmas sendan ko‘rki oshib.  
Bizga ham tusharmi deb shu‘lalar,ing,  
Seni kutib dengizlar yotar toshib.  
Yulduzlar sen-la qator yurganiga  
Hammasi xursanddirlar jimirlashib.  
Yolg‘iz-oq ichdan seni yomon ko‘rar,  
Oshiq bilan ma‘shuqlar qo‘l ushlab.  
“Nur sepsa biz ko‘rinib qolarmiz” — deb,  
Bir-birin o‘pa olmas xumor bosib.  
Qilpillab ko‘ngillari, xumor qonmay,  
Ayrilar birozdan so‘ng xayrlashib...

## BOLALIK

Bolalik chog'i —

Podsholik bog'i —

Til yetmas uni baholab.

Ko'p o'tmay yil,

Bo'sh yurma va bil —

Olg'a bos faqat old qarab.

Bilim o'rgan yoshlikda,

Har kuni, hatto ochlikda!

Bilimga ko'ngil

Yo'q uydan qochgil —

Kelajakni orzula!

Qaytmaydi vaqting,

Ta'mini totgin,

Bo'shga o'tkazma, behuda!

Yoshlik degan — bebaho,

Qadrin bilmaslik xato!

Yoshlik — sof oltin,

Qadrin bil oldin —

Odati uning — o'rganish!

O'rganib hunar,

Kuch topib bellar,

Nodonlikdan jirkanish!

Turma, inim, intil sen,

Nodonlikdan qutil sen!

“Bilimsiz — eshak,

Vafosiz” desak,

So'zlab, kulib yursa-da,

O'lik bilan teng,

It-qushlarga yem,

Tirik bo'p umr sursa-da!

Shunday yashama, qarog'im,  
Bo'lsin bilim — yarog'ing!

Bilgan jon — daho!  
So'zlasa — dono!  
Yurtni og'ziga qaratar!

Istasa neni —  
Gullatar shuni,  
Narsani ishga yaratar!

Bilganning so'zi — darmondir,  
Mehri ko'p, o'zi — osmondir!

Xalq ichra u maqtoqli,  
Hurmati ham saqlovli,  
“Balli!” deb hamma qarshi olar.

Qilgan ishi — o'rnakdir,  
Xalqqa foyda bermakdir,  
Duch kelgan odam ulgi olar.

Qayga borsa — hurmatda,  
Bilimi mo'l — izzatda!

## O'ROL

Uzun O'rol — kun va tun chegarasi,  
Bir oyog'i — kun, bir oyog'i — tun bolasi.  
Nargi yoq — ko'k ko'zli jin uyasi,  
Bergu yoq — Turkning sari(q) dalasi.

Asqar O'rol — qari Alp poylab turgan,  
Kun va tun orasinda “Xitoyqo'rg'on”.  
Tanasi — tosh, qarag'ay — quyuq murti,  
O'ng va so'l, janubga u murtin burgan.

Qaramay hech narsaga ko'zim to'xtab,  
Kelib edim bu Alpni istab-yo'qlab.

“Uyqu — dushman” degan so‘z durust ekan,  
Shu Alpdan o‘tibman men tunda uxlab.

Kechir, ey Alp, yuzingni ko‘rolmadim,  
Oldingda egilib salom berolmadim,  
Na iloj, sar(iq) daladan elchi bo‘lib,  
Shu posbon Alpga men kelolmadim.

Uzun O‘rol — kun va tun chegarasi,  
O‘lim — tun, umr — gulli Xunn dalasi.  
Umr bilan o‘limning orasida  
Uxlab o‘tar azaldan yer bolasi.

Ikki dunyo: kun va tun, hayot — o‘lim,  
Biri — beshik, bittasi — tayyor go‘ring.  
Bola bo‘lib yotaver beshigingda,  
Sar(iq) dalaning erkasi — qozoq elim!



## UMRIMDAN O'PKALASHLARIM

(eng so'nggi she'ri)

Shum umr, suluv dunyo, aldadingmi?  
Tan horib, tomirda qon qolmadimi?  
Yolg'on uchun jon qiyib, jafo chekdim,  
Mehnatim, ikki bo'linib yonmadingmi?  
Bamaylixotir tursam, yaqin dunyo,  
Toldi-ku deb, nazaring solmadingmi?  
Payrahaday uchirib, o'qqa yiqib,  
Yalmog'iz, yolg'on dunyo, yalmadingmi?  
Orsiz nasib, armonsiz aldadingmi?  
Xayri yo'q qanjig'ani qonladingmi?  
Yeb to'ymas, ochko'z ajal, qo'yning ochib,  
Musibat, qayg'uga qo'l solmadingmi?  
Aldandim, adashtirdim, chuv ham tushdim,  
Aqlsiz anqov boshim, angladingmi?

Qiymas do'st, qistovga olib, yig'latdingmi?  
Qayg'uda qon yuttirib, sulatdingmi?  
Hasratda, qassobning sho'r echkisin-da  
Ip taqib, quduq tomon qulatdingmi?  
Ming do'nib, qoshing qqiqib, shalloq dunyo,  
"Qiziqmayman" desam-da, chidatdingmi?  
Or, uyat, odamiylik... harom qilib,  
Barin senga baxsh etdim, quvonttingmi?<sup>1</sup>  
Seni deb yaqinlarim yot qilgandim,  
Qayrilib, qon ko'nlimni yupatdingmi?

Mo'lchiygan<sup>2</sup> hech mehri yo'q, merov dunyo,  
Aldading, endi hayzing qondirdingmi?

---

<sup>1</sup> **Quvonttingmi** — quvontirdingmi.

<sup>2</sup> **Mo'lchaymoq** — ko'z uzmay tikilish.

Xazinani tunagan qaroqchiday,  
Bosh solib, boshga kishan soldirdingmi?  
Yov to'nagan g'aribday jovdiratib,  
Odamzodlik orimni oldirdingmi?  
So'nggi dam yetganida, kazzob dunyo,  
Tulkiday, quyrug'ingni chaldirdingmi?  
Qafasda, qon ozayib, suyak g'ajib,  
Shaharning iti kabi qang'irtidingmi?

Azalda olisga uchgan ta'm va tuzim,  
Tavakkal toshga qo'ndim. Tangrim saqlar.  
Tuproq tortgan yerlardan son aynaldim,  
Tilagim: "Menday jonni Xudo yo'qlar".  
Odam boshi — Allohning to'pi ekan,  
Taqdirdan qaqshatqich zarb — tegdi cho'qmor.  
Yalindim, jon talashdim, yolvorindim,  
Tegmadi hech bir rahm Tangrim yoqlar.  
Lavhul mahfuz taxtaga yozilgan ish, —  
Buyurilgan yerlarga borib to'xtar.  
Mening jonim boshqadan qimmatmidi,  
Talay jon ko'pkariday chekdi ohlar.

Bunga bir so'z topguchi aql borma?  
Bo'yim balqib tinglayin, naql borma?  
Asl so'zim hisobsiz bo'shga ketar,  
Uvoli ro'molsiz huv xotinlarga!

## O'T

Kundan tug'ilgan bolaman,  
Yarqirayman, yonaman.  
Faqat kunga bosh egdim.  
O'zim — kunman, o'zim — o't,  
So'zim, qisiq ko'zim — o't,  
O'zimga o'zim topindim.

Yerda yolg'iz tangri — o't,  
O'tdan boshqa tangri yo'q.

Yolin-la yumshoq suyadi,  
Suygan narsa kuyadi.

Jilmayib o'zi yo'rg'alar.

Uchraganni cho'g' qilar,  
Cho'g' qilar-da, yo'q qilar,

Buning oti o't bo'lar.

Men ham o'tman — yonaman,  
O't tangrim-la qolaman.

O't bilan go'zal osmoning,  
Barisi soxta boshqaning,

Yolin yutaman — to'yaman.

Avliyom, egam, qutimga,  
Tengsiz tangrim — o'timga

Takror, tez moy quyaman.

Moy quyaman — o'rlaydi,  
Qulochin ko'kka sermaydi.

Goho ilon avrovchi,  
Goh ajdarho yamlovchi,

Seskanmas sira kim sendan?

Chin aytay: mening o'zim-da o't,

Qisilgan qora ko'zim-da o't,

Men — o'tdanman, o't — mendan.

Yolinman men, yonaman,

O'tidan tug'ilgan bolaman.

Qorong'ulik buqqanda,

Qizarib kun chiqqanda

Kun o'tidan tug'ildim.

Yuragim ham, jonim ham,

Imonim ham, orim ham,

O'zim o'tda yuvildim.

Yuragim ham jonim — o‘t,  
Imonim va orim — o‘t.

Yarqirab, o‘t bo‘p tug‘ildim,  
Belimni mahkam bog‘ladim,  
Zulmatga men dushmanman.

Shu yovuzni so‘yay deb,  
So‘qir ko‘zin o‘yay deb,  
Talay zuvlab uchganman.

Alpga<sup>1</sup> ham bordim Oltoydan,  
Bolqonga bordim Xitoydan...

Kundan tug‘ilgan bolaman,  
Yarqirayman, yonaman,  
Faqat kunga bosh egdim.

O‘zim — kunman, o‘zim — o‘t,  
So‘zim, qisiq ko‘zim — o‘t,  
O‘zingga o‘zim topindim.

Yerda yolg‘iz tangri — o‘t,  
O‘tdan boshqa tangri yo‘q.

### ESIMDA... FAQAT TONG OTSIN

Ul kunni unutmadi, hali esimda,  
Tayanib kelganida kun peshinga.  
Keng dala o‘xshar edi qo‘l tegmagan,  
Kerilgan nozli suluv oq to‘shiga.

Quyulib turdi ko‘kdan jannat nuri,  
Taralar qushlarning she‘r-qo‘shlari.  
Talashdi osmon-ko‘klar oltin tog‘lar,  
Shimolning kumush suvi, ipak qiri.

---

<sup>1</sup> **Alp** — yuksak cho‘qqilardan iborat baland tog‘ ma‘nosida qo‘llangan  
(M. Jumaboyev izohi).

Saylanib o'sha mahal chiqdik yo'lga,  
Qirondek ko'z tashladik o'ngga-so'lga.  
Olti quloch oq nayza belga bog'lab,  
Aynimas aldaspanni<sup>1</sup> olib qo'lga.

Qanotli, charchab-tolmas tulpor mindik,  
Yetmish qavat ipak-la belni bo'g'dik.  
Qurshanib qilich o'tmas muzday temir,  
Qiyadan qironqushday yovga intildik.

Osmondan suvga shunqor o'zin urar,  
Sho'rlik o'rdak sho'ng'imay qandoq turar?  
Hayqirgan arslonning haybatiga  
Chidarmi quyonyurak qo'rqqoq qullar?!

Yov qochdi har tomondan qiy-chuv bo'lib,  
G'ayratga tana, o'tga yurak bo'lib.  
Og'izdan "a" degandan olov chiqdi,  
Yotdik biz sovuq-sayron, kurash qilib.

Baxt chirkin bir kun qo'nib, bag'rga kirib,  
Ketarkan ertasiga aldab-kulib.  
Oltin Kun qaydan bilsin, kutmaganda  
Osmonni qora bulut qoplar kelib!

Yo'lbars yurgan chog'da mang-mang bosib,  
Yuragi, g'ayratiga ko'ngli toshib,  
O'ylamas quv dalada pana bosib,  
Yotganin yashirinib mergan-fosiq?!

Mast bo'lib kuch-g'ayratga, qalin buvga<sup>2</sup>  
Aldanib o'yin-kulgu, qiy-da-chuvga,  
Qimir etmay yotaverib sezmay qoldik,  
Yaqinlab borib qopti Kun botuvga.

---

<sup>1</sup> **Aldaspan** — qilich.

<sup>2</sup> **Buv** — bug'. Bu yerda "yigitlik shiddati" degan ma'noda.

Oltin Kun yon-yog‘iga shu‘la sochdi,  
Yorug‘lik zulmat bilan aralashdi.  
Qizil oltin shu‘lasi — salomi edi,  
“Ko‘rguncha xush, alash!” — deb omonlashdi.

Oy tug‘ib, Kun o‘rniga ko‘kda qalqib,  
Gullardan mast qilguday hidlar anqib,  
Tevarak tinch uyquga botgan chog‘da,  
Ketibmiz birozgina biz ham qalg‘ib<sup>1</sup>.

Suvyurak mana qochgan yashirinib,  
Yashirinib kelgan bo‘pti poylab turib. —  
Qo‘rqoq qul o‘g‘irlikni erlik sanab,  
Quvonib, yaratganga boshin urib.

Vaqtincha, mayli kelsin, tishi botsin,  
Sur ilon, o‘zi uyg‘otar, qattiq chaqsin.  
Yangitdan yo‘lbars kabi intilarmiz,  
Ko‘raylik tevarakni, tek tong otsin!

## YARALI JON

Sariq dala — xuddi o‘lik, qulab yotgan,  
Kafanday oq selevlar betin yopgan,  
Tog‘ ham yo‘q, o‘rmon ham yo‘q,  
o‘zan ham yo‘q,  
Shu‘lamas, qon sochadi kun ham botgan.

Yalqov yel o‘zin-o‘zi zo‘rg‘a sudrab,  
Yon-yoqda yurganday-yoq jinlar biylab.  
Qiy-da-chuv ovoz kelar qulog‘imga,  
Parilar qo‘shiq aytib turar kuylab.

---

<sup>1</sup> Qalg‘imoq — uyquga ketmoq, ko‘zi ilinmoq.

Yarador bir jon yotar, mana bunda,  
Bir qiyshiq yolg'izoyoq, surlov yo'lda.  
Pardasi, nuri ketgan ko'zi bilan,  
Qaraydi bechora jon o'ng-u so'lga.

Xo'rlangan bu sho'rlikning chivin joni,  
Sapchiydi yuragidan issiq qoni.  
Ichni o'rtab, yurakni ezvoradi  
Gungranib bechoraning sarnagani<sup>1</sup>:

Yo pirim, yo Allohim!  
Ayo rahmon!  
Qisildi-ku chivin jon!  
Quvvatim oz qolmoqda,  
Oqdi vujudan ko'p qon.

Tangrim, o'zingga yig'layin,  
Hol yo'q, qalay turayin?  
Yurakni yara yeb borar,  
Yaratgan, qandoq chidayin?!

Urma, sho'rlik yuragim,  
Chirib bit, oppoq bilagim.  
Manov qarg'a-quzg'unlarning  
Berding-ov, Tangrim, tilagin!

O'yinqaroq elim-ay,  
Sariorqa — sayron yerim-ay!  
Kumushday toza suvi bor,  
Behad oydin ko'lim-ay!

Shu yerda o'ynab yurolmay,  
O'yin-kulgilar qilolmay,  
Qarg'a-quzg'unga yem bo'lib,  
Qoldimmi yo'lni bilolmay?!

---

<sup>1</sup> **Sarnamoq** — oh chekmoq, zorli-zorli kuylamoq. Aslida jirov-baxshilar sarnab-kuylaganlar.

Qiynalding-ku chivin jon,  
To'xtasang-chi, issiq qon!  
Zorillaysan yetimday,  
Beshikda qolgan polapon!

Qorasoch go'zal yorim-ay,  
Qorachig'im, jonim-ay!  
Qulog'imga keladi  
Olisdan achchiq zoring-ay!

Qiynalding-ov, chivin jon,  
To'xtay qol endi, issiq qon!  
Tulporga minib bir chopsam,  
Qolmasdi dilda hech armon!

Holim yo'q, qalay turayin?  
Tangrim, o'zingga yig'layin.  
Yurakni yara yeb borar,  
Yaratgan, qandoq chidayin?

Tushovlar tushdi jonimga,  
Bo'g'ilib qoldim qonimga.  
Egamsan o'zing, Yaratgan,  
Solsang-chi quloq zorimga!

Kuchlisan-ku, ey Quadrat!  
Farishtangga amr et!  
Qanot-la bir siyvasin,  
Yozilsin ichki-sirtqi dard!

Umrni menga ko'p ko'rsang,  
La'nat deb meni jek ko'rsang,  
O'layin tezda, o'layin,  
Kelsin-da iblis uv bersin!

Azoblar berma jonimga,  
Bo'g'ilib qoldim qonimga,



Egam o'zingsan, yaratgan,  
Solsang-chi quloq zorimga!

Berdi Tangrim tilagim,  
Quvon endi, yuragim!  
Na farishta, na iblis,  
Keladi uchib — keragim!

Sovutni o'ng yoq qo'lga ol,  
Sovutda ujmoq<sup>1</sup> nuri bor.  
(Haytovur azob to'xtalar...)  
Tamuqning<sup>2</sup> nima uvi bor?!..”

Yarador, qumda-dashtda kim zorlagan?  
Qonsirab, qonin yutib, kim sarnagan?  
Qayg'uli sariq dalani gungrantirib,  
Zoriga odam chidab turolmagan!

Bu — qozoq, Tangriga zor etgan qozoq,  
Qiyinalib qonli azob chekkan qozoq.  
Haytovur, qonli azobdan qutqaray deb,  
O'qigan azamatini kutgan qozoq.

Azamat! Anov qozoq qonim desang,  
Uchmohning suvini elt, jonim desang.  
Bo'lmasa, iblis bo'l-u, uv olib bor,  
To'xtatay bo'g'ib-bo'g'ib zorin desang!..

---

<sup>1</sup> Ujmoq — jannat.

<sup>2</sup> Tamug' — do'zax.

## YOVGA TUSHGAN JON

(M.D.ga xat)

Hordiq ko‘rmay erta-kech,  
Yurtning g‘amin ko‘p yeding.  
Bel bog‘lading solib kuch,  
Halovat yuzin ko‘rmading.

Yoqalashding yov bilan,  
“Bermasman yurtni, jonim!” — deb.  
Olishmoq bo‘lding tov bilan,  
“Yurt uchun to‘kay qonim” — deb.

“Uyg‘on! — deding yurtingga, —  
Boshing ko‘tar, tirlik qil!  
Aql aytding xalqingga:  
“Talash, kurash, birlik qil!”

Bir yechmading belingni,  
Yurt uchun qayg‘u-vahm yeb.  
Saqlamoq bo‘lding elingni,  
“Qora kun oldda, bekin!” — deb.

Menman degan kuchli yov,  
Kuzatardi ishingni.  
Qo‘ymadi seni eson-sov,  
Oldi qo‘ldan kuchingni!

Qorong‘i uyga qamadi,  
Mehrsiz, yovuz, toshbag‘ir.  
Sho‘rlikka tangri panadir,  
Bo‘lsa-da, azob qancha og‘ir.

Eski xayolga botaver,  
Qayra o'zingni, darmon ne?  
Vahmsiz, o'ysiz yotaver,  
Yurt uchun tushding, armon ne?

Ko'zin ochib, ortingda  
Yurting o'ylar: "Bul qalay?  
Toyma hech, qo'rqma, tortinma!" —  
Deyuvchilar ham bir talay.

Unutmagan o'z xalqin,  
G'ayratli, yosh yigitlar,  
Yurt uchun berar mol-mulkin,  
Birini-biri o'gitlar.

Ushlasin, bossin, vahm yo'q:  
"Qo'ymay quvsa qo'rqoqni —  
Botir bo'lar", — degan ko'p,  
Botirlar bundan ne topdi?

O'rnak bo'lar bunday ish,  
Keyingi yongan yoshlarga.  
G'ayratlanib, kuyib ich,  
Og'zini chaynar qasdlarga.

Qorong'i bo'lsa qancha tun,  
Yulduzlar shuncha yaltirar.  
Bulut bossa — oltin Kun,  
Bir chiqar nurga g'arq qilar.

Kelajak kunda qog'ozga  
Oltin-la yozar otingni.  
Quchoqlab suyar qog'ozda  
Ko'rsalar yozgan xatingni.

Qayg'u-vahm yutadi  
Seni o'ylab sho'rlik yurt.

Poylagan yov tutadi,  
Tangrim, shularning tubin qurit!

Senga ko‘k ham tilakdosh,  
Buralgan nechov nozik bel.

Farishtalar yoningda!  
Qiyinalma, rohat — aniq, bil!

Rahmati ulug‘ kuchli Egam,  
Sho‘rlik yurtni o‘ng boshla.  
Dushman — quloch, biz — suyam<sup>1</sup>,  
Rahmat uchqunin tashla!

Ko‘paysin elda g‘ayratli er,  
Yurt uchun to‘ksin qora ter.  
Sho‘rlikka, yurtni boshlash-chun,  
Yaratgan, ko‘mak, ko‘mak ber!

---

<sup>1</sup> **Suyam** — o‘lchov birligi, bosh barmoq bilan ko‘rsatkich barmoq uzunligining o‘lchami.

## TUTQUN

(M.D.ga xat)

Vujudda o't, ichda olov, ko'zda yosh,  
Kuni-tuni qayg'u yutgan sho'rlik bosh.  
Somon to'shak, qaro zulmat yotog'i,  
Noni qora, choyi qora, qorni och!

Kun tushirmas, mehri yo'q ul qoratosh,  
Oqarmasmi bunday uyda qora soch?  
Yoningda yo'q joni achigan bir do'st,  
Toshbag'irlar oh-vohingga qaramas!

Sariq shu'la ne Oy, ne Kun ko'rsatmas,  
Yaqinlarning "bovrin!" so'zi eshitilmas.  
Ish — sanovli, so'z — poylovli, erk yo'q,  
O'z qo'ling-la tor kelmas to'n bichtirmas.

Qayg'urma hech, sho'rlik tutqun, hech netmas,  
Kun botgandan, tong otgandan tun yetmas.  
Er yurakli azamatning boshiga  
Yolg'onchida nelar kelib, ne ketmas?!

### M.D. AVAXTADAN CHIQQANIDA

Zo'r quvonch! — qora tun o'tganiga!  
Oltin tongli ochiq kun yetganiga.  
Qon aralash to'kilgan ko'p ko'z yoshni,  
Tangri qabul, rahmat yetkazganiga!

Erk qushlari qayta uchib keldilar,  
Duchor bo'lmay dushmanning merganiga.

Qayta chiqdi botgan Kun, nur sochildi,  
Ming bor shukr Tangrining berganiga!

Kunning betin azaldan bulut yopadir,  
Yopsa ham, nur o'z yo'lini topadir.  
Qayg'u ko'rsa — g'ayratlanar er yigit,  
Qamchi tekkach, chin yugriklar chopadir.

O'ng keldi deng yel biroz qirdan esgan,  
So'ng essa-da, o'ng essa-da, qolmas ko'chdan.  
O'tgan ishga — salovat, kutib qoldik:  
O'tkir qimiz,  
Eski umid, —  
Yangi kuchdan!

### ... GA

Rahmi yo'q, shum taqdirning to'riga tushib,  
Yovonda yotardik biz o'qqa uchib.  
Gavdadan toza, issiq qon sho'rg'alab,  
Xayri yo'q qora shamol yerni quchib.  
Ayrilib oltin erku or-nomusdan,  
Qayrilmay qanot qoqib, baxt qushi uchib.  
Toshyurak, ko'ngli qora yovuz yovning  
Qo'lidan qullik, xorlik zahrin ichib.  
Jon topmay tevarakdan yordam qilar,  
Umrndan endi olddagi umid kesib, —  
G'ayratli er, sinov-bahsga tikib boshin,  
Shul kezda og'ir yo'lga qadam bosding.  
Qutqarib kelimsakdan tiriltmoqqa,  
Ko'z yetmas keng, boy Sibir sariq dalasin.

Intilgan ezgu yo'lda tilagiga,  
Tushsa ham temir zanjir bilagiga.

Hasratla qora kunda jonni sevgan,  
Qo‘nmagan g‘ubor toza yuragiga.

Shu yo‘lda qayg‘u yutgan bizni ko‘rding,  
Tug‘ishgan bo‘vur kabi qo‘ling berding.  
Rahming kep, joning achib, yaqin tortib,  
Yozay deb sirtqi-ichki qalin cherdan.

Erkalangan boladay qo‘lga olding,  
Yupatding eslab, o‘tgan kunni — oltin.  
Tilading toza yurak, oq ko‘ngil-la,  
Bo‘lsin deb boyagiday yuzing yorqin.

Ardoqli er! Unutilmas etgan ishing,  
Kun ertan ulug‘ Alash yig‘ib esin,  
Ko‘p zamonlar sog‘ingan tilagingni  
Yorug‘ga chiqarish-chun berar kuchin.

## O‘TGAN KUN

Edil, Yoyiq, Sirdaryo —  
Belgili yurtga eski suv.  
Totli, ta‘mli, tarmoqli  
Uzun Ertish, yettisiv.  
Ushbu besh suvning orasi  
Sariorqa degan yer edi.  
Tug‘ilib-o‘sgan bolasin  
“Ulug‘, mard, er Alash” — der edi.  
Erkin chopib, o‘ynoqlab,  
Tilagan o‘tin yer edi.  
Qo‘nishi — ipak, nu<sup>1</sup> to‘qay,  
Oydin, teran yo‘l edi.  
Yesil bilan Nuraday

---

<sup>1</sup> Nu to‘qay — hech kim kirmagan, hali oyoq tegmagan o‘rmon.

Ikki enaga teli<sup>1</sup> edi...  
Xayiri ko'p og'ayin,  
Gadoyda ham yo'q vahm —  
Kerak bo'lsa bir toyin  
So'rovsiz ushlab minadi.  
Bo'lsa yoti, yaqini,  
Yo'q oshidan tortinuv.  
Issiq yuzli boyvuchcha  
Korsonday ulkan ayoq-la<sup>2</sup>  
Ushlatib savmal<sup>3</sup> beradi.  
Chiqa qolsa bir yumush,  
Uzab ketmas ortiq ish —  
Bitimga biyga keladi.  
Qosimning qashqa biyligi,  
Eshimning eski biyligi<sup>4</sup>,  
Oldinda sayrab yotgan so'ng,  
Ko'pni ko'rgan ko'hna biy  
Qora yo'l bilan yeladi.  
Bir tiyin pora olish yo'q,  
Qisiqqa quloq solish yo'q.  
To'g'rilik, chinlik — ikkovin  
G'oz qator qilib qo'yadi.  
Shu ikkovi oldinda  
Hech bulutarmay<sup>5</sup> yuradi.  
Haq Nazar kabi odil xon,  
Abilay kabi er sulton,  
Qorakerey Qabanboy,  
Qanjig'ali Bo'genboy,  
Oq nayza uchi bilan,  
Oq bilak kuchi bilan  
Dushmanga qisim ko'rsatgan.

---

<sup>1</sup> **Tel** — ikki onani emib o'sgan.

<sup>2</sup> **Ayoq** — idish, piyola, stakan.

<sup>3</sup> **Savmal** — yangi tayyorlangan qimiz.

<sup>4</sup> **Qosimxon, Eshimxon** — qozoq xalqining mashhur xonlari.

<sup>5</sup> **Bultarmay** — chetga burilmasdan.



G'oz tovushli Qozibek,  
Qora polvon Jonibek,  
Yolg'onda<sup>1</sup> tug'ilmas er edi.  
Kecha Sho'je, O'rinboy,  
Janaq, Birjan, Navro'zboy,  
Bir so'zi — ming tillolik  
Olti Alashda atoqli —  
Bari oqin, seri<sup>2</sup> edi!  
Chillada shamol esganda,  
Yaylovga ovul ko'chganda,  
Ot-ayg'irga minishib,  
Qiz-bo'z bola yarashib,  
Terandan hazillashganda,  
Tish marjoni tizilgan,  
Beli xipcha uzilgan,  
Hur misoli shu suluv:  
Xandon otib kulganda,  
Buyiq<sup>3</sup> yotgan keng dala  
Go'yo jon qayta enadi.  
Shildirab oqqan o'zanga,  
Uy tikib, darrov qo'nishib,  
Burala bosib bilqillab,  
Hazillashib, shinqillab,  
Yosh kelinchak, yosh qizlar,  
Kerege yoyib, uviq<sup>4</sup> boylar.  
Uydan uyga yurishib.  
O'tgan kunni o'ylasam,  
O'yga teran bo'ylasam,  
Kechagi ulug' qozoqning  
Savlati-yu davlati  
Ko'z oldimga keladi...

---

<sup>1</sup> **Yolg'on** — bu yerda, yolg'onchi, aldamchi dunyo degan ma'noda.

<sup>2</sup> **Seri** — shoir, qo'shiqchi, hunarli yigit.

<sup>3</sup> **Buyiq** — tinch, sirli.

<sup>4</sup> **Kerege, uviq** — kigiz uyning tarkibiy qismlari.

Kuching ketgan bayovlab<sup>1</sup>,  
Yurasan otsiz, yayovlab,  
It nodonlik yelkangda  
Chopaman deb, poylaydi  
Qilichini tayyorlab.  
Arslonim, shunqorim,  
Charchamas, tolmas tulporim,  
Boshing ko'tar, tur endi!  
Botgan ekan ul kuning,  
Yetgan ekan bul tuning,  
O'tganni o'ylab qayg'urma.  
Har kamolga — bir zavol,  
Azaliy bo'lar emasmi?  
Eskicha turib aytishma,  
Zamon — tulki, tozi bo'l,  
Bozorcha do'kon qur endi!

## OYGA

Kun botib, qorong'ilik qanot yoydi,  
Osmonda sonsiz yulduz yarqiraydi.  
O'tirib, qorong'i uy darchasidan  
Ko'raman mungli, nurli to'lgan Oyni.

G'amgin Oy turar ko'kda tusi qochib,  
G'amgin Zamin yuziga nurin sochib.  
Astagina siljiydi qo'rqan jonday,  
Yurganday yo'l topolmay xud adashib.

Bir yovuz so'ndirarmi uning nurin?  
Ustiga yopmoqchimi qora qurum?  
Negadir hozir bilan yumushing yo'q,  
Qayg'uga botdimikan o'tgan kuning?

---

<sup>1</sup> Bayovlamoq — sekin-asta kuchdan qolmoq, zaiflashmoq.

Kim bilsin, o'tgan kuning oltin chiqar?  
Ozaring xuddi kunday yorqin chiqar?  
Ko'p yulduz — ish bilanmi, kuch bilanmi  
Izingga ergashar — bu xalqing chiqar?

Yo'q chiqar hech bir bo'g'ot unda yo'lda,  
Erking-la quloch yoysang o'ng va so'lga.  
Manzil-u, to'lmoq, so'lmoq biyligi ham  
Ul vaqtda o'tib qolmas boshqa qo'lga.

G'amgin Oy, menman sening qayg'ungga o'rtoq,  
Menda ham bo'lgan bir payt toj bilan taxt.  
Yosh edim, olovli edim, botir edim,  
Qo'limga qo'ngan edi ul damda baxt.

Keng dala, ko'rasan-ku, anov yotgan,  
Ipakday, yashil maysa yuzin yopgan.  
Asqar tog', bolday totli suvlari bor,  
Ana shu — onam edi meni topgan.

Bola edim asov toyday o'yinqaroq,  
Yurardim erta-yu kech o'ynab, qarab.  
Ichmoqqa — osh, minmoqqa — ot, bari tayyor,  
Ko'rmagandim umrimda qayg'u o'ylab.

Vo darig', yovuz taqdir xo'b aldadi,  
Baxt, davlat — olmagani hech qolmadi.  
U mening ko'zim nuri — onamni olib,  
Ho'ngragan men yetimga ko'z solmadi.

Eh, mana, qamovdaman tor ungurda,  
Bunisi — yurganim-ku tirik go'rda.  
Mehribon Oy, meni sen yoningga ol,  
Bo'laylik ikki mungli bizlar birga.

Ont etib ayrilmasga birikaylik,  
Osh-suvsiz ming mehnatdan yo'l chekaylik.

Tinglovchi bor-ku tilak — odil Alloh,  
Ko‘l qilib qon aralash yosh to‘kaylik.

So‘rasak, tilak qabul bo‘lmasmikan?  
Yo‘limiz — yig‘lab topgan — shumasmikan?  
Kecha uchgan boshimizdan baxtning qushi  
Tag‘in ham qayta aylanib qo‘nmasmikan?

## TANGRI

Zo‘r Tangri, kuchlisan sen, ishonamiz,  
Odil deb har ishingga biz ko‘namiz.  
O‘z qulini yig‘latib qo‘ymas deya,  
O‘zingga erk tizginin biz beramiz.

Og‘izdan Alloh otin tashlamaymiz,  
Allohsiz hech bir ishni boshlamaymiz.  
“Odil Egam,  
    buyrug‘ingga bo‘ysundik” — deb,  
Buyruqsiz biror qadam hatlamaymiz.

Kechirgin, bu so‘z bo‘lsa bandachilik,  
Oldinda yana zulm bor, qani odillik?  
Shunchalik keng rahmatdan quruq qoldirib,  
Bolasi olti alashning — biz ne qildik?!

Boshqaga o‘rin berding yaxshi joydan,  
Baland tog‘, tubsiz daryo, teran soydan.  
Umidsiz, tilagi yo‘q, turog‘i yo‘q,  
Quvilgan dargohingdan — bizmi shayton?

Bizga o‘tsiz cho‘l-dalani o‘rin qilding,  
Baxt-davlat, hunar, bilimni nari surding,  
Kasr deb kek oluvchi o‘gay bolang —  
Bizmi edik, ko‘p itlarga yemish qilding.

Yubording boshqa yurtga yo'lboshchilar,  
Har yurtning rahbar bilan ko'zi ochilar.  
Na nabi, na yo'l siltar kitobi yo'q,  
Alashga bir yozganing bor-da chiqa?

Baxtsiz, qang'ib yurgan qozoq sho'rlik,  
Har kimga kuni ketib mazax bo'ldi.  
Bir elchi yubormading, songa olmading,  
Yalang'och, tuya boqqan arab qurli.

Kechir, Tangrim, sho'rlik qulga qahr etma,  
Rahm ayla, biz sho'rlikni chetga tepma.  
So'z chiqdi jon achchiqda, odil Tangrim,  
Tekkandan so'ng achchiq tayoq chuchuk etga!

## ZAMONAMIZ SHOIRI

“Derazadan qarayman,  
Karandashni yalayman.  
Vaznga solay deya,  
Ichimda so'z saylayman.  
Boshqaga bo'yin burmayman,  
Bitirmay yozib turmayman.  
Ne kerak, yurt sezmaydi, deb,  
Oxiri Fetdan<sup>1</sup> o'g'ir layman...”

## BIR BIYGA

O, biyimiz, biyimiz,  
Mag'rur turar uyingiz.  
Ko'rayapman ko'zim-la,  
Avjga mindi kuyingiz.

---

<sup>1</sup> Afanasiy Fet (1820–1892) — atoqli rus shoiri.

Payqayman, mo‘l-ku tagida  
Eldan olmoqqa siyingiz<sup>1</sup>.  
“Sen” deb sizga ne deyin,  
Tamug‘da mangu kuyingiz!

## SOHIBQIRON SO‘ZI

Jahon degan ne narsa? —  
Kaftdaygina yerdir u.  
Kaftday yerning Tangrisi  
Ko‘p bo‘lmog‘i — ko‘p qayg‘u.

Tangri — ko‘kning tangrisi,  
Kungransin, ko‘kni biylasin.  
Jahon shohi — Temurman,  
Bu yerga hech kim tegmasin.

Ko‘k tangrisi — Tangrining,  
Urug‘i yo‘q, zoti yo‘q.  
Jahon shohi — Temurning  
Urug‘i — turk, zoti — o‘t!..

## KUNCHIQISH

Qisiq ko‘zli Kunchiqish!  
Bul turishing qay turish?  
Alpim, tikla qaddingni!  
Yerni to‘ldirib gurros sol,  
Kunbotishga ko‘z yubor, —  
Qon yolqinin ko‘rdingmi?

---

<sup>1</sup> Siy — mukofot, siylov, hurmat.

Kunbotarni chang bosgan,  
Chang emas, qora qon bosgan,  
                    Ur-to‘polon, qonli otish.  
Bilaman deb bo‘lishga,  
Kulaman deb, o‘lishga  
Yaqin qoldi Kunbotish!

Daryo edi o‘kirgan,  
Sapchib ko‘kka ko‘pirgan,  
                    yemirildi qirg‘oqlari.  
Xasta, o‘lay deb yotar,  
Ahvoli mastdan battar, —  
                    Shudir qo‘ldan kelari!

Iblisga ergashgan o‘sallar,  
Manmansiragan kasallar  
                    Bo‘g‘ilsin, qonga bo‘yalsin.  
Uning ingragan unidan,  
Qonga bo‘yalgan kunidan  
                    Kunchiqishim uyg‘onsin!

Qisiq ko‘zli kunchiqish,  
Bo‘lsin so‘nggi bul yurish,  
                    Kunbotishga yuraylik!  
Hilpiragan tug‘ bilan,  
Yerni to‘ldirgan guv bilan  
                    Qal‘asiga kiraylik.

Kul qilaylik qal‘asin!  
Qul qilaylik bolasin!  
                    Yo‘q, jahlimiz bosaylik.  
Gul qilaylik qal‘asin,  
Ul qilaylik bolasin,  
                    Mehr eshigin ochaylik.

Esdan ozgan ullarni,  
Adashgan munglilarni  
Kunchiqishning yo‘liga  
Solaylik, “yotsan!” — demaylik,  
Ayamaylik, ko‘maylik  
Kunchiqishning nuriga!..

Teran dengiz tebrandi,  
Kunchiqishim guvrandi,  
Olmosday ko‘zim ko‘radi.  
Hilpiragan tug‘ bilan,  
Yerni to‘ldirgan guvv bilan,  
Qora bulut qoplab keladi.

Ey sen, kasal Kunbotish  
Bul yotishing qay yotish,  
Yo‘qol ildam yo‘limdan!  
Qo‘rqar bo‘lsang o‘limdan,  
Umiding bo‘lsa umrdan,  
Ushla mening qo‘limdan!

## SEVAMAN

Kulday gungurt sochi bor,  
To‘qson beshda yoshi bor,  
Ko‘zi ketgan, so‘qir, ko‘r.  
Tasbeh sanar tikilib,  
Yerga qarab bukilib,  
Xo‘rsinar og‘ir-og‘ir.  
Mening qari onam bor,  
Nega ekanin bilmayman —  
Shul onamni sevaman!



Ko'zinda ko'kning nuri yo'q,  
Og'zinda jannat so'zi yo'q,  
                    Otashsiz, sokin quchog'i.  
Evrilmaydi ilonday,  
So'zi ham yo'q Qur'onday,  
Bilgani — qozon-o'chog'i.  
Yovvoyigina yorim bor,  
Nega ekanin bilmayman —  
                    Shul yorimni sevaman!

Uyqu bosgan qovog'in,  
Bostirib kiygan tumog'in,  
                    Yalqovlikni yor ko'rgan,  
Yurar eski qonun-la  
Oldidagi moli-la  
                    Birga o'ynab, birga o'tgan,  
Alash degan elim bor,  
Nega ekanin bilmayman —  
                    Shul elimni sevaman!

Suvlari sayron quradi,  
Bo'roni uvlab turadi,  
                    Qish — oq kafan, yoz — sari.  
O'rmon yo'q, shov-shuvi yo'q,  
Tog'i ham yo'q, suvi yo'q.  
                    Bordir sur-sur toshlari.  
Sariorqa degan yerim bor,  
Nega ekanin bilmayman —  
                    Shul vatanni sevaman!

## YOSHLARGA ISHONAMAN

Arslon kabi haybatli,  
Yo'lbars kabi g'ayratli,  
Qironqushday qanotli, —  
Yoshlarga ishonaman!

Ko‘zlarida olov bor,  
So‘zlarida otash-nor,  
Jondan qimmat nomus-or —  
Yoshlarga ishonaman!

Yosh qironlar — polapon,  
Ko‘zlagani ko‘k osmon,  
Qanotin yozar chaqqon, —  
Yoshlarga ishonaman!

Xulqi — toza ipaklar,  
Sut kabi pok yuraklar,  
Xosiyatli tilaklar —  
Yoshlarga ishonaman!

Tog‘ suviday guvillar,  
Alash — ona elim der,  
Oltin Orqa — yerim der,  
Yoshlarga ishonaman!

Charchoq bilmas tulporda,  
Toliqish yo‘q shunqorda,  
Imon kuchli ularda —  
Yoshlarga ishonaman!

Ko‘nglida pok imoni,  
Xosiyatli Qur’oni,  
Shular Vatan posboni —  
Yoshlarga ishonaman!

Ishonaman yoshlarga!  
Alash nomin osmonga,  
Olib chiqar jahonga,  
Yoshlarga ishonaman!

## QOZOQ TILI

Kuch kamaydi, haybatli tug' quladi,  
Kecha botir bo'lgan — bugun buqadi.  
Erkka intilgan uchqur joni kishanda,  
Qon sovugan, yurak so'lg'in uradi.

Kiron qushning qo'sh qanoti qirqildi,  
Kuchli, shiddatli gurkiragan yel tindi.  
Asqar Oloy — oltin ona esda yo'q,  
Botir, xonlar — ne donolar unutildi.

Erlik, birlik, g'ayrat, nomus, baxt, orning,  
Yovuz taqdir yo'q ayladi ne borning...  
Oltin davrdan bir bebaho belgi bo'p,  
Nurli yulduz — bobom tili, sen qolding!

Yorug' ko'rmay uzoq yotding, xon tilim,  
Toza, teran, o'tkir, kuchli, keng tilim.  
Tarqab ketgan bolalaring bag'ringga  
Oq qo'ling-la torta olarsan, sen — tilim!

## TEZDA BORAMAN

Qironqushman — uchgan sariq daladan,  
Oltoy, O'rol — qo'sh qanot deb bilaman.  
Ozod dashtlar ardoqlisi, erkasi,  
So'zim sinmay o'sgan botir bolaman.

Alp pahlavon — bobo zotim so'rasang,  
Aqli raso — momo zotim so'rasang.  
Olov sochib yosh yo'lbars intilsa,  
Qo'rqoq qullar, qanday qarshi turasan?!

Tulpor minib, tug'ni qo'lga olayin,  
Qilich tutib, qon maydonga borayin.

Yerning yuzi kimligimni tanisin,  
Yosh bo'riday bir oz o'yin solayin.

Tiriltiray alp bobomning arvohin,  
Poklab olay Sarioqamning tuprog'in,  
Yon-atrofdada tekis hukmin yuritib,  
Kamol topsin kelayotgan urpog'im.

Alp bobojon, yo'ling tutdi er bolang,  
Duo qilgin, oltin Oltoy — qari onam,  
Oq sochingni, ko'kragingni hidlashga  
Tez boraman, g'olibona, men shahdam...

## **OLISDAGI BOVRIMGA**

Olisda og'ir azob chekkan bovrin,  
Chechakday xazonrezgi tekkan bovrin.  
Qamalib qalin yovning o'rtasinda,  
Qul qilib ko'zining yoshin to'kkan bovrin.

Oldingni og'ir qayg'u yopgan bovrin,  
Umr bo'yi jafoda chekkan yotdan bovrin,  
Qonsirab yuragi tosh yovuz kaslar,  
Tiriklay tering shilib yotgan bovrin.

Yo pirim-ay, emasmi oltin Oltoy —  
Bizni tuqqan onamiz — asov toyday?  
Bag'rida yurmabmidik o'ynab-kulib,  
Yuzimiz emasmi yorqin Oyday?!

Ola-bula oltin soqqa otmabmidik,  
Tepishib bir to'shakda yotmabmidik?  
Oltoday onamizning oq sutidan  
Birga emib, birga ta'm totmabmidik?

Turmabmidi biz uchun zilol buloq  
Qiqirlab, kulib-yayrab, tog‘dan qulab,  
Qush kabi qanot qoqib uchgan quyun  
Biz bilan chopmaganmi poyga-uloq?

Oltinoyning oltin kuni erkalatib,  
Yo‘lbarsday o‘sdik biz mard, er yetib.  
Oq dengiz, Qora dengiz naryog‘iga,  
Bovrim, meni tashlab, qolding ketib!

Men qoldim, yosh polapon, qanot qoqmay,  
Uchay deb intilsam ham tayanch topmay.  
G‘am chekib, yo‘l ko‘rsatar do‘st qolmadi,  
Qo‘ysinmi dushman endi meni otmay?

Yosh yurakka qo‘rg‘oshin o‘qi botdi,  
Gunohsiz toza qonim suvday oqdi.  
Holsirab, darmon ketib, esdan toldim,  
Qorong‘i avaxtaga tiqdi, yopdi...

Ko‘rmayman kecha yurgan qir-soyni ham,  
Kunduz — Kunni, tunda — kumush,  
oq Oyni ham.  
Ardoqlab, chin ipakday, nurga belab  
O‘stirgan oltin onam — Oltoyni ham.

Yo pirim-ay, ayrildikmi, do‘stim, to‘pdan?  
Yog‘sa ham qaytmasdik-ku yomg‘ir-o‘qdan!  
Turkiyning yo‘lbars kabi yuragidan  
Chiqqan biz — qo‘rroq qulmi yovdan buqqan?!

Charx urib, erkka intilgan turkiy joni,  
Chindan ham sustlashdimi bitib holi?!  
Yurakdagi o‘ti so‘nib, quridimi  
Qaynagan tomirdagi ota qoni?

Bovrim, o, sen uyoqda, men buyoqda,  
Qayg'udan qon yutamiz. Bizning otga  
Loyiqmi qulday yurmoq? Yur, ketaylik  
Oltoyga — ota meros oltin taxtga!

## O'ROL TOG'I

Talashgan osmon bilan ko'k-ko'mgak tosh,  
Qarasang tepasiga — aylanar bosh.  
Yaratgan qudrati keng qodir Tangrim,  
Shul tog'dan chiqargandir oltin, olmos.

Sollanib shivirlaydi turli og'och,  
Bir-biridan ko'rklanib turar yondosh.  
Qarag'ay, archa botir — bir qatorda,  
Bahor, yoz, qish-u kuzni yodga olmas.

Ichiga ayiq, qashqir — jonzot to'lgan,  
Odamzod yurak yutib oyoq solmas.

Bir paytlar sening egang turkiy edi,  
O'zingda qo'nib-ko'chib yurgay edi.  
Tog'-u toshdan tap tortmas botir turkiy  
Qo'yningga haybat bilan kirgay edi...

Mard turkiy keng dalangning ko'rki edi,  
O'tirsa, ko'chsa, qo'nsa — erki edi.  
Turganda iqbol qushi boshing uzra,  
Bul qush ham qo'rqmas, botir turkiy edi.

Beqaror bu dunyoda vafo bormi?  
Aldaydi, to'xta, unga yaqin borma!  
Bugun u jon do'stingman deb yurar-u,  
Qulatib ketar erta seni jarga.

Oltay, O'rol bo'yida turgan tur(i)k,  
Qara-chi, tevarakka bo'ying burib,  
Oting yo'q, zoting ham yo'q, tovushing yo'q,  
Qaylarga yo'qolding sen irib-chirib...

Ey ona, turklar o'sgan ulug' O'rol,  
Bo'ying bur to'ng'ichingga, bul yon o'ral!  
Ko'shil, ey botir turkning bolalari,  
Toptatma, onang qadrin qo'lingga ol!

### MEN SHO'RLIK

Tolesiz, baxtsiz men sho'rlik,  
Bir ishim o'ngga bormagan.  
Men ne qildim shunchalik,  
Tangri muncha qarg'agan?

Talpindim, tushdim iziga,  
Yuksalmadi bir ishim.  
Qaramay quling yuziga,  
Ollohim, ne edi qilmishim?

Bel bog'lab tushdim har yo'lga,  
Tilagim qandoq topay deb.  
Qaramadik o'ng-so'lga,  
Maqsadim tomon chopay deb.

Ne qilsam ham tushmadi  
Hovuchimga quvganim.  
Yubormadi, zo'rladi  
Yaqin bovrin — tuqqanim.

Qizg'ona qoldi yiqqanin,  
Borin, orin ayadi.

O'qishga oqcha qiymadi,  
Oldi-ortiga qaradi.

Yig'latding-ku, ey Rahmon,  
Bilim izlab toldimmi?  
Yaratganim, mehribon,  
Quruq hovuch qoldimmi?



## TURKISTON

Turkiston — ikki dunyo eshigidir,  
Turkiston — mard turkiyning beshigidir.  
Turkistonda tugʻilishday eng ajib baxt  
Turkiylarga Tangri bergan nasibidir.

Qadimda bul yurt nomi edi Turon,  
Turonda mard turkiylar tutgan makon.  
Turonning taqdiri bor ayqash-uyqash,  
Boshidan kechgan uning ne bir zamon.

Turonning garmselday tarixi bor,  
Oʻt boʻlib koʻkka oʻrlar u shiddatkor.  
Turonning yerin-suvin yoddan bilgan  
Turkiyga teran xayol hamisha yor.

Turonning hadsiz-cheksiz choʻli qanday!  
Dengizday kanori yoʻq koʻli qanday!  
Turonning daryolari, oʻzanlari  
Bir toshsa, choʻlni bosgan seli qanday!

Turonning togʻlari bor koʻkdan oshgan,  
Boshini mangu oppoq sochlar bosgan.  
Bagʻrida erka buloq oʻynoqlaydi,  
Togʻ aro zilol suvlar toʻlib-toshgan.

Choʻllar bor, yel yugurmas, sap-sariq qum,  
Mozorday, hech bir un yoʻq, sukutda, jim.  
Jon-jonvor boʻlarmidi cheksiz qumda,  
Oʻynasa pari va jin oʻynar balkim.

Turonning dengiz kabi koʻllari bor,  
Mavj urar cheksiz-hadsiz Dengiz–Orol.  
Bir chetda xosiyatli Issiqkoʻlning  
Bagʻrida dunyo koʻrgan turkiy koʻkyol<sup>1</sup>.

Oks, Yaksart — Jayhun, Sayxun oqa kelgan,  
Turkiylar bul ikkovin daryo degan.  
Muqaddas ikki daryo yoqasida  
Bobolar mozori bor — aziz maskan.

Turonning Tiyonshonday togʻi qalay!  
Juft boʻlmas Tiyonshonga togʻlar talay!  
Mard turkni beixtiyor olqishlarsan  
Koʻkka tekkan Xontangriga qaray-qaray.

Balxashni ogʻushlagan Tarbagʻ atay,  
Joʻtali, yer kindigi — Pomir, Oloy.  
Qoziqurt xosiyatli togʻ boʻlmasa,  
Toʻfonda Nuh kemasi toʻxtar qalay?

Turonning yeri ham yod, eli ham yod,  
Quyunday boshdan kechgan kuni ham yod!  
Shohlik qurib, Turonni biylab turgan  
Moziyda eng mashhur xon — Afrosiyob.

Azaldan bul yurt chalgan mardlik kuyin,  
Bilasan tarix ochsang Turon joyin.  
Xosiyatli Turonga xumor boʻlgan  
Avvalda Kayxisravu Zulqarnayn.

Yer yuzinda Turonday yer bormikan?  
Turkiylar kabi yo bir el bormikan?  
Oʻtkir aql, oʻtli gʻayrat, yugruk xayol,  
Turonning erlariday er bormikan?

---

<sup>1</sup> Koʻkyol — turkiylarda muqaddas sanalgan Ona Boʻriga ishora.

Tug'ilmas odamzotda Chingizday mard,  
Tubsiz fikr, temirbadan va donishmand.  
Chingizday arslonning bir nomi hatto  
Odamning yuragiga berar madad.

Chingizdan — Chig'atoy, O'gdey, Jo'ji, To'le,  
Otaga tortib o'sgan bari bo'ri.  
Chingizning lashkarboshi — ikki ko'zi:  
Yo'lbars Subutoy va ko'kyol Jebe.

Turonning Tarag'ayday biylari bor,  
Undan Temur tug'ilgan — o't, shiddatkor.  
O't sochib yer yuziga ulug' Temur,  
Chaqmoqday charaqlagan takror-takror.

Turonni maqtamasman o'zim yakka,  
Shusizoz nomi ketgan hamma yoqqa.  
Olim bormi falakning sirin ochib,  
Bilimda tenglasholsa Ulug'bekka?!

Toza qon-turk qonidir xosiyatli,  
Shul qondan Ibn Sino Abu Ali.  
Sehr desang arziydi mo'l bilim, in  
Tug'ildimi bunday odam yerda hali?

Turkiyning kim bilmaydi musiqasin,  
Forobiy jaranglatgan ud nolasin.  
Chertganda to'qson to'qqiz turlantirib,  
Yupanib kim tiyoldi ko'zning yoshin?

Turonda turk o'ynagan misli chaqmoq,  
Turkdan boshqa o't-olov jon bormi shundoq?  
Turkiylar enchi olishib tarqalganda,  
Qozoqda qolmaganmi qora shangroq?

Turon bul — arslonlarga vatan bo'lgan,  
Turonda qozog'im ham xonlik qurgan.

Qozoqning qashqa yo‘lli Qosimxonini  
Turonning talay yerini biylab turgan.

Odil xon kam bo‘lmadi Nazardayin,  
Alashga yesimxonning yo‘li tayin.  
Tavkeday donishmand xon qurgan ekan,  
Kulto‘baning boshinda qurultoyin.

Bul Turon azaldanoq Alash yeri,  
Turonsiz tarqalmagan hech xumori.  
Turonning tuprog‘ida tinchlik topgan  
Alashning arsloni — Abilay eri.

Xumorlab kim izlamas tuqqan elin?  
Tulpor ham qo‘msamasmi tuqqan yerin?  
Shimolning shovvozlari — qalin Alash,  
Turon ham bila bilsang — sening yering!

Avvalda Oks, Yaksart — Jayhun, Sayxun,  
Turkiylar daryo degan bul ikkovin.  
Muqaddas ikki daryo yoqasinda  
Bobongning mozorini top va sig‘in!

### **ALDANGAN SULUV**

Kuni kecha to‘lin oy yuzing edi,  
Bog‘dagi qora nargiz ko‘zing edi.  
Map-mayda momiq qorday toza badan,  
Go‘yoki pishib turgan uzum edi.

Yel tegmay, dog‘siz turgan kezing edi,  
Insonga dori — shirin so‘zing edi.  
Payg‘ambar bosib ketgan izlariday  
Qadrli, qutlug‘ oyoq izing edi.

Bugun-chi, o'sha ko'rkning biri ham yo'q,  
Oh, ohu, oyog'ingga tegdi bir o'q.  
O'kinding, yoshlik — mastlik, davring o'tdi,  
Faryod qil, sirting — olov, ichingda — cho'g'.

Quv tulki so'zlariga tez aldanding,  
O'ylanmay o'tga kirib, tez talanding.  
Pok isming, yoshlik ko'rking — bari ketib,  
Umringcha kuyib o'tar o'tda yonding.

El og'zidan taraldi yomon oting,  
“Buzuqsan!” — deydi endi yaqin-yoting.  
Vishillab ul ham, bul ham so'z aytadi,  
Yosh to'kib, chiqmasinmi shunda doding?!

### SHU KUNNING QO'SHIG'I

O'ylamay o'tga tushgan qandoq jonmiz? —  
So'z uqmay, milqov, merov, yurgan yolg'iz?  
Ko'rinmas ko'zga turtsa, qorong'ilik,  
Yo pirim! Qoldikmi rost oppoq tongsiz?!

Taqalgan tomoqlarga o'tkir pichoq,  
Shundayam tinch yotamiz go'yo ongsiz.  
Tinglamos, so'zni uqmas, eshitmaydi,  
Bo'ldimi hayron qozoq toshday jonsiz?

Yer ketdi, joning ketdi, g'am yemading,  
Kul bo'lding qoratovon, endi molsiz.  
O'rtaqa qamab olib qirib yotar,  
Qora yurak “nodonlik” seni sonsiz.

Qozog'im, ey arslonim, g'ayratli er,  
Qoldingmi qarshi turmay bir amalsiz?  
Tun boshlandi, ne bo'lar oldda kuning —  
Bo'sh yursang hech panasiz, uysiz, tomsiz?

Adashding, oldimda — bo‘ron, ortda — tuman,  
Borasan qora tunda chiroq-shamsiz.  
Yengdimi bilimsizlik, it nodonlik?  
Bo‘g‘ining qaltiraydi bo‘lib holsiz.

### QAROG‘IM

Qarog‘im, o‘quv o‘qi, bekor yurma!  
O‘yinga berilma hech, ko‘ngil bo‘lma.  
O‘qimay, o‘yin quvgan bolalarga  
Yo‘lama, yaqiniga bora ko‘rma.  
Kechikma, hayallama, olg‘a intil,  
Yulduzni olaman deb, qo‘ling serma!  
“Harakatda barakat” degani chin,  
To‘xtamay ishlayversang botib terga,  
Yoshlikdan hunar quvib, bilim topsang, —  
Qay odam yeta olgay bundaylarga...

\* \* \*

Yoshlik, boylik, qo‘l qovshirib bo‘sh yurish —  
Yosh, o‘spirin, umidli erni buzadi.  
Terlab-pishib, o‘lib-tolib topilgan  
Otameros davlat shunda to‘zadi.

### SHO‘RLIK QOZOQ

Sho‘rlik qozoq joni xalqumga tiqilib,  
Qora kun kelib, tikkan tug‘i yiqilib,  
Olg‘a bosmay hamma ishi ters ketib,  
Lazzat topmas, kuchsiz, behol bukilib,  
O‘qish-bilish yo‘lasa ham, ko‘p turmay  
Chetlanadi, qozoq ishin yoqtirmay.

Pir-pir uxlab, qozoq shoʻrlik tek yotar,  
Qonli yoshlar ikki koʻzin ochdirmay.  
Qozoq, qoʻzgʻol, bilim izlar kez keldi,  
Qilich tutib senga nodonlik gezandi.  
Chetga otvor kesak kabi, yurtdan quv  
Erta-yu kech boshga minib ezganni!  
Kitoblar ber, oʻqisin, bolang qoʻliga,  
Mol ayama oʻquv-bilim yoʻliga.  
Hunar oʻrgan, boshqalarga qator boʻl,  
Qoʻshil borib odamizod yoniga!  
Shoʻrlik qozoq bosh koʻtarib turarmi?  
Koʻngli tusab, bilimga bosh burarmi?  
Kuni tugʻib, oʻngdan Quyosh, soʻldan Oy,  
Oʻynab-kulib, fan-la doʻkon qurarmi?

## SEVIKLIMGA

Yondim-kuydim seni oʻylab, vasling koʻrmay,  
Sendan boshqa bir yosh jonga koʻngil bermay.  
Sen — bir yoq, dunyo bir yoq, qator qoʻyib,  
Seni izladim, dunyoda qarab turmay.

Qaygʻu yutdim, oh desam — chiqdi yolin,  
Sirtim sogʻ, ichimda oʻt yongan qalin.  
Kuydirgan qalin oʻtning zardobidan,  
Oʻlishga yaqin keldi shoʻrlik jonim.

Koʻzlarim aytib turar suyganimni,  
Qurigan, sargʻaygan yuz — kuyganimni.  
Tolgʻin yurak, quruqshab-soʻlgan vujud —  
Sevgini qoʻliga qoʻl qoʻyganimni.

Kun-u tun seni izlab qaygʻu yedim,  
“Oʻtda qolgan shoʻrlikni sevgin” — dedim.  
Toʻkilgan koʻz yoshimga rahming kelmay,  
Oʻzingni nari olib qochding-a jim.

Jon dedim, jonim qiydim — qayrilmading,  
“Nari ket!” — degan gapdan ayrilmading.  
Chirillab, ko‘z oldingda yonsam hamki,  
Tilingda bir bor ayab, qayg‘urmading.

Nur bo‘ldi ko‘nglim aro sening shu‘lang,  
Umr bo‘yi bo‘lib qoldim men ovvorang.  
Mana, men seni tashlab ketmoqchiman,  
Xush qol endi, omon bo‘l, sevgan yor-a!

Sevmasang, men ham topdim o‘zimga yor,  
Keraging yo‘q, mehrsiz, yo‘lingga bor!  
Endi men ul yor ila rohatlanay,  
Yozin-qishin, baribir, yog‘sa ham qor!

Doim birga, u tashlab ketmaydi hech,  
Sen kabi, meni g‘amgin etmaydi hech.  
O‘zgarmas bir qolipda tirikchilik,  
Goh shodlik, gohida mung tutmaydi hech.

Alvido, menga qara, o, meni ko‘r!  
Vidolash, men ketayin, qo‘lingni ber!  
Oldimda quchoq ochib qarshi olar —  
Sevgan yor, vafodor yor — ul qora yer!

### SO‘ZI OLTIN HAKIM ABAYGA

Chin hakim, so‘zi oltin — baho yetmas,  
So‘zini ming aytsang ham — toti bitmas.  
Qoradan hokim bo‘lgan senday jonning,  
Dunyoning qulog‘idan so‘zi ketmas.

So‘zingga baho qo‘ysa, bahosini  
Aytolmay yurt qiynalar — shundoq olmos!  
Olmos so‘z, oltin she‘ring eshitgan jon  
Ters qarab birontasi keta olmas.



Qabringda tinch uxlagin, qayg‘u yema,  
“Olmos so‘zim xor bo‘ldi bo‘shga” — dema.  
Izingda qozoqning yosh bolalari  
So‘zingni bayroq qilib yurar hamma!

Oy-u yil o‘tar, dunyo ko‘chin ortar,  
O‘ldirib qancha jonni, yukin tortar.  
Ko‘z ochib, xalqing uyg‘ongani sayin,  
Ishon, ey hakim bobo, qadring ortar.

Tirik jonning ortida izi qolar,  
Etikdo‘z o‘lsa — bolg‘a-bigizi qolar.  
Boy o‘lsa — qolar suruv-suruv moli,  
Chechan o‘lsa — ortida so‘zi qolar.

Shum dunyo chap beradi, ko‘pdan o‘tar,  
Sog‘ yursang, erta-indin ishing bitar.  
To‘xtamas bu dunyoning charxpalagi,  
Chechanning aytgan so‘zi ko‘pga ketar!

### **TUG‘ILGAN YERIM — SASSIQKO‘L**

Olisdan sirli boqib chalqigan ko‘l,  
Chehrangda kunning nuri balqigan, ko‘l.  
Saflanib sof kumushday oq ko‘piklar,  
Map-mayda mavjlaringda qalqigan ko‘l.

Yoningda yosh bolalar o‘ynagan ko‘l,  
Jon-jonvor suving ichib, to‘ymagan ko‘l.  
Yaltirasang, ko‘z solib, mungga botib,  
Oshiqlar yorin izlab, o‘ylagan ko‘l.

Yechinib qiz-kelinchak suv olgan ko‘l,  
Har jonni zilol bilan sug‘organ ko‘l.

Irg'ishlab suvga to'ygan suruv mollar,  
Do'nglarga o'ynoq solib, quvongan ko'l.

Sohilga oqbo'z uylar yarashgan ko'l,  
Boylari kambag'alga qarashgan ko'l.  
Totuv-ahil og'ayni birga qo'nib,  
Mol-holni soat sayin so'rashgan ko'l.

Turli qush ovoz solib chuvlashgan ko'l,  
Baliqlar suv ichinda duvlashgan ko'l.  
Shopirib sariq qimiz erta-yu kech,  
Boshingda kengash qurib, dovlashgan ko'l.

Sassiq deb, erkalatib ot qo'ygan ko'l,  
O't-suvga egang tugul, yot to'ygan ko'l.  
Nozlanib, tulpor minib, tarlon uchib,  
Poygaga chavandozlar ot qo'ygan ko'l.

Kir yuvib, kindik kesib senda o'sdik,  
Teng-to'shlar o'ynab-kulib "kel" deyishdik,  
Kurashib, toyga minib, loyga ag'nab,  
Bahslashib, kun botguncha bel olishdik.

Oydin ko'l, bobom qo'ngan, qut bo'lgan ko'l,  
Chanqasa — o't bo'lgan ko'l,  
suv bo'lgan ko'l.

Ahillik, og'zibirlik tugal chog'da  
Baraka, mo'l-ko'l yemish, sut bo'lgan ko'l.

Ne bo'lar? Bilmam, hayron boshim mening,  
Ozodlik ichra o'tsin kun-u tuning.  
Gerdayib, yot kishilar kelib qo'nsa,  
Boshingdan qushing uchib ketar sening!

## YOSH KELIN

Yangi tushgan yosh kelin,  
Kampirlarga osh kelin!  
Salomini bermasa —  
Obro‘ topmas, tosh kelin!  
Qovog‘in hech uymasa —  
Shunda bo‘lar bosh kelin!

Yangi tushgan kelinchak  
Bo‘lmas sira erinchak.  
Xudoning bergan to‘qligi —  
Osh bo‘ladi irimchak.

Yosh kelinchak — to‘q qo‘noq,  
Ziqna bo‘lmaydi biroq.  
Charchab-tolib yursa ham,  
Fikrida yaxshi atoq!

Dovul, qor turgan paytda,  
Yo quysa yomg‘ir-bulut,  
Lom-mim demay so‘z aytmay,  
U yuradi sog‘ib sut.

Birin biri izlashgan,  
Qorong‘ida kezlashgan,  
Boshi yerga kirguncha  
“Jonim — sen” deb so‘zlashgan  
Yosh kelinchakning yori —  
Ko‘nglin ochar xumori.

## O‘ZGA YURT...

O‘zga yurt osmon-ko‘kka oshayotir,  
Ilm konin kalit topib ochayotir.  
Biri oy, biri yulduz, biri kun bo‘p,  
Yaltirab ko‘kdan nurin sochayotir.

Talashib — hunar-bilim olayotir,  
Kunma-kun olg'a qarab borayotir.  
O't ekib, ko'kda uchib, suvda suzib,  
Tangridan rahmat-rag'bat topayotir.

O'ylamay bizning qozoq tekda yotar,  
Bir ishga yopisholmay chetda yotar,  
Sal ozroq ko'z yuborib, qarab tursang,  
Qozog'im tang qolarlik kayfda yotar.

Boylari ming qo'y ichra chalqib yotar,  
Bor molin bo'lislikka sarqib yotar,  
Barimta, urush-janjal, kishi o'ltirish  
Ichinda sho'rlik qozoq qalqib yotar.

Keng yeri kundan-kunga qurib yotar,  
Sur ilon qon-qaymog'in so'rib yotar.  
Avvalda yurt so'ragan odamlarni  
Tangri ham kundan-kunga urib yotar.

Birovlar o'qib, to'ra bo'layotir,  
Bosh uzra davlat qushi qo'nayotir.  
Unutib o'z-o'zini bul shovvozlar,  
Yurtiga qarshi tayoq yo'nayotir.

Shogirdlar madrasada chirib yotar,  
Aytishib mulla bilan, irib yotar.  
O'qigan, din izlagan bechoralar  
Yemtikka quzg'un bo'lib kirib yotar.

Ayollar mol o'rniga yurayotir,  
Yosh qizin molga, cholga berayotir.  
"Ayol xuni — besh baytal" degan bir so'z  
Qarmoqa talay yoshni ilayotir.

Dov-janjal el ichiga to'layotir,  
O'zaro talash-tortish bo'layotir.

Kechagi chechak yorgan qozoq tili  
Sarg'ayib, bir suv tegmay so'layotir.

Qozog'im mana shundoq bitayotir,  
Kun sayin ortga qarab ketayotir.  
O'zga yurt, o'z yurtining farqin bilmay,  
Oti o'chgur o'qiganlar — netayotir?!

### ALLA

Kunim, oyim,  
Erkatoyim,  
Belayin endi.  
Tashda dovul,  
Yotdi ovul,  
Uyqung ham keldi.

Yumshoq to'shak,  
Issiq beshik,  
Yotaqol, qo'zim.  
Alla, bo'pam,  
Alla, bo'pam,  
Uxla, yum ko'zing.

Qulin choqlar,  
Qo'zi-uloqlar —  
Bari uyquda.  
Sen — yulduzim,  
Sen — ko'z nurim,  
Sevaman juda.

Soya jonim,  
Polaponim,  
Ketsin, dovul, yel.  
Bo'lma alang,

Sevar onang,  
Saqlar, aniq bil.

Erka bolam,  
Erka bolam,  
Alla-yo, alla!  
Nurim, shu'lam,  
Kuni ertang  
Ulg'ayarsan-a!

Pishib olmam,  
To'lib bog'lon<sup>1</sup>,  
Yugrib yurarsan.  
Suluv suyruk<sup>2</sup>  
Yo'rg'a, yugruk,  
Toyga minarsan.

Qora yarg'oq,  
Tulki tumoq,  
Cho'g'day kiyarsan.  
Quvnab, qalqam,  
Erkam, marham,  
Quchib suyarman.

Minib tulpar,  
Olib shunqor,  
Toqqa ketarsan.  
Senga so'zim,  
Yoshli ko'zim,  
Yonib kutarman.

Qiziq izlab,  
Qizlar ko'zlab,  
Ellar kezarsan.

---

<sup>1</sup> **Bog'lon** — 1. Qo'zi. 2. Yosh.

<sup>2</sup> **Suyruk** — qamishning oppoq ildizi.

Tarlon shuyib<sup>1</sup>,  
Suluv suyub,  
Uydan bezarsan.

Izlab baxting,  
Tilab taxting,  
Yo'llar chekasan.  
Yurak — yara,  
Men bechora  
Yoshlar to'kaman.

Qaynab qoning,  
Botir joning  
Erkka intilar.  
Sen — erimga,  
Yosh bo'ringa  
Kim qarshi turar?

Olmos qilich,  
Nayzang ham qurch,  
Belga taqarsan.  
Sen — sirtlonim,  
Arslonim,  
Yovni yiqarsan!

Tuqqan yerdan,  
O'sgan eldan  
Erga ne qimmat?  
Yosh yo'lbars,  
Yov-la, olish,  
Changga, qonga bot!

Haybatingni  
G'ayratingni  
Ko'rib qart onang

---

<sup>1</sup> **Chuyimoq** — to'lporga minib, shiddat bilan choptirish.

To'kib yoshin,  
Yoyib sochin  
Bo'lar parvonang.

Kutay intizor  
Ey Egam, takror  
Ko'rsat oltin kunni.  
Uyqung totlidir,  
Uyqung qattidir,  
Qo'zichoq, endi.

Jonim — sen o'zing,  
Tanim — sen o'zing,  
Qorachiq, ziyo!  
Alla, bo'pam,  
Alla, bo'pam,  
Alla, alla-yo!

### **BOTGAN KUNNING, OTGAN TONGNING QO'SHIG'I**

Oltin Kun botib boradi,  
Kuydirib ko'kning jiyagin.  
Quralay ko'zli qarog'im,  
Bo'ldingmi yigirib ipaging?!

Quralay ko'zli qarog'im,  
Qo'lingga qorday batistni ol.  
Qonday qizil ipakdan  
Oq batistga o'rnak sol.

Oltin Kun botib boradi,  
Oltin Kun oxiri o'ladi.  
Sho'rlik bulutlar — sho'rlik yor,  
Qon yig'lab Kunni ko'madi.



Kun o'ldi. Ko'k gungrandi,  
Yer yopindi qorasin.  
Quralay ko'zli qarog'im,  
Kashtangni qachon bo'lasan?

Suvday suluv savlat-ay,  
Bir qara-chi, sog'indim.  
Suvda o'ynagan baliqday,  
Suyranglanar barmog'ing.

Qovoqqa qator tizilgan  
Kiprikmi, qora ipakmi?  
Bir qara-chi, qarog'im,  
Uv to'ldi-ku yurakka.

Qandoq botil o'ynaydi,  
Suyruk barmoq, biz bilan?  
Nimang ketadi, erkatoy,  
O'ldirsang otib ko'z bilan?

Qarama menga, qarog'im,  
Ko'zing bo'lsin kergichda<sup>1</sup>  
Qonday qizil ipak-la,  
Oq batistni kashtala.

Yer yoridan ayrilib,  
Qora yopinda boshiga.  
Bo'ta ko'zli, xipcha bel,  
Boray endi qoshingga.

Qorong'ilik qopladi,  
Qayg'uli bosgan, tunmikan?  
Shildiraydi... nima bu?  
Yelmi yo yurgan jinmikin?

---

<sup>1</sup> **Kergich** — kashtaning doirasi.

Qovog‘ing uyma, qarog‘im,  
Yoningga yaqin kelayin.  
Qor betiga qon bilan,  
Nima deb yozding, qarog‘im!

Juda yaqin bormayman,  
Yiroqdan yetar so‘z solsam.  
Nima deb yozding, qarog‘im?  
“El uchun o‘l Er bo‘lsang!”

Quralay ko‘zli qarog‘im,  
Yorilar-ov yosh yurak!  
Ko‘zimga qon to‘ldirdi,  
Qor ustida qon ipak!

“El uchun o‘l, el uchun...” —  
Umrni ayab netayin?!  
Suyrukday suluv barmog‘ing,  
Men sadag‘a ketayin!

Qoraygan tun o‘ladi,  
Oqargan anov tongimi?  
Oq batistning betida,  
Yuragingning qonimi?

“El uchun o‘l, el uchun...” —  
O‘lasan, yurak, dursulla!  
Quralay ko‘zli qarog‘im,  
Kashtangga qarab xo‘rsinma!

Quralay ko‘zli qarog‘im,  
Otlanayin tong bilan.  
Oq batist — oq yalovim,  
Kashtalangan qon bilan.

Xush qolgin, ey qarog‘im,  
Meni esingga olgaysan!

Endi batist betiga:  
“Imonli bo‘l!” deb yozgaysan!

Oltin kun chiqib keladi,  
Oltinlab ko‘kning jiyagin.  
Quralay ko‘zli qarog‘im,  
Yigiraver ipaging!

## ERKINLIK<sup>1</sup>

Yer yuzin qon bosganda,  
Ko‘pigi chiqib osmonga,  
Jin bo‘ldi yo‘ldosh odamga.  
To‘g‘rilik, tenglik unutilib,  
Injil, Qur‘on yirtilib,  
Kirlandi yer bilan changga.

Qizil qonga mast bo‘lib,  
Yuragi qora tosh bo‘lib,  
Ayrildi esdan odamzod.  
Unutib mehrli egasin,  
So‘yib yeb sog‘in tevasin,  
Tangrisi bo‘ladi Lot, Manot<sup>2</sup>...

Yuritib Iblis am(i)rin,  
Yovuzlik yoyib tomirin,  
Urchidi yolg‘on — qirg‘inlik.  
... Ko‘k eshigi ochildi,  
Ujmoh nuri sochildi,  
Keldi uchib erkinlik.

---

<sup>1</sup> 1918-yilda Sibirdagi reaksiya davrida yozilgan (Mag‘jon Jumaboyev es-kartmasi).

<sup>2</sup> **Lot, Manot** — islom dinidan avvalgi davrda arablar sig‘ingan but-sanam-larning nomi.

Arshday nurli yuzi bor,  
Kavsar ipak so'zi bor,  
Nafis-u olmos, oq qanot.  
Jonivorlar yerdagi,  
Kelar barining kurmagi,  
Kuzatarlar serhayrat.

Oppoq nurga o'ranib,  
Dam olib, hayratga belanib,  
Hurmat bilan turishdi;  
Shu'la ko'rmagan, chekib zor,  
Och-yalang'och, sho'rlik, xor  
Endi yayradi, kulishdi.

Tez isib, tez sovugan,  
Jannatdan ham quvilgan,  
Odamzod kirdi isyonga.  
Esin yig'ib, o'ylanib,  
Obdon gavda o'rganib,  
Oldi o'sha dam ziyoga.

Boyagisin boshladi,  
Vijdonni nari tashladi,  
Erkinlikda yo'q yumush.  
Zor engradi talay jon,  
Sel bo'p oqdi qizil qon,  
Qatlu qirg'in, o'ldirish.

Chirik yurak, sassiqlar,  
Haromga ko'p oshiqlar,  
Yetildi, yetdi murodga.  
Qimirlagan qo'ng'izlar,  
Qo'rsillagan qo'ng'izlar  
O'rgandi, shunday hayotga.

Poklikka til, qo'l tekkizdi,  
"Sassiq shayton" degizdi,

Yovuzlik dunyoga o'rladi.  
Jannatdan kelgan nur —  
Xosiyatli pokdomon, mehmon,  
Oq qanotlari, kirladi.

Qimirlagan qo'ng'izlar,  
Qo'rsillagan to'ng'izlar,  
Tilaging keldi — quvon, kul!  
...Erkinlik — ezgu farishta,  
Uchib ketmoqchi Arshga,  
Qanotin qoqqar, ana, bil!

## **BIROZ FETCHA**

Ipak tun —  
Bari mung.  
Sayragan,  
Yayragan  
Ikki yosh —  
Ikki mast.  
Yurak mast,  
Ko'zda yosh!  
Sutday Oy,  
Teran soy.  
Bulbul,  
Gul-gul.  
Ikki jon,  
Issiq qon.  
Jon betinch —  
O't o'pich!  
O'rmon  
Tinch bu on.  
Gullar  
Kular.

Shivir-  
Shivir.  
Qimir-  
Qimir.  
Tuman-  
Bug' —  
Erib  
Ketdi-ku!  
Har tomon —  
Endi tong!

## YEL

Yel — dim tentak bir bola,  
Jon sevgani — sar(iq) dala.  
Tinim bilmay yugurar.  
Labi yolg'ondan qimirlab,  
Sir aytgan bo'p shivirlab  
Goh ho'kizday o'kirar.

Yelga hech narsa teng kelmas,  
Tog' ham yo'lini bo'g'olmas,  
Qah-qah urib sayraydi.  
Yugruk yelim — shartaki,  
Kim yo'lin to'ssa toki,  
Naq betiga tuflaydi.

Mazasi yo'q yel erka,  
Uyg'onib olib dim erta,  
Yo'rg'alab-bosib ketadi.  
Tinch yotgan tush ko'rib,  
Ko'lni kashtalab, surib,  
Uni ovora etadi.

Qari o‘rmonni uyg‘otib,  
Bir nima deb, yupatib,  
Jilmayib kulib o‘tadi.  
Yurtdan o‘yin yashirib,  
Talpinib, o‘zi oshig‘ib,  
Qaraqat kuzga yetadi.

Dam olmasdan, oh urib,  
Xo‘rsinib og‘ir bosh urib:  
“Senga, suluv shu’laga,  
Keldim uchib, oshiqman,  
Bir o‘pmoqqa mushtoqman,  
Bo‘yning bur menday “bola”ga!” —

Deydi-da, suyub ko‘zidan,  
Sochidan, olma yuzidan  
Qo‘l yuborar gavgaga.  
Qanchalar baxtli bu jon,  
Yo Yaratgan, yo Rahmon,  
Yel emasman men nega?

### **TO‘LQINLAB-O‘YNAB...**

To‘lqinlab-o‘ynab, quturib,  
Ko‘pigin sochib, o‘kirib,  
Sapchib ko‘klarga sak(i)rib,  
Qora-ko‘k hayot daryosi,  
Shaqillab kulib, “kel!” — dedi,  
Kelgandim, nazar ilmadi,  
“Ne kerak?” — deb tergadi, —  
Sarparqaning sarbozi?”

Yosh polapon yuragim,  
Desa ham: topay keragim,  
Ko‘rib dengizning terangin,  
Qayg‘uga botdi qaltirab.

Oltin umid uzildi,  
Totli xayol buzildi.  
Ko'kka tikdim ko'zimni,  
Yulduzlardan yo'l so'rab.

Ko'kinda bir — qora-ko'k,  
Qirg'og'i yo'q, tubi yo'q,  
O'ynab turgan ko'zi ko'p,  
Ne deb javob beradi?  
Ko'k — bir daryo, qora-ko'k;  
Yulduzlardan javob yo'q,  
Ichda — olov, yurak — cho'g',  
Vo darig', jon o'ladi.

### SOAT

“Chiq-chiq” — deya chiqillar  
To'xtovsiz bu soat?  
Dunyalarni sal tinglanglar,  
Odam! Bir soat!

Sho'rlik inson tug'ilganda  
Shum dunyo bo'lgandi shod.  
Ko'z ochib turganida  
Bo'ldi ular endi yot.

“Chiq-chiq”laydi, qovoq solar,  
Eshikdan kirmasdan oq.  
Sho'rlik inson jo'nab qolar,  
Sal rohat ko'rmasdan oq.

Mana, u buyurmoqda,  
Senga deydi: “Chiq-chiq, chiq!..”  
Aytganin qil, “chiq” deganda,  
Odamzod, chiq, so'zni uq!



## YOZGI TUNDA

Suvday suluv qora ko‘z,  
Sevganiga bergan so‘z.  
Va‘dasini bajarmoq-chi,  
Atrof qorong‘i, afsus.

Uy ichi uxlar hamma,  
Singlisin o‘pdi, mana.  
Sirdosh qadrdonlardan  
Ajralmoq osonmas, ha!

Oldda oltindan baxt bor,  
Yo‘ldoshing — chin sevgan yor.  
Oyog‘ingni dadil bos,  
Xo‘rsinib turma, dildor!

Oyoqdan hol ketmoqda,  
Tashda yoring kutmoqda.  
Oq ko‘ylaging hilpirar,  
Hayallama, tezroq chiq,  
Vaqt o‘tmoqda, o‘tmoqda!

Chiqqanda qo‘rqib shoshganin  
Dirillab, tusing qochgani,  
Seni kutib yoring ham —  
Shudir — orani ochgani!

Minib yigit yugrugin,  
Tumorlab kokil-quyrug‘in,  
Ingir<sup>1</sup> kelib kutadi,  
Shartdan toymasin shu, Ering!

Yigitda armon qoldima?  
Oldi yorini oldiga,

---

<sup>1</sup> Ingir — qosh qoraygan paytdagi harir qorong‘ulikning g‘ubori.

“Chu-u!” deb chopib jo‘nadi  
Kaft qo‘yib suluv beliga.

Oq ko‘ylakning etagi,  
Ko‘tarilib ketadi.  
O‘rinsiz yerda o‘ynoqlar,  
Bu — yel-ku, hazilmi, netadi?

Yigit yorin kutadi,  
Qo‘ldan tizgin bo‘shadi.  
Ikkovi senga ishonar,  
Yugruk, surinma sen endi.

Yetsin yoshlar ovulga,  
Qolmasinlar yog‘inga.  
Oldda turibdi dovon, —  
Ot, otaqol endi, tong!

### KO‘KCHATOV

Osmon bilan tirashgan,  
Tangrim bilan tillashgan,  
Ko‘kcha tovim bip-biyik.  
Quyuyq qora ko‘k bulut,  
Yayrab, o‘ynab, qulf urib,  
Ko‘kchatovni turar suyub.

Ko‘kchatovning ko‘zi yosh,  
Har yon to‘kib ehtiros,  
Yaltiraydi ro‘yoday.  
Ignayam o‘tmas tik bo‘yi,  
O‘qdan ham tuzukdir o‘yi,  
O‘ralgandir Qarag‘ay.

Allaqayda biyikda,  
Pastga boqib — kiyikka,

Qon ko'zli qiron yur(ar).  
Men ham Musa bo'lardim,  
Ravo ko'rsa Xudoyim,  
Ko'kcha menga bo'lsa Tur<sup>1</sup>.

Quchaman, Musa oyog'in,  
O'lanim — ezgu tayog'im.  
Ko'kchaga men chiqaman.  
Boshim egib Arshga,  
Yugurib borib qarshiga,  
Tangrim amrini kutaman.

### TO'LQIN

To'lqindan to'lqin tug'ilar!  
To'lqin-la to'lqin quvilar,  
To'lqin to'lqin-la kurashar.  
O'jarlanib, gungranib,  
Bitmas bahsda ingranib,  
Birga jarlarga borishar.

To'lqin to'lqin-la sirlashib,  
Ko'plarning sirin o'g'irlashib,  
To'lqinga to'lqin erkalar.  
Marvarid ko'pikka o'ranib,  
Ilonday beli buralib,  
Jarga kelib bosh urar.

Erka boladay bildirlab,  
Shildir, shildir, shildirlab,  
To'lqinni to'lqin quvadi.  
Kumush kavsar suv bilan,  
Suvdagi oltin bug' bilan  
Yorining betin yuvadi.

---

<sup>1</sup> Musa alayhissalomning Tur tog'iga chiqib, Parvardigor bilan tillashuv voqeasiga ishora.

Mo'ldiratib ko'z yoshin,  
Yosh bilan yuvib jar toshin,  
Suyadi, shinq-shinq, kuladi.  
Yig'lagani — kulgani,  
Kulgani — uning o'lgani,  
Yig'lab-kulib o'ladi.

Shildir, shildir, shildirlab,  
Birining sirini biri o'g'irlab,  
To'liqinni to'liqin quvadi.  
Yoriga bol beradi,  
Beradi-da o'ladi,  
O'ladi to'liqin, tinadi.

## QAYIN

Qayg'uli qayin,  
Ayanchli joying,  
Shivirlaysan,  
Dirillaysan,  
Enkayasan,  
Gubirlaysan,  
Izg'irin yel  
So'qqan sayin.  
Uskirik ayoq  
Bo'lganday oz,  
Qor bosadi  
Kafanday oq.  
Suyakka o'tar  
Sovuq quchoq...  
Qachon, qiyin  
Keladi yoz?  
Suvga qonib,  
Yaproq yorib,  
Kun kelarmi

Chayqalsang soz?!  
Issiq yelda  
Tebransayding,  
Qush tovshiga  
Dil bersayding...  
Qayg'uli qayin!  
Qalin vahma  
Bosgan seni  
Yozni o'ylab...  
Turar sovuq  
Bo'ron o'ynab...  
Rahm qilsin endi  
Bir Xudoying!

### **BUGUNGI KUN UMR, O'LIM — MENIKI**

Boshi — sayron, shum dunyoning so'ngi — vayron,  
Odam umri — taqdir o'yini. Bil-da o'ylan.  
Asl yoshlik esgan yelday guvillaydi,  
Haliyoq ketar yurakdan o't, kuching — bo'ydan.

Ko'zning nuri ketib, atrof qorayar,  
Sumbul qora soch sildirab-quvarar,  
Et taralib, suyak qolib shovdirab,  
Tomirlarda sassig' sariq suv oqar.

Shum taqdirning emasmi bul mazog'i,  
Oz umrda esdan ketmas azobi.  
Yotlar tugul, yaqinlar ham bad ko'rib,  
O'z-o'zingga tilaysan-da qazoni!

Qilsin mazoq, mayli, taqdir o'ynasin,  
Yalmog'iz yer, mayli, yutsin-to'ymasin.  
Jonsiz sovuq ko'zin qadab quv o'lim,  
“Tez bo'!” deb kutib, tishlarini qayrasin.

Ne qilsa-da, ul o'limning o'z erki,  
Jinlantirar, meni suluv nur ko'rki.  
Quchay, ichay, yig'ay, yig'lat — yashayin,  
Bugungi kun umr, hayot — meniki!

### G'AZIZAGA

G'azizajon, qorachig'im, bovrurim,  
Yo'liqtirib dushmanning bir yovuzin.  
Sarg'ayaman qorong'i uyda qamalib,  
Og'ang sho'rlik ko'rdi mehnat og'irin.

A deganday achchiq qisib yonganman,  
Og'ir xayol bosib xafa bo'lganman.  
Ming mehnat-la uzun kunni o'tkazib,  
Kunda-kunda kutaverib tolganman.

Kunlar o'tdi, jonni ezdi avaxta,  
Qonim so'rdi shum yovuzlik qamoqda.  
Yelday zuvlab uchmoqchidi yosh yurak,  
Sho'rlik, qanot ko'tarolmay qolmoqda.

Jon bovrurim, qorachig'im, G'aziza!  
Qaldirg'ochim, kelding uchib, men — riza.  
Sho'rlik og'angni sog'inibsan, o'y labsan,  
Yig'larmiding yuragingga o'y sig'sa?

Seni ko'rib tepam ko'kka tekkanday,  
Iskab, bo'ldim manglayingdan suyganday.  
Tangrim yozsa, sarg'aymasman, chiqarman,  
Gunohim yo'q, hasrat bilan kuyganday.

Qalin, qora bulutlar arib boshimdan,  
Tangrim yozsa, o'ch olarman qasdimdan.  
Jon bovrurim, yig'lamagin bunchalar,  
Men sadaqa mo'ldiragan yoshingdan.

Ichda — olov ko'kragimda qayg'u zo'r,  
Ayamasdan umr zahar beradir.  
Seni ko'rish — ozodlik-la barobar,  
Erkatoyim, onda-sonda kelib tur.

Yo'liqtirib dushmanlar bir yovuzin,  
Og'ang sho'rlik ko'rdi mehnat og'irin.  
Tangridan sen erta-yu kech umr tila,  
Jon yuragim, qorachig'im, bovorim!

### QISHKI YO'LDA

Qorong'i tun, sar(iq) dala,  
Ko'rinmaydi aylana.  
Bo'ron yurar bo'ralab,  
Yo'l bosgandan boj so'rab.  
Ostimdagi jonivor,  
Qaychiquloq, u — abgor  
Zo'rg'a, bo'rt-bo'rt<sup>1</sup> yeladi.

Izg'irin yel g'azabkor,  
Nafas burqsitib takror,  
Ichini tortib, o'shqirib,  
Hushtak chalib, baqirib,  
Ovday ulib bir zamon,  
Shapaloqlab sonni  
Goh qah-qaha uradi.

Goho esa bayovlab<sup>2</sup>,  
Yerda yurar yayovlab,  
Og'zi-boshi qimirlar,  
Oshib-sasib shivirlar.

---

<sup>1</sup> **Bo'rt-bo'rt** — zo'rg'atdan, yoqar-yoqmas degan ma'noda.

<sup>2</sup> **Bayovlamoq** — bu yerda: sekinlashmoq.

Yerni yopgan kafanni  
Suygan bo'lib, quchoqlab,  
Afsun o'qib turadi.

Goh zo'rayar bul bo'ron,  
Yonimda yo'q tirik jon,  
To'nglab kelmoqda tana  
Adashmadimmi menam?  
Qo'rqib yurak o'ynaydi.  
Ko'z oldimga elaslab  
Allanelar keladi.

Bo'ronin tangri ochmadi,  
Yo'l bilinmay boshladi.  
Ko'ringan bir yorug' yo'q,  
Yuvosh tortsa edi ko'k...  
Sar(iq) dalada yo adashib,  
Sovuq kafanga shoshib,  
Kirarman, kim biladi?

## YOZGI YO'LDA

Dala. Dala. Sar(iq) dala.  
Yovon-tuzga bir qara.  
Kelyapman yolg'iz, yayov.  
Yonimda bir yo'ldosh yo'q,  
To'rt yoq dala — yer va ko'k,  
Yig'lab yuborarman-ov.

Chilla. O'tday issiq kun,  
Dala — o'lik. Yo'q bir un.  
Yer yotibdi, ko'k — bo'g'iq.  
Yo'l ilonday egrilgan,  
Chang erinib uyirilgan,  
Biron nafas yo'q. Dimiq.



Ko'kda parcha bulut yo'q,  
Ko'kning tusi — qizg'ilt-ko'k.  
Dunyoni tilsim biylagan.  
Inraganday allakim,  
Jinmi yig'lar yoki, kim?  
Parilarmi kuylagan?

Cho'zilib uzlab bel<sup>1</sup> yotar,  
To'shini kerib ko'l yotar,  
Bari tinch, totli tush ko'rib.  
Suv — ko'zguga qaranib,  
Salqin nafasda taranib,  
Qamish turar tebranib.

To'lqin-la to'ldi to'rt taraf,  
Anovi ne? Nahot bu sarob?  
Yo ko'lmi, ko'chgan shaharmi?  
Muzday ko'k temir kiyinib,  
Nayzasi ko'kka teginib,  
Askarlar yovga choparmi?

Oq bulut yuvosh ko'lga o'xshab,  
Gungranadi yer suvsab,  
Olisda, ana, Kun kular.  
Qizil yuzli gullarni,  
Buranglagan bellarni  
Sevaman deb kuydirar.

Atrof — o'lik sukunat,  
Yovon-tuzda men faqat.  
Parisi nega kelmaydi?  
Oq tanasi yalang'och,  
Ko'kish ko'zli, sari(q) soch,  
Nega ochilib kulmaydi.

---

<sup>1</sup> Bel — dovon, tog'ning tepasi.

Qiqir-qiqir qilganday,  
Shitir-shitir yurganday,  
Ammo ko‘rinmas, daydi.  
Ipakday yetmish o‘ralib,  
Ilonday yuzga buralib,  
Betimdan nega suymaydi?

Yo‘l ilonday egrilgan,  
Chang erinib uyirilgan,  
Havo dimiq, yo‘q nafas,  
Bu holda es yig‘olmay,  
Ko‘zning yoshin tiyolmay,  
O‘lib qolish hech gapmas.

## BAHOR

“Bo‘ldi mana naq olti oy,  
Yotding uxlab sen, erkatoy.  
Uyqung qondi endi qo‘zim,  
Och ko‘zingni, ey yulduzim!” —  
Deb manglaydan shirin-shirin  
Yumshoq, iliq shu‘la bilan  
Silab yerni, kun kular.

Oyoqlarin teng tashlab,  
Goh erkalab, goh esnab,  
Yer — norasta, yosh bola,  
Endi uyg‘onib yotganda,  
Yumshoq, issiq betidan  
Totligina suyay deb  
Qimirlab iliq yel yurar.

Nafas olmay yig‘lar qor,  
Oq chimildiq ochilar.  
Qiqir-qiqir kulganча,  
Allane deb shildirab,

Ko‘ringandan suyunchi  
Olayin deb birinchi  
Shoshilib suv yugurar.

Kerilib erka yer turar,  
Zilol suvga yuvinar.  
O‘ranib sunbullarga,  
Ming bir tusli gullarga  
Qaraganda ko‘z to‘ymas,  
Ko‘z ham qarashni qo‘ymas,  
Yer — guldand rang kiyinar.

Ko‘rib suluv bolasin,  
Ko‘z ichida qorasin,  
Quvonib, toshib yuragi,  
Qisib, issiq suyadi.  
Uzun kunlar aylanib,  
Farishtam deb o‘ylanib,  
Oltin ona Kun turar.

Buni ko‘rib bulutlar  
Ko‘zida yosh yuritar:  
“Bizlarda oltin ona yo‘q,  
Qisib suyar bola yo‘q,  
Hatto turar joy yo‘q!” — deb  
Bo‘zarishib, xo‘rsinib,  
Tinmasdan ko‘z yosh to‘kar.

## YOZ KELADI

Yel charchadi, hol yig‘ib,  
Qalqib-qalqib tebranar.  
Yumshoq, shirin iljayib,  
Ipakqanot yoz kelar.

Ko'k oltinga ko'milgan,  
Havoga oltin sepilgan.  
Oltin emas sochilgan,  
Yozning sochi to'kilgan.

Ana, erka yoz kelar,  
Bolalar, hov, qaranglar.  
O'ynab oltin kokilin,  
Ol, bolalar, taranglar.

Qayg'ulansin, xo'rsinsin,  
Qor umrin yakun qilar.  
Erkatoy yoz bir kulsa,  
Kulmay, chidab kim turar?

Suluv yozning nafasi  
Qor tugul, muzin eritar.  
Ko'l va o'zan, dengizni  
O'ynatar-u, "yeb" ketar.

Qizgina, tashla kashtangni,  
Uyda o'tirib qolma.  
Tashga kirib-chiqqanda  
Yonoqlaring — naqsh olma!

Ujmoh nurli yoz kelar,  
Oltin yuzli, tilla soch.  
Yog'ochlar tebranadi,  
Hamma xursand, qari-yosh!

Kun botganda, qatqoq bo'p,  
Maysa yopinar izlar.  
"Yoz kelmoqda, she'r yoz!" — deb,  
Qosh qoqadi yulduzlar.

Oltin shu'la sochilib,  
Yel mavj urar, tebranar,  
Yuzi nurdan ochilib,  
Ipakqanot yoz kelar!

## ... NING ALBOMIGA

O'tadi umr —  
Yurakka cher boylandi.  
O'tadi umr —  
Yurak ko'mirga aylandi.

O'tadi umr.  
Tugaydi ko'p. Yurak — kul.  
Kuysiz jirov.  
Tegib qirov — so'lar gul.

Bulbul gulsiz,  
Unsiz bulbul — oddiy Qush.  
Oysiz, kunsiz,  
“Gul”siz, unsiz — uchar hush.  
Bo'ta ko'zlim,  
Ipak so'zlim arshga  
Ketdi uchib,  
Zarni quchib, olisga.

Keldim yolg'iz,  
Tirik jonsiz, gungrandim.  
G'am ichida  
To'lg'anaman qolib jim.  
Do'stim yiroq,  
So'ndi chiroq. So'naman.  
So'nadi Oy,  
Men chidamay, o'laman.

Botadi Oy,  
Botadi Oy, men botdim.  
Kirsiz oyim,  
Erkatoyim, oh, bitdim.  
Hayot — sarob,  
Sen ham ro'yo, sarob — quv.

Sarob suv-la,  
Oltin bug'-la jonni yuv!

Hayot — dala,  
Sen bir bola, sayron et.  
Gullar yig'ib,  
Shu'la suyib, o'ynab o't.  
Qirga chiqsang,  
Tilin uqsang — yel yig'lar.  
Yer yig'lamas,  
Yel yig'lamas, el yig'lar.

Kuni botib,  
Qayg'u bitib, el yig'lar.  
Erka bola,  
Sen ham yig'la chekib zor.  
Yo'q, yig'lama,  
G'amga botma, kul, Kunim!  
G'ami nima? —  
Buni bilma, sen, gulim!..  
Men ham yoman,  
Men ham mastman, yelaman.  
O'tdi umr,  
Yurak — ko'mir. O'laman...

### ALDAMCHI UMR

Aldamchi umr faqatgina uv boradi,  
Umr chirkin shamday yonib, so'ng so'nadi.  
Qora qayg'u qalinladi bugun juda,  
Mo'lt-mo'lt etib ko'zlarimga yosh keladi.

Umr chirkin shamday yonib, bir so'nadi,  
Oltin umid zang tortadi va o'ladi.  
Kechagi kun — qo'ynimdagi shum xayoldir,  
Bugun mendan olis ketdi-yu, kuladi.

Umr chirkin burqsib oxir, bir so'nadi,  
Umid chirkin zang tortadi va so'nadi.  
Umid o'lsa, men ham endi o'lajakman,  
Buni so'qqi yegan sho'rlik qalb biladi.

Umr, chirkin, ko'z oldimda, so'ng so'nadi,  
Xayol — olis, mazax qilib u kuladi.  
Umr so'nsa, umid so'nsa — ne qoldi, oh,  
Mo'lt-mo'lt etib ko'zlariga yosh keladi...

### MENI HAM, O'LIM, ALLALA

Charchadim endi, kuch bitdi,  
Ko'ngilsiz, salqin kun bulutli,  
Yel bo'g'ilib, tebranar.  
Allakimlarning o'lganin,  
Uni qanday ko'mganin  
Hamgoma qilib gungranar  
Yel, gungranma, yoshing tiy,  
O'lim kuyi — totli kuy,  
Balqidi jonim bu kuyga,  
Meni ham, o'lim, allala,  
Allala, o'lim, allala!..

Qora o'rmonning chetida,  
Olovli yelning o'tida  
Yolg'iz o'sgan bir daraxt.  
Bilq-shilq etib biylagan,  
Shildir-shildir kuylagan  
Bo'lsin unda qandoq dard?!

Ul yosh qayin qulabdi, —  
Yonida yel yig'labdi,  
Balqidi jonim bu kuyga,  
Meni ham, o'lim, allala,  
Allala, o'lim, allala.

Qo'liga ola tug' olib,  
Qilichin qonga sug'orib,  
Tog' suviday toshigan.  
Qoraqat ko'zin qon yuvib,  
Qovog'idan qor yog'ib,  
O'yin solgan yosh o'g'lon.  
Maydonda o'g'lon qaytibdi<sup>1</sup>,  
Imonin yel aytibdi,  
Balqiydi jonim bu kuyga,  
Meni ham, o'lim, allala,  
Allala, o'lim, allala!

Allaqayda botqoq-cho'l,  
Botqoq-cho'lda yolg'iz yo'l,  
Shu yo'l bilan yolg'iz jon  
Tun bo'yi tolmay yuribdi,  
Tovoning toshlar tilibdi,  
Kelganda otib oltin tong  
Sho'rlik cho'lda o'libdi.  
Yel qum bilan ko'mibdi.  
Balqidi jonim bu kuyga,  
Meni ham, o'lim, allala...  
Allala, o'lim, allala!..

Betidan olma qon tomgan,  
Tilidan totli bol tomgan,  
Bo'yra to'lqin sochi bor.  
Kulgisi — marvarid, sochilgan,  
O'zi-gul, yangi ochilgan,  
Naq o'n beshda yoshi bor.  
Suluv ko'p yosh to'kibdi,  
Yoshga bo'g'ilib o'libdi,  
Balqidi jonim bu kuyga,  
Meni ham, o'lim, allala,  
Allala, o'lim, allala!

---

<sup>1</sup> **Qaytibdi** — qaytish qilibdi, dunyodan o'tibdi, degan ma'noda.



Talpingan go‘dak — navrasta,  
Oq qanotli farishta,  
Buldirlagan buloqday.  
Ko‘rgan har jonni kuldigan,  
Yangi pishgan, kuydirgan,  
Maysaday, nozik quroqday,  
Qaytibdi qo‘zi ko‘z tegib,  
Betidan goho yel suyib...  
Balqiydi jonim bu kuyga,  
Meni ham, o‘lim, allala...  
Allala, o‘lim, allala!..

Olisda dengiz haybatli,  
Ko‘pigi marvarid haydabdi,  
Shu dengizning ostida  
Bor ekan oltmish oq o‘tov,  
Oltin uviq, ipak bo‘v,  
Bari o‘n olti yoshinda,  
Har o‘tovda — to‘lqinsoch,  
To‘lqin sochlar yalong‘och...  
Balqiydi jonim bu kuyga,  
Meni ham, o‘lim, allala,  
Allala, o‘lim, allala!

Yangi bitgan ko‘k maysa,  
Mehring qondirar suysang,  
Dengiz bo‘yiga tushibdi.  
O‘tovlarni oralab,  
Yosh yuragin yaralab,  
Suluvlarni quchibdi.  
Quchibdi-da, o‘libdi,  
Yel to‘lqindan bilibdi...  
Balqiydi jonim bu kuyga,  
Meni ham, o‘lim, allala,  
Allala, o‘lim, allala!

Maysa oralab, boshlashib,  
Suluv-la qo‘l ushlab,  
Yosh o‘g‘lon bilan yo‘ldosh bo‘p,  
Yosh niholni qo‘lga olib,  
Bolani suyub bir qonib,  
Yo‘lovchi bilan yo‘ldosh bo‘p,  
Men ham tezroq o‘layin,  
Hali yoshman-ku, demayin,  
Balqidi jonim bu kuyga,  
Meni ham, o‘lim, allala,  
Allala, o‘lim, allala!

Betimdan totli bir suyib,  
Oldingga olgin allalab,  
Kel-chi, o‘lim, kel, tezroq.  
Jon uchishdan to‘xtadi,  
Uxladi, ana, uxladi,  
Yurak ham to‘xtar hoziroq.  
Betimdan totli bir suyib,  
Oldingga ol-chi, allalab...  
Balqidi jonim bu kuyga...  
Meni ham, o‘lim, allala...  
Allala, o‘lim, allala!

BU — SHUNCHAKI  
O'YIN-KU

(siyosatimiz)

1

Hayt, huyt! Ha-ha-hov!  
Peterbor, Moskov!  
Ivanov oqsoqol,  
Mana senga, bu Shimol!  
Hay, kerak edi-yov,  
Hay, kerak!  
Aroq ichding, oshingga  
Moy kerak!  
To'ralarga em kerak,  
O'qiganga chin<sup>1</sup> kerak.

2

Mart, aprel, may,  
Yo'rtaver, voy-voy!  
Gubir-dupir,  
Gubernator — bizning boy.  
Kerenski Sasha,  
Yasha, Sasha, yasha!  
Vsya Rossiya nasha!

3

Tolstov, Kolchak,  
Davay syuda konyak,  
Oy, Ivan, olomon,  
Meni otma, ataman!

---

<sup>1</sup> **Chin** (*rus.*) — amal, unvon.

O'raldi, botir o'rladi,  
Yog'och nayza sermadi...  
Qarshi ildinda qaqqaygan  
Nikolayni ko'rmadi...

Siyosat — yog'och ot,  
Mindi esar<sup>1</sup> — kimda ketar.  
“Chu, — deydi shovvoz, —  
chu!” — deydi.

Chu degandan guvladi,  
Tovoni toshga tegmadi.  
Ona yurtini biyladi,  
Boshqa narsani bilmadi.

“Qizil og'iz — men”, — deydi,  
“Qozog'im, qasdim — sen!” —  
deydi.

Chuvladi qozoq chirqirab.  
“Botir” boradi tirqirab,  
Og'zidan ko'pik burqirab...  
Imonin aytgin, mullaka,  
Bormoqda u qo'rqirab...

### SARSEMBOYNING QO'SHIG'I

Do'mbiram boshi bol quray,  
Boshiga qo'nar bo'z to'rg'ay.  
Qalampirli nosvoy.  
Shu nosvoydan otmasam,  
Og'riydi mening boshim-ay!  
Do'mbiram mening ikki ichak,  
Gungrayar menda yurak,

---

<sup>1</sup> Esar — tentak, esi kirib-chiqib turgan odam.

Men ham birga gungranay,  
Ko'zga yosh kelsa ko'prak!  
Oh, ol bordi, ol bordi!  
Sarsembeyda zor bordir!  
Zo'rdan boshqa ne bo'lsin,  
Chiqmagan faqat jon qoldi.  
Oq muyizli oq qo'chqor,  
Katta podani bo'ri oldi,  
Chirqiragan jonivor,  
Yilqilarimni o'g'ri oldi.  
O'g'ri olmadi, tun oldi,  
Tun olmadi, jin oldi.  
Yayov qoldim haytovur,  
Bilolmadim — kim oldi?!  
Do'mbiramning qulog'in,  
Bo'shroqqina buradim.  
Yilqilarimni kim ko'rsa,  
O'rkani o'ssin<sup>1</sup>, chirog'im!  
Do'mbiram mening qarag'ay,  
Nimalar qilding, zamon-ay?!  
Yot bovor qilib sen meni,  
Ketganing shumi qaramay?  
Do'mbiram mening zorlaydi,  
Zorlamaydi, qarg'aydi.  
Men ham birga zorlayman,  
Ko'zimdan yosh porlaydi.  
Do'mbiram boshi bol quray,  
Qalampirli nosvoy.  
Bu nosvoyni otgandan  
Yozilar mening boshim-ay!  
Yozilsa ham bosh chirkin,  
Tiyilmaydi yoshim-ay!..

---

<sup>1</sup> O'rkani o'ssin — avlodning ko'paysin, degan ma'noda.

## AJE<sup>1</sup>

Shig'raygan<sup>2</sup> ko'zi ko'rinmas  
To'da-to'da bilchiqdan.  
O'tirsa bo'yi oshmaydi,  
Qo'lidagi urchiqdan.  
Oldidagi go'janing  
Ko'rinmas beti qilchiqdan.  
Go'jasin totmay ajening  
Kimsa bo'lmas quruq chiqqan.  
Go'jani aytma, kengashin  
Tinglamay uydan kim chiqqan  
Senlar ham tinglang, bolalar,  
Tiyilib gapdan, tirsiqudan

Ertak boshlasa, urchig'in  
Unutib ajeng ketadi.  
Yerda yotgan junni olib,  
Qayta-qayta titadi.  
Suv sepganday sop bo'lib  
To'xtaydi shunda yo'tali.  
Bilchiqdan ko'zi yiltirab,  
Naq orqangdan o'tadi.  
Ol, kirishsa ertakka  
Boshi qalt-qalt etadi.  
"Bir bor ekan... bir yo'g' ekan..."  
Og'zi balp-balp etadi.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan,  
Tinglang endi, chiroqlar!  
Sur merganda bor ekan  
Sulikday bedov, sur otlar...  
Qo'ya qo'ydi Kenjatoy  
Qo'liga kelganday G'irotlar.

<sup>1</sup> Aje — buvi.

<sup>2</sup> Chig'raymoq — ko'zni qisib qaramoq.

Ertak tinglaydi tentak!,  
Olma betlar albirab.  
Og'zini ochib anqayib,  
So'lakayi shalvirab.  
Birovlar qalg'ib boradi,  
Birovi o'tirar mo'ltirab...

## YILQICHI

Bo'ron bo'riday uliydi,  
Ko'ppak misoli huriydi.  
Ne bo'lgan bu yanvarga?  
Omonmi ekan yilqichi?  
Omonmi ekan yilqisi?  
Bularni bilar jon borma?

Tutunni yerga tiquvchi,  
Tupukdan tugma taquvchi,  
Mana, ayoz chatnagan.  
Xabar bormi — hol qalay?  
Moldagi yolg'iz jon qalay,  
Odam bormi qatnagan?

Bo'ron, mana, qobonday,  
Harsillaydi chopolmay:  
Tubi bu ish xayr bo'lsa,  
Ayozi hamon yer tilar ekan.  
Ucha olmay qush o'lar,  
Yilqichi qay holda ekan?

Bir buta yo'q — oydala,  
Oppoq kafan aynala:  
Qaltiyib qo'sh turarmi?  
Qurut, go'jan simirib,

Tumqoni kiyib jimirib,  
Qashqir kulfatda yurarmi?  
O'ynoqlagan G'irotday,  
Chatoq solgan uloqday,  
O'rg'isa ayoz o'kirib,  
Qo'zg'ab qo'yib orqani,  
Ermak qilib maltani<sup>1</sup>  
Turarmi chirt-chirt tupirib.

Yoki bo'roni dalaning,  
Qabrchasi kabi bolaning  
Qo'shni bosib yiqdimi?  
Hayhot, qashqir-yilqichi,  
Oqib ketib yilqisi,  
Buyam qo'shilib oqdimi?

Do'li<sup>2</sup> pari, jin bo'ron,  
Sumanglagan<sup>3</sup> shum bo'ron,  
Quloq-burnini urganmi?  
Kuchi tashlab ketganmi?  
Umid-la tongga yetganmi?  
Topganmi g'arib o'rnini?  
Yengdimi, dunyo, tilsiz yov,  
Oldida bir soy bor edi-yov,  
Shu soydan omon o'tdimi?  
Yoki, qulab biror dam,  
Xo-xolab kulib bo'ron ham,  
Boshi uzra yurib ketdim?

Hallos urib, shishinib,  
Esi ketib, yiqilib,  
Asl er hushsiz o'libmi?

---

<sup>1</sup> **Malta** — qurutning erimay turgan holati.

<sup>2</sup> **Do'li** — o'jar, qaysar.

<sup>3</sup> **Sumanglamoq** — kuni bilan tentiramoq, daydimoq.



Erlar shundoq o'lganin,  
Qorning qandoq ko'mganin  
Biror-yarim ko'ribmi?

Manov bo'ron qobonday,  
Qatuvlandi qopolmay,  
Tubi xayrli bo'lsa ekan.  
O'lsa — boshida sayg'oq yo'q,  
O'limiga ayg'oq<sup>1</sup> yo'q,  
Yilqichi sho'rlik qayda ekan?..

## QO'NG'IR KUY

### 1

Tizilgan to'lqin — marvarid,  
To'lg'onib o'qi, tebratar.  
Gungrantar o'y bilan, kim bilar,  
Tizilgan to'lqin — marvarid.  
O'qiy olsang kungranib,  
O'yingning bo'yin tebratar.  
Tizilgan to'lqin — marvarid,  
To'lg'onib o'qi — tebratar.

### 2

## ONA VA BOLA

Bo'bakning oppoq bilagin,  
Onasi so'rib suyadi.  
Ko'mib yerga tilagin,  
Qarg'ab tolgan bilagin,  
Tayanch qilib kuragin,  
Bolasi o'y-la kuyadi...  
Bo'bakning oppoq bilagin  
Onasi so'rib suyadi...

---

<sup>1</sup> Ayg'oq — dalil, guvoh.

## UMR

Umr — tulki, sen — to‘bet<sup>1</sup>  
 Arsalanglab<sup>2</sup> kelasan.  
 Taqimla, tez do‘ngalat,  
 Umr — tulki, sen — tubet,  
 Orqangdan poylab kim kelar,  
 Tulkingni shunga berasan...  
 Umr — tulki, sen — tubet,  
 Arsalanglab kelasan.

## 4

Tog‘da tunda un bergan  
 Tangrimi yoki boyqushmi?  
 Unni eshitib jonim kungrandi,  
 Tog‘da tunda un bergan  
 Tangri bo‘lsang, kel beri,  
 Qo‘limni ko‘kka yoydirma!  
 Tog‘da tunda un bergan  
 Tongrami yoki boyqushmi?

## 5

“KELAJAK”, “KECHA”,  
 “BUGUN”

“Kelajak” bilan “kecha” — aniq,  
 “Bugun” — degan bir bug‘-ku.  
 Bulut bosgan betin nurlanib,  
 “Kelajak” degan kun aniq.

<sup>1</sup> To‘bet — ko‘ppak, it.

<sup>2</sup> Arsalanglash — hars-hars ovoz chiqarish.

O'tgan kecha o'g'irlanib,  
Esdan chiqmas bu uv<sup>1</sup>-ku.  
"Kelajak" bilan "kecha" — aniq  
"Bugun" degani bir bug'-ku.

## OSHIQ O'YINI

Sinayin bu soqqani,  
Egirayin qurg'irga.  
Ayttirganda qalqani<sup>2</sup>,  
To'ldimikan o'n yilga?  
Olchi tushsang — bo'lganing,  
Tayke tushsang tavakkal,  
Buge tushsang — quriganing,  
Shige tushsang — urganing<sup>3</sup>  
Men hayronman, yo ollo-ay,  
O'sib qopti, yo pirim-ay,  
Ay, qiz degan kofir-ay!  
Men-chi, boyagi qalpim-da.  
Olsam bu yil, kurke<sup>4</sup> ovloq,  
Yotar edik ikkimiz,  
Bir ayoq qatiq tashlaboq.  
Qo'yga ketsam men kunduz,  
Qo'y haydasam, kun og'a.  
Irg'ala bosib, ingranib,  
Xotinim chiqsa qo'y sog'a.  
Susinga qo'ysa qimron qip,  
Kurkega borsam, joylanib.  
"Ay, xotin, beri kel!" — desam,  
Bir nimalarga aylanib,  
U kechikib, kelmasa.

---

<sup>1</sup> Uv — zahar, og'u.

<sup>2</sup> Qalqa — erkalab aytilgan so'z.

<sup>3</sup> Olchi, tayke, buge, shige tushish — oshiqning o'yinining terminlari.

<sup>4</sup> Kurke — chayla.

Qayta chiqib kurkedan,  
Xotinga borsam tishlanib...  
O'tirgan yerda yelkadan  
Tepib-tepib qolsam kep.  
U ko'ziga yosh olib,  
"Odira qol<sup>1</sup>", — desa, — odira qol!  
Ol, oshiqni payqaylik,  
Ne der ekan bizning fol?  
Olchi tushsa — alaqay!<sup>2</sup>  
"Tush! deganda, tush, qurg'ir!"  
Qirqa kelgan "bolakay",  
Tayke tushdi-ov!Tavakkal!..

### QIRG'IZ, QOZOQQA

(*"Qo'shchi" uyushmasi guruhi haqida*)

Arxar bilan quljaday  
Qo'yinlashgan azaldan.  
Ikki tentak<sup>3</sup> tatalash.  
So'yillashgan ikki eldan.  
Tun zamonni to'nkargan,  
To'fon-zamon ne kutar?

Qirg'iz — tog'ning tarpongi,  
Qozoq — qirning quloni.  
Ikkoviga to'fonning  
Tortgan manov o'roni:  
Ikki tarlon topishib,  
Churqilashar<sup>4</sup> deb kutar.

<sup>1</sup> "Odira qol" — qarg'ish. "Urug'i yo'qolsin", "nomi o'chsin", degan ma'nolarda.

<sup>2</sup> Alaqay — oshig'i olchi tushgan odamning quvonchli hayqirig'i.

<sup>3</sup> Tentak — bu yerda: o'yinqaroq bolalar, degan ma'noda.

<sup>4</sup> Churqirashmoq — tulporlarning ovozi.

Olatov, Orqa kungrangan,  
Kuni kecha zoringdan.  
Senlarni shundoq to'rlatgan,  
Alvatidan arilgan.

Bugungi to'ng'ich to'yingga  
To'y ulashgay deb kutar.  
Endi oldim ochiq deb,  
Ilgari bosgay deb kutar.

El bilan qator tenglikdan  
Umidla bo'lgay deb kutar.  
Uyushmangiz shu yo'lda  
Uytqi bo'lgay deb kutar.

So'qqi yegan yetim el,  
Qadrli bo'lar deb kutar.  
Shul sabab qizil yolinday,  
Yalovli bo'lgay deb kutar.

## QIZIL YALOV

— Yolimli yalov kimniki?  
— Turog'i targ'il tosh qoya,  
Arbanglagan Osiyo, —  
Yolinday yalov shuniki, —  
Demakki, qozoq, seniki!

— Qizil cho'g' yalov kimniki?  
— Kimda-kim "Tangrim — o't" desa,  
Boshqa bir tangrim yo'q, desa,  
Qizil cho'g' yalov shuniki,  
Demakki, qozoq, seniki!

— Qizil cho'g' yalov kimniki?  
— Kimda-kim tinmay qon yutsa,

Qon yutib yurib, chang yutsa,  
Qizil qon yalov shuniki,  
Demakki, qozoq, seniki!

— Qonli yosh yalov kimniki?  
— Kimning o‘g‘li qul bo‘lsa,  
Tulumlisi tul bo‘lsa,  
Qon yosh yalov shuniki,  
Demakki, qozoq, seniki!

— O‘rtangan yalov kimniki?  
— Kim o‘rtangan, gullamay,  
Kim talangan, kim gadoy,  
O‘rtangan yalov shuniki,  
Demakki, qozoq, seniki!

— Ozodlik yalov kimniki?  
— Ko‘ra olmasa kim tenglik,  
Tepki ko‘rsa kim kamlik,  
Ozodlik yalov shuniki,  
Demakki, qozoq, seniki!

## NEVARA VA BUVISI

— Ayting, buvi, ko‘k degan ne?  
Sariq-malla, ko‘klaganmi?  
Yulduzlar ko‘zin qisganda,  
Oy — oynasi: “Tek!”<sup>1</sup> — deganmi!  
Bulutlar bo‘rta echkiday bo‘p,  
Tizildilar ko‘k ko‘genga.  
Ko‘kda borar qator-qator,  
Kim bo‘shatib “cho‘k!” deganmi?

---

<sup>1</sup> Qo‘y, ishing bo‘lmasin, degan ma‘noda.

— Qo‘y, qulunim, kim ham bilar,  
Maktabga bor, mulla aytar!  
— Buvi, bizning Ulug‘bek deydi:  
Yer — sakrong‘ich bir to‘p emish,  
Tag‘in olisda dengiz bormish.

Dengizning-chi, tubi yo‘qmish,  
Cho‘l degan bir yer bor, deydi,  
Bori — qizil cho‘g‘day emish.  
Ayting, buvi, rostmi shu gap?  
Nima deysiz, qani, shunga?

— Men bilmayman, men bir nodon  
Ertang so‘rab ko‘r mulladan!

— Ayting, ayting, ayting, buvi?  
Sovuqmikan dengiz suvi?  
Olisdagi anov tog‘lar,  
Boshi ko‘kka tekkanmikan?  
Chopib yurgan anov yugruk —  
Kiyikmikan, quyonmikan?  
Ayiq degani bizning manov  
Ko‘k buqadan ulkanmikan?

— Qo‘y dedim-ku, qo‘yg‘il, bolam,  
Men bularni qaydan bilam?  
Bilging kelsa, o‘qi kitob, —  
Aytar barin maktab! Maktab!

## OL, ICHINGLAR, BUL QIMIZ

Ol. Ichinglar,  
Bul — qimiz.  
Bul qimizning nargi otasin so‘rasang,  
Daladagi quliq<sup>1</sup> biyaning suti edi,  
To‘msargan<sup>2</sup> er qozoqning oshi edi.  
Bul qimizni kim ichsin?  
Bul qimizni  
Oyli kuni aylangan,  
Bulutli kuni to‘lg‘angan,  
Qurug‘in<sup>3</sup> quv nayzaday tayangan  
To‘msargan er qozoqning o‘zi ichsin!

---

<sup>1</sup> **Quliq** — birinchi marta tuqqan ona biya.

<sup>2</sup> **To‘msargan** — xo‘mraygan.

<sup>3</sup> **Qurug‘in** — ot bo‘yniga tashlanadigan ipli dasta.



## YUSUFXON

*(Ertak-poema)*

Bor ekan-u, yo‘q ekan,  
Och ekan-u, to‘q ekan,  
Boshladim shu ertakni, —  
Ola qarg‘a — azonchi,  
Qora qarg‘a — qozonchi,  
Chumchuq tergan cho‘pchakni.

Qaldirg‘ochlar qalbanglab,  
Yapaloqlar yalmanglab,  
Ko‘rsatibdi ko‘magin.  
Qushlarning bari xor-u zor,  
Bo‘libdi battar abgor,  
Men bilmayman sababin.

So‘z bul emas, so‘z — keyin,  
Bul so‘zlarim anchayin,  
Charchaganda tanaffus.  
Bul — tulkicha bir yurish,  
Dastlabki yurish-turish,  
Bo‘lgandan so‘ng yo‘l olis.

Takror aytay: bu she‘rda  
Aytmoqchimasman senlarga  
Qushlar nima qilganin.  
Bu shunchaki qo‘mdanib,  
Tayyorlanib, do‘mbira olib,  
Tomog‘imni qirg‘anim.

Ha, tomoqni qiraylik,  
Bo‘rkni yerga uraylik,

Kirishaylik kengashga.  
Mana, kengash g'aroyib,  
Yer yuzida ajoyib  
Talay yer bor emasmi?

Janub yoqda, olisda,  
Hindistonga borishda  
Eron degan bir yer bor.  
Yer bo'lganda — erka yer,  
Yerning quti serka yer,  
Nima keraging — bor, tayyor!

Quyosh yerga nur sochgan,  
Yeri gulga dur sochgan,  
Har gul — atrofi bulbul!  
Ostida gullar yayragan,  
Ustida bulbul sayragan,  
Tingla, yayra, o'yna, kul.

Bol buloqli tog'i bor,  
Bo'yra-bo'lak bog'i bor,  
Bog'lar — to'la mevasi,  
Bir mevasi yoqutday,  
Bir mevasi aqiqday,  
Shirin-shakar hammasi.

Bir tomoni qonday bo'p,  
Bir tomon oq tongday bo'p,  
Uyulib yotar olmasi.  
Baridan ham bul ajab —  
Barmog'ingni qo'shib yeb  
Qo'ygudayin holvasi!

Qo'y tuyoqday — tugmaday,  
Eli yeydi uymalay,  
Shirin-shirin shaftoli.

Yana, bu elda ipak ko'p,  
Yurar yasanib, kiyib,  
Yayrab vujud, qaptali.

Eron yurti farovon,  
Meva, bulbul, gul, bo'ston,  
To'rt tuligi soy bo'tli.  
Soy bo'lgandan ne foyda,  
Xalqning ko'pi och-gado  
Bir hovuchgina boy bo'pti.

Xalq nodon bo'lsa — odat shul —  
Bir hovuch boyga minglab qul  
Ta'zimda xizmat qilmasmi?  
Zerikkan boylar qul haydab,  
Shelikkan boylar xon saylab,  
Hangoma-do'kon qurmasmi?

Mana shu yurtda qut bo'lgan,  
Boylargagina baxt qo'ngan, —  
Xoni bor ekan — Abbosxon!  
Umrini taxtda yashagan,  
Zo'rman deb nazar tashlagan,  
Xulqi buzuv, qoqboshxon!

El-yurtiga qaramas,  
Qilar ishi — uyqu, bas,  
Oltin saroy ichida.  
Qizlarni yig'ib kelib,  
Ishrat qilib, kayf surib,  
O'tirar o'ng-tushida.

Pisand qilmas o'zgani,  
Tojga taqib-tizgani,  
Gavhar — kunning ko'ziday...  
Haromtomoq Abbosxon

Ezgu ishga bermas yon,  
Vazirlari — o‘ziday.

Shum, muttaham vazirlar,  
Xonga keragin hozirlar,  
Chopib, yanchib, el talab.  
Fuqaro nochor, bunchayib,  
Qamchi yeb, qochib, angrayib  
Qul bo‘lib yurar yo‘rg‘alab.

Kun izidan kun ketar,  
Hafta o‘tar, oy o‘tar,  
Yil ketidan yil bosib.  
Kunlardan bir kun xon Abbos,  
Sharob ichib, chala mast,  
O‘zi-o‘zila sirlashib,

O‘tirgandi saroyda,  
Tirik jon yo‘q manglayda.  
Kirib keldi, bosh vazir.  
To‘rvasoqol, shopmo‘ylov,  
So‘zini boshlab darrov,  
Debdi vazir: “Yo, taqsir!

Uzoq bo‘lsin yoshingiz,  
Sizga qurbon boshimiz.  
Kelganiga sabab shu:  
Bosh folchimiz tushmagur,  
Foliga ne tushganin  
Sizga aytmoq istar u.

“Kirsin!” debdi shunda xon,  
O‘qday bo‘lib o‘shal on  
Folbin uchib kiribdi.  
Mana, yo‘rg‘alab kelib,  
Ketma-ket ta‘zim qilib,  
Tinmay so‘zlayveribdi.

Sirlashgani — ko‘k osmon,  
Yulduz qarab, fol ochgan.  
Hatto tabibli qilar.  
Debdi: “Taqsir xonimiz,  
Sizga qurbon jonimiz,  
Olib keldim shum xatar.

Yulduzlar menga ne der?  
Bari qilar xavotir:  
Xonimizga xavf aytdi.  
Xavotir shu: qisqa so‘z:  
Bir ajal bor xatosiz,  
O‘ninchi kun, tong payti...”

“Nima? Nima?” — dedi xon,  
Qo‘rquv bosdi shu zamon,  
Nafas ichga taqaldi.  
Hiqichoq otdi, “qiyq” dedi,  
“To‘xtab tur sen it” dedi.  
Selkillatdi soqolni.

Ey quturgan bodroq qul,  
Bul bilshiling — tusmol bul,  
Safsataboz! Ket! Yo‘qol!  
Men tilingni qirqaman,  
Tuxumingni qurtaman,  
Jallod! Jallod! Boshin ol!

Yeldan uchqur jinmidi,  
Yetib keldi jallodi,  
Yalanglatib qilichin.  
Apil-tapil, shu zahot,  
Boshni chopmoqchi jallod!  
“Tort folingni, qurisin!”  
Ko‘zi tasrayib shu on,  
Folbinda qolmadi jon,

Kamsanglatmoqda og‘zin:  
“Xonim, xonim, sultonim!  
Keching bir qoshiq qonim!  
Xudoga ayon, so‘zim — chin!”

Folga tushgan kun to‘lar,  
Yulduz so‘zi so‘z bo‘lar,  
Men — bir ko‘ppak, aytay so‘z.  
Xonim-ov, men o‘ylayman,  
Aqllashsak hiyla bilan,  
Yulduzni ham aldarmiz?..”

Xon betiga qon yurdi,  
Hayot shirin-ku — bildi,  
Jon hapqirib boradi...  
Ko‘zi yorug‘ ko‘rganday,  
Birdan anglab qolganday  
Jallodiga qaradi.

“To‘xta-chi!” deb im qoqdi,  
Joni biroz joy topdi,  
“Yulduzni aldash mumkin?”  
Mashoyig‘in, mullasin,  
Vazir, qozi — hammasin  
To‘pladi qo‘ymay barin.

Barcha a‘yonlar keldi,  
Abbos shundoq buyurdi:  
“Tezda o‘yga tolinglar!  
Yulduzni aldab bo‘lurmi?  
Jonim o‘zimga qolurmi?  
Toping, oltin oling!”

Bari yerga tikilar,  
Og‘ir o‘yga ko‘milar,  
Soqollari selkillab.  
Mashoyig‘i shumshayar,

Mullalari munkayar,  
Savolga javob izlab.

Xon betidan qon chiqdi,  
A'yonlar jim. Xon shoshdi,  
O'qrayadi ikki ko'z.  
Shunda anov bosh urgan,  
Qulluq qilgan folchidan  
Chiqdi "Xonim!" deya so'z.

"Xonim, sizga omad yor!  
Qayg'urmangiz, umid bor.  
Umid — shu bir hayladan:  
Olampanoh, tilagim —  
Qoshiq qonim tiladim,  
Ta'mam yo'q mol-dunyodan".

Umid yonib charog'on,  
"Gapir! — deb qichqirdi xon, —  
So'zla, gunohing kechilur!  
Shunda folchi oh urdi,  
"O, xonim! — deb yiqildi, —  
Jumboq bundoq yechilur:

O'ninchi kun tong azon,  
Eron eliga xazon —  
Ajal yetar xatosiz.  
Siz-chi, o'sha paytgacha,  
Qasrdan voz kechib, qocha,  
Taxtni tashlab ketasiz.

Siz yashirning, shohim-ov,  
Vaqtincha o'n kun birov  
Xon bo'lib tursin, ayting.  
Yulduz so'zi lop kelar:  
Taxtda o'tirgan xon o'lar,  
O'ninchi kun, tong payti..."

Xon quvondi, yayradi,  
Vaziriga qaradi,  
Vazir turar qotgancha.  
“Sen — qanotim, quyrug‘im,  
Har bir ishga yugrugim,  
Sen xon bo‘lgin vaqtincha!”

Xon amriga yo‘q bardosh,  
Qarshi kelsang, manov bosh  
Uchib ketar shu zamon.  
Vazir ming‘ir-ming‘irlab,  
Asta ochdi so‘zga lab,  
Nima derkin bu shayton?

Yuzi ketdi bo‘zarib,  
Ko‘zini to‘qson to‘nkarib,  
Qo‘lni yoyib yubordi.  
Goh maymunday maymanglab,  
Goh tulkiday jilpanglab,  
Ko‘p gap aytib yubordi:

“Subhonolloh, sultonim,  
Sizga qurbon jon-tanim.  
Omadim keldi. Biroq,  
Aytayin bir gap chindan.  
Menday sho‘rlik qo‘lidan  
Kelmaydi podsho bo‘lmoq!

Bunday payt taxtga illo,  
O‘qimishli va dono...  
Qozilar mos keladi.”  
Qozi quv-quv yo‘taldi,  
Soqolin silab qoldi,  
Ovozi past keladi:

“Astag‘furullo... hozir men...  
Ne eshitdim vazirdan...”



Nedir uning talashi?  
Aqli komil... Xudoyim,  
Bunday payt taxtga doim  
Loyiq kelar qo'rboshi!"

Ikki beti chipqonday,  
Naq tandirdan chiqqanday,  
Bosib, yanchib, qiyratib,  
Ilgari o'tib, entikib,  
Qizarib, shishib, ko'z tikib,  
Shop mo'ylovin chiyratib,

Vaqilladi qo'rboshi.  
Ne deng gapning qisqasi? —  
U ham boshqani ko'rsatdi.  
Oxiri xonning buyrug'i,  
O'tib-o'tib, quyrug'i  
Jallodga borib yetdi!

Bo'lsa ham qancha es chala,  
O'y surar xom-xatala:  
Xon bo'lsa — o, netarkan?!  
O'zi ketdi kerilib,  
Labi ketdi burilib,  
Qo'l surilib ketarkan!

"E! Qurbonlik — menmanmi?  
O'y kungacha xonmanmi?  
Qurib kelsin bu xonlik!.."  
So'z to'xtadi. Yurt jim-jit,  
"Xudo, qutqar! Yo qurut!  
Mendan qandoq qurbonlik?!"  
Shunda folbin so'zladi,  
So'zlaganda bo'zladi:  
"Bunga ham topilar tadbir.  
Xo'p desangiz, xaloyiq,

Bir kimsa bor, taxt loyiq,  
Ismi uning Yusufdir.

Bozor ichra yurar u,  
Yurgan joy — shovqin, qiy-chuv,  
Tilin — chayon, deydilar.  
Shu ko‘ringan baringni,  
Vazir, qozilaringni  
O‘g‘ri, qotil deb bilar.

“Xon, xonchasi, qo‘rboshi,  
Vazir, qozi, mullasi —  
Olg‘ir, o‘g‘ri, kazzoblar,  
Fuqaroni engratib,  
Gadoy qilib gungratib,  
Hayotini azoblar” —  
Deb o‘yladi bachchag‘ar...

Men o‘ylayman, podshoh,  
Shu Yusuf “boy” vaqtincha,  
Xonlik qurar taxtingda  
Yulduz so‘zi ishga oshar,  
Yusuf jon-la xo‘shlashar  
O‘ninchi kun tongida...

Mana, topdik yechimni,  
O‘sha bozori, shumni  
Yer-yakson qilmoq darkor!  
Durust! Durust! Shu shumdan.  
O‘z qoniga suvsagan  
Taxtga loyiq, xo‘sh, kim bor?!” —  
Dedi folchi. So‘z tindi,  
Biz ham nazarni endi  
Yo‘naltamiz Yusufga.  
Yusuf qayda — chayon til?

Qaydamish — bozorda ul!  
Aralashib uf-sufga,  
Aql o'rgatar ko'pga!

Choshgoh mahal. Bozorim —  
Odam bilan limmo-lim.  
Qaynab yotar sonsiz yurt.  
Shum savdogar — joni mol,  
Chipqon yuzli, jun soqol,  
Olgan, sotgan, shartta-shurt.

Salla, chopon chip-chipor,  
Arvanglagan arvalar,  
Eshak, hayvon mo'rashar.  
Darvish, folbin, o'yinchi,  
Oqsoq, to'qsoq... qo'ying-chi,  
Yetimlar zor yig'lashar.

Pokiza yuz, chilvirsoch,  
Uzun-kalta — aralash,  
Bu — ayoli Eronning.  
Shu bozorda bor Yusuf,  
O'tiribdi choy ichib.  
Ichida olomonning.

Javrab o'tirar Yusuf:  
“Ne ko'rsak — bizga nasib,  
Boy ichar mazlum qonin.  
Yo'qsilga otmas tonglar,  
Barin egallar boylar —  
Shudir biz uchun qonun!”

O'ylasang-chi, o, xonim,  
Qonun yozgan o'zi kim? —  
Xon emasmi, yo qozi?..”

Deb turganda Yusufboy,  
Navkar ko'rindi, hoy-hoy!  
Karnay-surnay ovozi!

Shuv-shuv etdi shunda yurak,  
Yuzida qolmadi rang,  
Kimga yoqsin to'g'ri gap?  
"Bo'imasaydi bir shumlik!.." —  
Deb pichirlab u sho'rlik,  
Yusuf boqar alanglab.

Qarab qoldi olomon,  
Navkar ko'rindi shu on,  
Uril-suril, qiy-da-chuv.  
Sensiz askarlar! Qarang!  
Qizil, yashil, mingta rang,  
Tulpor, surnay, dovul, tug'.

Salla. Soqol. Dubilg'a.  
Qullar qo'shin yo'liga  
Gilam to'shar epkayib.  
Vazir, qozi, mullasi,  
Xo'rozlangan qo'rboshi  
Kelayotir kekkayib.

Bozor xalqi bukildi,  
Jim-jit qoldi, yiqildi,  
Tillar ketdi boylanib...  
Yurt bilan birga Yusuf ham  
Damin olmay mushukday  
Bo'lib, boshi aylanib,

Kiprigin yumib-ochar,  
Shu savdoga ko'z tushar!  
Vazir unga shunday der:  
"O, shunqorim, sultonim!

Senga qurbon jon-tanim,  
Yur buyoqqa, taxtga yur!

Xon bo'lding endi shu dam,  
Seni kutar saroy ham,  
Sharbat, sharob-u taom".  
Yusuf deydi: "Taqsir-ay,  
Bizga harom-ku saroy,  
Ahmoq qilmang-da tamom!"

Sumangladi<sup>1</sup> vazir shum:  
"Tangri guvoh, chin so'zim,  
Eron shohi endi — Siz!  
Abbos taxtdan kechdi voz,  
Xon — sensan endi, shovvoz!  
Biz xizmatkor, qullarmiz".

Tushimi bu o'ngimi?  
Gumon bosdi ko'nglini,  
Yusuf sonin chimchidi.  
Uyg'oq ekan, uyqu yo'q,  
Xayol uchdi misli o'q,  
Qo'ndi otga, cho'pchidi!

"Unday bo'lsa, durust bul!  
Men endi xon, senlar — qul!  
Chu-chu! Qani saroy, taxt?!  
Ketdi. Arg'umoq surdi,  
Yetdi. Gavhar — taxt ko'rdi, —  
Bozorchiga qo'ndi baxt!"

Kimxob-zarboft kiyindi,  
Yedi, ichdi, to'yindi,  
O'rgandi taxt tartibin.

---

<sup>1</sup> Sumanglamoq — bu yerda: tez-tez gapirmoq.

Ko'ni<sup>1</sup> quruq sur, gado,  
O'n kun yayradi, ammo,  
Bosvoldi so'ng qarqinin<sup>2</sup>.

Boshladi Yusuf bir ishni,  
El biylashga<sup>3</sup> kirishdi,  
Yoqlab yetim, g'aribni.  
Yo'q qildi u azobni,  
Zolim, battol, kazzobni,  
Mazlum yoshin aritdi.

Yusuf yorliq<sup>4</sup> yog'dirdi,  
Vazirga yer qazdirdi,  
Qozining boshi uchdi deng.  
Mashoyig'i, mullasi,  
Gerdaygan rais, qo'rboshi  
Avaxtaga tushdi deng.

Munofiqlarni imladi,  
Elni so'rgan shumlarni,  
Qirqtirdi boshin tugmaday.  
Boylarni haydab yig'dirdi,  
Tumuldiriq<sup>5</sup> kiydirdi,  
"O'h!" — devordi ko'p gadoy.

Shunday o'tdi biroz kun,  
Boy-u bekni urdi jin,  
Oldda bor ne botillik?  
Endi Yusuf ne qilsin?  
Uning o'yi — el ko'rsin  
Bir kunlik bo'lsa-da, odillik!  
Xullasi kalom, xon Yusuf

---

<sup>1</sup> Ko'n — teri.

<sup>2</sup> Qarqin — sur'at.

<sup>3</sup> El biylash — elni boshqarish.

<sup>4</sup> Yorliq — buyruq, farmon, degan ma'nolarda.

<sup>5</sup> Tumuldiriq — burundiq.

Zolimlar yo‘lin qirib-kesib,  
Sho‘rlikning sho‘rin ochganday.  
Mirza, mulla, boy-bashang,  
Biri yuvvosh, biri arang  
Oyoqni payqab bosganday.

Kazzoblarni qildi jim,  
Fuqaro xalqning baxtin kim  
To‘ssa — Yusuf yulqadi!  
Quvondi xalqlar bariga,  
“Ming yasha, topgin baraka!” —  
Deb, chuvillab-alqadi.

Kun ortidan kun o‘tar,  
Tirik qolgan ko‘ppaklar,  
Esini yig‘a boshladi.  
To‘qqizinchi kunning tuninda,  
Topishdi ular bir inda,  
Qo‘lga qo‘lni tashladi:

“Qarang Yusuf cho‘chqaga,  
Kun bermaydi boshqaga!  
Qora tovon! Zotsiz it!  
Necha boyni yo‘qotdi,  
Beklarni qirdi, otdi,  
Qo‘ymadi hech kimni, bit!

Kuchuklar boshga sakradi,  
Boylarni tozi taladi,  
Qullar bek bo‘ldi, mazlum — biz.  
Shahid ketdi ko‘p serka,  
Bizlar bo‘lmadik erka,  
Endi qandoq yasharmiz?!

Chirkin Abbas xon edi-yov!  
Bizlarga darmon edi-yov!  
Yumushi yo‘q edi hech.

Yotaverardi saroyda,  
Sharob, taom — manglayda,  
Ne qilsang qil erta-kech!

Qo‘y, biz xo‘rlik ko‘rarmiz,  
Bo‘g‘izlanib o‘larmiz,  
Kun bermaydi Yusuf — jin.  
Naq ertangi tun chog‘i,  
Oling qilich, pichog‘i,  
Bag‘riga xanjar tiqilsin!..”

Kengash tindi. Tong otdi,  
Kun ham botdi. El yotdi.  
Yusuf yolg‘iz taxtida  
O‘tirgandi xatarsiz,  
Folga, tushgan xatosiz  
O‘ninchi kun tongida.

Ko‘p ko‘ppakdan bir ko‘ppak,  
Botir chiqdimi ko‘prak,  
Kirdi, urdi xanjarni.  
Yusuf unsiz shilq etdi,  
Indamadi, “inq” etdi  
Va topshirdi xon jonni!

Bo‘ldi beklar kengashi,  
Yusufxonning tanasi  
Keskilandi, ko‘mildi.  
Shivir-shivir bosildi,  
Yurtga yorliq sochildi:  
“Qazo yetdi, xon o‘ldi”.

Yurt yig‘lashdi, chuvlashdi,  
Beklar bundoq kuylashdi:  
“Voh dunyo-ay, notavon!  
Bizlar qoldik sho‘r bilan,



Borsa kelmas yo‘l bilan,  
Ketdi shunqor Yusufxon!

Totib ajal sharbatin,  
O‘ldi Yusuf. El-yetim!  
Poytaxtga kim bo‘lar bosh?  
Voh jamoat! Voh Xudoy!  
Yordam bersin kim bor, hoy!  
Abbos keldi! Xon Abbos!”

Orada huv burchakdan,  
Qovoq uygan, bujraygan,  
Xon Abbosing bukanglab<sup>1</sup>  
Chiqib keldi, o, qashqa!  
Yurgan ekan tog‘- Toshda,  
Qochib-zitib, varanglab.

A‘yonlar ham chuvlashdi,  
Ko‘tarishib Abbosni,  
Taxtga olib bordilar.  
Yurt lol bo‘lib turdi-da,  
“Attang!” deb son urdi-da,  
Avvalgiday ko‘rdilar.

Abbos taxtda cho‘nqaydi,  
Qo‘l to‘qmog‘i qo‘nqaydi,  
“Shukr, shukr, Oллоh!” — deb.  
“Endi tilin tiymayin,  
Xohlaganin berayin,  
Folchim qayda, borma?” — deb...

Shuytib, Eron taxtiga,  
Zolim, shumlar baxtiga,  
Yana bo‘ldi Abbos xon.

---

<sup>1</sup> **Bukanglab yurish** — mayda qadam bilan yo‘rg‘alash.

Talab elni, poytaxtni,  
Boylar, shumlar baxt topdi,  
Yo'lni ochdi qoqboosh xon.

Qiz yig'ib to'rt tarafdand,  
Saroy bijg'ib sharobdand,  
Yana ko'paydi zulm.  
Xullas, gapning eng ozi,  
Xalq bo'lib ming norozi,  
Zolimga tilaydi o'lim!

Yana zulm-u kizb, kulfat,  
Adolatsizlik, zulmat,  
Xalq baxtini to'sibdi.  
Nochor dilga oh to'lib,  
Xondan qutulmoq bo'lib,  
Sog'inar xalq Yusufni!..

## MUNDARIJA

Alash shiorli adabiyot. (*Tursinali Ahmedov*) .....3

### **Shokarim Xudoyberdiyev**

(1858–1931)

Yoshlik haqida. <i>Muzaffar Ahmad tarjimasi</i> .....	10
Qarilik haqida. <i>Muzaffar Ahmad tarjimasi</i> .....	14
Yoshlarga. <i>Muzaffar Ahmad tarjimasi</i> .....	16
Yoz kelar, qishning kuni zulm o‘tib. <i>Muzaffar Ahmad tarjimasi</i> .....	27
Armon. <i>Muzaffar Ahmad tarjimasi</i> .....	28
Yigirma uch yoshimda. <i>Muzaffar Ahmad tarjimasi</i> .....	29
Ro‘zg‘or va isrof. <i>Muzaffar Ahmad tarjimasi</i> .....	33
Qozoqning yomoni bo‘lmas. <i>Muzaffar Ahmad tarjimasi</i> .....	36
Birovning aybini kechirsang. <i>Muzaffar Ahmad tarjimasi</i> .....	37
Men o‘tarman, ketarman. <i>Muzaffar Ahmad tarjimasi</i> .....	38
Umr. <i>Muzaffar Ahmad tarjimasi</i> .....	38
Uch xilgina umr bor — mastdir bari. <i>Muzaffar Ahmad tarjimasi</i> .....	39
Bezavol askar. <i>Mirpo‘lat Mirzo tarjimasi</i> .....	39
Do‘st senga zor. <i>Mirpo‘lat Mirzo tarjimasi</i> .....	40
Suydim men azaldan turk tilin. <i>Mirpo‘lat Mirzo tarjimasi</i> .....	42
Cho‘chima, o‘yim, cho‘chima. <i>Abdulla Rustamov tarjimasi</i> .....	43
Imonim. <i>Abdulla Rustamov tarjimasi</i> .....	43
Insonlik burching. <i>Abdulla Rustamov tarjimasi</i> .....	45

### **Ahmad Boytursunov**

(1872–1937)

Qozoq qalpi. <i>Muzaffar Ahmad tarjimasi</i> .....	48
Qozoq salti. <i>Muzaffar Ahmad tarjimasi</i> .....	49
Do‘stimga xat. <i>Muzaffar Ahmad tarjimasi</i> .....	50
Onamga xat. <i>Muzaffar Ahmad tarjimasi</i> .....	51
N. Q. xonimga. <i>Muzaffar Ahmad tarjimasi</i> .....	52
Yozuvchi taskini. <i>Mirpo‘lat Mirzo tarjimasi</i> .....	53
Oqin inimga. <i>Mirpo‘lat Mirzo tarjimasi</i> .....	53

Tuhfa. <i>Abdulla Rustamov tarjimasini</i> .....	54
Oqqush, cho‘rtan va chayon. <i>Muzaffar Ahmad tarjimasini</i> .....	55
Bug‘doyning boshog‘i. <i>Abdulla Rustamov tarjimasini</i> .....	55
Bo‘ri bilan qo‘zichoq. <i>Muzaffar Ahmad tarjimasini</i> .....	56
Hayvonga kelgan kasallik. <i>Muzaffar Ahmad tarjimasini</i> .....	59
Qora bulut. <i>Abdulla Rustamov tarjimasini</i> .....	63

### **Mirjaqip Dulatov**

(1885–1935)

Qozoq yerlari. <i>Abdulla Rustamov tarjimasini</i> .....	66
Yut. <i>Abdulla Rustamov tarjimasini</i> .....	68
Onaning bolalarini sevishi. <i>Abdulla Rustamov tarjimasini</i> .....	71
Gazeta-jurnal. <i>Abdulla Rustamov tarjimasini</i> .....	71
“Ayqap”ga. <i>Abdulla Rustamov tarjimasini</i> .....	72
Armonim. <i>Abdulla Rustamov tarjimasini</i> .....	74
Mung. <i>Abdulla Rustamov tarjimasini</i> .....	75
Terma. <i>Abdulla Rustamov tarjimasini</i> .....	76
Yosh qozoqlar, qaydasan? <i>Abdulla Rustamov tarjimasini</i> .....	77
Shogird. <i>Abdulla Rustamov tarjimasini</i> .....	78
Sog‘inich. <i>Abdulla Rustamov tarjimasini</i> .....	78
Elim-ov. <i>Abdulla Rustamov tarjimasini</i> .....	80
Yoshlarga. <i>Abdulla Rustamov tarjimasini</i> .....	81
Yigitlarga. <i>Abdulla Rustamov tarjimasini</i> .....	81
Navro‘z. <i>Abdulla Rustamov tarjimasini</i> .....	83
Alashga. <i>Abdulla Rustamov tarjimasini</i> .....	85
Yangi tilak. <i>Abdulla Rustamov tarjimasini</i> .....	87
Qayda eding? <i>Abdulla Rustamov tarjimasini</i> .....	88
Suluv qizga. <i>Abdulla Rustamov tarjimasini</i> .....	89
Toza buloq. <i>Abdulla Rustamov tarjimasini</i> .....	91
“Baxtsiz Jamol” romani. <i>Muhabbat Yo‘ldosheva tarjimasini</i> .....	94

### **Jusipbek Aymaitov**

(1889–1931)

Yozuvchilarga. <i>Abdulla Rustamov tarjimasini</i> .....	146
Ne qilmoq bo‘lar? <i>Abdulla Rustamov tarjimasini</i> .....	147

Oila boshi. <i>Abdulla Rustamov tarjimasi</i> .....	149
Ax-xa-xa-xau. <i>Abdulla Rustamov tarjimasi</i> .....	151
Urchiq. <i>Abdulla Rustamov tarjimasi</i> .....	151
Ko‘chish. <i>Abdulla Rustamov tarjimasi</i> .....	153
Shior. <i>Abdulla Rustamov tarjimasi</i> .....	155
Chuqur tubsizlik ostida. <i>Abdulla Rustamov tarjimasi</i> .....	157
Askar qo‘shig‘i. <i>Abdulla Rustamov tarjimasi</i> .....	159

### Mag‘jon Jumaboyev

(1893–1938)

#### Muzaffar Ahmad tarjimalari

O‘lan .....	162
Lazzat qayda?.....	162
Xor-zor bo‘lgan suluvga .....	163
Hunar, bilim qanday egallanadi? .....	164
“Tirikchilik ko‘rki — erk...” .....	165
Yer yuziga .....	166
O‘g‘lon.....	166
Navkar qo‘shig‘i .....	167
Men kimman? .....	168
Masjid va avaxta .....	169
Hikmatlar .....	171
Kapalak .....	171
O‘tmishning bahosi .....	172
Qurbim .....	173
Sirlarim .....	173
Sev, seviklim .....	174
Sen suluv .....	175
Yosh suluvga .....	176
G.ga .....	177
Bolaning qabr toshiga .....	177
Qamoqxonada tush .....	178
Yulduzlarga .....	178
Sarg‘aydim .....	179

Yel .....	180
Sogʻindim .....	181
Ayriqish .....	183
Kuz kuni .....	184
Boʻlsa gulsiz .....	186
Yulduzni — uzuk, oyni — sirgʻa qilib .....	186
Turonning bir bogʻida .....	188
Yorim .....	192
Chin shoʻrlik .....	193
Boʻsh qolibman.....	194
Tugʻilgan yer .....	195
Yorimga.....	195
Roʻmol .....	196
R.ga .....	198
Choʻlpi .....	200
Bulbul.....	201
Yoz kuni .....	202
Yoz tongi.....	203
Toʻlgan oy .....	204
Bolalik.....	205
Oʻrol.....	206
Umrimdan oʻpkalashlarim .....	208
Oʻt.....	209
Esimda... faqat tong otsin.....	211
Yarali jon.....	213
Yovga tushgan jon.....	217
Tutqun .....	220
M.D. avaxtadan chiqqanida .....	220
...ga.....	221
Oʻtgan kun .....	222
Oyga.....	225
Tangri .....	227
Zamonamiz shoiri .....	228
Bir biyga.....	228

Sohibqiron soʻzi .....	229
Kunchiqish .....	229
Sevaman .....	231
Yoshlarga ishonaman .....	232
Qozoq tili .....	234
Tezda boraman .....	234
Olisdagi bovrimga .....	235
Oʻrol togʻi .....	237
Men shoʻrlik .....	238
Turkiston .....	240
Aldangan suluv .....	243
Shu kunning qoʻshigʻi .....	244
Qarogʻim .....	245
Shoʻrlik qozoq .....	245
Seviklimga .....	246
Soʻzi oltin hakim Abayga .....	247
Tugʻilgan yerim — Sassiqlik .....	248
Yosh kelin .....	250
Oʻzga yurt .....	250
Alla .....	252
Botgan kunning, otgan tongning qoʻshigʻi .....	255
Erkinlik .....	258
Biroz Fetcha .....	260
Yel .....	261
Toʻlqinlab-oʻynab .....	262
Soat .....	263
Yozgi tunda .....	264
Koʻkchatov .....	265
Toʻlqin .....	266
Qayin .....	267
Bugungi kun umr, oʻlim — meniki .....	268
Gʻazizaga .....	269
Qishki yoʻlda .....	270
Yozgi yoʻlda .....	271

Bahor.....	273
Yoz keladi .....	274
... ning albomiga.....	276
Aldamchi umr .....	277
Meni ham, o‘lim, allala.....	278
Bu — shunchaki o‘yin-ku.....	282
Sarsemboyning qo‘shig‘i .....	283
Aje.....	285
Yilqichi .....	286
Qo‘ng‘ir kuy.....	288
Ona va bola .....	288
Umr .....	289
“Kelajak”, “kecha”, “bugun” .....	289
Oshiq o‘yini .....	290
Qirg‘iz, qozoqqa.....	291
Qizil yalov.....	292
Nevara va buvisi .....	293
Ol, ichinglar, bul qimiz .....	295
Yusufxon .....	296



J 96

Jo'shqin daryolar [Matn]: nasr va nazm/to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Tursinali Ahmedov. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. – 320 b.  
ISBN 978-9943-8734-0-7

UO'K 821.512.122-3  
KBK 84(5Qoz)



## JO'SHQIN DARYOLAR 73-jild

*Adabiy-badiiy nashr*

Muharrir *Sunnat Xo'jaahmedov*  
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*  
Dizayner *Bobur Tuxtarov*  
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*  
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*  
Musahhah *Sadoqat Beshimova*  
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva,*  
*Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.

Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>.  
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 20,0. Nashriyot-hisob tabog'i 16,30  
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 140-1/22 Buyurtma raqami № 22-356

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining

"O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.

100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.



TURKIY ADABIYOT  
DURDONALARI

JO'SHQIN  
DARYOLAR

